

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**Abdullayeva Barno Sayfutdinovna
Tursunova Malika Baxtiyor qizi
Xaydarova Mahliyo Xabibullayevna**

**BOSHLANG‘ICH
TA‘LIMDA TARBIYA
FANI**

DARSLIK

60110500 – Boshlang‘ich ta‘lim bakalavriat
ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun

Toshkent – 2022

Annotatsiya

Mazkur darslik 60110500-Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishida Boshlang'ich ta'limda tarbiya fanini o'qitishda foydalanish uchun yaratilgan bo'lib, tarbiya fanini o'qitish orqali shaxsning yetuklik, kamolot cho'qqilariga erishishida tarbiyaviy jarayonlarni tashkil etishda manba sifatida xizmat qiladigan mavzularni o'z ichiga olgan.

Darslikdan oliy ta'lim muassasalari 60110500-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar, o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, umumta'lim maktablari o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

Аннотация

Данное учебник предназначен для использования в обучении общеобразовательным дисциплинам, методике воспитательной работы направления 60110500-Начального образования, содержит ресурсы, используемые в организации воспитательного процесса по зиджи.

Учебник может быть использован студентами, магистрантами, преподавателями, научными работниками высших учебных заведений, обучающихся по направлению 60110500-Начальное образование, а также широкой читательской области.

Annotation

This manual is intended for use in the teaching of general pedagogical disciplines, Methods of yeducational work in the direction of 60110500-Primary yeducation containing the resources used to accomplish maturity of the individual.

The manual can be used by students, undergraduates, teachers, researchers of higher yeducational institutions studying in the direction of 60110500-Primary yeducation, as well as by a wide readership interested in this area.

Taqrizchilar: Termiz davlat pedagogika institute direktor birinchi
o'rinbosari Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent Sh. Qosimov

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedra mudiri Pedagogika
fanlari nomzodi, dotsent K.Abrorxonova

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil "9" sentabrdagi "302" – sonli buyrug'iga asosan Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani darslik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr etishga ruxsat berildi.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish, umumiy o‘rta ta‘lim sifatini tubdan oshirish, chet tillar, informatika hamda matematika, fizika, kimyo, biologiya kabi boshqa muhim va talab yuqori bo‘lgan fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish” vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalar ijrosi maktabda ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish, innovatsion jarayonlarni boshqarish, o‘quvchilarni xalqaro baholash dasturlariga yo‘naltirish, umumiy o‘rta ta‘limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va boshqarishga kompetent menejrlarni tayyorlashni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli, 2018-yil 21-sentyabrdagi “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli, 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmonlari, 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta‘limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-sonli Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda “Xalq ta‘limi tizimida ta‘lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli Qarori “Ta‘lim menejmenti” fanini o‘qitishning metodologik asosi sifatida xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi huquqiy demokratik jamiyat qurish yo‘lidan borar ekan, o‘z fuqarolarining, ayniqsa, yangi jamiyat barpo etishga bel bog‘lagan, o‘sib kelayotgan avlod va bo‘lajak mutaxassislarining barkamol bo‘lib voyaga yetishlariga alohida e‘tibor qaratmoqda. Barkamol shaxs tarbiyasini tashkil etish barcha davrlarda ham ijtimoiy jamiyatning muhim talabi va asosiy maqsadi bo‘lib kelgan. Tabiiyki, hozirgi ta‘lim islohatlari sharoitida ham barkamol shaxs tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Birinchi yurtboshimiz I.A.Karimov ham barkamol avlod tarbiyasi haqida gapirar ekanlar “Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e‘tibori avvalambor farzandlarimizning unib-o‘sib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir” - deb alohida ta‘kidlagan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev 2020 yil 29-dekabrda murojaatnomasida “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab

beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim", - deydi. "Ushbu maqsad yo'lida yoshlarimiz o'z oldiga katta marralarni qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi.

Shu bois ham kelgusi yillarda boshlang'ich ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz – boshlang'ich sinf o'quvchilarini ushbu ta'lim yo'nalishi bilan to'liq qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat".


Umuman, har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu sababli biz islohotlarimiz ko'lami va samarasini yanada oshirishda har tomonlama yetuk, zamonaviy bilim va hunarlarni puxta egallagan, azmu shijoatli, tashabbuskor yoshlarimizga tayanamiz.

Darslikda mualliflari tomonidan ta'lim-tarbiya jarayonida oila, mahalla va ta'lim muassasasi integratsiyasi, "Tarbiya" darslarida o'quvchini o'z ustida ishlash jarayoni (1-4 sinf tarbiya darsi), innovatsion yondashuv asosida "Tarbiya" darslarini tashkil etish, O'zbekiston Respublikasida tarbiya jarayonining hozirgi bosqich muammolari, ilg'or xorijiy tajribalar asosida tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish, jahon tarbiyaviy konsepsiyalari namunalarning qiyosiy-pedagogik tahlili, o'quvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda ta'lim texnologiyalaridan foydalanish kabi masalalar tizimli, izchil va ketma-ketlikda yoritib berilgan.

Mualliflar tomonidan tayyorlangan darslik 60110500-Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan. Darslik Nizomiy nomidagi TDPU rektorining 2021-yil 28-avgustda tasdiqlangan "Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani" fanining namunaviy dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Shuni ham ta'kidlash kerakki, har bir bo'limda tayanch so'zlar berilgan bo'lib, qo'llanma oxirida o'tilgan mavzular bo'yicha Glossariy, "Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani" fanidan testlar berilgan. Darslik nafaqat universitet talabalari, balki magistrlar va o'qituvchilar uchun, shuningdek, ushbu kursga qiziquvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni ta'kidlash mumkinki, mazkur darslik 60110500-Boshlang'ich ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun "Boshlang'ich ta'limda tarbiya fani" kursiga qo'yiladigan talablarga javob beradi va uni nashrga tavsiya etish mumkin.



I. TARBIYA IJTIMOIIY-TARIXIY ZARURAT SIFATIDA. MILLIY TARBIYA KONSEPSIYASI

Tayanch tushunchalar: *tarbiya, axloq pedagogik jarayon, mazmun va mohiyat, jamiyat, boshlang'ich ta'lim, komil shaxs, hadis, mutafakkir, aqliy madaniyat.*

1-§. Tarbiya fanining maqsad va vazifalari.

Respublikamiz mustaqillikka erishgach ta'lim-tarbiya jarayonini rivojlantirish uchun bir qancha yangi asoslar yuzaga keldi. Jumladan “Ta'lim to'g'risidagi” Qonunning yangilanishi ta'limni tubdan isloh etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi malakali kadrlar tayyorlash imkoniyatini beradi.

Tarbiya tushunchasi millat tarixi va jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha mohiyatga ega bo'lib, har xil tarzda izohlanib kelindi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiyani izohlashda yangi sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Endilikda tarbiyaning irsiy-biologik jihatlari va milliylikiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Milliy tarbiya xalq nomi va uning tarixi chambarchas bog'liqdir. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, mutafakkirlarning pedagogik qarashlari tizimli sinchkovlik bilan o'rganilmoqda. Tarbiya jarayonini amalga oshirishda ijtimoiy tarbiya alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiya jarayoni ijtimoiy xarakterga ega bo'ladi. Ijtimoiy tarbiya bolada ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan fazilatlarni rivojlantirish jarayonidir.

Tarixdan ko'pgina allomalarimiz tarbiyaga katta ahamiyat berib jamiyatning asosiy vazifalaridan deb bilishgan. “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” A. Avloniyning ushbu so'zlaridan ham tarbiya naqadar muhim ijtimoiy jarayon ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya fanining predmeti bo'lajak o'qituvchi-tarbiyachilarga kelajak avlodni ma'naviy yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalash sanatining qirralari, shakl va yo'llari hamda bilim, ko'nikma va malaka hosil qilish haqida bahs yuritadi. Boshlang'ich ta'limda tarbiya fanining o'rganish obyektini esa ta'lim muassalaridagi uzluksiz ta'lim –tarbiya jarayoni tashkil etadi. Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish metodikasi ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Tarbiya - yosh avlodni har tamonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat bo'lib, shaxsni aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, insonning jamiyatda yashashini ta'minlash uchun zarur bo'lgan xususiyatlarini tarkib toptirishning

jarayonlaridir. Tarbiya shaxsni tarkib toptirishga qaratilgan bo'lib, shaxs va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar asosida rivojlanadi.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya fanining asosiy maqsadi, bugungi kun talabiga javob beradigan barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan ekan, aynipaytda bu o'qituvchilarga katta mas'uliyatni yuklaydi. Shu jihatdan ham o'qituvchining pedagogik faoliyat yuritishi davr talabiga javob bermog'i lozim. Shu jihatdan ham yosh avlodni barkamol qilib voyaga yetkazish uchun Respublikamizda ijtimoiy – tashkiliy, tarbiyaviy ishlar amalga oshirilmoqda. Barkamol avlodni tarbiyalash, ma'naviy, ma'rifiy, tashkiliy uslubiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari bilan murakkab tarbiyaviy ishlar tizimi kundan-kunga takomillashib bormoqda.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya fanining asosiy vazifasi yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy merosimizga, umumbashariy qadriyatlarga, urf-odatlar va ananalarga tayanib, ongli shaxslarni intellektual salohiyatli qilib tarbiyalashdir.

Boshlang'ich ta'limda tarbiya fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✓ o'quvchilar jamoasining tarbiyalanganlik darajasini o'rganib, unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish mahoratiga ega bo'lish ;
- ✓ tarbiyaviy ish va tadbirlar uchun zarur bo'lgan metodlarni tanlab, ko'zlangan maqsadga erishish chora-tadbirlarini ko'ra bilish ;
- ✓ ilg'or tajribalarni tahlil qilish va uni o'z faoliyatida ijodiy foydalanish;
- ✓ tarbiyaviy ishlarning o'quvchilar ruhiyatiga qanchalik ijobiy ta'sir etganini kuzatib, uni yanada rivojlantirish va takomillashtirish ;
- ✓ tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o'z bilimini doimiy rivojlantirib borishi lozim.

2-§. Axloq-ijtimoiy ong shakli.

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, muayyan jamiyatda yashovchi kishilar amal qilishi zarur bo'lgan ma'lum xatti-harakat qoidalari yig'indisidir. Axloq odamlarning bir-birlariga, jamiyatga, davlatga, xalq mulkiga, oilaga, ishlab chiqarish vositalariga, mehnat mahsulotlari va shu kabilarga munosabatini muayyan tartibga soladigan xatti-harakat qoidalari tizimida namoyon bo'ladi.

Odob - odamning jamoat, el-yurt orasida o'zini tutish, boshqalar bilan qay yo'sin muomala qilish, o'z turmushi, maishati va bo'sh vaqtini qanday tashkil etishi, xullas, shaxsning kundalik xulq-atvori, yurish-turishi, xatti-harakatlari qanday bo'lishi lozim va ma'qul ekanligi xususida bahs etadi. Aniqrog'i, axloq kishining ichki olami, e'tiqodi, fazilatlari sifatida mavjud bo'lsa, odob shaxsning ko'zga tashlanadigan mulozamati, xulq-atvori, muomala-munosabatlari tarzida namoyon bo'ladi. Axloq kishidan har xil holatlarda qanday yo'l tutish kerakligini yaxshi o'ylab, maqsadga muvofiq harakat qilishni talab etsa, odob o'z qoidalarining odat tusiga kirishini, ya'ni har qanday vaziyatda ana shu odatni namoyon qilishini taqozo qiladi. Axloq ilmi

yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi murakkab muammolar haqida bahs yuritib, insonning kamolotga erishish yo'lini yoritib boradi. Har bir inson bir olam bo'lgani kabi uning axloq-odob ham juda murakkab olam, desak yanglishmaymiz. Axloqli, odobli komil insonda odamiylikning eng yaxshi xislatlari: mehr-muhabbat, rahm-shafqat, adolat-u diyonat, hayoyu iffat, vafoyu sadoqat, himmatu saxovat, imon-e'tiqod kabilar mujassam bo'ladi, Ayni holda shu xislatlarning aksi beburd, axloqsiz kimsalar fe'lida ko'rinadi.

Qadimgi faylasuflar-u donishmandlar axloq-odobga juda katta baho berib, uni jamiyatning poydevori deganlar. Asrlar davomida axloq-odob mavzuida qanchadan-qancha kitoblar, hikmatnomalar, odobnomalar, pandnomalar va nasihatnomalar, ibratli hikmatu rivoyatlar yaratilgan. Xalq og'zaki ijodi xazinalarida axloq-odobga doir bebaho fikr javohirlari borki, ularning hammasini hisoblab-hisobiga, ta'riflab-ta'rifiga yetib bo'lmaydi. Muqaddas Qur'oni Karimda va payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomning hadislarida insoniy axloqodobning barcha qirralari o'z ifodasini topgan.

Axloqiy tarbiya vazifalaridan yana biri insonning jamiyatga bo'lgan munosabatini yuqori pog'onaga ko'tarishdir. Imon va insof, so'z va ish birligi, insonparvarlik – yangi ko'rilayotgan jamiyatning asosiy xususiyatlari bo'lib qoladi. Shunday ekan, jamiyat va xalq manfaati, uning baxt-saodati uchun kurashish mas'uliyatini har bir fuqaro teran his etishi va unga amal qilishi lozim. Yoshlarni tarbiyalashda sho'rocha axloq usullaridan voz kechib, sharqona va milliy axloqodob normalari asosida ish yuritish bilan birga jamiyatga hurmat, mustaqillikni mustahkamlash, insonlarga insoniy munosabatda bo'lish kabi fazilatlarni singdirish taqozo etiladi. Bu vazifalarni amalga oshirish o'quvchilarning jamiyatga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir.

Axloqiy tarbiya vazifalaridan biri - ongli intizom bo'lishidir. Ongli intizom kishining kundalik faoliyatida, xulq-atvorida, kishilar bilan aloqasida, umumiy dunyoqarashida namoyon bo'ladi. Ongli, intizomli kishining madaniyati, muomalasi kundalik masalalarni hal qilish bilan hayotining mazmuni, yaxshilik va yomonlik, ma'naviy boylik haqidagi tasavvurlari bilan u yoki bu tarzda bog'langandir. Ongli intizom egasi bo'lgan kishi o'z axloqiy burchini to'g'ri anglaydi, o'z xatti-harakatlariga baho beradi, noto'g'ri xatti-harakatni qoralaydi.

Intizomli kishi o'z xulq-atvoriga to'g'ri baho berish bilan birga biror xatti-harakat uchun shaxsiy mas'uliyatni his etadi.

Abdulla Avloniy "Intizom deb qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o'z vaqtida tartibi ila qilmoqni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo'lmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmas edilar" deb ta'kidlaydi. Demak, intizom ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladigan xislat, tartib-odob, ma'naviy quvvatdir. Intizom yaxshi xulqlarning manbaidir.

3-§. Barkamol inson tushunchasi.

Haqiqatan ham, bugungi kunda O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlash va kelajakda istiqbol istiqbolini rivojlantirish, avvalo komil insonlarga bog‘liq. Komil inson O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda o‘z e‘tiqodi, g‘ayrat-shijoati, madaniyati, bilimi va ularni tatbiq etish mahorati bilan ajralib turadi. Komil insonni shakllantirishda maktabda, oilada, sog‘lom ma‘naviy muhit barqaror bo‘lishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Chunki sog‘lom muhit natijasidagina axloqiy fazilatlar tarkib topadi.

Ota-onalar o‘z farzandlarini komil insonlar qilib tarbiyalashi, ularda Vatanga muhabbat, mehnati va fidoyiligi bilan o‘zgalarga foyda keltirish, sadoqat, samimiylik kabi xislatlarni kamol toptirishga xizmat qiladi. Farzandlarimizning bunday insonlar bo‘lishida oilaning totuvligi, ota-onaning o‘zaro mehr-muhabbati ham samarali ta’sir ko‘rsatadi. Kishi o‘z hayotida axloqiy kamolotga qanchalik ko‘p intilsa, shunchalik o‘z xato-kamchiliklarini anglab boradi.

Hadisi shariflardagi axloqqa oid ibratli, maslahatlar, hikoyatlar, asrlar davomida ajdodlarimiz hayotida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an‘analar Beruniy, Forobiy, Ahmad Yassaviy, Amir Temur, Navoiy, Bobur singari buyuk allomalar, olimlar, yozuvchilarning axloq haqidagi ko‘plab fikr-mulohazalari bugungi kunda ham oilaviy hayot uchun, har bir inson uchun qadr-qimmatini yo‘qotmagan muhim tarbiyaviy ahamiyatga molikdir. Jumladan, Amir Temur axloqi husniya - yaxshi xulqlar egasi bo‘lgan. U oqil va tadbirli sarkarda sifatida odamlarni ishga tayinlashda ham, vazifasidan ozod etishda ham shoshmashosharlik va adolatsizlikka yo‘l qo‘ymagan, balki yetti o‘lchab bir kesgan. Amir Temur singari jahon ma‘naviyati saltanatida o‘z o‘rinlariga ega bo‘lgan buyuk bobokalonlarimizning axloq, go‘zal xulq haqidagi fikrlari bugungi kun talabi bilan yozilgandek tuyuladi. “O‘g‘illarim! Millatning ulug‘ martabasini, saodatini saqlamoq uchun sizlarga qoldirayotgan vasiyat va tuzuklarni yaxshi o‘qing, aslo unutmang va tatbiq eting. Millatning dardlariga darmon bo‘lmoq vazifangizdir.

Zaiflarni qo‘riqlang, yo‘qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz bo‘lsin”.

Ismoil Al-Buxoriy “Axloqning yaxshi bo‘lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga xiyonat qilmaslik shart, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo‘lsang ham zarari yo‘qdir”, – deb yozadi. O‘rta Osiyo mutafakkirlarining axloq haqidagi fikrlari, o‘gitlari shunday kuchga egaki, ular o‘quvchilar qalbida insoniylik urug‘larining unib chiqishiga, katta hayot yo‘liga olib chiqishga yordam qiladi, ma‘naviy kuch-quvvat beradi.

Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy kabi ulug‘ mutafakkirlarning axloqiy qarashlari va qadriyatlardan mustaqil O‘zbekiston istiqbolini mustahkamlashda, o‘quvchilarning axloqiy

madaniyatini shakllantirishda, kundalik turmushimizda keng foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

Abu Ali ibn Sinoning axloq haqidagi qarashlari uning shoh asarlari bo‘lmish “Tib qonunlari”, “Ash-shifo” va boshqa asarlarida ham o‘z ifodasini topgan. Ibn Sino ta’limotiga ko‘ra, odamga do‘st tutinishning uch xil yo‘li bor: “Birinchi, har qanday qiyinchilik bo‘lishiga qaramay, kishi o‘z do‘stini falokatdan qutqarishni, ikkinchi, g‘oyaviy yaqinlik va dunyoqarashlar umumiy bo‘lgan chinakam va doimiy do‘stlikni va uchinchi esa kishining mansabi, puli yoki mavqeiga qarab o‘zining shaxsiy manfaatini qondirish ko‘zda tutilgan do‘stlik bo‘ladi”, – deb ta’kidlaydi Ibn Sino.

Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilik” dostonida hokim bilan xalq o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar masalasiga e’tibor beradi. Uning fikricha, agar beklar tabiatan ezgu bo‘lsalar, barcha fuqarosi boyiydi, olam guliston bo‘ladi. Shuningdek, “Hamma narsaning qoidasi, tartibi, ta’limi bor, tartib, odob qoidalarini to‘g‘ri tutsa, kishining yuzi yorug‘ bo‘ladi”, – deb ta’kidlaydi.

O‘tmishda ajdodlarimiz insonning psixologik qonuniyatlarini, ta’lim tarbiya masalalarini muayyan ilmiy yo‘nalishda o‘rganmagan bo‘lsalarda, biroq allomalarning qo‘lyozmalarida mazkur holatlarning namoyon bo‘liish, inson kamoloti borasidagi qimmatli fikrlari hozirgacha yuksak ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, Abu Nasr Forobiy pedagogika masalalarini va ular bilan bog‘liq bo‘lgan psixologik, fiziologik pedagogik muammolarni ijobiy hal etishda insonni har tomonlama yaxlit va o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan qismlardan iborat, deb aytadi. Forobiy mavjudotni bo‘lishda ilm-fanning rolini hal etuvchi omil deb biladi, uningcha inson tanasi, miyasi, sezgi organlari tugilishda mavjud, lekin aqliy bilimi, ma’naviyligi, ruhi, intellektual va axloqiy xislatlari, xarakteri, dini, urfodatlari, ma’lumoti tashqi muhit, boshqa insonlar va shu kabilar bilan muloqotda vujudga keladi, inson o‘z faoliyati yordamida ularni egallaydi, ularga erishadi.

Uning aqli, fikri, ruhiy yuksalishyning eng etuk mahsuli bo‘ladi, deb ta’kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy ta’lim va tarbiyaning maqsadi, vazifalari va mavqei, inson, yosh avlodning rivojlanishi haqidagi fikrlar chin ma’noda insonparvarlik va insonshunoslik zamirida yaratilgan. Bilim va tarbiyaning tabiatga uyg‘unlik tamoyillarini mutafakkirning barcha asarlarida kuzatish mumkin. U insonni tabiatning bir qismi deb ta’kidlaydi.

Beruniy ta’lim jarayonining tabiatiga chuqur kirib borib, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish asosida qurilgan o‘qitish tabiatga uygunligini uqtiradi. Beruniy pedagogik ijodida inson va uning baxt-saodati, ta’lim-tarbiyasi, kamoloti bosh masala bo‘lgan.

O‘rta asrda yashab, ijod etgan donishmand, tabobat ilmining dohiysi Abu Ali ibn Sino inson ruhiyati, tana va qalbning birligi, inson organizmining tuzilishi, undagi nerv

faoliyati va ularning tarmoqlanishi, holatlari haqidagi qimmatli ma'lumotlari hozirga qadar tibbiyotning muhim negizini tashkil etadi.

Yusuf Xos Xojib ijodining bosh masalalaridan biri – komil insonni tarbiyalashdir. Adib o'z asarlarida eng komil, jamiyatning o'sha davrdagi talablariga javob bera oladigan insonni qanday tasavvur qilgan bo'lsa, shu asosda u o'z tamoyillarini izchil bayon etadi. «Qutadg'u bilig» («Saodatga yo'llovchi») asari ta'lim va tarbiya, ma'naviy kamolotning yo'l-yuriqlarini, usullarini, chora tadbirlarini o'zida mujassamlashtirgan, axloq va odobga doir ma'naviy manbadir.

Abdurahmon Jomiyning «Bahoriston», «Xirandnomai Iskandari», «Tuhfatul ahror» va boshqa asarlarida ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya, kasb-hunar o'rganish, inson ijobiy fazilatlarini haqidagi fikrlari ifodalangan.

Alisher Navoiyning «Xazoyinul ma'niy», «Mahbubul qulub» va boshqa shu singari asarlarida etuk, barkamol insonning axloqi, ma'naviyati, o'zgalarga munosabati, iste'dodi va qobiliyati to'g'risida qimmatli mulohazalar yuritilgan. Ana shu psixologik mezonlar ijtimoiy adolatning qaror topishi uchun muhim ahamiyatga ega ekani ta'kidlangan. Shuningdek, Navoiy asarlarida yosh avlodni barkamol inson sifatida shakllanishida ota-onaning roli, ayollarning iffatliligi, kishilarning kamtarligi haqidagi fikr-mulohazalari alohida o'rin egallaydi.

Navoiy «Xamsa»sining har bir dostonida bukilmas iroda, qat'iyatlilik, itoat, insonparvarlik tuyg'ulari, ijodiy xayolot, insonning murakkab ichki kechinmalari mohirona yoritilgan. Shuningdek, bu borada Mashmud Qoshgariy, Ulugbek, Naqshbandiy, Ogahiy singari buyuk harq mutafakkirlarining yoshlar tarbiyasiga, o'qituvchi, tarbiyachining jamiyatdagi o'rni, axloq-odob, fe'l-atvor, oilaviy hayot, kishilararo munosabatlarga doir qarashlari ularning asarlarida ravon va ixcham bayon etilganligini ta'kidlash mumkin.

Tarbiyaviy ishlar jarayonida barkamol avlodni tarbiyalash muhim o'rin tutadi. Aniq maqsadga qaratilgan tarbiya ishida jamoaga va ba'zi bir talablarga ta'sir qilishini tashkil etish tarbiyaviy ishlarning asosini belgilaydi.

4-§. Tarbiya fanining ilmiy-tadqiqot metodlari.

Tarbiya metodlarini tanlab olish shartlari. Metodning ijobiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.

Tarbiya metodlarini maqsadga muvofiq tanlash bir qator omillarga bog'liq:

1. Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Tarbiyaning maqsad va vazifalari. Maqsad nafaqat metodlarni oqlaydi, balki ularni aniqlab beradi. Maqsad qanday bo'lsa, unga erishish metodlari unga muvofiq bo'lishi zarur.

2. Tarbiya mazmuni. Unutmazlik kerakki, aynan bitta vazifa turli xil fikrlar bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shuning uchun metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikr bilan bog'lash g'oyat muhimdir.

3. Tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish. U yoki shunga o'xshash vazifalar tarbiyalanuvchilarning yoshi bilan bog'liqlikda hal qilinadi.

Yosh bu oddiygina qaraganda yashaganlikning son ko'rsatkichi emas. Unda egallangan ijtimoiy tajriba, psixologik va axloqiy sifatlarning rivojlanganlik darajasi o'z aksini topadi. Aytaylik, mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida turli metodlar qo'llaniladi.

4. Jamoaning shakllanganlik darajasi. O'zini o'zi boshqarishning jamoa shaklining rivojlanishi bilan bog'liqlikda pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlari ham o'zgarmasdan kelmoqda. Bizga ma'lumki boshqaruvning moslashuvchanligi tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan muvaffaqiyatli hamkorligining zaruriy sharti.

5. Tarbiyalanuvchilarning individual o'ziga xosliklari. Umumiy metodlar, umumiy dasturlarning o'zi tarbiyaviy o'zaro ta'sir etishning asosi bo'la olmaydi. Ularga individual va shaxsiy tuzatishlar kiritish zarur. Insonparvar pedagog har bir shaxs o'ziga xosligini rivojlanishiga, o'ziga xosligini saqlashga, o'zining «Men»ini ro'yobga chiqarishga imkon beradigan metodlarni qo'llashga harakat qiladi.

6. Tarbiyaviy shart-sharoitlar. Unga moddiy, psixofiziologik, sanitar-gigiyenikdan tashqari sinfda yuzaga keladigan munosabatlar: jamoadagi iqlim, pedagogik rahbarlik usuli va boshqalar tegishlidir. Ma'lumki, mavhum shart-sharoitlar bo'lmaydi, ular hamisha aniq. Ularning birlashuvi aniq holatlarda ko'rinadi. Tarbiya amalga oshadigan sharoit pedagogik vaziyatlar deb ataladi.

7. Tarbiya vositalari. Tarbiya metodlari tarbiya jarayonining tarkibiy qismi sifatida yuzaga chiqadigan tarbiya vositalaridan tashkil topadi. Metodlar ular bilan mustahkam bog'langan va birgalikda qo'llaniladigan boshqa tarbiya vositalari ham mavjud. Masalan, metodlarni samarali qo'llash uchun zaruriy yordam beruvchi ko'rgazmali qurollar, tasviriy san'at asarlari va musiqa san'ati, ommaviy axborot vositalari.

8. Pedagogik malakani egallaganlik darajasi. Tarbiyachi odatda faqat o'zi biladigan va qo'llay oladigan metodlarni tanlab oladi. Ko'plab metodlar murakkab bo'lganligi bois, o'qituvchidan ko'p kuch ishlatishni talab etadi. Bunday mas'uliyatdan bo'yin tovlaydigan pedagoglar ularsiz faoliyatni tashkil etishga harakat qiladi. Natija esa turli obrazli, xilma-xil maqsad, vazifa, shart-sharoitlardan kelib chiqib metodlardan foydalanishga qaraganda past samaraga ega bo'ladi.

9. Tarbiya vaqti. Qachonki, vaqt kam, maqsad esa katta bo'lsa, kuchli harakatga keltiradigan metodlar qo'llaniladi, qulay sharoitlarda esa, tarbiyaning "oddiy"

metodlaridan foydalaniladi. Tarbiyani “kuchli harakatga keltiradigan” va “oddiy” metodlarga bo‘linishi shartli: birinchisi tanbeh berish va majbur qilish bilan, ikkinchisi nasihat qilish va doimiy o‘rgatish bilan bog‘liq.

10. Kutiladigan natija. Metodni tanlayotganda, tarbiyachida muvaffaqiyatga erishishga nisbatan ishonch bo‘lishi kerak. Buning uchun qo‘llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko‘ra bilish kerak

5-§. Mutafakkirlar merosida tarbiya masalalari.

Sharq Renessansi deb nomlangan IX-XV asr Markaziy Osiyo ma’naviy madaniyatining eng yuksaklikka ko‘tarilgan, boy davri bo‘lib, bu davrda ilmfanning ikki yo‘nalishi (birinchisi) inson uchun tabiiy fanlardirki, u aql ko‘zi bilan egallanadi, ikkinchisi) bu fanlar inson tomonidan (boshqa) kishilardan taqlid qilib o‘rganiladi, ular asosida shariat qonunlari yotadi. Bu fanlarning asosini Qur’onda va Sunnada bo‘lgan Alloh va uning elchisining oldindan belgilab bergan yo‘lyo‘riqlari tashkil etadi.

Bu davrda Sharq madaniyatini umuminsoniy qadriyat darajasiga ko‘tarish markazi “Ma’mun akademiyasi” (IX asr, Bao‘dod, “Baytul hikma”) tashkil etildi. Akademiya ilmiy ijodkorlari faoliyatida” Yaqin va O‘rta Sharq halqlari moddiy va ma’naviy madaniyatining qo‘shilishi asosida hozirgi Markaziy Osiyo madaniyatining mahsus bir-biridan ajratilmagan ko‘p qirrali qorishiq turi vujudga keldi. Bunday ko‘p qirrali ilmiy qadriyatlarning maydonga kelishida vatandoshlarimiz Muhammad ibn Muso al-Horazmiy (780-850), Ahmad al-Farg‘oniy (247-861), Ahmad ibn Abdulloh al – Marvaziy (IX asr), Abu Nasr Forobiy (870-950), Abu Ali Ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (975-1050) va boshqalarning hizmatlari katta bo‘lgan.

Demak, bu davr o‘zining har tomonlama yuksakligi, yaratgan boy madaniy merosi, milliy qadriyatlari, jahonga mashhur allomalarning etishib chiqqanligi bilan qimmatlidir. Sharq mutafakkirlarining ma’naviy madaniyat sohasiga qo‘shgan ulushlari nihoyatda boy bo‘lib, mazmunan qadriyatlarning barcha yo‘nalishlarini qamrab olganligi bilan harakterlidir. Ular:

- ✓ aqliy madaniyatni shakllantirish bilan bog‘langan qadriyatlar;
- ✓ ma’naviy-ruhiy qadriyatlar;
- ✓ ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar;
- ✓ badiiy-nafis qadriyatlar;
- ✓ diniy qadriyatlar tarzida o‘z ifodasini topgan.

Inson axloqi aqlga, hulq va hatti-harakati esa ilm-fanni o‘rganishga va ma’rifatga asoslangandagina ma’naviy kamolotga erishadi. Mutafakkir allomalarning fikricha, insonparvarlik g‘oyalarining amalga oshishi, ma’naviy barkamollikka erishuv chuqur bilim olish va ma’rifatli bo‘lishga bo‘liq. Shuning uchun ham ular ilmlilikni umuminsoniy qadriyat darajasida uluo‘laydilar, jamiyatning barcha a‘zolarini ilm egallashga chaqiradilar, ilmning inson ma’naviy hayotda tutgan o‘rnini yuqori baholaydilar.

Forobiy pedagogik qarashlarini, ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limotini o'rganishda inson hislatlari to'g'risidagi falsafiy fikrlari nihoyat muhim ahamiyat kasb etadi. Forobiy o'zining falsafiy qarashlarida odamning tuzilishini, ruhiyatini, moddiy va ma'naviy olamini o'rganishga ahamiyat beradi.

Forobiy ta'limotiga, inson barcha boshqa jismlarda bo'lmagan qobiliyat va kuchga-ruhiy quvvatga-aql va so'zlash qobiliyatiga ega, bu kuch uni tabiatdagi boshqa jismlardan ajratib turadi va uning ustidan hokim bo'lish imkoniyatini berganligi namoyon bo'ladi.

Forobiy bu dunyoqarashida narsa hodisalarni bilish, inson aqlini bilim bilan boyitish uni ilmi, ma'rifatli qilish uchun hizmat qiluvchi ruhiy jarayonlarga alohida e'tibor beradi.

Forobiy o'zining "Baht-saodatga erishuv haqida", "Fanlarning tasnifi", "Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to'g'risida", "Ilmlar va san'atlar fazilati" kabi ko'plab risolalarida insonning ma'naviy rivojlanishi ilm-ma'rifatga bo'liqligini ta'kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy bilim umuminsoniy qadriyatlarni o'rganishning kaliti ekanligini alohida ta'kidlaydi. Ilm-ma'rifatli odam jamiyat taqdiri, insonlar taqdiri uchun kurashuvchan, barcha yomonliklardan uzoqdir. "Ilmning foydasi ochko'zlik bilan oltin-kumush to'plash uchun bo'lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo'lishdir".

Umuman, Abu Rayhon Beruniy ilm-fanning buyuk homiysi va muhlisi sifatida mamlakatning obodonchiligi ilm-fanning gullashida, odamning bahti esa uning bilim va ma'rifatida deb bildi. Yaratgan asarlarida u ta'lim-tarbiyaga doir she'r va hikmatlardan misollar keltirib, ular orqali har bir inson o'z qalbining farmoyishiga ko'ra hayr-ezgulikka intilishi, sun'iy obro', shuhrat qozonish uchun muruvvat va sharofat ko'rsatmasligi kerakligini ta'kidlaydi.

Yusuf Hos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va nafosat tarbiyasiga doir fikrlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. U insonni ulug'laydi. Uning fikricha, insonning ulug'ligi aql-idroki, so'zlash qobiliyati, bilimi, uquvi, hunarga egaligidadir.

Adib o'quv va bilimni farqlaydi: o'quv tug'ma ravishda inson ruhiyatida mavjuddir, bilim esa o'qish-o'rganish va mehnat tufayli egallanadi. Agar ularning har ikkisi o'zaro birlashsa, insonning qadri ortadi:

Zakovat qaerda bo'lsa, ulug'lik bo'ladi,

Bilim kimda bo'lsa, buyuklik oladi.

Zakovatli uqadi, bilimli biladi,

Bilimli, zakovatli tilakka etadi.

Yusuf Hos Hojib ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liq holda bo'lishini tavsiya etadi, o'g'il bolalarning bir necha san'at turlarini va hunarlarni tugal o'rganmoo'i

lozimligini ta'kidlaydi, bu-ularning kelajak hayotlari, jamiyat rivoji uchun zarurligini aytadi.

Alloma farzandlarga turli bilim va hunarlar o'rgatilmog'i kerakligini aytib, ularni go'zal axloqli qilib, voyaga etkazishni ota-onalarga maslahat beradi: Hudo kimga zakovat, aql, bilim bersa, U barcha orzularga qo'l uzatadi.

Kimning hulqi yahshi, fe'l-atvori to'o'ri bo'lsa, U tilagini topadi, kun va oy unga boqadi.

Yaxshi fe'l-atvor barcha ezguliklarga moyadir, hulq-atvor barchasi yahshi bo'lsa, ming-ming sevinch bo'ladi.

Umuman, Yusuf Hos Hojib "Qutadg'u bilig" dostonida til odobi, rostgo'ylik, poklik, kamtarlik sevgi va vafo, muruvvat, sabr-toqat kabi fazilatlar hususida qilgan Hikmatli pandu nasihatlar bilan kishilarni, yoshlarni har bir ishda aql-idrokli, o'zgalarga o'amho'r va mushfiq bo'lishi har bir ishni o'z o'rni va o'z vaqtida ado etishga da'vat etadi. Bir so'z bilan aytganda bugungi davr talabiga hamohang ravishda insonni komillikka hidoyat qiladi.

Abu Ali ibn Sino etika va axloqiy tarbiya masalalarini falsafiy-pedagogik asosida yoritib berishga harakat qiladi. U ayniqsa, oila tarbiyasida ota-onaning o'rniga alohida to'xtalib: "Bola tuo'lgach, avvalo, ota unga yahshi nom qo'yishi, so'ngra esa uni yahshilab tarbiyalashi kerak", deb maslahat beradi.

Al-Xorazmiy esa insonning hulq-atvori, hatti-harakati mantiqiy fikrlashga asoslangandagina mukammal shakllanishi mumkin, degan g'oyani ilgari suradi.

Alisher Navoiy nazdida ta'ma aralashgan yahshilik hikmat, himmat insonning ma'naviy hissiyotiga salbiy ta'sir etuvchi holatdir. Ta'masiz yahshilik qilish bu sahiylikdir. Odamgarchilikning eng yuksak belgisi sahiylik va himmatdir. Yuksak insoniylikning o'lchovi bu vijdon hisoblanadi. Shu boisdan, Sharq mutafakkirlari vijdon pokligi, oila, ota-ona, halq, farzand burchi haqida olg'a surilgan g'oyalarning asosini insonparvarlik tashkil etadi.

Chunonchi, ota-ona farzandlarning o'zaro munosabati, burchi ma'naviy qadriyatlarning oltin kalitidir. Alisher Navoiy bu haqda quyidagicha fikrlaydi: "Boshni fido ayla ato qoshig'a, Jismni qil sadqa ano boshig'a.

Ikki jahoningga tilarsan fazo- Hosil et ushbu ikkisidan rizo. Tun-kuningga aylagali nur fosh, Birini oy angla, birisin quyosh.

So'zlaridin chekma qalam tashqari,
Hatlaridin qo'yma qadam tashqari".

Sharq mutafakkirlari didaktik harakterdagi ilmiy asarlarida ma'naviy madaniyatni shakllantirishning shakl, usul va vositalarini qorishiq holda bayon etdilar. Chunki o'rta asr pedagogik fikrlar nazariyasi va amaliyoti tarbiyaning lisoniy shakl va usullariga tayangan. Ta'lim-tarbiya berishning vositasi esa amaliyot bo'lib hisoblangan edi. Bu qoida ayniqsa, Ibn Sinoning tibbiy risolalarida, urjuzalarida, "Donishnoma" asarida,

Kaykovusning “Qobusnoma”, Yusuf Hos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Sa‘diyning “Guliston”, “Bo‘ston”, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”, “Mahbub ul-qulub” asarlariga bevosita taalluqlidir.

Mutafakkir olimlar yuksak ma‘naviy fazilatlarni umuminsoniy qadriyatlar doirasida talqin etdilar, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ma‘naviy omillarni yuksak baholadilar. Ular “Fozil jamoa”, “Fozil shahar”, komil insonni shakllantirishning asosi ma‘naviy omillarga bo‘liq degan o‘g‘yani ilgari surdilar.

6-§. Tarbiya-ijtimoiy jarayon.

Tarbiya - shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma‘naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga ega bo‘lishini ta‘minlash yo‘lida ko‘riladigan chora tadbirlar yigindisi. Tarbiya insonning insonligini ta‘minlaydigan eng qad. va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo‘la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta‘minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o‘tadi.

Pedagogik adabiyotlarda “Tarbiya” atamasi keng va tor ma‘nolarda ishlatiladi. Keng ma‘noda Tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyat ishlab chiqarishi va ijtimoiy, madaniy, ma‘rifiy hayotida faol ishtirokini ta‘minlashga karatilgan barcha ta‘sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yigindisini anglatadi. Bunday tushunishda Tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi goyalari, adabiyot, san‘at, kino, radio, televidenie va boshqalarni ham o‘z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma‘nodagi Tarbiya tushunchasi ichiga ta‘lim va ma‘lumot olish ham kiradi.

Tor ma‘noda Tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma‘naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didi o‘stirilishiga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradi. Ta‘lim va ma‘lumot olish tor ma‘nodagi Tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday Tarbiya ta‘lim bilan chambarchas bog‘liq holdagina mavjud bo‘ladi. Chunki ta‘lim va ma‘lumot olish jarayonida shaxsning fakat bilimi ko‘payibgina qolmay, balki axloqiy ma‘naviy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning , umuman, jamiyat a‘zolarining Tarbiyasi bilan yetarlicha shug‘ullanmagan mamlakat turg‘unlik va inqirozga mahkumdir. Negaki, o‘sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma‘naviy boyliklar ishlab chiqarish. to‘xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma‘naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma‘naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa, jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko‘rsatadigan tarbiyaviy intlar tizimiga ega bo‘lishi lozim.

Tarbiya jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izohlab kelingan. Sho‘ro zamonida hukmron kommunistik mafkura Tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan. Shuning uchun ham sinfiy jamiyatda Tarbiya faqat sinfiy xususiyatga ega bo‘ladi va turli sinflarning Tarbiyasi bir-biriga qaramaqarshi turadi degan qarash qaror topgan. Holbuki, dunyo ilmi, ayniqsa, Sharq tarbiyashunosligi va o‘zbek xalq pedagogikasi tajribasi Tarbiyaning sinfiy ko‘rinishga ega emasligini isbot etdi. Shuningdek, kommunistik mafkura tazyiki tufayli Tarbiyada ijtimoiy muassasalarning o‘rniga ortiqcha baho berildi, bu jarayonda irsiy va biologik xususiyatlar deyarli xisobga olinmadi.

Sho‘rolar pedagogikasida Tarbiya orqali xar kandy odamni istagan ijtimoiy kiyofaga solish mumkin degan karash hukmron bo‘lganligi uchun ham uning shaxsni shakllantirishdagi o‘rniga oshiqcha baho berildi. Tarbiyalanuvchi shaxsining Tarbiyaga berilish yoki berilmaslik xususiyatlarining hisobga olinmasligi tarbiyaviy tadbirlarga maxliyo bo‘lishdek pedagogik xatolikka olib keldi. Buning natijasida Tarbiya maqsadsiz bo‘lib qoldi, tarbiyalanuvchilarga alohida shaxs sifatida emas, istalgan ijtimoiy yo‘nalishga solinishi mumkin bo‘lgan qiyofasiz tuda, olomon tarzida qarash qaror topdi, Bu hol Tarbiyaning samarasizligiga olib keldi. Chunki Tarbiyaning asosiy ob‘yekta bo‘lmish shaxs va uning o‘ziga xoslik jihatlari unutilgan edi. Sho‘ro pedagogik tizimidagi kamchiliklarning ildizi, asosan, mana shu yondashuv tarziga borib takaladi.


O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Tarbiya va unga bog‘liq jarayonlarga yangi hamda sog‘lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv qaror topa boshladi. Uni izohlashda g‘ayriilmiy sinfiy-partiyaviy yondashuvdan voz kechildi. Tarbiyaning milliyiligiga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Buning uchun xalq pedagogikasi boylklari, o‘zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlari sinchkovlik bilan o‘rganilayotir. Natijada, O‘zbekiston pedagogika fani va amaliyotida oila Tarbiyasining ham, ijtimoiy Tarbiyaning ham o‘ziga xos o‘rni borligi tan olina boshlandi. Shuningdek, Tarbiyada irsiy va biologik omillar ham hisobga olinadigan bo‘ldi. Ayni vaqtda, shaxsning shakllanishida Tarbiyaning o‘rniga keragidan ortiq baho berish ham barham topdi. Bu hol Tarbiyaga doir hodisa va holatlarni to‘g‘ri izohlash, tarbiyaviy tadbirlar tizimini to‘g‘ri tayin etish imkonini berdi.



Nazorat savollari:

1. Tarbiya fanining maqsad va vazifalarini aytib bering.
2. Axloq-ijtimoiy ong shakli haqida fikr yuriting.
3. Barkamol inson tushunchasi haqida nimalarni ayta olasiz.

4. Tarbiya fanining ilmiy-tadqiqot metodlarini sanag.
5. Mutafakkirlar merosida tarbiya masalalariga misollar keltiring.
6. Tarbiya-ijtimoiy jarayon.



II. TARBIYA JARAYONINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR

Tayanch tushunchalar: *tarbiya konsepsiyasi, tarbiya, konsepsiyalar tarixi, Konfutsiylik, axloq, tajriba, yoshlar, vatanparvarlik.*

1-§. Jahon tarbiya konsepsiyalari qiyosiy tahlili.

Mavjud tarixiy vaziyat pedagogika nazariyasida qiyosiy yo'nalishni kuchaytirishni, turli zamon va makonlarda yaratilgan tarbiya konsepsiyalarini vertikal va gorizontal pedagogik integratsiya nuqtai nazaridan tahlil qilishni, xatolarni chetlab o'tib, tarix sinovidan o'tgan, insonparvarona mohiyatga ega bo'lgan tarbiyaviy konsepsiyalar yutuqlaridan, texnologiyasidan samarali foydalanishni taqozo qilmoqda vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✓ tarbiya nazariyalari, konsepsiyalarini milliy tarbiya bilan nazariy aloqalarini o'rganish;
- ✓ Yevropaning taraqqiy etgan mamlakatlarida, Osiyo va Afrikaning milliy mustaqillikni qo'lga kiritgan ayrim mamlakatlarida tarbiyaviy konsepsiyalar rivojining tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy, milliy-madaniy shart-sharoitlarini tahlil qilish;
- ✓ zamonaviy o'zbek maktabidagi milliy tarbiya tizimining tub xususiyatlarini qiyosiy asoslash. Pedagogik nazariyalarning g'oyaviy asoslari va mazmunining mamlakatlar taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'sirini qayd qilish, umumlashtirish, boshqa davlatlar pedagogik tajribasini qiyosiy o'rganishning koni foyda ekanligini.

Ahmad Donish, Furqat, Ismoil Gaspirali, Rizouddin ibn Faxruddin, Avaz O'tar, Sote' al Husri, K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy va boshqalar pedagogik muammo sifatida kun tartibiga qo'ygan edilar. Ayniqsa, K.D.Ushinskiy jahon kezib, bu borada qilgan ilmiy xulosalari alohida e'tiborga sazovordir. Qator Ovrupo mamlakatlari tarbiyaviy tizimlarini o'rganib chiqqach, u "barcha xalqlar uchun umumiy bo'lgan tarbiya tizimi nafaqat amalga, balki nazariy darajada ham bo'lishi mumkin emas. Olmon pedagogikasi - nemis tarbiyasi nazariyasi demakdir va bundan ortiq narsa emas",- deya xulosa qiladi L.Tolstoy har qanday chet el tarbiya tizimini Rossiyaga keltirishga keskin qarshi chikqan edi. Chunki o'z "xalqi rioya qiladigan asosiy qoidalarni anglagan maktabgina yaxshi maktab bo'la oladi". Atoqli mutafakkir Rossiyada rus tarixi va

milliy xususiyatlaridan kelib chiquvchi xalq ta'limi tizimi yaratilmog'i kerakligini qat'iy turib talab qilgan edi. Professor P.Kapnistning 1900 yilda aytgan fikri: "tarbiyaviy ishlarda maktabning milliy xususiyatlarini dunyo sivilizatsiyasining tarkibiy qismi sifatida o'rganish kerak".

Bu birinchidan, har bir ilmiy maktabning (uning qaerda joylashganligidan qat'iy nazar) asosini belgilaydi va ikkinchidan, begona o'lkalarning maktab ishlarini o'rganish boshqa mamlakatlarda bir vaqtlar o'tkazilgan va natijalari aniq ko'rilgan ko'plab tajriba va ekperimentlarni takrorlashdan bizni qutqazadi" Markaziy Osiyoda ro'y berayotgan ma'naviy, madaniy, dunyoqarashdagi o'zgarishi, Uyg'onish, o'zligini anglay boshlash davri Kundalik turmushdagi, tafakkurdagi an'anaviylikning zamonaviylashuvi, demografik o'sish, shaharlarning yiriklashuvi, texnologiyada, bank ishlarida munosabatlarning o'zgarishi, yangi - tijoratchilar avlodining maydonga chiqishi, Xorijiy tillarga, huquqshunoslikka, Vatan tarixiga qiziqishning ommaviy o'sishi ishbilarmonlikning keng tarqalishi maktab va tarbiya maqsadini keskin o'zgartirishning sharti bo'ldi.

Angliyada ana shu o'zgarish jarayoni o'z zamonasining yangi aslzodasi - jentelmenni tarbiyalash talabini kun tartibiga qo'ydi. Yangi jentelmen amaliy tajribaga ega, ishbilarmon, o'z mulkini avaylab asrovchi va eng muhimi – o'zining yangi sifatlarini o'tmish an'analari bilan uygunlashtira olmog'i kerak edi. Yangi jentelmenlarni tarbiyalash g'oyasining asoschisi J.Lokk yosh jentelmenlar hisob-kitob ilmini bilish bilan birga, an'anaviy qilichbozlik san'atini ham yaxshi egallashlari kerak deb hisoblar edi. Jon Lokk Angliyaning jahon miqyosidagi obro'sini ko'tarishni yoshlar - jentelmenlarni tarbiyalashga tayanmay oshirish mumkin emasligini asoslab, amalga oshirdi uyg'onish davrida-Fransiyada tarbiyadan maqsad o'zida yuksak axloqiy sifatlar, fazilatlar, ziyolilik, sog'lom mushohadalik ruhida tarbiyalanganlikni o'z Vatanida qabul kilingan xush xulqlik bilan uyg'unlashtirib, takomiliga etkazgan fransuzdir" Quyida turli zamon va makonlarda yaratilgan tarbiyaviy konsepsiyalar va qarashlar, dasturlarning qisqacha tavsiflarini keltiramiz. Zero bunday qiyosiy pedagogik yondashuv milliy tarbiyaning izchilligini, tamoyillarini, mazmunini, usullarini, vositalarini belgilashning tarixiy pedagogik manbalarini ko'rsatishga xizmat qiladi.

2-§. Tarbiya konsepsiyalari tarixi.

Axloqiy uchlik tamoyili. Avestoning butun axloq-odobi Gumata (Gumata) Yaxshi fikr), Gukta (Gukta) Yaxshi so'z), Gvarshta (Gvarshta) Yaxshi ish) da ifodalanadi. Avestoda faqat bitta xalqning emas, balki Eron, Markaziy Osiyo va Ozarbijon xalqlarining mushtarak, umumiy qimmatga ega bo'lgan tarbiyaviy qadriyatlar aks etgan.

Shariat – Markaziy Osiyoga islom dini bilan kirib kelgan Qur'oni Karim asosida ishlab chiqilgan, jinoiy, fuqarolik va axloq odob qoidalari majmui. Shariat diniy-

huquqiy tizim sifatida XI-XII asrlarda tugal shakllangan. Shariatda barcha hatti-harakatlar dastlab ikki turga - harom va halolga ajratilgan.

Keyinchalik 5 turga: farz bajarilishi qat'iy, majburiy hisoblangan axloq me'yorlari; manbud (sunnat) - majburiy emas, lekin ma'qul. Lozim hisoblangan axloqiy me'yorlar; muboh - ixtiyoriy me'yorlar; makruh - ixtiyoriy me'yorlar; harom qat'iy ravishda taqiqlangan hatti-harakatlar.

“Munosib inson”ni etishtirish Abu Nasr Forobiy, “Bizning mavjud holatimiz tarbiya tufayli vujudga kelgan”, “Tarbiya hamma narsaga qodir”. Tarbiya maqsadi sifatida “har bir kishi baxtli-saodatli bo‘lishi kerak”, - degan g‘oyani “millat baxt-saodatli bo‘lishi kerak” degan g‘oya bilan birlashtira oladigan vatanparvarni etishtirishda deb tushunildi va “milliy tarbiya rejasi”ni ishlab chiqdi.

Tarbiyaning tabiatga mos bo‘lishi haqida ta’limotida Ya.A.Komenski Tarbiya uch bosqich va uch vazifadan iborat deya ta’kidladi:

1) o‘zini va tevarak-atrofdagi olamni bilish (aqliy);

2) o‘z-o‘zini boshqarish (axloqiy);

3) Xudoni tanishga intilish (diniy tarbiya). Inson tabiatning bir qismi sifatida uning eng asosiy, umumiy qonunlariga bo‘ysunadi, deb hisoblaydi va buni injildan olingan matn parchalari bilan asoslaydi. “Ovrupo tarbiyasi” Osiyo va Afrikaning milliy istiqbolga erishgan mamlakatlarida ta’lim va tarbiya mazmuni asosan uch yo‘nalishda isloh qilina borildi: tarbiya va ta’lim rejaları, dasturlari milliylashtirildi;

4) ta’lim ona tilida olib borila boshlandi;

5) tabiiy-matematik fanlar turkumining roli oshirildi. Mustaqillikning dastlabki yillarida sobiq kolonial maktablarni birdaniga isloh qilish mumkin bo‘lmaganligi tufayli mavjud ta’lim tizimlarini saqlab qolgan holda tarbiyaviy jarayonni milliy asosga qurish boshlandi. Jumladan ta’limning ona tilida berilishiga erishildi. Biroq, bunday islohotni amalga oshirishda yuzakiliklarga ham yo‘l qo‘yildi.

Vetnamlik tadqiqotchi Le Txan Kxoy bu haqda shunday degan edi: Afrika adabiyoti va tarixini o‘rganish bo‘yicha soatlarni ko‘paytirish ta’limni afrikalashtirmaydi. Ta’limni afrikalashtirish - bu butun ta’lim tizimini shu mamlakat qarshisida turgan muammolardan kelib chiqib, tubdan isloh qilish demakdir.

Habashiston, Gvineya, Tanzaniya, Senegal mamlakatlaridagi milliy uyg‘onish, ta’lim va tarbiyani milliy asosga qurishda qarama-qarshiliklarga ham duch kelishdi. Bu qarama-qarshiliklardan biri - tafakkuri fransuzlashgan mahalliy milliy nigilistlar. Vatan istiqboliga befarq, ovrupotsentrizm tarafdorlarining milliy uyg‘onishga qarshi turishlari tufayli sodir bo‘ldi. Bu haqda Niger Prezidenti Bubu Ama 1968 yili “qora rangli fransuzlar”dan ranjib, “milliy madaniyatimizning qora tanli fransuzlar tomonidan xo‘rlanishi va rad etilishi bizning o‘zligimizdan uyalishimizga olib keldi”, - degan edi.

XIX asrning 60-yillarida Yapon- milliy tarbiyasining o‘ziga xos xususiyatlaridan ayrimlari:

➤ - milliy birlik, yaponlarning jamoa, urug‘ kollektivchilligi umummilliy darajada namoyon bo‘ladi:

➤ - kechagina bir-biriga raqobat qiluvchilar millat manfaatiga dahldor vaziyatda birdaniga bir-birini qo‘llay boshlaydilar;

➤ jamoa ming ko‘zli devor bo‘lib, har bir yaponning hatti-harakatini kuzatadi, uning hatti-harakatidagi axloqiy qadriyatlarining sofliğini nazorat qiladi

➤ Yapon jamiyati axloqiyligining siri ana shunda, deb hisoblashadi;

➤ rostgo‘ylik, bag‘rikenglik sifatlarini tarbiyalashga favqulotda ahamiyat beriladi;

➤ ierogliflar ataylab maydalab yoziladi. Ularni qiynalib yodlash bolada ko‘z qobiliyati (ko‘rganini esda saqlash)ni rivojlantiradi. Ierogliflarni ko‘p martalab, diqqat bilan ko‘chirish o‘quvchilarda tirishqoqlik, mehnatsevarlikni tarbiyalaydi;

➤ maktablarda “yapon axloqi” darsi maxsus o‘tiladi. Bolalar asta-sekin xuddi kattalardek salomlashishga, hatti-harakatlar qilishga mashq qildirila boriladi. Agarda biror o‘quvchi milliy axloq qoidalarini buzsa, bolalar uni “g‘alati yapon” deyishadi. Keyinchalik ham u o‘z xatolarini tuzatmasa, “begona” nomini oladi va bolalar undan uzoqlashadi; o‘smirlik - yapon bolalari uchun eng qiyin - cheksiz dars tayyorlash va kelajak haqida qayg‘urish yo‘llaridir;

➤ o‘quvchilarning aksariyati ikki maktabda o‘qishadi. Birinchi - asosiy, ikkinchi, Dzyuki - tushdan keyingi darsda o‘tilgan mavzuni takrorlash va qo‘shimcha materiallar bilan mustahkamlashga xizmat qiladi. oilada qiz bola tarbiyasi bilan ko‘proq ona, o‘g‘il bola tarbiyasi bilan ko‘proq ota shug‘ullanadi.

Bu yerda “yoshlikdan buyuk ajdodlarni eslatish, bildirish, targ‘ib qilish orqali yoshu qari – har bir fuqaroni milliy ruhda tarbiyalash odat tusiga kirgan”, - deb yozadi A.Ibrohimov. Turkiya istiqlolga erishgach, millatning eng ko‘zga ko‘ringan ziyolilari “Turkiya taraqqiyoti yo‘li” nomli davlat taraqqiyot dasturini belgilab oldilar.

Mustaqil Turkiyaning maorifdagi, tarbiyadagi yo‘li - kelajak avlodda yuksak milliy g‘urur va vatanparvarlik - milliy - zamonaviy tarbiyaga tayanish bo‘ldi. Milliy tarbiya hozirgi Turkiyani Osiyoning eng taraqqiy etgan mamlakatlari darajasiga ko‘tarilishini pedagogik ta‘minladi. Ajdodlar ruhiga hurmat, o‘z qadriga etish, milliy g‘ururni anglash yosh turkiyaliklarda o‘z vatani - Turkiyaga sidqi dildan xizmat qilish ehtiyojini shakllantirmoqda.

Televideniya, videofilm, tijorat do‘konlarida zulmni, behayolikni ifodalovchi harakatlar, suratlarni ko‘rish o‘zbek-o‘g‘il-qizlarida oila, mahalla, maktab hamkorligida shakllantirilayotgan hayo, odob, mehr-shafqatlilik kabi fazilatlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotganligi tabiiy jahonning Osiyo mintaqasida joylashgan (sobiq SSJI respublikalaridan tashqari) 28 mamlakatda tarbiyaviy islohotlar, yangiliklarni

o'rganib, umumlashtirgan avstriyalik Olim R.Maklin buni 90-yillarning umumsiyoviy muammosi ekanligini ta'kidladi. Chunki, "Chet el kitoblari va chet el televidenie va video dasturlari ularni tomosha qilayotgan xalqlarning qadriyatlarini, madaniyati va an'alariga salbiy ta'sir qilib, ularning milliy taraqqiyoti sur'atiga xalaqit berishi mumkin. Bu esa maktab, oila, mahallada milliy tarbiya samaradorligini oshirish -tele, video, kinofilmlar, behayo sur'atlarning salbiy ta'siriga qarshi turishning eng qiyin, lekin eng samarali, ishonchli yo'li ekanligini ko'rsatadi.

3-§. Yevropa mamlakatlarining tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun ilg'or tajribalari.

Barchamizga ma'lumki, ma'naviy-ahloqiy rivojlanish shaxsning butun hayoti davomida yuz beradi. Ma'naviyat shunday jarayonki, unda dastlab vujudga kelgan shakllar keyingi bosqichlarda boyitib va to'ldirib boriladi. Ma'naviy-ahloqiy rivojlanish shaxs rivojining sezitiv davrlarida, ayniqsa, faol yuz beradi. Bunday hol shaxsning o'z hayotidagi muayyan davrda yuksak darajadagi ma'naviy, ahloqiy, estetik va bilish ehtiyojlari bilan bog'langan bo'ladi. O'smirlik davrida shaxs o'zining ma'naviy-ahloqiy rivojlanishida hal qiluvchi qadamlarni qo'yadi. Bunga mazkur jarayonning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan shartsharoitlarning muvofiqligi katta ta'sir o'tkazadi.

Shaxs taraqqiyotining har bir davri psixik rivojlanishning o'ziga xos sifat ko'rsatkichlariga ega bo'ladi. Ko'pchilik psixik xususiyatlar birgalikda shaxsning rivojlanishidagi vaziyatlar majmuasi bilan bog'liq bo'lib, ular jumlasiga shaxsning turmush tarzi, ijtimoiy shart-sharoitlari, tarbiyasi va faoliyati xususiyatlari, jinsiy, tipologik va individual xususiyatlarni kiritish mumkin. Insonning, jumladan o'smirning ijtimoiy mavqeyi (uning o'quv-tarbiya muassasadagi, oiladagi o'rni) muloqot shakllari va faoliyat turlari bilan belgilanadi.

Yaponiya - kun chiqar mamlakat aholisi farzandlarining tarbiyasiga o'ta jiddiy qarashadi. Bu erda har bir yoshga nisbatan ma'lum bir munosabatda bo'linadi va ayri tarbiya usullari qo'llaniladi. Mashhur yapon ruhshunosi Masara Ibukining fikriga ko'ra, bolaga asosiy tarbiyani 3 yoshgacha berish lozim. Aynan 3 yoshga qadar farzandingizdagi yashirin iqtidorni yuzaga chiqarish mumkin. Yaponiyaliklar 5 yoshgacha bo'lgan kichkintoyga qiroldok muomala qilishadi. Ular istaganlaricha o'ynashlari, miyasiga kelgan ishni qilishlari mumkin. Hattoki bolalar bog'chalarida bolakaylar flomaster bilan devorga to'ygunlaricha chizishlari uchun maxsus xonalar mavjud. Ota-onalar o'z farzandlarini o'yinchoqlar va ortiqcha kiyim-kechak bilan siylashmaydi.

Amerika Qo'shma Shtatlaridagi erkinlik bola tarbiyasida ham o'z aksini topgan. Onalar farzandlarining har soniyalik qiziqishlari va injiqliklarini qondirishga tayyordirlar. Aksariyat bolalar 4-5 yoshlarida o'yinchoqlarning barxa turi bilan tanishishadi, ko'pincha amerikalik oilalarning garaj va omborxonalarini bir marotaba

o'ynalgan o'yinchoqlar bilan to'lib-toshadi. Ikkinchi tomondan, go'dakligidanoq amerikalik bolakaylar "Sen eng chiroylisan, eng yaxshisan, eng aqllisan, eng qobiliyatlisani", degan so'zlarni har kuni eshitgan holda o'sishadi. Maqsad - mustaqil insonni tarbiyalash! Agarda bola xato qilsa, uni urushmay: "Yana bir marotaba harakat qilib ko'r! Sen, albatta, buni uddalaysan! Chunki sen zo'rsan!" deya qo'llab quvvatlanadi.

Albatta, bunday yondashuv kelgusida o'zining mevasini beradi. Shvesiyada bolalarga shakllangan shaxs sifatida qarashadi. Ularning ham o'z huquqlari va majburiyatlari bor. Shuningdek, shvedlardagi bag'rikenglik, o'zgaga, uning qarashlariga, madaniyati, dini, irqiga nisbatan hurmatda va sabrli bo'lish, agarda insonning biror-bir jismoniy yoki ruhiy kamchiligi bo'lsa, unga tengqur sifatida qarash bolalikdanoq yosh avlod ongiga singdiriladi. 8-sinfdan boshlab o'quvchilarga "Bolalar haqida" degan fan o'tiladi. Ular oila qurish, homiladorlik, undan saqlanish yo'llari, jinsiy yo'l bilan yuqadigan kasalliklar, bola tarbiyasi va balog'at yoshida o'smirlar bilishi zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarga ega bo'ladilar. "Save the children" deb ataluvchi Amerikadagi tashkilot har yili dunyo mamlakatlarining qaysi birida onalar va bolalar yaxshi yashashlarining ro'yxatidan iborat Mothers Index (Onalar indeksi)ni tuzib chiqadi. Unda Shvesiya deyarli har yili birinchi o'rinni egallaydi. Chaqaloq dunyoga kelgach, yosh shved onalar davlat tomonidan har tomonlama qo'llabquvvatlanadi.

Finlyandiya dunyodagi eng bolajon mamlakat, desak, yanglishmagan bo'lamiz. Unda jismoniy imkoniyati chegaralangan bolalar oddiy bog'cha va maktablarga borishadi. Bu yerda nogiron va sog'lom bolaga ajratish qabul qilinmagan. O'yin bolani rivojlantiruvchi asosiy vositadir. Ota-onalar ham bunga katta e'tibor berishadi.

Fransiyada bolalarni chaqaloqlik davridanoq bolalar bog'chasiga berish odatiy holdir. Birinchidan, bu fransuz ayollariga ishlash imkoniyatini bersa, ikkinchidan, ular go'dakligidanoq jamoaga moslashadi va mustaqil bo'lib o'sadilar. 6 yoshidanoq fransuz bolakay o'zi mustaqil maktabga boradi, do'kondan narsa xarid qiladi, uyda yolg'iz qoladi. Shunga qaramay, fransuzlar 30-35 yoshgacha ota-ona uyida yashashlari va o'z oilasiga ega bo'lishga shoshilmasliklari mumkin. Onalar o'z farzandlariga ovozlarini ko'tarib urishishsa-da, hech qachon urmaydilar. Jamiyat qator qonunlar orqali bola huquqlarini himoya qiladi. Ota-onalar va vasiy shaxslar birinchi galda bolalarning rivoji hamda sog'ligi uchun mas'uldirlar.

Germaniyada bolalarning rivojiga 3 yoshdan boshlab katta e'tibor beriladi. Onalar o'z farzandlarini boshlang'ich bosqichda haftada bir marta, kattaroq bo'lganlarida bir necha marotaba maxsus rivojlantirish guruhlariga olib borishadi. Maqsad jamoa bo'lib o'ynash, o'zaro muloqotga o'rgatishdir. Faqatgina mazkur guruhlariga bola borganidan so'ngina uni bolalar bog'chasiga berishadi. Chunki farzandning bog'chaga ko'nikishi

oson kechadi va bolalar bu erda o'zlarini erkin his qiladilar. Bog'chada bolaga o'z huquqlarini, ularni hech kim xafa qilishi mumkin emasligini o'rgatishadi.

Angliyada bolalar bosqichma-bosqich tarbiyalanishadi. Chunki bu erda kech turmushga chiqish yoki uylanish odatiy hol. Ko'pincha inglizlar 35-40 yoshlarida ota-onalik baxtiga erishishadi. Shuning uchun ham farzand tarbiyasiga juda katta va jiddiy e'tibor berishadi. 2-3 yoshidan boshlab unga dasturxon atrofida o'zini tutishni, tevarakdagi odamlar bilan muomalada bo'lishni, o'z hissiyotlarini yashirishni o'rgatishadi. Angliya shaharlarining ko'chalarida bolasini erkalayotgan ota-onani kamdan-kam uchratish mumkin. Ma'naviy-ahloqiy rivojlanish shaxs rivojining sezitiv davrlarida, ayniqsa, faol yuz beradi. Bunday hol shaxsning o'z hayotidagi muayyan davrda yuksak darajadagi ma'naviy, ahloqiy, estetik va bilish ehtiyojlari bilan bog'langan bo'ladi. O'smirlik davrida shaxs o'zining ma'naviy-ahloqiy rivojlanishida hal qiluvchi qadamlarni qo'yadi. Bunga mazkur jarayonning rivojlanishi uchun zarur bo'lgan shartsharoitlarning muvofiqligi katta ta'sir o'tkazadi.

Shaxs taraqqiyotining har bir davri psixik rivojlanishning o'ziga xos sifat ko'rsatkichlariga ega bo'ladi. Ko'pchilik psixik xususiyatlar birgalikda shaxsning rivojlanishidagi vaziyatlar majmuasi bilan bog'liq bo'lib, ular jumlasiga shaxsning turmush tarzi, ijtimoiy shart-sharoitlari, tarbiyasi va faoliyati xususiyatlari, jinsiy, tipologik va individual xususiyatlarni kiritish mumkin. Insonning, jumladan o'smirning ijtimoiy mavqei (uning o'quv-tarbiya muassasadagi, oiladagi o'rni) muloqot shakllari va faoliyat turlari bilan belgilanadi.

O'smirlik davrida bola hayotiy makonining kengayishi faqat geografik ma'noda emas (sayohat, turizm va h. konsepsiyalarga intilish), shuningdek, ijtimoiy muhitning (o'smir kirayotgan guruhning soni ko'pligi, unda adabiyot, sa'nat, siyosat, iqtisod va h. konsepsiyaga qiziqish kuchayishi) ham yuz beradi. Lekin hayotiy makonning jiddiy o'zgarishi zamon o'lchovida yuz beradi. Endi bola kelajakni tasvirlashga intila boshlaydi. Yosh ulg'ayishi bilan hayotiy istiqbol masalalari bola ma'naviy hayotida ko'proq o'rin egallay boshlaydi va bu hol shaxs rivojlanishidagi eng dolzarb masalaga aylanadi. Shuning uchun ham o'smirlik davrida kelajakka munosabatdagi xira va noaniq tasavvurlar endi aniq rejalar va harakatlar bilan almashinadi. Kelajakdagi faoliyatni o'ylar ekan, o'smir o'zi tuzgan rejadan kelib chiqadi.

Katta yoshlilarning kelajakka munosabati ham xuddi shunday shaklda yuz beradi. Uning kitoblardan olgan bilimlari ko'pincha mavhum va ziddiyatlarga to'la. Masalan, badiiy asarlarda hayotda amalga oshirish mumkin bo'lmagan yumushlarni xam bajargan qahramonlar madh etiladi. Ikkinchi tomondan esa hayotdan uzilib qolmaslik targ'ib qilinadi. Kattalardan ibrat olish ham aksari xollarda qiyin bo'ladi. Chunki ular og'zida bir gapni aytishsa, ko'pincha amalda bunga zid ishlarni bajarishadi. Jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlar jamiyat va shaxs ongida aks etadi. Ikkinchi tomondan, ma'naviyat sohasidagi o'zgarishlar jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlarning

miqyosiga, yoʻnalishiga va surʼatlariga jiddiy taʼsir oʻtkazishi mumkin. Shuning uchun mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalarida amalga oshirilayotgan tub oʻzgarishlar jamiyatimiz, ijtimoiy guruhlar va alohida fuqarolar ongida oʻz inʼikosini topmoqda. Oʻz navbatida mamalakatimizdagi islohotlar koʻlami va surʼatlari maʼnaviyatimizning ham tez surʼatlar bilan rivojlanishini, aksariyat hollarda esa ijtimoiy-iqtisodiy soha rivojidan ildamroq va oldinroq yurishini taqozo etmoqda.

Bunday vazifani bajarish uchun maʼnaviyat yuksalishiga taʼsir oʻtkazishi mumkin boʻlgan barcha imkoniyatlarni ishga solish zarurati sezilmoqda. Ayni paytda maʼnaviyatni yuksaltirish, ayniqsa oʻsmir yoshlar maʼnaviyatini yuksaltirish koʻlami va surʼatlariga kuchli taʼsir oʻtkazishi mumkin boʻlgan psixologik omillarning imkoniyatlaridan yetarli foydalanilmayapti. Shaxsni maʼnaviy tarbiyalash uning butun umri davomida amalga oshirilishi lozim. Biroq bu vazifa individning oʻsmirlik davrida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Zero bu davrda shaxsning ijtimoiylashuvi, maʼnaviyatning negizi boʻlgan qadriyatlarni oʻzlashtirish jarayoni juda tezlashib ketadi. Shaxsning maʼnaviy rivojlanishiga mana shu davrda ozgina eʼtiborsizlik qilinsa, u aksilijtimoiy yoʻnalishga burilib ketishi, jamiyatimiz uchun yot boʻlgan mafkuralar, gʻoyalar taʼsiriga tushib qolishi mumkin. Oʻsmirlik davrida shaxs oʻzining maʼnaviy-ahloqiy rivojlanishida hal qiluvchi qadamlarni qoʻyadi. Shu holatning oʻzi ham oʻsmirlarni maʼnaviy-ahloqiy tarbiyalash va bu jarayonga taʼsir oʻtkazuvchi barcha omillarni, jumladan, psixologik mexanizmlarni tadqiq qilish qanchalik muhim ahamiyat kasb etishidan guvohlik beradi. Bolalarni maʼnaviy-ahloqiy rivojlantirish masalasiga tizimli yondashuv, jumladan, bu jarayonda kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlarini bir-biriga mutanosib ravishda rivojlantirish belgilangan maqsadlarga erishishning eng samarali usuli hisoblanadi. Bolalarni maʼnaviy-ahloqiy tarbiyalash ularning oʻzlarini oʻzlari tarbiyalashga yoʻnaltirish bilan qoʻshib olib borilgandagina yuqori samarali boʻlishi mumkinligini qayd qilish lozim.

4-§. Xitoyda Konfutsiylik axloqining besh asosiy ustuni.

Konfutsiylik yoki Konfutsiychili - Xitoydagi axloqiy-siyosiy taʼlimot; keyinchalik eng taʼsirli 3 asosiy falsafiy-diniy oqimdan biri (daosizm va buddizm bilan birga). Konfutsiy asos solgan. Konfutsiyning ilk davomchilari - Men-szi (Mek Ke - miloddan avvalgi 371-289), Ven-szi (miloddan avvalgi 6-asr), Xan Fey-szi (miloddan avvalgi 233 yil v.e.), keyingi davrda Fan Chjen (6-asr), Xan Yuy (768-824) va boshqa

Konfutsiy taʼlimotida insonparvarlik (jen), odob qoidalari (li), fazilat (de) tushunchasi muhim oʻrin egallaydi. Insonparvarlik tushunchasiga koʻra, odamlar axloqiy va ijtimoiy munosabatlarda yoshi ulugʻ, mavqei baland kishilarni xurmat qilishlari, podshohga sadoqatli boʻlishlari kerak. Odob kridalari tushunchasiga koʻra, u tufayli yuksak fazilatlar shakllanadi, jamiyat rivoj topadi, adolat tantana qiladi. Burchni ado etish tufayli in-son kamolotga erishadi. Uning negi-zida "sen oʻzing nimaga erishishni istasang, unga boshqalarning erishishiga koʻmaqlash", "sen nimani

orzu qilmasang, uni boshqalarga ravo ko'rama" kabi hayotiy tamoyillar yotadi. "Buyuk ta'limot" va "O'rtalik haqida ta'limot" degan asarlarni Konfutsiy yozgan deb taxmin qilinadi. Bu kitoblarga ko'ra, odamlarning birgalikda oqilona yashashi tartibining muhim shartini 5 ta oddiy va buyuk fazilat tashqil etadi: donolik; insonparvarlik; sadoqat; kattalarni hurmat qilish; jasorat. Bu fazilatlar o'ziga va boshqalarga xalollikni va chuqur hurmatni anglatadi. Faqat mumtoz va komil insonlarga bunday fazilatga ega bo'ladi.

Konfutsiyda ta'kidlanishicha, qonun inson manfaatlariga xizmat qilmog'i lozim. Qonun o'zgarishi bilan manfaatdorlik va manfaatsizlik tushunchalari ham boshqacha ma'no kasb etadi, inson faoliyatida tub o'zgarish ro'y beradi. O'tmishda o'rnatilgan tartibga sajda qilish yangi qonunlar ruhiga ziddir. KONSEPSIYada jamiyatni boshqarishga katta e'tibor berilib, unga ko'ra, jamiyatni keragidan ortik, oddiy qonunlar bilan to'ldirib yubormaslik zarur. Xitoyda asrlar mobaynida KONSEPSIYaning turli maktablari yuzaga kelgan. Ular o'rtasida keskin kurash borgan.

Konfutsiy milodiy 1 -asrda davlat ta'limotiga aylandi, 9-asrda buddizm, 11-asrda daosizm ustidan to'la g'alaba qozondi. Bunga, ayniqsa, Sun davri (960–1279)da neoKonfutsiychilik rivojlanganligi tufayli erishildi.

5-§. Yaponiya tarbiya tajribasi.

Yaponlardan juda ko'p narsani o'rganish mumkin. Ayniqsa, bu kungaboqar davlatning farzandlariga tarbiya berish usullari ko'pchilikni hayratga solib kelgan. Ularning tarbiya berish usuli "ikudzi" deb nomlanib, bu faqat pedagogik ta'lim berish majmui bo'libgina qolmay, yangi avlod ta'lim olishiga yo'naltirilgan falsafadir!

Ona va bola birdamligi Yaponiyada ona "amae" deb nomlanadi. Bu so'zni to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilib, uning chuqur ma'nosini yetkazib berish juda qiyin. Lekin bu so'z "amaeru" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "erkalash", "homiylilik qilmoq" ma'nolarini anglatadi. Asrdan asrga yaponiyalik oslalarda bola tarbiyasi -ayol kishining mas'uliyati hisoblanib keladi. Albatta, XXI asr tarbiya berish taomillari nihoyatda farqlidir. Masalan, avvallari ayollar faqat xonadon ishlari bilan shug'ullanishgan bo'lsa, zamonaviy yapon ayollari ta'lim olishadi, ishlashadi va sayohat qilishadi.

Shunga qaramay, agar ayol ona bo'lishga qaror qilsa, u o'zini butunlay oilaga bag'ishlashi kerak. Farzand 3 yoshga to'lmaguniga qadar ona bolasini o'zi o'stirishi va ishga chiqmasligi lozim. Ayolning asosiy majburiyati - ona bo'lishdir, zero, Yaponiyada o'z majburiyatlarini birovning zimmasiga yuklab qo'yish tartibi mavjud emas. Bundan tashqari, kichkintoy bir yoshga to'lmaguniga qadar ona va bola - bu bir butunni tashkil qiladi. Ona qayerga bormasin, nima ish qilmasin, chaqaloq doim ona bilan bo'lishi zarur! Oxirgi paytlarda "Bebi-sling"lar, ya'ni bolarni kenguru

qopchasiga o'xshash qopchalarda ko'tarib yurish Yaponiyada juda ilgariydan mavjud bo'lib, uning hozirgi kundagisi mukammallashgan zamonaviy ko'rinishidir.

“Amae” - o'z farzandining soyasidir. Muntazam jismoniy va ruhiy munosabat - onaga bo'lgan mustahkam obro'-e'tibor negizidir. Yapon ayollari uchun o'z bolasini hafa qilish va ranjitishdanda og'irroq narsa yo'q dunyoda.

Bola – poshsho. Kudzi nuqtai-nazarlariga ko'ra besh yoshgacha bola - farishtadir. U uchun man' qilingan narsaning o'zi yo'q, unga hech kim ovoz ko'tarishmaydi va hech qachon jozalamaydilar. U uchun “mukin emas”, “yomon”, “zararli” degan so'zlar mavjud emas. Bolakan o'zining bilim orttirish dunyosida erkin hayot kechiradi.

Yevropalik hamda amerikalik ota-onalarning fikriga ko'ra injiqliklariga erk berish orqali erkalash va nazoratning umuman yo'qligidir. Aslida, Yaponiyada ota-onaning hukumronligi G'arb mamlakatlariga nisbatan kuchliroqdir. Sababi, ularning tarbiyasi asosida keyingilar yotadi:

- shaxsiy misol;
- his-tuyg'ularga munosabat bilidirish.

1994-yili Amerika va Yaponiya o'rtasida bolalarga tarbiya hamda bilim berish bo'yicha tafovut ilmiy-tekshirishi o'tkazilgan. Olim Azuma Xiroshi ikki xil madaniyat vakillari ona-bolasidan piramida-konstruktorini yig'ish shartini e'lon qildi. Natijada, tadqiqotchilar shuni guvohi bo'lishdiki, yapon ona avval konstruktorni o'zi yig'ib, buni o'z farzandiga ko'rsatgan. Keyin bolasidan o'zi - mustaqil ravishda yig'ib ko'rishini so'ragan. Bolaning qo'lidan kelmasa, ona yana bir marotaba yasab ko'rsatib bergan.

Amerikaliklar esa boshqa yo'l bilan yasagan. Ular konstruktorni yasashdan avval, uning yasash algoritmini bolasiga tushuntirgan, so'ngra ona-bola konstruktorni yasashni boshlashgan. Pedagogik usullarning sezilarli farqini Azuma ota-onalikning “tushuntiruvchanlik” turi deya sharhladi. Ya'in, yaponiyalik ayollar o'z farzandlariga muomala va ish-harakatlari orqali “tushuntirishadi”. Shu bilan birga farzandlariga yoshligidanoq o'z hissiyotlarga, yaqinlari va hatto buyuumlarga ham e'tiborli bo'lishni o'rgatishadi. Sho'x kichkintoyini hech qachon issiq choynak oldidan haylashmaydi, bolakay kuyib qolsa, “amae” undan uzur so'ragan holda ish-harakatlari unga og'riq yetkazganini eslatib qo'yadi. Boshqa misol: erkanib ketgan bolakay hamma o'yinchoqlarini sindirib tashlaganda amerikalik yoki yevropalik onalar qanday yo'l tutadilar? Taxmin qilish mumkinki, qo'lidan o'yinchoqni tortib olib, uni sotib olish uchun qancha mehnat qilganligi haqida “ma'ruza” o'qib berad Yaponiyalik ayol esa hech qanday chora qo'llamaydi. Shunchaki “Sen uning jonini og'rityapsan” deydi.

Shunday qilib, rasmiy jihatdan yaponiyalik bolakaylarga 5 yoshgacha hamma narsa mumkin. Bu bilan birga bolada “Men” timsoli hamda “yaxshi” - tarbiyali va chin dildan sevuvchi ota-ona fikri shakllanadi.

Bola – qul.

Besh yoshida bola “shavfqatsiz haqiqat” bilan yuzlanadi, ular rioya qilishi shart bo‘lgan berahm qoida va cheklanishlar nimaligini ko‘radi. Bola uchun bunday keskin o‘zgarish og‘irlik qilsa kerak, deb o‘ylashingiz ham mumkin, albatta. Gap shundaki, asrdan-asrga yaponiyalik jamiyat - jamoaga qarashlidir. Tabiat va ob-havo hamda iqtisod sharoitlari odamlar bir-biri bilan jambul-jam bo‘lib ishlashi va yashashiga majburlaydi. Faqat bir-birini qo‘llash va fidokorlik guruchning umumiy hosiliga ega bo‘lishni ta‘minlaydi, ya‘ni mo‘l-ko‘lchilikni olib keladi. Bu bilan biz syudan isiki, ya‘ni jamoaviy ongni kuchli rivojlanganligini hamda patriarxal oilaviy tuzumni ko‘rishimiz mumkin.

6-§. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda AQSh tajribasi

Vatanparvarlik - shaxs ma‘naviyatining ajralmas qismidir. Yurt kelajagi, vatanimiz taraqqiyoti va xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimiz va yoshlarimizning qay darajada vatanparvar ekanliklariga bog‘liq. Hozirgi kunda ta‘lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga yagona ilmiy asoslangan yondashuvni ishlab chiqish kam sonli olimlar guruhining emas, balki butun boshli siyosiy-tadqiqot va fuqarolik jamiyati institutlarining ham muhim vazifasi hisoblanadi. Vatanparvarlik hissini singdirishda ham xorijiy davlatlar tajribasi va yutuqlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Shu o‘rinda O‘zbekistondagi tarbiyaviy va vatanparvarlik yo‘nalishi bo‘yicha olib borilayotgan ishlar fonida dunyoning qudratli davlatlaridan biri - AQSh vatanparvarlik tarbiyasi tajribasiga murojaat qilamiz. AQShda vatanparvarlikni shakllantirish tarixiy, madaniy, axloqiy, mafkuraviy va hayotiy qadriyatlarni rivojlantirish asosida amalga oshiriladi: “Novus Ordo Seclorum” (“Yangi dunyo tartibi”).

Bugungi kunda AQShning dunyodagi roli juda ziddiyatli. Bir tomondan, bu davlat tashqi siyosatida turli usullar bilan dunyodagi yetakchilik mavqeyini saqlab qolishga intilsa, boshqa tomondan esa, dunyodagi eng katta, qudratli iqtisodiyotlardan biri bo‘lib, o‘z fuqarolarining farovonligini juda yaxshi ta‘minlaydi.

AQSh qudratining asosi fuqarolarning vatanparvarligidir. Ko‘pchilik Amerika vatanparvarligi noyob hodisa ekanligini ta‘kidlamog‘da. Amerikacha vatanparvarlikning etnik, milliy yoki lingvistik asoslari yo‘q. Amerika vatanparvarligining mohiyati - “Novus Ordo Seclorum”da (so‘zma-so‘z “asrlarning yangi tartibi”) - Amerika demokratik qadriyatlarining ustunligiga bo‘lgan ishonch. U o‘tmishdagi ideallarga intilmasdan, kelajakka qaratilgan. AQShda o‘tkazilgan so‘rovlar shuni ko‘rsatadiki, amerikaliklarning to‘rt dan uch qismi o‘z mamlakati bilan faxrlanadi. Yarmi o‘z uylarini milliy bayroq bilan bezashadi. Haydovchilarning 15–20 foizi avtomobillariga Amerika bayrog‘ini osib qo‘yishadi. AQShda vatanparvarlik namoyishlari dunyoning aksariyat mamlakatlaridan farqli o‘laroq, rasmiylar tomonidan emas, balki amerikaliklarning o‘zlari tomonidan uyushtirilmoqda.

Vatanparvarlikning markaziy g'oyalari erkinlik, tenglik va adolat tamoyillaridir. AQSh jamiyatining hayoti ana shu uch g'oyaga asoslanadi. Ular insoniyat hozirgi paytda erishmoqchi bo'lgan va kelajakda avlodlariga berishni istagan g'oyalarni o'zida mujassam etadi. Vatanparvar xarakterining fazilatlariga jasorat, mas'uliyat, ta'sischi sifatida minnatdorchilik va umumiy manfaatlar uchun fidoyilikdir. Amerika xalqining o'z-o'zini anglashi Amerika milliy g'oyasining adolatning maxsus shakli sifatida o'ziga xosligini anglatadi.

Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda AQSh universitetlari alohida o'rin tutadi. Qo'shma Shtatlarda 1350 dan ortiq jamoat kollejlari va 2000 ga yaqin kollej va universitetlar mavjud. Xususi o'quv yurtlarining umumiy soni 65 foizni tashkil qiladi. Amerika oliy ta'lim tizimi boshqalardan farqli o'laroq muhim iqtisodiy, ijtimoiy va mafkuraviy funksiyalarni bajaradigan, shu jumladan, talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydigan yagona ijtimoiy institutni tashkil etadigan o'quv rejalari, kurslari va fanlari mavjud.

AQShda vatanparvarlikning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

AQSh Konstitutsiyasiga muvofiq axloq va erkinliklarning amalga oshirilishi. Ushbu tarkibiy qism AQShda vatanparvarlikning asosini tashkil qiladi. Amerikaliklar o'z huquqlaridan foydalanishni vatanparvarlik deb hisoblashadi. Bu hukumatni ochiq tanqid qilish, siyosatdagi o'zgarishlarni izlash va umumiy muammolarni hal qilish uchun boshqa fuqarolarni jalb qilish imkonini beradi. 1791-yilda qabul qilingan Konstitutsiya so'z, matbuot, yig'ilish va din erkinligini cheklashi mumkin bo'lgan qonunlarni qabul qilishga imkon bermaydigan qilib ishlab chiqilgan.

Barcha amerikaliklar tomonidan qadrlanadigan va tan olingan davlat ramzlari (madhiya va bayroq). AQSh madhiyasi 1812-yilda yozilgan va faqat 1931-yilda rasmiy davlat madhiyasi sifatida tan olingan. Madhiya an'anaviy ravishda, ko'pincha jonli ijro etiladi, bu esa tantanani kuchaytiradi. Aksariyat amerikaliklar madhiya so'zlarini bilishadi. Har bir shtatning ham o'z bayrog'i bor va shtat aholisi ko'pincha uni davlat bayrog'i yonida osib qo'yishadi. Kongressmenlar va senatorlar har doim o'zlarining bayroqlari manfaatlariga sodiqligini ta'kidlab, idoralarida AQSh bayrog'i yoniga o'zlarining bayrog'ini qo'yadilar. Keyingi ramz (bu asosiy kalitlardan biri) qanotlarini yoygan burgut AQShning ramzi. Ushbu gerb 1782-yilning yozida qabul qilingan va unda chizilgan rasm buyuk intilishlarni, millat mustaqilligini anglatadi va yaxshi kelajakka umid belgisidir. AQShda vatanparvarlik yuqori darajada. Amerika o'z vatanparvarligi bilan nafas oladi, u bilan faxrlanadi va turli xil mashhur guruhlar aynan vatanparvarlik tuyg'usi sababli birlashadi. Amerika maktablarining har bir sinfida davlat bayrog'i osilgan.

Jarayonlarning tanqidiy talqiniga xalaqit bermaslik uchun ilmiy soha vatanparvarlikdan xoli. Yoshlar doimo haqiqatni izlash, tanqidiy tahlil qilish bilan

ajralib turadi. Ilmiy sohaning tizimli vatanparvarlik ta'limidan ozodligi yoshlarning tashqi va ichki siyosat masalalariga, shu jumladan, amaldagi prezidentga va barcha hokimiyat organlariga tanqidiy munosabatini ta'minlashga qaratilgan.

AQShda prezident – davlatning va vatanparvarlikning tirik timsoli hamda g'ururi. Prezidentlik instituti vatanparvarlikning tarkibiy qismi sifatida davlatning tirik belgisi va vatanparvarlik manbai bo'lib xizmat qiladi. Amerika xalqi ishidagi xato va kamchiliklariga qaramay, o'z prezidentlari bilan faxrlanadilar.

AQSh hukumatining siyosati qanchalik to'g'ri bo'lishidan qat'i nazar, harbiy xizmatchilarni qo'llab-quvvatlash. 87% amerikaliklar harbiy xizmatni individual vatanparvarlikning yorqin namoyishi deb bilishadi. 2001-yil 11-sentabr xurujlaridan so'ng mamlakatda vatanparvarlik tuyg'usi ko'tarildi, qurolli kuchlarga qo'shilishni istaganlar oqimi sezilarli darajada o'sdi.

Ta'kidlash joizki, Amerika vatanparvarligi bu mamlakatga yangi hayot izlab kelgan millionlab Amerika fuqarolarini, turli mamlakatlardan kelgan muhojirlarni to'playdigan makondir. Agar vatanparvarlik tarbiyasining puxta o'ylangan va samarali dasturi bo'lmaganida edi, AQSh eng qudratli davlatlardan biriga aylanmagan bo'lardi.

Yaponlar uchun jamoaviy qiziqishlar barcha narsadan ustun. Odamzod esa og'ir mexanizmning bir bo'lakchasi bo'lib, agar bir inson jamoada o'z o'rnini topa olmasa, demak u e'tibordan qolgan odam! Aynan shu sabablarga ko'ra bolalarga 5 yoshgacha ushbu guruh a'zosi bo'lishni o'rgatishadi. Ularga “Agar shunday yo'l tutsang, ustingdan hamma kuladi” nutqi juda tanish. Zero, yaponlar uchun jamoadan chetlanishdanda qo'rqinchli narsaning o'zi yo'q va bolalar ham shaxsiy egoistik qiziqishlarini qurbon qilishga tez o'rganishadi. Doim o'zgaruvchi tarbiyachi yoki maxsus tayyorlovchi maktab o'qituvchisi ham murabbiy yoki tarbiyasi rolini emas, yo'naltiruvchi vazifasini bajarshadi. Uning pedagogik uslub xazinasida “Tarbiyasini kuzatuvchilarni vakil qilish”ni ko'rish mumkin. Masalan, qo'l ostidagi tarbiya beruvchisiga vazifa berish bilan birga tarbiyalanuvchilarni guruhlarga bo'lib, o'z guruhidagilar ishini kuzatish vazifasi yuklatiladi.

Yapon bolakaylarining sevimli mashg'uloti - komandada bajariladigan spor o'yinlari, estafeta va xor qo'shiqlarini kuylashdir. Guruh qoidalariga rioya qilish ham ona bog'lanib qolishda yordam beradi. Axir, jamoa tartibini buzsa, “amae” juda qattiq ranjydi, bu esa onasiga emas, shu bolaning o'ziga isnod degani.

Shunday qilib, bolakayning keyingi 10 yil hayoti guruhning bir qismi bo'lishga, jamoada kelishib ishlashga o'rgatadi. Bunga ko'ra unda guruhiy ongi hamda jamoaviy javobgarligi shakllanadi.

Bola – do'st.


15 yoshga kirib, bola to'laqonli shakllib voyaga yetgan shaxs sanaladi. Endi asosida avvalgi ikki bosqich yotuvchi qarshilik ko'rsatishi va tenghuquqlik bosqichi kirib keladi. “Ikudzi – bizning tushunchamizga ko'ra tarbiya berishning mantiqqa zid

shaklidir. Biroq bu usul asrlar mobaynida tekshirilgan va Vataniga sodiq, qonunlarga rioya qiluvchi tarbiyali fuqaroni katta qilishda yordam beradi”.



Nazorat savollari:

1. Jahon tarbiya konsepsiyalari qiyosiy tahlili haqida nimalarni bilasiz?
2. Tarbiya konsepsiyalari tarixi nechanchi yillarga borib taqaladi?
3. Yevropa mamlakatlarining tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish uchun ilg‘or tajribalarini o‘rganishda nimalarga e‘tibor berish lozim?
4. Xitoyda Konfutsiylik ta‘limi haqida nimalarni bilasiz?
5. Yaponiya tarbiya tajribasi qanday?
6. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda AQSh tajribasi haqida ma‘lumot bering.



III. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA MUVAFFAQIYATGA ERISHISHGA INTILISH MOTIVI SHAXSNING USTUVOR XUSUSIYATI SIFATIDA (1-4 SINIF TARBIYA DARSI)

Tayanch tushunchalar: *xulq, muvaffaqiyat, intilish, izlanuvchanlik, motiv, qadriyatlar, qadr, mehnatsevarlik, qobiliyat, xususiyat.*

1-§. Bolaning o‘z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishini kuchaytirish va o‘z-o‘zini baholashga qo‘yayotgan talablar.

Boshlang‘ich sinflarda yuqori bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun o‘quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasiga o‘quvchilarning motivlari sohasini o‘rganish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” hamda O‘zbekistonda ta‘lim tizimini isloh qilish va takomillashtirishga qaratilgan qator hujjatlarda ta‘lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, uni shaxsga - ta‘lim jarayonining asosiy subyektlaridan biriga qaratish alohida ta‘kidlab o‘tiladi. Shu munosabat bilan ta‘lim tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarning adekvat modelini qurish uchun o‘quvchi individual xususiyatlarini tahlil etishga yanada

sinchkovlik bilan yondashish talab etiladi. Qayd etilgan muammolarni tadqiq etish qator shart-sharoitlarga bog‘liq. Avvalo, ta’limda o‘quvchilar maqomini yangilash, ularni ta’lim jarayonining faol subyektiga aylantirish ehtiyoji tug‘iladi. Binobarin, bu masala muammoning ikkinchi tomoniga, ya’ni o‘quvchining ta’lim jarayoni subyektiga aylanish istagi va ehtiyojiga ham bog‘liq. Aynan, ana shunday ehtiyojni ularda paydo etish, ya’ni o‘quvchini o‘quv-biluv faoliyatiga motivlashtirish bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari motivlari sohasini o‘rganishga oid anchagina ilmiy tadqiqot ishlari olib borilishiga qaramay, motivlar sohasining korelyatsiyasi muammolari hali ham yetarli darajada o‘rganilmaganligi sezilmoqda. Keyingi yillarda o‘zbek pedagog olimlari tomonidan ham o‘quvchilar o‘quv-biluv faoliyatini tadqiq etishga oid qator keng qamrovli didaktik tadqiqotlar olib borildi. Shunday ishlar qatoriga O.Roziqov, K.Zaripov, N.Ortiqov, B.Adizov, R.Safarova, R.Asadova, U.Musayev, H.Nazarova, G.Najmiddinova, A.Hamroyev kabi olimlarning izlanishlarini kiritish mumkin. Garchand, bu ishlarda o‘quv-biluv faoliyatining turli qirralari yoritilgan bo‘lsada, ularda o‘quv-biluv faoliyatini motivlashtirishning ayrim masalalari bayon qilingan, xolos. Chunonchi, R.Safarova o‘quvchilarning amaliy faoliyati til materiallarini o‘zlashtirish ehtiyojiga ko‘ra boshqarilishi zarurligi xususida fikr yuritgan. U o‘quvchilarning qiziqishi, faolligi oshirilgan sari amaliy faoliyati ham rivojlana borishini ta’kidlagan. K.Zaripov esa o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimida o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish komponentlarini ajratib ko‘rsatadi. N.Ortiqov o‘quvchilar faoliyatida qiziqish, intilish, maqsad, ishonch kabi qator xarakterli xususiyatlarni ajratadi. Bular faoliyatning mahsuldorligi va yo‘nalishini belgilaydi. O.Roziqov o‘quv topshiriqlarida mazmun, maqsad, vazifa, usulni ularning invariantlari sifatida ajratgan. U o‘quv topshiriqlari invariantlarini o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini tashkil etish, boshqarish vositasi sifatida asoslagan edi. B.Adizov boshlang‘ich ta’limni ijodiy tashkil etish orqali, A.Hamroyev esa boshlang‘ich sinf ona tili ta’limi sharoitida o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini kuzatib, uni an’anaviy ta’lim metodikasidan farqli o‘laroq, ijodiy tashkil etish natijasida o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatiga rag‘bati, layoqati va qiziqishi oshirilishi mumkinligini asoslab beradilar.

2-§. O‘z qobiliyatlari va mehnatsevarlikka o‘rgatish

Insonning kundalik turmush tarzi mehnat va faoliyat bilan bog‘liqdir. Shu sababli mehnat umuminsoniy, milliy, moddiy va ma’naviy boylklarning ijtimoiy taraqqiyoti negizi hisoblanadi. Har tomonlama yetuk, barkamol avlodni yetishtirishda mehnat tarbiyasining o‘rni beqiyosdir. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Shuningdek, bolaning har tomonlama shakllanish vositasi, uning shaxs sifatida ulg‘ayish omili hamdir. Muntazam qilingan mehnat jarayonida bola o‘z aqlini, irodasini, hissiyotini, xarakterini rivojlantirishi mumkin.

Mehnat tarbiyasi o'quvchilarga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mehnat tarbiyasini shunday tashkil etish kerakki, inson mehnat jarayoni va uning natijasidan qanoatlanishini tarkib toptirishga ko'maklashsin. Mehnat tarbiyasining provard maqsadi shaxs xarakterining asosiy xislati sifatida uning mehantga bo'lgan ehtiyojini shakllantirishdir.

O'quvchilar mehnat faoliyatining turlari xilma-xil bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Maishiy mehnat;
2. O'quv mehnati;
3. O'quv ishlab chiqarish mehnati;
4. Texnik mehnat;
5. Ijtimoiy-unumli mehnat;
6. Ijtimoiy-foydali mehnat va boshqalar.

Oilada mehnat tarbiyasining dastlabki unsurlari qo'llaniladi. Bola muayyan yoshga to'lgach, kattalarga yordamlashadi, o'z imkoniyatlarini anglab yetadi va o'quv (ta'lim) mehnatiga muntazam tayyorlanadi.

Mehnat tarbiyasini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari:

1. Bolalar mehnatining o'quv-tarbiyaviy vazifalar bilan bog'liqligi;
2. Ijtimoiy ahamiyatli mehnatni o'quvchilarning qiziqishlari bilan birga qo'shib olib borilishi;
3. Mehnat faoliyatining hamma bopligi va qo'ldan kela olishi;
4. Mehnat faoliyatining majburiyligi va vijdoniyligi;
5. Mehnat faoliyatini tashkil etishda jamoaviy va individual shakllarini birga qo'shib olib boorish.

Mehnatning ijtimoiy-axloqiy ahamiyatiga e'tibor berish, mehnat o'quvchining yoshi, hayot tajribasi va imkoniyatlariga mos bo'lishi, ularning mehnat faoliyatlari ijodiy harakatda bo'lishi, o'z vaqtida kasblar haqida ma'lumotlar berib borilishi, mehnat ahillari bilan doimo suhbat va uchrashuvlar tashkil qilish kabilar. Mehnat tarbiyasining bosh g'oyasi shaxsda mehnat faoliyatini tashkil etish, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, ijtimoiy mehnatni qadrlash, mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash sanaladi.

Buyuk ajdodlarimiz mehnat tarbiyasi to'g'risida to'xtalib, qimmatli fikrlarni bildirib o'tishgan. Masalan, Abdurahmon Jomiy: "Oltin topmagnu o'rgan-gin hunar, hunarning oldida xasdir oltin-zar", - degan fikr bildirsalar, ulug' mutafakkir Alisher Navoiy: "Umrni zoye etma, mehnat qil, mehnatni saodatning kaliti bil", - deydilar. Fransuz adibi Anatol Frank: "Eng yaxshi axloqiy va estetik dori - mehnat", - degan fikrni ilgari suradi. Bundan tashqari "Avesto", Kaykovusning "Qobusnoma", Abu Nasr

Farobiyning "Fozil odamlar shahri", Abu Rayhon Beruniyning "Geodeziya", "Minerologoya", Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma'rifiy meros namunalarida mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan.

Bir qator o'zbek maqollarida ham inson hayotida mehnat alohida ulug'lanadi. Masalan, "Mehnat baxt keltirar", "Mehnat e'tibor garovi", "Mehnatsiz rohat yo'q", "Mehnat qacha og'ir bo'lsa, keti shuncha shirin bo'lar" va boshqalar.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mehnat, mehnat tarbiyasining ahamiyati bolaning hayotida, uning jisomanan, ma'nan tarbiya topishida, hamda yuksak kamolotga erishishida beqiyosdir. Har qanday tarbiya uchun poydevor eng avval oilada barpo qilinarkan, mehnat tarbiyasi ham bolada o'z uyida uy yumushlarida oila a'zolariga ko'maklashishidan boshlab rivojlanib boradi. Shu orqali bolada mehnatga nisbatan muhabbat, kelajak uchun esa ko'nikma va malaka hosil bo'ladi. Keyinchalik ta'lim dargohlarida, ya'ni bog'cha, maktab, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida mehnat tarbiyasi bosqichma-bosqich shakllantirib boriladi. Bu esa bolani uning jismoniy, aqliy qobiliyatiga, qiziqish va imkoniyatiga qarab kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirishga yordam beradi.

3-§. Ijtimoiy motivlarning paydo bo'lishi.

G.Najmiddinova tadqiqotlarida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini shakllantirish masalalariga alohida yondashilib, o'quv material va uning ustida ishlash orqali o'quvchilarda o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirish mumkinligi asoslab beriladi. O'quv-biluv faoliyatiga oid psixologik tadqiqotlar ilmiy izlanishlarning katta qismini tashkil etadi. L.S.Vigotskiy inson faoliyati va psixikasi – ruhiyatining uzviy bog'liqligi tamoyilini asoslagan edi: psixika faoliyatsiz, faoliyat psixikasiz amal qilmaydi. L.S.Vigotskiyning qarashlarini S.L.Rubinshteyn o'z tadqiqotlarida yanada rivojlantirdi. S.L.Rubinshteynning ta'kidlashicha, hissiyotlar faoliyat dinamikasi, sur'ati va tonusini belgilaydi. Shuning uchun ham har bir yosh davri uchun xos bo'lgan motivlar sohasining belgilangan rivojlanish qonuniyatlari ta'limning yangi dasturlarini ishlab chiqish hamda unda maxsus vazifalarni belgilash orqali o'quv-biluv motivlarini faollashtirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

A.N.Leontyev esa motivlar insonga faoliyati uchun, shuningdek, o'quv faoliyati uchun ham turtki bo'ladi va uni yo'naltiradi deb hisoblaydi. Uning ta'kidlashicha, faoliyat – bu subyektning borliqqa faol munosabatidir. Motiv va maqsadning bir-biriga mos kelishi faoliyatning eng muhim xususiyatidir. O'tkazilgan psixologik tadqiqotlar natijasida o'quvchilar faoliyati taraqqiyot darajasini o'rganish, ta'lining psixologik asoslarini bayon qilish, ularda aqliy faoliyat usullarini shakllantirish, qobiliyat va layoqatni tahlil qilish, o'zlashtirish, o'quvchilarning psixik rivojlanishini bayon qilish, ijodiy faoliyat muammolarini yoritish kabi psixologik hodisalar tadqiq qilingan.

Natijalar Pedagog olimlar tomonidan olib borilgan qator didaktik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradigan o'qitish omillari ichida o'quv-biluv faoliyatiga motivlashtirish omili birinchi o'rinda turar ekan, ya'ni ta'lim samaradorligi 92% o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirishga bog'liq ekan. Inson tabiatini ozgina bo'lsada tushunadigan kishi buning bejiz emasligini e'tirof etadi. Motivlar didaktik jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir.

Harakatlantiruvchi motivlarni o'rganish, to'g'ri qo'llash va uni to'g'ri yo'naltira olish pedagogik faoliyat mazmunining asosiy mohiyatini belgilaydi. Motivlashtirish – (lotincha moveo – harakatlantiraman, siljitanman degan ma'nolarni anglatadi) bu o'quvchilarni samarali o'quv-biluv faoliyatiga, o'quv materialini mazmunini faol o'zlashtirishga yo'naltiradigan jarayonlar, metodlar, vositalarning umumiy nomidir. Obrazli qilib aytganda, motivlashtirish tizginlarini o'qituvchi ham, o'quvchilar ham o'z qo'llarida tutib turadilar. O'qitish faoliyati nuqtai nazaridan qarasa, ta'limni motivlashtirish, o'qish faoliyati nuqtai nazaridan qarasa, o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirish haqida gapirish mumkin. Motivlashtirish shaxsning ruhiy holati va munosabatlarining o'zgarish jarayoni sifatida motivlarga asoslanadi. Motiv deganda shaxsni u yoki bu xatti-harakatni amalga oshirishga majbur qiladigan muayyan sabab, turtki tushuniladi.

Shuningdek, motiv deganda o'quvchining o'z faoliyati perimetriga munosabatini ham tushunish mumkin. Motivlar ehtiyoj va qiziqishlar, intilish va hissiyotlar, tayanch tushuncha va ideallar shaklida amal qilishi mumkin. Shuning uchun ham motivlar juda murakkab tuzilma bo'lib, alternativlar, tanlov va qarorlar tahlil qilinadigan, baholanadigan dinamik tizimdir. Motivlashtirishni o'rganish didaktika va pedagogik psixologiyaning markaziy muammolaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu borada muayyan yutuqlar qo'lga kiritilgan, ammo muammoning to'la yechimiga hali erishilgani yo'q. Motivlarning o'zgaruvchanligi, harakatchanligi, xilma-xilligi tufayli ularni muayyan tarkibiy tuzilmasini belgilash, boshqarishning aniq usul va vositalarini belgilash qiyin bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim tizimida mavjud bo'lgan motivlarni turli mezonlarga ko'ra tasnif etish mumkin. Turiga ko'ra ijtimoiy va biluv motivlari farqlanadi. Darajasiga ko'ra esa motivlar quyidagilarga bo'linadi: – Keng ijtimoiy motivlar (burch, mas'uliyat, o'qishning ijtimoiy ahamiyatini tushunish). Eng avvalo, bu shaxsning o'qish orqali o'zining jamiyatdagi ijtimoiy mavqegini tasdiqlashi bilan belgilanadi. – Tor ijtimoiy (yoki pozitsiyali) motivlar (kelajakda muayyan kasb-korni egallashga, atrofdagilarning e'tiboriga tushishga, o'z mehnatiga yarasha munosib taqdirlanishga bo'lgan intilish). – Ijtimoiy hamkorlik motivlari (atrofdagilar bilan turli ko'rinishdagi o'zaro hamkorlik qilishga, sinf jamoasi orasida o'z pozitsiyasi va o'rinini belgilashga intilish). – Keng biluv motivlari. Erudisiyaga ko'ra yo'nalish olish, ta'lim jarayoni va uning natijalaridan qoniqish hissi bilan belgilanadi. Kishining o'quv-biluv faoliyati uning

hayot faoliyatida yetakchi o‘rin egallaydi. – O‘quv-biluv motivlari (bilimlarni egallash usullari, muayyan o‘quv predmetlarini o‘zlashtirishga yo‘nalganlik). – Mustaqil ta‘lim motivlari (qo‘shimcha bilimlarni egallashga yo‘nalganlik). Amaliy pedagogikada bu motivlar yo‘nalishi va mazmuniga ko‘ra alohida guruhlariga birlashtiriladi:

- 1) ijtimoiy (ijtimoiy qimmatga ega) motivlar;
- 2) biluv motivlari;
- 3) kasbiy ahamiyatga molik motivlar;
- 4) estetik motivlar;
- 5) kommunikativ;
- 6) mavqe-pozitsiyali motivlar;
- 7) tarixiy-an‘anaviy motivlar;
- 8) utilitar-amaliy motivlar. Aniqlanishicha:

a) jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o‘quvchilar o‘quv motivlarining u yoki bu gurhlari yetakchilik qiladi;

b) motivlarning guruhlari o‘zaro dinamik bog‘liq holda muayyan shart-sharoitlarga ko‘ra amal qiladi. Ana shu bog‘lanishga ko‘ra o‘qishning (o‘quv-biluv faoliyatining) harakatlantiruvchi kuchi degan tushuncha paydo bo‘ladiki, uning xarakteri, yo‘nalganligi va ko‘lami motivlarning mujassam ta‘siriga ko‘ra belgilanadi. Turli xildagi motivlar didaktik jarayonlarning kechishi va natijalariga turlicha ta‘sir ko‘satadi. Masalan, keng biluv motivlari ko‘proq ta‘lim mazmunini qamrab olishga intilishda namoyon bo‘ladi, amm shunga qaramay bu motivlar o‘quv-biluv motivlariga nisbatan kuchsiz bo‘ladi. Chunki o‘quv-biluv motivlari tor sohada mustaqil faoliyat yuritishga stimullashtiruvchi eng yaxshi vosita bo‘lib hisoblanadi. Raqobatchilik muhitida esa ko‘proq utilitar-amaliy motivlar hukmronlik qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda maktab o‘quvchilari motivlarini maqsadga yo‘naltirilgan xatti-harakatlar asosida yotuvchi - qo‘zg‘otuvchi hamda umumahamiyatga molik bo‘lgan qadriyatlarni shaxsiy qadriyatlar darajasiga olib chiqadigan mohiyat kasb etuvchi motivlar singari turlarga ajratish mumkin.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarning o‘quv-biluv faoliyatini motivlashtirishda o‘qituvchi juda muhim o‘rin egallaydi. Chunki u ta‘lim jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi subyekt sifatida o‘quvchilarning o‘quvbiluv faoliyatini ham bevosita boshqarib boradi. Ehtiyojlar, motivlar, stimullar – bir dalaning hosilidir. Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarni stimullashtirish ularda o‘quv-biluv motivlarining boshqa motivlardan ko‘ra kuchliroq bo‘lishiga xizmat qiladi.

4-§. O‘z xalqining va boshqa xalqlarning an‘analari, qadriyatlariga qiziqishning namoyon bo‘lishi.

Har qanday jamiyat, ijtimoiy-tarixiy birliklar (urug‘, qabila, elat, halq, millat), ijtimoiy subektlar va boshqalar o‘ziga hos qadriyatlar tizimiga ega bo‘ladi. Bu qadriyatlar tizimida asosiy bo‘lmagan qadriyatlar muayyan qatorni tashkil qiladi, turli

holatlarda namoyon bo‘ladi. Jamiyat rivojining muayyan davri yoki biror davlatda ham ana shunday qadriyatlar tizimi mavjud bo‘ladiki, u o‘sha davr, jamiyat va davlat kishilari, ularning faoliyati uchun umumiy mezon vazifasini o‘taydi. Har bir ijtimoiy tarixiy birlik, sinf va partiyalar ham ana shunday qadriyatlar tizimi asosida faoliyat ko‘rsatadilar, ulardan foydalanadilar yoki ularga erishishning turli usullarini qo‘llaydilar.

U yoki bu qadriyatning ahamiyatini aniqlashda ana shunday tizimlar mavjud ekanligini unutmaslik, uning biror davr, ijtimoiy birlik, soha, jarayon va boshqalar uchun qanday mavqega ega ekanligini nazardan qochirmaslik lozim.

Qadriyatlarning namoyon bo‘lish shakllari. Bir qarashda qadriyatlarning shakllari son-sanoqsiz va nihoyatda tartibsizga o‘hshab ko‘rinadi. Aslida esa bashariyat, olam, tabiat va jamiyatda ajabtovur uyg‘unlik mavjud. Qadriyat shakllari ham ularga mos ravishda ana shunday uyunlikda, qonuniy bog‘lanishda, umumiy aloqadorlikdadir. Bunday holatda ularning klassifikაციyasida tabiat va jamiyatdagi narsa, voqea, hodisa, jarayonlar muayyan ko‘lamda, qadriyat shakllari esa ular bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Makon va zamonda ushbu qadriyat ob‘ektlari borliqning biror shakli, jihati, voqelikning biror qismi, olamdagi narsalar va atrof-muhitning eng muhim tomonlari sifatida namoyon bo‘ladi. ushbu ma‘noda qadriyatlarning umumbashariy, umumsayyoraviy va mintaqaviy hamda biror kichik hudud yoki joyga bog‘liq bo‘lgan shakllarini ko‘rsatish mumkin. Bunda umumiylik, hususiylik va alohidalikning dialektikasi zamonaviy atamalar “global”, “zonal” va “local” qadriyat obektlarining o‘zaro munosabati tarzida zohir bo‘ladi.

Jamiyatning yashashi, odamlarning hayot kechirishi uchun yuqoridagi qadriyatlar bilan birga jamiyatdagi umumijtimoiy va umuminsoniy qadriyatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning jamiyat, uning tuzilishi, ijtimoiy birliklar va ijtimoiy ong shakllariga aloqador turkumlarini ko‘rsatish mumkin. Masalan, jamiyatning tuzilishiga hos milliy, sinfiy, irqiy va boshqalar yoki ijtimoiy ongning shakllariga bog‘liq: siyosiy, huquqiy, ahloqiy, diniy, hamda jamiyatning asosiy sohalariga bog‘liq: iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma‘naviy. Ijtimoiy qadriyat shakllari orasidagi farqlar aslo mutlaq emas, balki nisbiydir. ular orasida o‘tib bo‘lmas chegaralar yo‘q.

Bugungi kunga kelib qadriyatlar iborasi nihoyatda mashhur bo‘lib ketdi. Uni juda keng ma‘noda ishlatish, ayniqsa, madaniy-ma‘naviy hodisalar, urf-odatlar, an‘analar va boshqalarga nisbatan umumiy nom yoki atama sifatida qo‘llash hollari ko‘p uchramoqda. Kundalik muloqotda qadri bor narsa, voqea, hodisa, hususiyat va boshqalarni «qadriyat» deb atashga ko‘pchilik o‘rganib qoldi. Ammo har bir so‘z, atama va tushunchaning mohiyati va mazmunini o‘ziga siqdiradigan sifat chegarasi bor. U yoki bu tushunchadan ana shu mazmunga sig‘maydigan ko‘lamni talab qilishning keragi yo‘q. Zero, qadriyat tushunchasining ommalashib, mashhur bo‘lib

ketganligi juda yahshi. Lekin uni yanada kengroq ma'noda yoki zarur bo'lmagan hollarda ham ishlatish bu tushunchaning mazmunini hiralashtirishi, uning mohiyatini ifodalaydigan sifat chegarasini sarobga aylantirib qo'yishi, qadriini tushirishi mumkin.

Xalqimizning "Qadrsiz qadriyat yo'q!", "Qadrlanmaydigan qadriyat sarobga o'xshaydi", degan hikmatlari bor. Ana shu sababdan ham, mamlakatimiz taraqqiyoti hozirgi davrining yuksak ifodalari bo'lgan istiqlol, buyuk kelajak, vatanparvarlik, insonparvarlik, demokratiya, qonunning ustuvorligi kabi serqirra qadriyatlarni nihoyatda qadrlashimiz lozim. Ularning birinchisi - istiqlol e'lon qilgan O'zbekiston taraqqiyotining yangi asr bo'sag'asidagi asosiy haqiqati, ikkinchisi - istiqboldagi eng oliy orzu-idealimiz, boshqalari esa qurilayotgan jamiyatimizning ijtimoiy va ma'naviy tamoyillarini belgilaydigan purma'no qadriyatlarimizdir.

Inson qadri. Istiqlol inson qadri, uning manfaat va ehtiyojlari bilan bog'liq masalalarni dolzarblashtirib yubordi. Inson qadri uning ijtimoiy hususiyatlari, jamiyatda amalga oshirgan faoliyati, boshqalarga va atrof-muhitga munosabati, kamolotga etganligi, ijtimoiy hususiyatlarni o'zlashtirib olganligi va ularni ma'naviy qiyofasida namoyon qila olganligida ham ko'rinadi. Odam bolasining shahsga aylanishi, o'z qadriini va o'z galar qadriini anglash jarayoni uzoq yillar davom etadi.

Umuman, odamzod naslining hozirgi avlodi uchinchi ming yillikni kutib olayotgan bugungi kunlarda butun dunyoda qadrlash falsafasining umuminsoniy mezonlarini amaliyotda qo'llashga ehtiyoj kuchaydi. Taassufki, inson zoti sayyoramizda yashagan ilk davridan boshlab qadr va qadriyatni ustuvor bilganida, Yer yuzining zamonaviy manzarasi butunlay boshqacha tus olgan, kishilikni ekologik bo'hronlar, urush havfi va ma'naviy tanazzul kabi umumbashariy muammolar kutib turmagan bo'larmidi?

Bugungi kunga kelib, insoniyat yana tabiat va odamzod naslining uyg'unligini saqlab qolish uchun qadr va qadriyat nihoyatda zarur ekanligini angladi. XX asrning ohirgi va XXI asrning boshlanishidagi birinchi besh yilliklar BMT tomonidan «Inson huquqlari o'n yilligi» deya e'lon qilinganligi, kishilik jamiyati esa yangi ming yillikka umuminsoniy qadriyatlarni barqaror qilishga bel bog'lab o'tayotganligi bejiz emas. Hozirgi O'zbekistonda inson manfaatlari va haq-huquqlarini ro'yobga chiqarish, qadrlashning umuminsoniy tamoyillarini ustuvor qilish bilan bog'liq faoliyatlar butun jahonda bu boradagi umumiy hamkorlikni mustahkamlash harakatining tarkibiy qismiga aylanmoqda.

5-§. Boshlang'ich sinflarda o'quv mativlarining xususiyatlari

Yoshlarni erkin fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va barkamol inson qilib tarbiyalash boshlang'ich sinflardan olib boriladi, bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Shu sababdan ham ta'lim mazmuni tubdan yangilanib borilmoqda. Kichik maktab yoshi davrida bolada mustaqil ta'lim olish motivlari yuzaga kelib, ular eng oddiy shaklda – bilimlarni olish bilan birgalikda qo'shimcha manbalarga va turli

mavzulardagi kitoblarni o'qishga qiziqishi bilan yuzaga keladi. Ijtimoiy motivlar birinchi sinfga kelgan bolaning differensial bo'lmagan, umumiy tushunishdan o'qish va o'rganishning zarurligi sabablarini anglashda, "o'zi uchun" o'qish mazmunini anglab yetishda ijtimoiy motivlarni amaliy xarakter kasb etishiga sababchi bo'ladi. Motivlar asosida o'quvchining o'quv mustaqilligini shakllanishi rivojlantiruvchi ta'lim shartlariga bog'liqdir: – faoliyat maqsadi. Nima qilinayotganligi va nima uchun qilinayotgan bola uchun tushunarli bo'lishi kerak. – o'quvchi faoliyatida motivlar katta ahamiyatga ega.

Motivlar qo'yilgan maqsadga erishish uchun harakat qilishga yo'naltiradi. – faoliyat mazmuni. Pedagog tomonidan beriladigan bilimlarni emas, balki o'quvchining o'zi tomonidan mustaqil izlaydigan va egallaydigan bilimlarni taqdim etish. Turli aqliy harakatlarni talab etuvchi topshiriqlar o'quvchilar bilimlarining rivojlanshiga olib keladi. – o'quvchi tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat tarkibiga kiruvchi harakatlarning ahamiyati katta. Harakatlar turlicha bo'lishi mumkin. Oddiy harakatlar (qandaydir bir harakatlarni takrorlash), ijodiy harakatlar, amaliy va aqliy harakatlar.

O'quvchi murakkab topshiriqni o'zi mustaqil rejalashtirib bajarishi yoki pedagogning ko'rsatmasiga ko'ra bajarishi mumkin, bunda asosan, o'quvchidan mavzuni diqqat bilan eshitishni va uni aniq bajarishni talab etadi. Lekin murakkab topshiriqlarni mustaqil bajarish, undan mustaqil harakat qilishni, topshiriqni bajarishni yo'llari va uslublarini mustaqil topishni talab etadi. – barcha tashkiliy sharoitlar yaratilmasa har qanday faoliyatning rivojlantiruvchi imkoniyati yo'qoladi. – o'quvchining faoliyati rivojlantiruvchi xarakter kasb etishi uchun, u doimo murakkablashtirilib borilishi kerak. Faoliyat mazmuni va vazifalari asta-sekinlik bilan murakkablashib boradi, vazifalarning tezligi va sifatiga talab oshadi, vazifalarni bajarishda va yechimini topishda o'quvchilar mustaqilligiga asoslanilgan bo'lishi kerak. Shuning uchun uning faoliyat natijasi pedagog tomonidan nazorat qilinishi va baholanishi lozim. – o'quvchi o'z muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizliklarini bilishi (bizning fikrimizcha, nazorat va baholash yo'llari o'quvchilarning o'zlariga ham o'rgatib borilishi zarur).

Har qanday sharoitda baho o'quvchini kelgusidagi murakkab va qiziqarli faoliyatga undovchi stimulyator vazifasini o'tashi lozim. Ko'rsatib o'tilganlar kichik maktab yoshdagi o'quvchilarning motivatsion sohasi o'zgarib, ularni, "o'quvchi mavqei"ni egallashiga, ya'ni umumiy o'rta ta'lim maskaniga borishga bo'lgan intilishi, qondirilganidan so'ng, yangi munosabatlarning – o'quv motivlari va bir qancha murakkab shaklda bo'lgan ijtimoiy motivlarning yuzaga kelishidan dalolat beradi. Kichik maktab davrining oxirlariga kelib o'quvchilarda o'quv bilish motivlari, ya'ni faqat yangi bilimlarni va umumiy qonuniyatlarni emas, balki yangi bilimlarni topishning aynan biror-bir yo'llarini egallashga qiziqish shakllantirilgan bo'lishi lozim.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar o'quv motivatsiyasi xususiyatlarini, ichki yoki tashqi motivatsiyaning ustunligini aniqlash uchun N. G. Luskanova tomonidan taklif etilgan so'rovnoma shaklidagi metodikadan foydalanish mumkin. Fanda o'quvchilar o'quv motivatsiyasi xususiyatlarini o'rganishga xizmat qiluvchi ko'pgina psixodiagnostik metodikalar ma'lum. Ammo ushbu metodika o'zining ixchamligi, undagi savollarda o'quvchi uchun odatiy bo'lgan hayotiy vaziyatlar aks etishi, javob variantlarining tayyor holda keltirilgani, uni ham individual, ham guruhviy qo'llash mumkinligi, olingan natijalarni qayta ishlash jarayonini qulaylashtiradi.

Motivlar asosida o'quvchining o'quv mustaqilligini shakllanishi rivojlantiruvchi ta'lim shartlariga bog'liqdir:

✓ faoliyat maqsadi. Nima qilinayotganligi va nima uchun qilinayotgan bola uchun tushunarli bo'lishi kerak.

✓ o'quvchi faoliyatida motivlar katta ahamiyatga ega. Motivlar qo'yilgan maqsadga erishish uchun harakat qilishga yo'naltiradi.

✓ faoliyat mazmuni. Pedagog tomonidan beriladigan bilimlarni emas, balki o'quvchining o'zi tomonidan mustaqil izlaydigan va egallaydigan bilimlarni taqdim etish. Turli aqliy harakatlarni talab etuvchi topshiriqlar o'quvchilar bilimlarining rivojlanshiga olib keladi.

✓ o'quvchi tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat tarkibiga kiruvchi harakatlarning ahamiyati katta. Harakatlar turlicha bo'lishi mumkin. Oddiy harakatlar (qandaydir bir harakatlarni takrorlash), ijodiy harakatlar, amaliy va aqliy harakatlar. O'quvchi murakkab topshiriqni o'zi mustaqil rejalashtirib bajarishi yoki pedagogning ko'rsatmasiga ko'ra bajarishi mumkin, bunda asosan, o'quvchidan mavzuni diqqat bilan eshitishni va uni aniq bajarishni talab etadi. Lekin murakkab topshiriqlarni mustaqil bajarish, undan mustaqil harakat qilishni, topshiriqni bajarishni yo'llari va uslublarini mustaqil topishni talab etadi.

✓ barcha tashkiliy sharoitlar yaratilmasa har qanday faoliyatning rivojlantiruvchi imkoniyati yo'qoladi.

✓ o'quvchining faoliyati rivojlantiruvchi xarakter kasb etishi uchun, u doimo murakkablashtirilib borilishi kerak. Faoliyat mazmuni va vazifalari asta-sekinlik bilan murakkablashib boradi, vazifalarning tezligi va sifatiga talab oshadi, vazifalarni bajarishda va yechimini topishda o'quvchilar mustaqilligiga asoslanilgan bo'lishi kerak. Shuning uchun uning faoliyat natijasi pedagog tomonidan nazorat qilinishi va baholanishi lozim.

✓ o'quvchi o'z muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizliklarini bilishi (bizning fikrimizcha, nazorat va baholash yo'llari o'quvchilarning o'zlariga ham o'rgatib borilishi zarur).

Har qanday sharoitda baho o'quvchini kelgusidagi murakkab va qiziqarli faoliyatga undovchi stimulyator vazifasini o'tashi lozim. Qolaversa, o'quv

motivatsiyasi darajasi asosida ichki va tashqi motivatsiyadan qaysi biri ustunligi haqida xulosa chiqarish uchun zarur ma'lumotlarni to'plash imkonini beradi. N. G. Luskanova taklif etgan metodika uchun ishlab chiqilgan standart baholar o'quvchilar o'quv motivatsiyasi tizimida ichki yoki tashqi motivlar ustuvorligi aniqlash imkonini beradi. Bunday metodikadan amaliyotda foydalanuvchi mutaxassislarning ko'rsatishicha, o'rtacha o'quv motivatsiyasiga mos ko'rsatkichlar odatda tashqi motivatsiyadan darak bersa, o'rtachadan yuqori motivatsiya, tashqi talab va me'yorlardan nisbiy mustaqillik, ya'ni ichki motivlarga ko'proq tayanishni ko'rsatadi.

Yoshlarni erkin fikrlovchi, yangilikka intiluvchi va barkamol inson qilib tarbiyalash boshlang'ich sinflardan olib boriladi, bu jarayon muhim vazifalardan biridir. Shu sababdan ham ta'lim mazmuni tubdan yangilanib borilmoqda. Kichik maktab yoshi davrida bolada mustaqil ta'lim olish motivlari yuzaga kelib, ular eng oddiy shaklda – bilimlarni olish bilan birgalikda qo'shimcha manbalarga va turli mavzulardagi kitoblarni o'qishga qiziqishi bilan yuzaga keladi. Ijtimoiy motivlar birinchi sinfga kelgan bolaning differensial bo'lmagan, umumiy tushunishdan o'qish va o'rganishning zarurligi sabablarini anglashda, "o'zi uchun" o'qish mazmunini anglab yetishda ijtimoiy motivlarni amaliy xarakter kasb etishiga sababchi bo'ladi.

6-§. Motivatsiya – muvaffaqiyat garovi

Har bir muvaffaqiyat ortida nima turadi, bilasizmi? AQShda nufuzli oliy o'quv yurtida to'liq grant bilan o'qish imkoniyatini qo'lga kiritish uchun, avvalo, nima qilish kerak? IELTSdan 7 ball olish kerakmi yoki qattiq mehnat qilish kerakmi? Albatta, bular muhim. Lekin bulardan ham oldin sizda ishtiyoq bo'lishi kerak. IELTSdan 7 ball olishingizni ta'minlaydigan qattiq mehnatni sevib qilishingiz kerak. Bu sevgini esa sizga motivatsiya beradi. Busiz tezda zerikib qolasiz; o'qish og'ir mashaqqatga aylanadi. Litseyda o'qib yurganimda mening uchun dunyodagi eng ulkan orzu Toshkentda o'qish edi. Rejalarimda bu marradan keyingi hayotga hali o'rin yo'q edi. Bir sutkada 15-20 soatgacha dars qilardim. Qabul imtihoniga tayyorlanish uchun hatto sahar 3 da turib dars qilgan paytlarim bo'lgan. Ertalab kallaga yaxshi kiradi, deyishardi. O'qishga ham kirdim, Toshkentga ham keldim. Qarasam, hali hayot oldinda ekan... Shundan keyin ham ko'p muvaffaqiyatlarga erishdim, lekin hech qachon abituriyentlik davrimdagidek qattiq o'qimaganman. To'rt yillik Toshkentdagi o'qishni abituriyentlik davrida olingan bilimlar bilan tamomlaganman, desam xato bo'lmasa kerak. Universitetda o'qishni boshlaganimdan keyin ingliz tilini tashlab qo'ydim. Chunki o'rganishga ishtiyoq, sabab yo'q edi. O'sha paytlar "Tasvir" degan gazeta bo'lardi. Bir kuni shu gazetada, adashmasam, IREX orqali AQShda o'qish uchun hujjat qabul qilinayotgani haqida kichkina e'lon o'qib qoldim. Shundan so'ng ingliz tili darslarimni yana davom ettirishga ishtiyoq paydo bo'ldi. Yana o'qishga tushib ketdim. Chunki endi sabab bor edi. Aytmoqchi bo'lganim nima? Oldingizga maqsad qo'ying va shu maqsadga erishish uchun qattiq mehnat qiling. Do'stlaringizning o'yin-kulgi, kayfu

safo qilib yurgani sizni chalg'itmasin. Bugun kamroq uxlarsiz, kamroq choyxonada o'tirarsiz, lekin ertaga bularning hammasiga sizda yetali vaqt ham, mablag' ham bo'ladi. Bir-ikki yil qiynalasiz, lekin keyin bir umr rohat-farog'atda yashashingiz uchun zamin yaratasiz. Shuning uchun qisqa muddatli mashaqqat va rohat-farog'at sizni chalg'itib qo'ymasin.


AQShda yuzlab universitetlar bor. Deyarli barchasida qaysidir darajada grant dasturlari bor. Aksariyatida xorijliklar uchun ham grant yoki moliyaviy yordam beriladi. Demak, siz ularning har birini qo'lga kiritish imkoniyatiga egasiz. Nima qilish kerak? Mehnat qilish kerak, xolos. Umumiy talablar barcha joyda bir xil: IELTS/TOEFLdan minimum ball, maktab/kollej/litsey yoki bakalavr diplomi yoki GRE/GMAT testlari (magistratura uchun). Sizning mendan yoki AQShda o'qiyotgan boshqa o'zbekistonliklardan hech qanday farqingiz yo'q. Kallamiz ham, kalla ichidagi miyamiz ham, miya ichidagi to'qimalarimiz ham bir xil. Farqi shundaki, qaysidir davrda bizning oldimizda AQShda o'qish imkoniyati chiqib qoldi va bu imkoniyatdan unumli foydalana oldik. Sizda ham shu imkoniyat bor. AQShda o'qish uchun bir emas, ikki emas, yuzlab imkoniyat bor va bu imkoniyatlar har yili keladi. Siz shu imkoniyatga o'zingizni tayyorlasangiz bas. Imkoniyat sizning tayyor bo'lishingizni kutib turmaydi, siz o'zingizni unga tayyorlashingiz kerak.

Demak, mehnatdan, o'qishdan to'xtamang.



Nazorat savollari:

1. Bolaning o'z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishini kuchaytirish yo'llari qanday?
2. O'z qobiliyatlarini bilishga va mehnatsevarlikka o'rgatish haqida ma'lumot bering.
3. Ijtimoiy motivlarning paydo bo'lishi tarixi haqida nimalarni bilasiz?
4. O'z xalqining va boshqa xalqlarning an'analari, qadriyatlariga qiziqish bolada qachondan paydo bo'ladi?
5. Boshlang'ich sinflarda o'quv mativlarining xususiyatlari qanday?
6. Muvaffaqiyatning garovi.



IV. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH (1-4 SINIF TARBIYA DARS)

Tayanch tushunchalar: *kuzatish, ta'sir etish, kompetensiya, diagnostika, korreksiya, ta'lim texnologiyalari.*

1-§. O'quvchilarni o'rganish, kuzatish va ta'sir ko'rsatish.

Sinf rahbari o'z o'quvchilarini bilmasa, u o'quvchilarga yondashishda, pedagogik ta'sir ko'rsatish metodikalarini tanlashda katta xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Shu sababdan ham sinf rahbari o'quvchilar shaxsini balki jamoani ichki muhitini ham bilishi zarur. Bunda, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hamisha va hamma holda hisobga olmoq zarur, o'quvchilarga individual yondashish bu har qaysi o'quvchining xususiyatiga individual moslashish emas. Bu eng avvalo har qaysi o'quvchining individual xususiyatini, uning shaxsiy tajribasini hisobga olgan holda unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning yanada samarali yo'lini faol qidirib topish. O'quvchilarga tarbiya berish jarayonida ularga individual yondashish har qaysi o'quvchini o'z nazar-e'tiborida tutishdan, uning xususiyatlarini bilishdan, uning ijobiy xislatlariga tayanishdan, unga o'g'ir vaziyatlarda muntazam yordam ko'rsatib borishdan va uni yaxshi xatti-harakatlari uchun rag'batlantirib borishdan iboratdir.

O'quvchilarni o'rganib ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish, o'quvchini o'rganish pirovard maqsad emas, balki ularga ta'lim-tarbiya berish uchun zaruriy shart-sharoitdir. O'quvchilarni o'rganish borasidagi ishlar shaxsini kamol toptirishning tabiiy tarzda faol ishtirok etishi bilan, o'quvchilarda zaruriy ma'naviy xislatlari va karakterini tarkib toptirish bilan organik ravishda qo'shib ketadi. Sinf rahbari o'quvchilar xulq-atvoridagi ijobiy xislatlarni rivojlantirish, salbiy xislatlarga barham berishni "loyihalashtiradi".

O'quvchilarni o'rganishni rejali tarzda va muntazam olib boorish darkor. O'quvchi xulq-atvoridagi yakka-yarim uchraydigan va tasodifiy voqealarni emas, balki uning shaxsida juda ko'p uchraydigan tipik xususiyatlarni o'rganmoq kerak. Shuni hisobga olish kerakki, o'quvchilar har doim o'sib-rivojlanib boradi va shu bilan birga ularning qiziqishlari ham domiy o'zgarib turadi. Shuning uchun ham o'quvchilarni faqat rivojlanishga o'rgatmoq zarur.

O'quvchilarni tabiiy hayot va ish faoliyati sharoitida o'rganish. O'quvchi ta'lim jarayonida ijtimoiy foydali maslahatga va jamoat ishiga jalb qilish lozim.

O'quvchilarning oqituvchi, o'quvchilar jamoasi, ota-onalar va tevarak-atrofdagilar bilan krishadigan munosabatlarini o'rganish lozim. Bu munosabatlart jarayonida shaxs yanada to'la ochiladi. O'rganishda turli metodlar va usullardan foydalanish mumkin. Ota-onalar bilan suhbat jarayonlari ham bolani o'rganishga yordam beradi.

O'quvchilarni o'rganib ularni hayoti va turmush sharoiti bilan tanishish. O'quvchilarning axloqiy xislatlari, uning yutuq va kamchiliklari, ta'lim-tarbiya olish jarayonida uy sharoiti, tashqi muhit ham inobatga olinadi.

Shaxsning alohida xususiyatini emas, balki butun shaxsini o'rganmoq darkor. Sinf rahbari tarbiyaviy ishlarning turli bosqichlarida o'quvchi xulq-atvorining ayrim tomonlarini o'rganishga e'tiborr qaratishi mumkin. O'quvchini har tomonlama o'rgatishga erishmoq uchun, dasturni oldindan yaxshi o'ylab tuzish, o'quvchilarni o'rgatish rejasini, suhbat savollarini insholar mavzularini tanlab olish zarur. Sinf rahbari sinf o'quvchilari haqida quyidagi tavsifnomaga ega bo'lishi kerak:

1. sinfda jami... o'quvchi, ...tasi qiz, ...tasi o'g'il bola
2. shulardan ...tasi "bolalar va o'smirlar" uyushmasi a'zosi.
3. o'quvchilarning bilim darajalarini nazorat qilishning reytinga ko'ra a'lochi va o'zlashtirmovchi o'quvchilar soni
4. milliy tarkibi
5. sinflarning parallel sinflar o'rtasida tutgan o'rni
6. o'quvchining yashash joyi
7. sinf faollari
8. ota-onalar kengashi tarkibi
9. ota-onasi yo'q o'quvchilar
10. yordamga muhtoj o'quvchilar ro'yhati
11. o'quvchilarning darslik bilan ta'minlanganligi
12. maktab kutubxonasiga a'zo bo'lganlar soni.

Sinf rahbari rahbarining o'quvchilarni o'rganishdagi dastlabki ishi va to'playdigan ma'lumotlari shulardan iborat. Shuningdek, sinf rahbari bilishi kerak, o'quvchining ota-onasi qayerda, kim bo'lib ishlaydi, oilaning tarkibi uning madaniy darajasi qanday, oiladagi o'zaro munosabatlar, oilada bolaga yordam berishning o'ziga xosligi, bolaning uydagi kun tartibi va maishiy ahvoli, bolaning uy va jamoat ishlarida ishtiroki, uni maktabdan tashqaridagi do'stlari va tanishlari, o'quvchi ta'tilda qayerda bo'lishi, bolaning hayotidagi eng muhim voqea-hodisalar, o'quvchi salomatliging ahvoli bu xodimlarning ma'lumotiga ko'ra.

O'quvchilar jamoasi mustaqil tashkilotdir, ammo u pedagogik rahbarlikka muhtoj. O'quvchilarni o'z holiga tashlab qo'yish ham, ayni vaqtda bolalar jamoasiga nisbatan ma'muriyatchilik ham, buyruqbozlik yo'liga o'tib olish ham mumkin emas. Birinchi holda, sinf rahbari bu ishlardan umuman chetlashib, o'quvchilar bilan aloqaning susayishiga yo'l qo'ysa, ikkinchi holda u tazyiq yo'liga o'tib, o'quvchilar

mustaqilligini yo'qqa chiqaradi. Sinf rahbarining bosh vzaifasi, bolalar jamoasini faoliyatini mohirlik bilan boshqarish, o'quvchilar tashabbuskorligini o'stirish, sinf jamoasi faolligi va mustaqilligini tarkib toptirishdan iborat.

2-§. O'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Jamoa va jamoada tarbiyalash - tarbiya tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan tamoyillardan biridir. Shaxsni shakllantirishda jamoaning yetakchi rol o'ynashi to'g'risidagi fikrlar pedagogika fanining ilk rivojlanish davridayoq bildirilgan. Jamoada uning a'zolari o'rtasidagi munosabatning alohida shakli yuzaga keladi, bu esa shaxsning jamoa bilan birgalikda rivojlanishini ta'minlaydi. O'quvchilar jamoasi o'ziga xoslik kasb etuvchi muhim belgilarga ega. Uning xususiyatlari esa quyidagichadir:

- ijtimoiy ahamiyatga ega yagona maqsadning mavjudligi;
- birgalikdagi umumiy faoliatning tashkil etilishi;
- majburiy, ma'suliyatli munosabatning yo'lga qo'yilishi;
- saylangan umumiy rahbariy ongga egalik.

Shuningdek, sinf rahbari o'quvchilar jamoasini shakllantirishda quyidagi o'qituvchi-olim L.I. Nikova taklif etgan jamoani shakllantirish bosqichini qo'llashi mumkin.

- 1) jamoani dastlabki jipslashtirish
- 2) jamoani shakllantirish asosida uning har bir a'zosini individual rivojlantirish
- 3) jamoaning umumiy faoliyatini yo'lga qo'yish.

Sinf jamoasi tarkibida o'quvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy faoliat o'qish faoliyatidir. Aynan sinf jamoasida shaxslararo aloqa va munosabatlar tarkib topadi. Sinf rahbari esa bu jarayonda o'quvchilar jamoasida ularni nazorat qilish, boshqarish, rivojlantirish va psixologik muhitni saqlashni ta'minlaydi. Shuningdek, sinf rahbari o'z guruhidagi psixologik muhitni, uning jipsligini, guruhda o'quvchilarning bir-biriga bo'lgan munosabatini aniqlashda psixologning yordami va o'rni alohida ahamiyatga ega. Bunda sinf rahbari psixolog yordami bilan bir qancha metodikalar o'tkazish orqali guruhdagi o'zaro munosabat va iqlimni bilib olishi mumkin. Quyida shunday metodikalardan biri bilan tanishtiram.

Sotsiometriya metodikasi. Sotsiometrik so'rov usuli psixologik amaliyotda keng qo'llanib kelinayotgan usullardan biri sanaladi. Ishning bajarilishi. Metod yordamida jamoa yoki guruhni o'rganish uchun guruh a'zolariga savol beriladi. Savollar guruh yoshiga, darajasiga moslab tuzilgan bo'lishi kerak. Darhaqiqat, alohida sinf birlashib o'quv yurtini tashkil etadi. Alohida sinf jamoalari qo'lga kiritgan ta'lim-tarbiya borasidagi muvaffaqiyatlar butun o'quv yurti lamoasining muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

Shu nuqtai nazardan, sinf rahbarining ma'suliyati jamiyat oldida rahbarlik ma'suliyatidan kam emas. Shuning uchun maktab direktorlari sinf rahbari vazifasiga tajribali, tashkilotchi mehnatsevar, mahoratli, yosh avlodni sevadigan o'qituvchilarni

tayinlab, ular bilan muntazam ish olib boradilar. Sinf rahbarining muhim vazifalaridan biri bu- o'quvchining o'qishga bo'lgan havasi, e'tiqodi va bilim, qobiliyatini rivojlantirish, kasb hunarga bo'lgan layoqatini, yosh va ruhiy xususiyatlar asosida rivojlantirish, har bir o'quvchining bo'lg'usi hayoti rejalarini amalgam oshirish, o'quvchilarning salomatligini muhofaza qilishdan iborat. Faolarga ishonish, ularning sinf jamoasi orasida obro'sini ko'tarish, o'z vaqtida ularga tegishli yordam ko'rsatish sinf rahbaring bevosirta asosiy vazifasidir.

Pedagogning o'quvchilarga nisbatan bo'lgan munosabati mehr, xayrihohlik yordamida ifodalanishi kerak. Ma'lumki, rivojlanish uchun yordam berish bu albatta murakkab jarayon bo'lib, bular o'qituvchidan juda katta e'tibor, diqqat, bilim, ma'suliyat va pedagogic mahoratni talab qiladi. Jumladan, bu borada buyuk pedagog A.S. Makarenko "Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo'lishni bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalansin" – degan edi. Har tomonlama barkamol avlod tarbiyasi ta'lim-tarbiya va rivojlanishni o'zaro bog'liq tarzda o'qitish jarayonida amalga oshirishni taqozo etadi. O'qitish jarayoni yaxlit holda, ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi xususiyatlarni kompleks tarzda hal etsada, ularni (ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlanish) o'qituvchi faoliyati uchun shartli ravishda bo'lib ko'rsatish va bu bilan o'quv jarayonini rivojlantirishda hisobga olishni nazarda tutadi.

Hozirgi kunda innavatsion pedagogic texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o'quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir pedagog-o'qituvchi o'z kasbiy tayyorgarligini, pedagogic mahoratini rivojlantirib borishni talab etadi. Ta'lim muassasasi o'sib kelayotgan shaxsni o'qitish jarayonida ularga ta'lim olish jarayonini yaratsa, o'qituvchilar esa ularni bilimga bo'lgan ehtiyojini shakllantirish hamda rivojlantirish shakllarini amalgam oshiradi. Ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash uchun ta'lim muassasalariga yaxshi tayyrgarlik ko'rgan va o'z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogic texnologiyalarni va interfaol uslublarni biladigan, ulardan o'quv va tarbiyaviy mashg'ulotlarni tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o'qituvchilar kerak. Buning uchun nafaqat barcha fan o'qituvchilarini balki sinf rahbarlarini ham pedagogic va axborot texnologiyalar, interfaol uslublar bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarini o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarda qo'llash malakalarini oshirib borishi lozim.

3-§. Tarbiya jarayonida diagnostika va korreksion faoliyat mazmuni.

Sinf rahbari o'zi o'qitayotgan o'quvchilarning ruhiyatkariga mos ravishda muloqotda bo'la olish,, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallash va uni o'z o'rnida qo'llay olishi lozimligini bilamiz. Bugungi kunda an'anaviy ta'limni zamonaviylashtirish yo'lida turgan ekanmiz, o'qitishning noodatiy, rivojlantiruvchi

texnologiyalarini ham bilishi zarur. Shuningdek, O‘qituvchini, sinf rahbarlarini ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘quv-tarbiya jarayonidagi o‘rni ulardan foydalanish hamda usul, metod, texnologiya tushunchalarini farqlay olishlari quyidagi,

- “aqliy hujum”
- “tarmoqlar(klaster)”
- “assessment”
- “bumerang”
- “skrabej”
- “charxpalak”
- “rezyume”
- “keys-stadi”

Usul va metodlari, texnologiyalari haqidagi bilimlarga ega bo‘lishlari va ulardan o‘quv-tarbiya jarayonida foydalana olishlari lozim. Hozirgi davrda sodir bo‘layotgan innavatsion jarayonlarda ta‘lim tizimi oldidagi zamonaviy muommolarni hal qilish uchun yangi axborotni o‘zlashtiradigan va o‘zlashtirgan bilimlarini o‘zlari tomonidan baholashga qodir bo‘lgan, zarur qarorlar qabul qiladigan, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Shuning uchun ham ta‘lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy jarayonida zamonaviy o‘qitish uslublari, ya’ni, interfaol metodlar innavatsion texnologiyalarning o‘rni nihiyatda beqiyosdir. Pedagogik texnologiya va ukarning ta‘limda qo‘llanilishga oid bilimlar, tajriba o‘quvchilarni bilimli va yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta‘minlaydi.

Biz g‘aroyib davrda yasgayapmiz: atrofimizdagi olam juda tez suratlarda, tanib bo‘lmas darajada o‘zgaryapti, hozrgi kundagi yosh avlod bilan o‘tgan davrdagi avlodning farqi ko‘ryapmizki, sezilarli darajada ajralib turadi. Agar o‘qituvchi bu jarayonda rivojlanmay qotib qolsa, yosh avlodning tarbiyasi, fikrlashi ham izdan chiqadi. Shuning uchun o‘sib kelayotgan avlod bilan ishlaydigan o‘qituvchi bolalarni rivojlantirish bilan birga o‘zini ham kamol toptirib borishi lozim.

Xo‘sh, zamonaviy o‘qituvchi va shu bilan birga sinf rahbari qanday bo‘lishi lozim?

- ✓ o‘zgarish;
- ✓ o‘z xatolarini tan olish;
- ✓ rivojlanish;
- ✓ bolalarga hurmat;
- ✓ tolerantlik;
- ✓ o‘qituvchi o‘zining xizmat ko‘rsatayotganini tushunishi;
- ✓ haqiqiy narsalar bilan hurmatga ega bo‘lishga tayyor turish;
- ✓ chegarani his qilish;
- ✓ o‘z vazifasini tushunish;
- ✓ o‘z-o‘zini tanqid qilish;

✓ o‘z-o‘ziga sha’ma qilish (juda jiddiy bo‘lmaslik va hazil qilish qobiliyati).

Albatta, xislatlarning bariga ega bo‘lish oson emas. Ko‘p hollarda maktabda, kollej-litseylarda o‘qituvchilarni tanlab olish imkoniyati mavjud emas. Biroq shunga qaramay idealga qarab intilish zarur. Sinf rahbari avvalo, o‘zi o‘quvchilariga namuna, ibrat bo‘la olishi lozim. Qachonki, o‘qituvchi o‘zida komil inson sifatlarini tko‘rsata olsa, o‘quvchilar ham ijobiy tomonga qarab rivojlanadilar. Buni bir kichik hayotiy voqeadan ham misol qilib ko‘rishimiz mumkin. “4-sinflar orasida bir Azimjon ismli boa bo‘lgan. U doim o‘rtoqlarini xafa qilar, ustozlarini aytganini qilmas, darsga kechib keladigan o‘jar, injiq, qo‘rs bola edi. Hamisha o‘rtoqlaridan ustoziga arz tushardi. Shundan keyin ustoz bir yo‘l tutibdi. Bir kun quyoshli kunlarning birida muallim o‘z o‘quvchilarini quyosh nurida toblanish va o‘zgacha uslubda dars o‘tish uchun tashqariga olib chiqdi. Tashqariga chiqishgach, muallima maktab tomorqasida yangi ekilgan ko‘chatlardan birini ko‘rsatib, o‘quvchilardan birini ya’ni Azimjonni chaqirib uni sug‘urishga buyurdi. Azimjon borib, ko‘chatni sug‘urib oldi. Shundan keyin muallima mazkur o‘quvchiga katta daraxt oldiga borishni va uni sug‘urishni tayinladi. Azimjon ustoziga qarab “Ustoz, bu qo‘limdan kelmaydi. Bu daraxt ancha oldin ekilgan baquvvat darxt axir, tanasi katta. Buni sug‘urishga kuchim yetmaydi”. –dedi. O‘quvchidan bu javobni eshitgan ustoz tabassum qildi va qolgan o‘quvchilarga qarab: “Bu o‘simliklar bizning yomon odatlarimiz deb faraz qilaylik. O‘sha odatlarimiz eskirib borgani sayin qalbimizda, tana a‘zolarimizda chuqur o‘rnashib qoladi. Keyin biz ulardan voz kechishimiz, qutulishimiz qiyin bo‘ladi. Yomon odatlarimiz endi ko‘rina boshlagan paytda yangi ekilgan ko‘chatlar kabi sug‘urib tashlash oson bo‘ladi. Shuning uchun ulardan qutulish maqsadida harakatni hozirdan boshlaylik! “ dedi. O‘shandan keyin Azimjon o‘rtoqlarini boshqa jig‘iga tegmaslikka, axloqli, odobli bola bo‘lishga va‘da beribdi. Bundan biz nimani guvohi bo‘ldik? Ushbu vaziyatda o‘qituvchi muommoni hal qilishda bolaga ta’sir ko‘rsatishni maqbul yo‘lini tanlaganini, vaziyatni maqbul yechimini topa olganini ko‘rishimiz mumkin. O‘quvchilar o‘rtasida yuzaga keladigan muommolarni qanday hal qilish albatta, o‘qituvchining pedagogik mahoartiga bog‘liq.

4-§. Pedagogik diagnostika metodlari.

Shu o‘rinda taniqli rus pedagogi, A.S. Makarenkoning o‘qituvchining kasbiy fazilati to‘g‘risidagi fikrlarni keltirib o‘tishni joiz deb bildim. “Pedagog darsda ma’lum bir o‘ziga xos rolni o‘ynamasligi mumkin emas. Sinf sahnasida rol o‘ymashni bilmaydigan o‘qituvchi kasbiy faoliyat olib borolmaydi. U ma’lum ma’noda aktyor. Bizning xulq-atvorimiz, fe’limiz, xarakterimiz biz uchun pedagogic qurol bo‘lishi ham also mumkin emas. Bolalarni qalb va ko‘ngil azoblari bilan, hijronli xis-tuyg‘ularimiz yordamida tarbiyalashga umuman yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Axir biz insonmiz. Har qanday boshqa kasb egalarida ko‘ngil zahmatisiz ish bitirish mumkin bo‘lsa, pedagog ham ko‘ngil azobisiz faoliyat olib borishi lozim bo‘lardi. O‘quvchiga

ba'zan muloqotda ko'ngil azobini namoyish etishga to'g'ri keladi. Buning uchun pedagog sahnadagi aktyordek ijobiy rol o'ynashni ham bilishi kerak. Tasodifiy pedagogic vaziyatlarda o'qituvchi g'azablanganda, quvonganda, xafa bo'lganda. Tushkun bir ahvolga tushganida ichki hissiyotlarini bir holatdan boshqa holatga, bir shakldan boshqa shaklga aktyorlarga xos iqtidor bilan o'tkazishni ham bilishi kerak.

Biroq shunchaki tashqi, sahnaviy rol o'ynash yaramaydi. Bu o'yinda pedagogning ajoyib shaxsiy mahorati bilan belgilaydigan qandaydir kamar bor, bu sizning g'o'zal xulqingizni namoyish etib bog'lovchi rolingiz. Bu sahnadagi o'yin o'lik bir holat yoki texnika emas, balki qalbingizdagi yashirin bir xis-tuyg'ularingizni, mehringizni namoyon etuvchi haqiqiy jarayondir. Har qanday faoliyat zamirida ham amalga oshirilgan ishlarning pirovard maqsadi, vazifalari va kutilgan natijalari bo'ladi. Faoliyat natijalarini sarhisob qilish, amaliy xulosalar yasash, bo'sh yoki muvaffaqiyatli o'rinlarni belgilabolish – faoliyatning keyingi bosqichlarida uni hisobga olish pedagogik diagnostika deyiladi. Pedagogik diagnostika ta'lim samaradorligi, ish mazmuni olib borilgan pedagogic faoliyatni tahlil qilishda katta ahamiyatga ega bo'lib, ilg'or ta'lim muasasalarida bu ish uslubi muvaffaqiyatli tarzda amalgam oshirilmoqda, yutuqlar mustahkamlanib, yo'l qo'yilgan kamchilik va nuqsonlarni tahlil qilish asosida yosh strategic yo'nalishlar belgilab olinmoqda va yuqori darajadagi pirovard natijalar qo'lga kiritilmoqda. Savol tug'iladi:

➤ bola qobiliyati, imkoniyat, bilimi, egallangan ko'nikmalarining o'lchovi bormi?

➤ bolaning bilish va ko'nikmalarini belgilashga o'qituvchi aralashgani ma'qulmi, yoki o'ziga-o'zi baho bergani afzalroqmi?

Mana shu savollarga eng maqbul asoslarda javob berish, pedagogik diagnostikaning predmetidir. Mana shu maqsadni ro'yibga chiqarish yo'l-yo'riqlari, metodik mexanizmlarini ishlab chiqish, joriy etish muhim vazifadir. Pedagogik diagnostikaning tarixi pedagogic faoliyat tarixi bilan deyarli tengdosh, boshqacha qilib aytganda, pedagogik jarayon ming yillardan beri mavjud bo'lsa bu faoliyatning me'yorlari va natijalarini belgilash ham shunchalik qadimiydir. Demoqchimizki, o'quvchi bilimiga baho qo'yish, uni sinov va imtixon qilish pirovard ish natijalarini belgilab olish boshlangan yerda pedagogik diagnostika ham mavjud. Faqat farq shundaki, ibtidoiy va o'rta asr pedagogikasida bola bilimi va iqtidorini diagnostic tahlil qilishning ilmiy asosi yo'q edi.

Pedagogik diagnostikani ilmiy asosda tahlil etish va yo'lga qo'yish 20 asr boshlarida amalgam oshirilgan. Shu boisdan, bu pedagogic jarayonning nomlanishi ham turlicha bo'lgan. Ayrimlar pedagogik diagnostikani taklif etilgan bilimlarni o'zlashtirish asosi deyiladi. Boshqalar diagnostika o'qitishni jadalashtiruvchi axborotdir deb hisoblaydilar. Yana ayrimlar esa diagnostic egallagan bilim sifatini nazorat etishdir, degan fikrni ilgari suradilar. Taniqli pedagog olim Matserman

pedagogik diagnostikani “O‘quvchi o‘zlashtirishi bilan o‘quv materialini to‘g‘ri tanlash maqsadni to‘g‘ri yo‘naltirish mezonidir” deb hisoblaydi. Aslida pedagogik diagnostika o‘quv materialini bilish jarayonining asosini tashkil etib, maqbul pedagogik xulosaga kelishga zamin yaratadi. Shu boisdan ham, pedagogik diagnostika:

birinchidan, o‘quvchiga individual ta‘lim berishni jadallashtiriladi;

ikkinchidan, davlat va jamiyatning ta‘limga qo‘ygan talablaridan kelib chiqib, oquvchi bilimni to‘g‘ri, adolatli baholashni ta‘minlaydi;

uchinchidan, ishlab chiqilgan ta‘limiy mezon, kriteriyalar orqali o‘quvchining sinfdan singdan o‘tishida, mutaxassislikka qabul qilinishida minimal talablarga javob berishini belgilaydi. Pedagogik diagnostika yordamida ta‘lim-tarbiya jarayoni to‘g‘ri tahlil etiladi va uning samaradorligi to‘g‘ri baholanadi, boshqacha qilib aytganda, pedagogik diagnostika orqali ta‘lim obyekti, ta‘limiy tushunchalar qay darajada o‘zlashtirilganligi tahlil etiladi. Butun o‘quv kursini, o‘quv dasturlaini o‘zlashtirish darajasi baholanadi.

Pedagogik diagnostika muhim ahamiyatga ega. U o‘quv-tarbiya jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi. Ta‘limiy faoliyat natijasida erishilgan samaralarni xolislik bilan belgilab beradi, yo‘l qo‘yilgan kamchilik va nuqsonlarni bartaraf etishga yo‘l ochadi, pirovard natijada ta‘limning takomillashib borishiga ijobiy ta‘sir qiladi. Pedagogik diagnostika tarixiga nazar tashlasak, o‘tgan asrlarda u faqat o‘quvchi bilimni baholash orqali amalgam oshirilganini kuzatamiz. Unga 1864 yilda AQSh olimlari D.Fisher va R.Reslar asos solganlar, 1908 yildan boshlab esa, olim T.Stoun arifmetikadan test orqali o‘quvchi bilimni sinash tizimini tadbiiq etgan.

Egallangan malakani aniqlashga kiritilgan pedagogik diagnostika yoki diagnostik faoliyatning ayrim jihatlari:

- taqqoslash;
- pedagogik tahlil;
- avvaldan ayta bilish (prognoz);
- interpretatsiya;
- pedagogik diagnostika natijalarini o‘quvchilarga etkazish;
- amalga oshirilgan turli diagnostik metodlarni o‘quvchilarga yetkazish;
- pedagogik diagnostika metodlarini to‘g‘ri belgilashdan iborat bo‘lgan.

Pedagogik diagnostikaning eng muhim kriteriyalari esa:

- ✓ haqqoniylik (obektivnost);
- ✓ ishonchlilik (nadyojnost);
- ✓ puxtalik (vidnost) asoslanadi.

Diagnostik tahlillar qachon ob‘ektiv boladi:

- ✓ agar sinov natijalari turli tekshiruvlarda bir xil natijalar ko‘rsatilib, ko‘rsatkichlar o‘zaro bir-biriga yaqin bo‘lsa;

✓ agar: sinov mezonlari, o'lchovlari birligi hamda uning natijalari sinovni amalga oshiruvchi, aniqlovchining shaxsi hislati va munosabatlariga bo'liq bo'lmasa;

✓ agar: sinov bir xil talab, bir xil munosabat, psixologik kayfiyatda amalgam oshirilsa haqiqiy ahvolni aniqlashda ob'yektiv natijalar olinishi mumkin. Modomiki maqsad haqiqiy ta'limiy ahvolni aniqlash ekan, unga to'g'ri, halollik, haqqoniylik bilan yondohish zarur. Aks holda, diagnostikadan ko'zlangan natijaga erishish, to'g'ri tashxis belgilash mumkin emas. Bundan tashqari, ayrim sinf ishlarini, ba'zan yozma ishlarni, ko'pincha esa og'zaki berilgan javoblarni baholashda har xil yondashuvlar qayd etilishi mumkin. Bu sinovchi ya'ni, diagnostik tahlil o'tkazuvchi qilinayotgan ishlarning tub maqsadiga tushunib yetishga, mas'ulitaiga, ishiga bo'lgan yondashuvga va nihoyat uning savoyasiga bo'g'liq. Bundan kelib chiqadigan amaliy xulosa shuki, pedagogik diagnostikani amalga oshirishda rioya-andisha, oshna-og'aynigarchilik, tanish-bilishchilik, boshqa noxushliklar aralashsa, haqiqiy ahvol aniqlanmaydi, umumiy ishga putur yetadi, kamchilik va nuqsonlar ochilmay haspo'shlanadi, ta'limni takomillashtirishdan ko'zda tutilgan maqsadlar ochilmay qoladi.

Pedagogik diagnostikaning ishonchliligi bir necha marta qilingan tahliliy xulosalar natijasining bir xilligi qayd etilgan xollardagina ta'minlanadi. Agar buni muayyan maktab, sinfning hayotiy faoliyati bilan bog'lasak, mabodo o'qituvchi ilgari ishini oradan bir necha vaqt o'tib, aynan o'shnday baholasa, ishonchlilik paydo bo'ladi, lekin bunday hol afsuski amaliyotda kam uchramoqda. Pedagogik diagnostika natijalari qachon uzil-kesil tasdiqlanadi. Tajribalar, tahlillar shuni ko'rsatadiki, pedagogik diagnostika test usullari vositasida amalga oshirilsa, natijalar haqqoniy bo'ladi. Chunki bunda to'rt xil xulosa, bir xil natija bilan baholanadi bular:

- mazmunning tasdig'i;
- har xil usul bilan olingan natilalarning bir xilligi;
- natijalarga ko'ra amalga oshirilgan tahlillarning isbotlanishi;
- loyihalashning tasdiqlanishi (ya'ni, loyihalashtirishdagi natijalarning olingan xulosalarga uyg'unligi).

5-§. Ta'limdagi kompetensiyaviy yondashuvi

Ta'limdagi kompetensiyaga asoslangan yondashuv ma'lum metodlar va pedagogik yondashuvlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Ushbu atama mahalliy fanni sezilarli darajada modernizatsiya qilgandan keyingina qo'llanila boshlandi. Hozirgi vaqtda asosiy vakolatlarni shakllantirish muammolarini tahlil qiladigan jiddiy ilmiy, uslubiy va nazariy ishlar paydo bo'ldi. Masalan, A. V. Xutorskiyning "Didaktik evrika" monografiyasi, shuningdek, L. F. Ivanovning mualliflik metodikasi, boshlang'ich, asosiy, o'rta maktablarda ta'limni modernizatsiya qilishga qaratilgan.

Ta'limdagi kompetensiyaga asoslangan yondashuv - bu maqsadlarni aniqlash, mazmunini tanlash, o'quv jarayonini tashkil etish, umumjahon natijalarini baholash tamoyillari to'plamidir. Ular orasida:

- maktab o'quvchilari tomonidan o'zlarining ijtimoiy tajribalarini qo'llash asosida faoliyatning turli sohalari va variantlarida yuzaga keladigan muammolarni mustaqil hal qilish yo'llarini ishlab chiqish;
- dunyoqarash, siyosiy, axloqiy, bilim muammolarini hal qilishda didaktik va ijtimoiy tajribani moslashtirish.

Ta'limdagi kompetensiyaga asoslangan yondashuv ta'limning ma'lum bir bosqichida o'quvchilar erishgan ta'lim darajasini tahlil qilish orqali ta'lim qobiliyatlarini baholashni o'z ichiga oladi.

Bunday yondashuvni ko'rib chiqish uchun rus ta'limi modernizatsiyasi bilan bog'liq masalalarga to'xtatish muhimdir. Ta'limdagi kompetensiyaga asoslangan yondashuv muammosi 20-asrda ko'rib chiqilgan, ammo ushbu innovatsion kontseptsiya amalda faqat 21-asrda paydo bo'lgan. Jamiyatning jadal rivojlanish sur'atlari tufayli bolalar bog'chalari va maktablari o'z faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'zgartirishga majbur bo'ldilar. Ta'lim muassasalari ruslarning yosh avlodida harakatchanlik, konstruktivlik va dinamizmni rivojlantira boshladi. Federal davlat ta'lim standarti joriy qilinganidan keyin maktablar va maktabgacha ta'lim muassasalarining tuzilishi sezilarli darajada o'zgardi. Ta'lim sohasidagi vakolatga asoslangan yondashuv zamonaviy bozorda ishchiga nisbatan vaziyatni batafsil o'rgangandan so'ng paydo bo'ldi. "Yaxshi xodim" tushunchasi nafaqat kasbiy tayyorgarlikni, balki mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatini, tashabbusni ham o'z ichiga oladi.

Xodimning psixologik barqarorligi, stressga tayyorligi, ortiqcha yuklanishi, qiyin hayotiy vaziyatlardan chiqish qobiliyati bo'lishi kerak. Jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun to'laqonli ijtimoiylashishga tayyorgarlik maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlanib, maktabning barcha darajalarida davom etishi kerak. Bunday jarayon bolalar tomonidan kerakli miqdordagi siyosiy va iqtisodiy tushunchalarni o'zlashtirish bilan cheklanib qolmasligi kerak. Maktabgacha ta'lim tizimidagi kompetensiyaga asoslangan yondashuvning maqsadi zamonaviy voqelikdagi ko'nikmalardan, harakatchanlikdan samarali foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Yaqinda maktablarga ta'sir ko'rsatgan o'zgarishlar qatorida axborot texnologiyalarini alohida ta'kidlab o'tamiz. Ta'lim sohasidagi kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish axborotdan to'siqsiz foydalanish uchun ma'lum shart-sharoitlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Bu maktabning ta'lim sohasidagi monopolist mavqeini yo'qotishiga olib keladi.

Turli xil ma'lumotlarga cheksiz kirish huquqi bilan eng qisqa vaqt ichida kerakli ma'lumotlarni topa oladigan, ularga yuklangan vazifani hal qilishda foydalanadigan bolalar g'olib bo'lishadi. Maktab har doim jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlarga munosabat bildirishga harakat qilgan. Xuddi shunday reaksiya o'quv dasturiga o'zgartirish kiritishda, o'quv dasturini takomillashtirishda ham namoyon bo'ldi. Masalan, dasturga ishlab chiqarish amaliyoti, "Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi"

kursi, dastlabki harbiy tayyorgarlik, qo‘shimcha jismoniy tarbiya soati, informatika, hayot xavfsizligi kiritilgan. Bunday yondashuv o‘quv dargohini rivojlantirishning keng yo‘nalishiga qaratilgan, chunki bu o‘quv mashg‘ulotlari uchun ajratilgan vaqt resurslari juda cheklangan.

Jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlarini qondiradigan yangi ta‘lim natijalariga faqat bilim hajmini oshirish, alohida predmetlarning mazmunini o‘zgartirish orqali erishish mumkin emas. Istalgan natijalarga erishish uchun yana bir yo‘lni topish muhimdir - turli xil o‘quv fanlari o‘rtasidagi munosabatlar va aloqalarning mohiyatini o‘zgartirish. Zamonaviy ta‘limdagi kompetensiyaga asoslangan yondashuv - olingan bilimlarni qo‘llash qobiliyatiga e‘tiborni qaratish usuli. Ta‘limning maqsadlari maktab o‘quvchilarining yangi imkoniyatlarini aks ettiradigan, ularning shaxsiy o‘shishini aks ettiradigan maxsus so‘zlar bilan tavsiflanadi. Shakllangan asosiy vakolatlar ta‘limning "yakuniy natijalari" sifatida qaraladi.

Lotin tilidan tarjima qilishda “kompetensiya” insonning ma‘lum bir tajribaga, bilimga ega bo‘lgan qator masalalarini anglatadi. Ta‘lim sohasidagi vakolatga asoslangan yondashuv - bu noaniq vaziyatda odamning aniq va samarali harakat qilishidir. Uning asosiy xususiyatlarini ta‘kidlab o‘tamiz:

- ✓ faoliyat doirasi;
- ✓ vaziyatning noaniqlik darajasi;
- ✓ harakat usulini tanlash variantini;
- ✓ qabul qilingan usulni asoslash.

Ta‘lim darajasini faoliyat sohasi, talabalar mustaqilligini namoyish etish imkoniyatiga ega bo‘lgan holatlar soni bo‘yicha baholash mumkin. Maktabning maqsadi o‘quvchiga zamonaviy dunyodagi eng kichik o‘zgarishlarga munosabat bildirishga imkon beradigan asosiy malakalarni shakllantirish edi. Mana ulardan ba‘zilari:

- ✓ biz nafaqat ta‘lim sohasida, balki boshqa faoliyat sohalarida ham samarali harakat qilish imkoniyati haqida gapiramiz;
- ✓ mustaqillik zarur bo‘lgan holatlarda o‘zini tutish;
- ✓ maktab o‘quvchilari uchun dolzarb bo‘lgan masalalarni hal qilish.

Oliy o‘quv yurtlarida vakolatga asoslangan yondashuv o‘quvchilar va o‘qituvchilarning taxminlarini moslashtirishga imkon beradi. Ushbu uslub nuqtai nazaridan o‘quv maqsadlarini aniqlash bunday imkoniyatlarni tavsiflashni o‘z ichiga oladi, buning natijasida bolalar ta‘lim faoliyati doirasida ko‘nikmalarni egallaydilar.

6-§. O‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalari

Ta‘lim asoslari sifatida kompetensiyaga asoslangan yondashuv kognitiv faoliyat maqsadini yoritib berish usulidir. Bu o‘qituvchiga kerakli ma‘lumot manbalarini tanlash, maqsadga erishish yo‘llarini aniqlash, olingan natijalarni baholash, o‘z

faoliyatini tashkil etish va boshqa talabalar bilan hamkorlik qilish imkoniyatini beradi. Ta'lim sohasidagi kompetensial yondashuvning maqsadlari ikkinchi avlod FSES talablariga to'liq javob beradi. U mashg'ulotning turli bosqichlarida o'zining samaradorligi va samaradorligini ko'rsatishga muvaffaq bo'ldi. Rossiya fanini modernizatsiya qilish o'qituvchilar oldiga yangi vazifalarni qo'ydi, ularni vakolatli yondashuv bilan hal qilish mumkin. Kasbiy ta'limda ushbu yondashuv g'oyalari quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga yordam beradi:

- ✓ kognitiv muammolarni ko'rib chiqish;
- ✓ yosh avlodni zamonaviy hayotning asosiy muammolariga yo'naltirish: siyosiy, ekologik, tahliliy;
- ✓ ma'naviy qadriyatlar dunyosida harakat qilish;
- ✓ ijtimoiy rollarni bajarish bilan bog'liq muammolarni hal qilish: iste'molchi, fuqaro, tashkilotchi, saylovchi;
- ✓ muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish.

Asosiy vakolatlar faoliyatning universal variantlari sifatida tushuniladi, ularning rivojlanishi insonga vaziyatni idrok etish va alohida jamiyat doirasida professional va shaxsiy hayotda aniq natijalarga erishish imkoniyatini beradi. Maktabgacha ta'lim tizimidagi kompetensiyali yondashuvning asosiy maqsadi bolalarda boshlang'ich muloqot qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bunday rivojlanish faoliyatining yakuniy natijasi nafaqat standart muammolarni echish, ma'lum bir algoritm asosida harakat qilish qobiliyati, balki asosiy kompetensiyalarni o'zlashtirishdir. Maktabgacha ta'lim tizimidagi kompetensiyaga asoslangan yondashuvning maqsadi jiddiy va o'z vaqtida qaror qabul qilishga qodir bo'lgan ijodiy, faol shaxsni rivojlantirishdir.

Zamonaviy ta'lim tizimining xususiyatlari orasida biz quyidagilarni ta'kidlaymiz:

- ochiqlik, miqdoriy va sifat jihatdan boyitish va o'zgartirish qobiliyatlari;
- mavjudlik va sifatni oshirish sharti sifatida maktabgacha ta'limning o'zgaruvchan shakllarini shakllantirish;
- individual ishlash va guruh darslariga ustunlik beriladi;
- bolalar va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlar sheriklik, o'qituvchi bolalarning yoshi va individual xususiyatlarini hisobga oladi;
- rivojlanish jarayonini modernizatsiya qilish vositasi sifatida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalarini qo'llash.

Ota-onalar bilan ishlash uchun o'qituvchi turli xil ish shakllaridan foydalanadi: seminarlar, konferentsiyalar, qiziqish klublari. Maktabgacha ta'limda bolalarning tengdoshlari va kattalar bilan keng muloqoti uchun yangi ta'lim paradigmasi paydo bo'ldi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda asosiy kompetensiyalarni shakllantirishda ushbu yondashuvning dolzarbligi nafaqat ma'lum mahorat, ko'nikma, bilimlarni o'zlashtirishda, balki ularning shaxsiy rivojlanishida ham.

Yangi avlod FSES ta'limni rivojlantirishning beshta turli yo'nalishlarini nazarda tutadi:

- nutq;
- kognitiv;
- ijtimoiy va kommunikativ;
- badiiy va estetik;
- jismoniy.

Maktabgacha yoshdagi bolalar zaruriy malakalarni egallashi uchun o'qituvchilar o'zlarining kasbiy tayyorgarligini muntazam ravishda takomillashtirishlari kerak:

- ✓ turli treninglarda qatnashish;
- ✓ uslubiy faoliyatni amalga oshirish;
- ✓ seminarlar, mahorat darslarida faol ishtirok etish;
- ✓ kompyuter savodxonligi kurslarini o'tash.

Kasb-hunar ta'limi tizimidagi vakolatga asoslangan yondashuv maktabgacha ta'lim muassasasiga ijtimoiy buyurtmani to'liq bajarishga, asosiy vakolatlarni tarbiyalashga va bola rivojlanish dinamikasini kuzatishga yordam beradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kasbiy faoliyatida kompetensiyali yondashuvni qo'llagan o'qituvchilar ko'proq muvaffaqiyatga erishadilar va yuqori natijalarga erishadilar. Pedagogik maqsadlarga turli omillar ta'sir qiladi: didaktik va uslubiy materiallar, o'qituvchilar va talabalarni attestatsiyadan o'tkazish tizimi; o'qituvchilarning malakasi. Ta'lim sohasida qo'yiladigan umumiy maqsadlar sifatida ta'lim vazifasidan tashqari, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy funktsiya ham ilgari suriladi. Ta'lim sohasi nafaqat to'g'ridan-to'g'ri ta'lim jarayonini, balki amaliy faoliyatga nazariy ko'nikmalarni kiritishga qaratilgan qo'shimcha (sinf dan tashqari) ta'limni ham o'z ichiga oladi. Mavzu maqsadlari tarkibida bir nechta asosiy tarkibiy qismlar mavjud:

- ✓ bilimlarni o'zlashtirish;
- ✓ ko'nikma va qobiliyatlarni rivojlantirish;
- ✓ munosabatlarni o'rnatish;
- ✓ talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

Ushbu tuzilma yangi federal ta'lim standartlariga to'liq mos keladi. Barkamollikka asoslangan yondashuv nuqtai nazaridan, predmetning maqsadlarini aniqlash uchun avval siz uning tarkibini tanlashingiz, aniq bir mavzu uchun nima kerakligini bilishingiz kerak va shundan keyingina kerakli natijani olishga umid bog'laydigan tarkibni tanlash bilan davom eting. Har qanday ob'ekt uchun birinchi guruh maqsadlari harakat yo'nalishini belgilaydigan maqsadlardir. Ular qiymat yo'nalishlarini, g'oyaviy munosabatlarni shakllantirish, ehtiyojlarni shakllantirish, manfaatlarni rivojlantirish bilan bog'liq. Talaba o'zi uchun o'zining ta'lim traektoriyasini qurish, o'z-o'zini tarbiyalash bilan shug'ullanish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Maqsadlarning ikkinchi guruhi sinfdan tashqari ta'lim bilan bog'liq, quyidagi guruhlar nazarda tutilgan:

- ✓ model metasub'ekt natijalari (aloqa, umumiy ta'lim qobiliyatlari va malakalarini shakllantirish);
- ✓ mavzu doirasida aniqlangan maqsadlar;
- ✓ maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishga e'tibor qaratish;
- ✓ talabalarning umumiy madaniy vakolatlarini shakllantirishga hissa qo'shish.

Maktabning har qanday ta'lim dasturida faqat ma'lum bir o'quv fanlari bo'yicha dasturlar qo'llanilishi mumkin emas. Vakolatga asoslangan yondashuv doirasida nafaqat o'quv dasturlarini, balki sinfdan tashqari jiddiy ishlarni ham o'z ichiga olgan murakkab tuzilma qo'llaniladi. Har bir ta'lim muassasasida talabalar va ularning ota-onalarining qiziqishlari hisobga olingan holda fakultativ va fakultativ kurslar tashkil etiladi. Ta'lim dasturining mohiyatini tushunishga bo'lgan ushbu yondashuv shaxsning uyg'un rivojlanishi uchun mo'ljallangan murakkab dasturlarning paydo bo'lishiga yordam berdi. Boshqa ta'lim natijalariga erishishga yo'naltirilgan maxsus mavzudan tashqari dasturlar. Ular nafaqat maktabgacha yoki maktab ta'limi darajasi uchun mo'ljallangan. Ularni ishlab chiqishda qo'llaniladigan yondashuvning mohiyati shundaki, har bir dastur dolzarb muammolarni hal qilish, maktab o'quvchilari va maktabgacha yoshdagi bolalarda asosiy ta'lim kompetensiyalarini shakllantirishga imkon beradi. Dasturlarda ular ishlab chiqiladigan asosiy vakolatlar, o'quv predmetlari, amaliy va bilim faoliyati turlari ko'rsatilgan. Bunday dasturlarga muvofiq o'qituvchi sinfdan ishlaydi, dars soatlaridan keyin kerakli meta-mavzu natijasiga erishadi. Ularning tarkibi bolalar ehtiyojlarini qondirishi, ota-onalarining ehtiyojlarini qondirishi kerak. Bunday fan dasturlarini ishlab chiqish ta'lim muassasalarining innovatsion faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi, chunki bunday dasturlarning mazmuni ma'lum bir maktabning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi: o'quvchilar tarkibi, ijtimoiy muhit, o'qituvchilarning salohiyati.

Yangi federal ta'lim standartlari doirasida, bu vakolatga asoslangan yondashuv faol fuqarolik pozitsiyasiga ega ijodiy shaxsni shakllantirishning ajoyib usuli bo'ldi. Maktabgacha tarbiya muassasasida vakolatga asoslangan yondashuv doirasida tarbiyachilar bolalar uchun syujetli va rolli o'yinlarni ishlab chiqadilar, ularga asosiy vakolatlarni shakllantirishga hissa qo'shadigan turli xil tadbirlarni taklif qiladilar. Bunday tadbirlar Federal Davlat Ta'lim Standartining talablariga javob beradi. Ta'limdagi kompetensiyali yondashuv - bu fuqaro va vatanparvarni shakllantirishning bir variantidir.

O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish uchun ta'lim texnologiyalarini tanlashda o'quv fani o'qituvchisi taqvim mavzu rejada mazkur sinf uchun belgilangan tayanch kompetensiyalarni belgilab oladi. Shundan so'ng,

o'rganilishi zarur bo'lgan mavzu va shakllantiriladigan kompetensiyalarni hisobga olgan holda darsni o'tish metodi, usuli tanlanadi.

Interfaol yondashuv. O'qituvchilar dars jarayonini yaxshi tashkil etish uchun qulay muhit yaratadi. O'quvchilarning o'zaro fikr (axborot) almashishlariga imkon beriladi. Yechimini kutayotgan masalalarni hamjixatlikda muhokama etadilar, yechadilar. Vaziyatdan chiqishda hamkorlikda yechim topadilar. Olgan axborotlari asosida bilimlarini bir-birlariga namoyish etadilar.

Loyihalash metodi. Loyihalash metodi - o'quvchilar uzluksiz ravishda murakkablashib boradigan amaliy topshiriqni rejalash, konstruksiyalash va bajarish jarayonida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladigan o'qitish tizimidir. Ta'lim oluvchilar keng miqyosdagi muammoli (ijodiy, axborot, kommunikatsiya va h.k.)masalalar bilan bog'liq loyihalarni bajaradilar.

Mazkur metodning yuqori samara berishi uchun loyihani bajarishda o'quvchilarda motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi, shart hisoblanadi. Loyihalash metodi orqali o'quvchilarda quyidagi shaxsiy kompetensiyalar shakllanadi: komandada ishlash; ishchanlik; ma'suliyatni his etish; o'ziga ishonch; o'qitishlilik; tezkor fikrlash; jarayon rivojini ko'ra bilish; mushohada qila bilish; uzoqni ko'ra bilish; tashxislash; motivatsiya.

Tanqidiy tafakkur metodi

Muammoli modulli ta'lim metodi.

Muammoli modulli ta'lim metodi olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashni nazarda tutadi. Mazkur metod o'qitishning turli modellarining didaktik asosini tashkil etib, o'qitish vositalari va pedagogik texnikaning qo'llash usulari bilan farqlanadi. U o'quv predmetini nisbatan kichik bo'laklarga – modullarga bo'lishni ifodalaydi.

O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim.

Ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi va ijtimoiy taraqqiyotda faol ishtirok etuvchiodamni Shaxs deb ataladi. Individ sifatida dunyoga kelgan odam keyinchalik shaxsgaaylanadi. Individ tushunchasida kishining nasl-nasabi mujassamlashgandir.

Loyihalash metodi - o'quvchilar uzluksiz ravishda murakkablashib boradigan amaliy topshiriqni rejalash, konstruksiyalash va bajarish jarayonida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladigan o'qitish tizimidir.

Mazkur metodning yuqori samara berishi uchun loyihani bajarishda o'quvchilarda motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi, shart hisoblanadi.

Quyidagi shaxsiy kompetensiyalar shakllanadi: komandada ishlash; ishchanlik; ma'suliyatni his etish; o'ziga ishonch; o'qitishlilik; tezkor fikrlash; jarayon rivojini ko'ra bilish; mushohada qila bilish; uzoqni ko'ra bilish; tashxislash.

KLASTER (Klaster-tutam, bog‘lam)-axborot xaritasini tuzish yo‘li - barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi. Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog‘oz varag‘ining o‘rtasiga asosiy so‘z yoki 1-2 so‘zdan iborat bo‘lgan mavzu nomi yoziladi. Birikma bo‘yicha asosiy so‘z bilan uning yonida mavzu bilan bog‘liq so‘z va takliflar kichik doirachalar "yo‘ldoshlar" yozib qo‘shiladi. Ularni "asosiy" so‘z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu "yo‘ldoshlarda" "kichik yo‘ldoshlar" bo‘lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g‘oyalar tugagunicha davom etishi mumkin. Toifaxususiyat va munosabatlarni muhimligini namoyon qiluvchi (umumiy) alomat. Ajratilgan alomatlar asosida olingan ma‘lumotlarni birlashtirishni ta‘minlaydi. Tizimli fikrlash, ma‘lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Toifalarni jadval ko‘rinishida rasmiylashtiradilar. G‘oyalarni ma‘lumotlarni toifaga mos ravishda bo‘ladilar. Ish jarayonida toifalarning ayrim nomlari o‘zgarishi mumkin. Yangilari paydo bo‘lishi mumkin. Ish natijalarining taqdimoti

BBB Jadvali - Bilaman/ Bilishni hohlayman/ Bilib oldim.

Mavzu, matn, bo‘lim bo‘yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishdilar. Alohida kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.

"Mavzu bo‘yicha nimalarni bilasiz" va "Nimani bilishni hohlaysiz" degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo‘naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1- va 2-bo‘limlarini to‘ldiradilar.

Ma‘ruzani tinglaydilar, mustaqil o‘qiydilar.

Mustaqil kichik guruhlarda jadvalning 3-bo‘limini to‘ldiradilar.

VENNA diagrammasi 2- va 3-jihatlarini hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo‘yish uchun qo‘llaniladi. Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

VENNA diagramma tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik guruhlarda diagramma Vennani tuzadilar va kesishmaydigan joylarni (x) to‘ldiradilar. Juftliklarga birlashadilar, o‘zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to‘ldiradilar. Doiralarni kesishuvchi joyida, ikki-uch doiralar uchun umumiy bo‘lgan, ma‘lumotlar ro‘yxatini tuzadi.


1. Aylana yoki to‘g‘ri to‘rtburchak shakllaridan foydalanishni o‘zingiz tanlaysiz.
2. Chizmaning ko‘rinishini - mulohazalar zanjirini to‘g‘ri chiziqli, to‘g‘ri chiziqli emasligini o‘zingiz tanlaysiz.

3. Yo‘nalish ko‘rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo‘lgan yo‘nalishingizni belgilaydi.



Nazorat savollari:

1. O‘quvchilarni o‘rganish, kuzatish va ta’sir ko‘rsatishda nimalarga e’tibor qaratish kerak?
2. O‘quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirish
3. Tarbiya jarayonida diagnostika va korreksion faoliyat mazmuni haqida aytib bering.
4. Pedagogik diagnostika metodlarini sanang.
5. Ta’limdagi kompetensiyaviy yondashuvi nimalarga olib keladi?
6. O‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari haqida fikr yuriting.



V. BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA IJOBiy FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMI (1-4 SINIF TARBIYA DARS)

Tayanch tushunchalar: *mafkuraviy immunitet, aqliy tarbiya, axloqiy fazilat, innovatsion texnologiyalar, mehnat tarbiyasi.*

1-§. Mafkuraviy immunitet tushunchasi.

Mustaqillikni mustahkamlashning muhim shartlaridan biri bu g‘oyaviy tarbiyani kuchaytirishdan iborat. Bu borada kishilarimizda yot va zararli g‘oyalarga qarshi kurashish uchun mafkuraviy immunitetni shakllantirish zarur. Albatta, mafkuraviy immunitetni shakllantirish kishilar ongida bir xil g‘oyani zo‘r berib tiqishtirish emas, balki odamlarda oq-qorani ajratish, zararli g‘oyalarga qarshi hushyor va ogoh bo‘lish xususiyatlarini tarbiyalash demakdir. 1999 yil 16 fevral, 2004 yil martidagi Buxoro va Toshkent, shahrida 2005 yil 13 mayda Andijon shaharlarida sodir etilgan terrorchilik voqealaridan to‘g‘ri xulosa chiqarish kerak. Har bir davlat, jamiyatning qudrati uning ichki xavfsizligi va barqarorligiga tayanadi. Ya’ni jamiyat, millat o‘z g‘oyasida mustahkam tursa, ikkilanmasa, har qanday dushman qo‘llashi mumkin bo‘lgan g‘oyaviy tahdidlardan qo‘rqmasa, bunday millatni yengish mumkin emas. Aksincha, jamiyat ichida g‘oyaviy parokandalik, bo‘linishlar bo‘lsa dushmanlarga, ularning yot

mafkuralariga yo‘l ochib beradi. Bunday millatni yengish, mustamlaka qilish oson kechadi. Demak, barqarorlik va xavfsizlik – jamiyatning ongligiga, anglangan to‘g‘ri tushuncha va bilimlarga faol amal qilishiga, fikriy, g‘oyaviy birligiga, bular esa xavfsizlik ma‘rifatiga tayanadi. Shu boisdan ham har bir o‘zbekistonlik millatidan, dinidan, tug‘ilgan joyidan, kasbu yoshidan qat‘iy nazar Vatan posboni bo‘lishi lozim. Mamlakatimizning xavfsizligi uchun eng birinchi kafolat – O‘zbekistonliklarning milliy istiqlol g‘oyasi atrofida jipsligidir. Milliy istiqlol g‘oyasining asosiy bosh g‘oyasi va maqsadi: ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir.

Milliy istiqlol g‘oyasi o‘zining asosiy g‘oyalari:

- 1) Vatan ravnaqi;
- 2) yurt tinchligi;
- 3) xalq farovonligi;
- 4) komil inson;
- 5) ijtimoiy hamkorlik;
- 6) millatlararo totuvlik;

7) diniy bag‘rikenglikka tayanar ekan, ana shu g‘oyalarga qarshi qaratilgan xatti-harakatlar tashqi va ichki tahdidlarning oldini oladi.

Tashqi tahdidlar – O‘zbekistonning davlat chegarasidan tashqaridan kirib keluvchi, ichki tahdidlar esa O‘zbekiston davlati, mamlakatning ichidan chiqayotgan tahdidlardir. Biz ko‘p asrlar ana shu ichki tahdidlar tufayli mustamlakalikda yashab keldik.

Ichki tahdidlar – o‘z Vataniga, vatandoshiga, vatandoshlariga zarar yetkazishga qaratilgan g‘oya, xatti-harakatlardir. Ana shu tahdidlar qancha keng tarqalsa, mamlakat g‘oyaviy birligiga shuncha ko‘p zarar yetkazadi, parokanda qiladi, hamjihatlik bo‘lmaydi. G‘oyaviy birligi mo‘rt millatning davlat xavfsizligi ham mo‘rt bo‘ladi. Ichki va tashqi tahdidlar asosan g‘oyaviy bo‘shliq tufayli sodir bo‘ladi. Demak, g‘oyaviy bo‘shliq nima? G‘oyaviy bo‘shliq – deb, eski hukmron mafkura halokatga uchrab, u bilan bog‘liq tushunchalarning qadrsizlanishi, bugungi hayot, o‘tmish va kelajakka daxldor qadriyatlar, tushuncha va tasavvurlarni to‘liq anglab yetmasligi oqibatida odamlarning qalbi va ongida vujudga keladigan bo‘shliqqa aytiladi. Tajovuzkor mafkuralar bunday bo‘shliqdan foydalanib, o‘zlarining zararli g‘oyalarini singdirmoqchi va odamlarni o‘z ortidan ergashtirmoqchi bo‘ladi. Sobiq kommunistik partiya hukmronligi barham topgach, bizning yurtimizga ham zararli oqimlar kirib kela boshladi. Bunga davlat va nodavlat tashkilotlari hamda siyosiy partiyalarning istiqlol g‘oyasini, bozor munosabatlarini odamlar ongi va qalbiga tushuntirishda sustkashlik qilgani, ijtimoiy fanlarning jamiyatimizdagi yangiliklarni vaqtida tahlil qilib bermagani, jamiyat ruhiyati va tafakkurida ro‘y berayotgan murakkab jarayonlarning o‘z yechimini topmagani ham sabab bo‘ldi.

Sobiq sotsialistik mafkuraning illatlari fosh bo'lgach, nafaqat oddiy odamlar, hatto ziyolilar ham mafkuralarning hammasi taraqqiyot uchun zararli ekan, haqiqiy ozod va erkin bo'lish uchun har qanday mafkuradan xalos bo'lish kerak, degan fikrga borib qolgan edi. Odamlar bunyodkor va vayronkor g'oyalarning farqiga bormagani uchun shunday xulosaga kelgan edi. Biz faqat vayronkor g'oya – kommunistik mafkuradan voz kechgan edik. Bizga endi bunyodkor g'oya kerak edi. Chunki tabiatda vakuum – bo'shliq bo'lmagani kabi, mafkura sohasida ham bo'shliqqa yo'l qo'yib bo'lmaydi. Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, muayyan jamiyat taraqqiyot jarayonida bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishida turmushning barcha sohalarida, xususan, iqtisodiyot, ijtimoiyot va siyosiy sohada bo'lgani kabi, g'oyaviy-mafkuraviy sohada ham muayyan muammolarni hal qilish zarurati paydo bo'la boshladi. Chunki o'ziga xos yangi davr, sharoit, vaziyat an'anaga aylanib qolgan g'oyalar, qarashlar, munosabatlarni o'zgartirmasdan, ma'lum mafkuraga asoslanmasdan yangi maqsadlar sari qadam tashlay olmaydi. Bu esa yangi g'oya, qarash, munosabat, mafkurani ishlab chiqishni talab etadi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlagani kabi: "O'zining hayotini, oldiga qo'ygan maqsadlarini aniq tasavvur qila oladigan, o'z kelajagi haqida qayg'uradigan millat hech bir davrda milliy g'oya va milliy mafkurasiz yashamagan va yashay olmaydi. Mafkura bo'lmasa har qaysi davlat va jamiyat, qolaversa, har qaysi inson o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar".

G'oyaviy bo'shliqqa olib keluvchi sabablar quyidagilardan iborat:

- Boshqa mafkuralarni tan olmaslik.
- Yakka hokimlik (kommunistik) g'oyasining mutlaq hukmronligi va targ'iboti
- "Yo'l boshchi sinf" mafkurasi nomigagina ijtimoiy guruhlar mafkurasi ekanligi.
- Kommunistik mafkuraning odamlar vijdon erkinligini cheklab qo'yishi, kim unga jur'at qilsa «xalq dushmani»ga aylantirilishi.
- Milliylikdan, qadriyatlardan butunlay xoli bo'lish.
- Milliy tarix, O'zbekiston tarixi, o'tmishini tan olmaslik.
- Xalqning diniga, diniy merosga, diniy qadriyatlarga mutlaqo noto'g'ri munosabat va h.k.

XX asr 90-yillarning boshlarida bunday mafkuraviy bo'shliq O'zbekistonda ham namoyon bo'ldi. Ya'ni deideologizatsiya siyosatiga olib keldi. Ana shu g'oyaviy bo'shliqning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat edi:

- Kommunistik mafkura tanazzulga uchrab uning o'rni bo'sh qoldi.
- O'zbekiston mustaqil davlat sifatida qaror topsada, uning mafkurasi ham shakllanmagan edi.
- O'tish davrida yangicha qarashlar mustahkam e'tiqodga aylanib ulgirmasdan boshqa yot va begona mafkuralarning xuruji.

- Markaziy Osiyo mintaqasidagi ekstremistik kuchlar, terrorchi to‘dalarning mafkuraviy kurashni avj oldirishi va boshqa.

Bu sabablar natijasida mustaqillik yillarida, ayniqsa 1991-2005 yillar davrida mamlakatimizda ekstremistik kuchlar va terrorchi to‘dalar tomonidan amalga oshirilgan buzg‘unchilik, vayronchilik ishlarini misol qilib keltirish mumkin. XX asr 90-yillarining boshlarida ayrim yoshlar, yurtdoshlarimizning zararli g‘oya va mafkuralar ta’siriga tushib qolish sabablarini Prezidentimiz Islom Karimov asarlari asosida quyidagicha izohlab berish mumkin:

- Dastlabki yillarda milliy g‘oya, milliy mafkura to‘liq shakllanib, odamlar qalbi va ongiga singib ulgurmagani.

- O‘zbekiston eski tuzumdan yangi tuzumga o‘tish davrida bir qator tabiiy qiyinchiliklarga duch kelishi.

- Bugungi kunda barcha yoshlarning serdaromad ish bilan ta’minlanmaganligi.

- Yosh ayrim soddadil yoshlarning ishonuvchanligi tufayli diniy qadriyatlarga intilish tuyg‘usidan ustalik bilan foydalanishi tufayli.

Targ‘ibot-tashviqot ishlarining yetarli olib borilmaganligi (bugun bu ishni siyosiy partiyalar “Ma’naviyat va ma’rifat” markazlari, “Kamolot” ijtimoiy yoshlar tashkilotlari va h.k. olib bormoqda). Mafkura va mafkuraviy tarbiya masalasi o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan, demokratik huquqiy davlat, erkin fuqarolik jamiyatining asoslarini yaratayotgan mamlakatimiz uchun ham muhim hayotiy ahamiyatga ega. Zero, ko‘zlangan maqsadlarga ushbu orzu-umid va intilishlarni o‘zida mujassamlashtirgan g‘oyaviynazariy qarashlar majmui bo‘lmish milliy mafkura va unga asoslangan tarbiya tizimisiz erishish mumkin emas. “Men, – deb yozadi Prezidentimiz, – Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir» degan fikrini ko‘p mushohada qilaman. Buyuk ma’rifatparvarning bu so‘zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunda biz uchun ham shunchalik, balki undan ham ko‘ra muhim va dolzarbdir”. Bu masalaning dolzarbligini yuqorida qayd etilgan mafkura shakllarining xavfini bartaraf etish zarurligi bilan ham belgilanadi. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganidek, ularga g‘oya va ma’rifat bilan qarshi kurashish lozim.

Mamlakatimizdagi mavjud ijtimoiy hamkorlik, milliy birlik va hamjihatlikni saqlab qolish va rivojlantirish yo‘li bilangina qo‘lga kiritilgan istiqlolni himoya qilamiz. Xalqaro hamjamiyat, shu jumladan tarix taqozosi bilan aloqalar kuchli rivojlangan davlatlar bilan teng huquqli, izzat-ikromli munosabat, o‘zaro manfaatli aloqalar esa mustaqillikni mustahkamlashning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Ana shundagina mintaqamiz hech qachon sivilizatsiyalar to‘qnashmaydigan, balki ular bir-biriga ta’sir etib, bir-birini boyitishning ibratli namunasini beradigan makonga aylanadi.

Mafkuraviy ta'sir va tahdidlar haqida gap ketar ekan, ularni aniqlash, baholash, xususiyatlarini yaqqol ko'rsatish uchun O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov tomonidan ilmiy muomalaga bir qator tushunchalar kiritilganligini qayd etish lozim. Ular qatorida "mafkuraviy immunitet", "mafkuraviy profilaktika» kabilardir. Ana shu tushunchalarning mazmuni oydinlashtirilganda hozirgi dunyoda kechayotgan mafkuraviy jarayonlarning xarakterini yanada yaqqolroq tasavvur qilish imkoni tug'iladi. Mafkuraviy immunitetni hosil qilish. Mafkuraviy immunitet – ma'naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun shaxsni tarbiyalashda, har qanday reaksiya, buzg'unchi xarakterdagi g'oyaviy tashabbuslarga bardosh bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda qo'l keladi". "Mafkuraviy immunitet" tushunchasini birinchi bor birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ishlatgan va unga quyidagicha ta'rif bergan: "Ma'lumki, har qanday kasallikning oldini olish uchun, avvalo, kishi organizmida unga qarshi immunitet hosil qilinadi. Biz ham farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta'bir joiz bo'lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur".

Immunitet lotincha (immunitatis) so'zidan olingan bo'lib, biror narsadan xalos, ozod va farig' bo'lish, qutilishni, muayyan kasallikni qo'zg'atuvchi virusga, dardga qarshilik ko'rsatish qobiliyatini (masalan, inson tanasi immuniteti) bildiradi. "Immunitet" so'zining ma'nosi organizmning doimiy ichki barqarorligini saqlash uning turli xususiyatlarga va ta'sirlaridan himoyalinishi, qarshilik ko'rsatishi, rezistentligini bildiradi. Shuningdek, u daxlsizlik ma'nosini ham anglatadi, (masalan, deputatlik immuniteti, diplomatik immuniteti). Demak, mafkuraviy immunitet – davlat va millatning ma'naviy birligi, ma'naviy sog'lomligini himoya qiluvchi g'oyaviy qalqon vazifasini bajaradi. Aslida organizmni infeksiya agentlar va boshqa yot moddalardan himoya qilish omillari tabiati bo'yicha uchga bo'linadi:

Filogenetik immunitet – anatomik va fiziologik belgisiga ko'ra nasldan naslga o'tadigan himoyaviy rezistentligi. Bunda organizm yuqumli kasalliklarga chidamli bo'ladi.

Tug'ma immunitet (turga xos, tabiiy), nasbatan chidamli, nasldan naslga o'tadigan xarakterga ega.

Orttirilgan immunitet – hayot davomida orttirilgan immunitet. U o'zo'zidan namoyon bo'lmaydi. Uning namoyon bo'lishi uchun ichki yoki tashqi g'oyaviy ta'sir bo'lishi kerak. Milliy g'oya asosidagi mafkuraviy immunitet, avvalo, har-bir vatandoshimizning mustahkam e'tiqod va yuksak dunyoqarashga ega bo'lishini taqozo etadi. Insonning ko'plab xususiyatlari tug'ma bo'lsa, mafkuraviy immunitetni shakllantirib borish zarur. Ikkinchidan, har bir avlod uchun o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi. Uchinchidan, immunitet tizimi shakllan-sagina mafkuraviy daxlsizlikni ta'minlaydi. G'oya faqatgina inson qalbini egallaganda, inson ma'naviy-ruhiy

holatining uzviy qismiga aylangandagina harakatga da'vat etuvchi, rag'batlantiruvchi kuchga, harakat uchun qo'llanmaga aylanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda nafaqat inson ongini, balki qalbini ham egallash mafkuraviy kurashning bosh maqsadi bo'lib qolmoqda. Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi unsuri, bu bilimdir. Ammo bilimlar ko'p... Ikkinchi asosiy qismi ana shu bilimlar zamirida shakllanadigan qadriyatlar tizimidir. Uchinchi unsuri: ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'rifiy sohalaridagi aniq mo'ljal va maqsadlar tizimi bilan bog'liq.

Talaba mafkuraviy immunitetining tarkibini:

- 1) mafkuraviy bilim;
- 2) histuyg'u;
- 3) iroda;
- 4) ko'nikma
- 5) malakalar tashkil qiladi.

Mafkuraviy immunitet milliy mustaqillikning afzalligiga ishonch asosida quriladi. Ishonch esa ishontirish va tushuntirish natijasida hosil bo'ladi. Masalan, O'zbekiston – dunyoviy davlat diniy davlatni taqqoslash natijasida tushuncha hosil bo'ladi. Demak, mafkuraviy immunitetni shakllantirish muayyan vaziyatda insonning o'zi, xalqi, Vatani manfaatlari birligidan kelib chiqib, yot g'oyalarga qarshi tura olish malakalaridir.

2-§. O'quvchilarda aqliy tarbiyani shakllantirish mazmuni

Dunyoqarash tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimidir. Mazkur tizim doirasida ijtimoiy-g'oyaviy, falsafiy, iqtisodiy, tabiiy-ilmiy, ma'naviy-axloqiy, estetik, huquqiy va ekologik bilimlar negizida shakllangan e'tiqodlar asosiy tarkibiy unsurlar sifatida namoyon bo'ladi.

Muayyan dunyoqarashga ega bo'lish shaxsda atrof-muhit, ijtimoiy munosabatlar, mehnat faoliyati va ishlab chiqarish jarayoni, sub'ektlarga nisbatan ma'lum munosabatning qaror topishi, shuningdek, shaxs tomonidan zimmasidagi ijtimoiy burchlarini to'laqonli anglash va ularni bajarishga nisbatan mas'uliyat tuyg'usiga ega bo'lishi uchun zamin yaratadi. Shaxsda dunyoqarash izchil, tizimli, uzluksiz hamda maqsadga muvofiq tashkil etilayotgan ta'lim-tarbiyaning yo'lga qo'yilishi, uning turli yo'nalish va mazmundagi ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etishi, shuningdek, o'z-o'zini tarbiyalab borishi natijasida shakllanadi.

Yosh avlod dunyoqarashining shakllanishida ta'lim muassasalarida o'qitilishi yo'lga qo'yilgan tabiiy, ijtimoiy va gumanitar fanlar asoslarining ular tomonidan puxta o'zlashtirilishi muhim o'rin tutadi. Shaxsning ma'naviy-axloqiy qiyofasi, hayotiy yondoshuvlari, uning uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar hamda axloqiy tamoyillar mohiyati u ega bo'lgan dunyoqarash mazmunini ifodalaydi.

O‘z navbatida dunyoqarashning boyib borishi shaxsning shaxsiy sifat va fazilatlarining tobora barqarorlashuvini ta‘minlaydi. O‘z mazmunida ezgu g‘oyalarni ifoda etgan dunyoqarash shaxs qiyofasida namoyon bo‘layotgan ijobiy fazilatlarining boyib borishiga yordam beradi. Dunyoqarash o‘z mohiyatiga ko‘ra, ilmiy (muayyan falsafiy tizimga ega) va oddiy (muayyan falsafiy tizimga ega bo‘lmagan) dunyoqarash tarzida farqlanadi. Ilmiy dunyoqarash asosida uzluksiz, izchil ravishda mavjud fanlar asoslarini puxta o‘zlashtirib borish, ijtimoiy munosabatlar jarayonida faol ishtirok etish natijasida barqarorlik kasb etgan g‘oyalar yotadi. Shaxs dunyoqarashini shakllantirish uzoq muddatli, dinamik xususiyatga ega murakkab jarayon sanaladi. Aqliy tarbiya va ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari va mohiyati. Shaxs dunyoqarashining shakllanishida aqliy tarbiya muhim o‘rin tutadi. Aqliy tarbiya shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to‘g‘risidagi bilimlarni berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat bo‘lib, uni samarali yo‘lga qo‘yish asosida dunyoqarash shakllanadi.

3-§. Shaxsda ma‘naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.

Aqliy tarbiya o‘quvchilarni ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarish sohalarida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar bilan tanishtirish, ularda ijodiy, erkin, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini hosil qilishga zamin yaratadi. Aqliy tarbiya jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

Tarbiyalanuvchilarga ilmiy bilimlarni berish.

1. Ularda ilmiy bilimlarni o‘zlashtirishga nisbatan ongli munosabatni qaror toptirish.

2. Mavjud bilimlardan amaliyotda foydalanish ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.

3. Bilimlarini doimiy ravishda boyitib borishga intilish tuyg‘usini shakllantirish.

4. Bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlar (nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol) va xususiyatlar (aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur yuritish, o‘z fikrini asoslash, mavjud ma‘lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolar)ni rivojlantirish.

Aqliy ta‘lim va tarbiya birligi asosida shaxsda tafakkur (ijtimoiy voqea-hodisalarning ongda to‘laqonli aks etishi, inson aqliy faoliyatining yuksak shakli) rivojlanadi. Manbalarning ko‘rsatishicha, aqliy tafakkurning mavjud darajasini belgilash bir qadar murakkab bo‘lib, quyidagi belgilarga ko‘ra aniqlanishi mumkin:

1. Ilmiy bilimlar tizimining mavjudligi.

2. Mavjud ilmiy bilimlarni o‘zlashtirib olish jarayoni.

3. Fikrlash ko‘nikmasiga egalik.

4. Bilimlarni egallashga bo‘lgan qiziqish hamda ehtiyojning yuzaga kelganligi.

Aqliy tafakkur uzoq muddat hamda tinimsiz izlanish natijasida yuzaga keladi. Uning shakllanishida ilmiy qarash va e'tiqod o'ziga xos o'rin tutadi. Ilmiy qarash (yunoncha "idea"- g'oya, tasavvur, tushunchalar yig'indisi) - muayyan hodisa, jarayonning mohiyatini yorituvchi, ilmiy jihatdan asoslangan fikr, g'oya bo'lib, u shaxs tomonidan mavjud ilmiy bilimlar tizimi puxta o'zlashtirilganda, bilimlarni bir-biri bilan taqqoslash, solishtirish, predmet, hodisa yoki jarayon mohiyatini tahlil qilish natijasida yuzaga keladi. O'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish, ixtirochilik ko'nikmalarini shakllantirish ular tomonidan ilmiy izlanishlarni olib borish va ma'lum ilmiy qarashlarni ilgari surilishiga zamin yaratadi. Aqliy tarbiyani samarali tashkil etish shaxsda ilmiy tafakkurning yuzaga kelishini ta'minlaydi.

Ilmiy tafakkur - inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuvni anglatadi. E'tiqod dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy-falsafiy, tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy-axloqiy, estetik hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga cheksiz ishonch bo'lib, uning shakllanishi bir necha bosqichda kechadi. Birinchi bosqichda ular beqaror va vaziyat taqozosiga ko'ra o'zgaruvchanlik xususiyatini kasb etadi. Ikkinchi bosqichda ma'naviy-axloqiy qarashlarning barqaror tamoyillariga aylanadi. Mavjud talab, jamiyat tomonidan tan olingan axloqiy qoidalardan chetga chiqish qiyin, ziddiyatli vaziyatlarda ongli harakatni tashkil etish, irodaviy sifatlarga tayangan holda ish ko'rish taqozo etiladi. Uchinchi bosqichda, e'tiqod barcha vaziyatlarda ham ustuvor ma'naviy-axloqiy tamoyil bo'lib qoladi. O'quvchi tomonidan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlar hayotiy munosabatlar jarayonida keng qo'llanilganda, ularning asl mohiyati chuqur his qilingan va anglangandagina e'tiqodga aylanadi.

4-§. Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash kabi fazilatlarni shakllantirish mazmuni.

Bugungi globallashuv jarayonida dunyoning har qarich yerida inson ongi va tafakkuri uchun jiddiy kurash ketayotgani ayni haqiqatdir. Birda yovuz, birda madaniy ko'rinishdagi bu kurash har birimizdan atrofga teran nazar tashlash, jahonda kechayotgan turfa jarayonlarni aql va tafakkur bilan sarhisob etishga undaydi.

1. Ma'lumiki, Prezidentimizning 2019-yil 3-maydagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, 2020-yil 25-dekabrda O'zbekiston Yoshlari forumida hamda 2020-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasi da hamda joriy yilning 19-yanvar kuni Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati hamda

vazirliklar, qator davlat va jamoat tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlashga chorlaydi. Davlatimiz rahbarining “Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni, ruhi ma’naviyatdir”, degan so‘zlari mohiyatidagi uyg‘onish nafasi Hazrat Navoiy da’vatlariga mohiyatan uyg‘un bo‘lib, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga azm-u shijoat bilan kirishgan xalqimiz uchun tarbiya, yaxshi xulq, aql-idrok, bilim, ma’naviyat naqadar tengsiz qudrat va ruhiy manba ekanligini yana bir bor anglatdi. Demak, yuksak ma’naviyat bilan jamiyat hayotining tanasi bo‘lgan iqtisodiyot vujudiga jon, ruh kiradi, unga tiriklik, tengsiz yaratuvchi qudrat baxsh etiladi. Negaki ma’naviyat va ma’rifat barcha zamonlarda tengsiz qudrat, baxt-saodat, tinchlik, bunyodkorlik, hamjihatlik mezon, ruhiy poklanish va qalbni yuksaltiruvchi ne’mat bo‘lib kelgan. Chunki u millatni, xalqni, demakki, insonlarni yuksak fazilatlar, kamolotga yo‘llovchi axloqiy mezonlar asosida yashashga, xudbinlik, g‘aflat asiriga aylanmay hamisha yaxshilik yo‘lida bedor bo‘lishga, bu olamni obod qilishga, go‘zallikka burkashga chorlagan.

Endilikda, “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorda ta’kidlanganidek, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni jaholat soyasidan asrash, tinimsiz chiranib yotgan ma’naviy tahdidlardan himoya qilish uchun tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlarini yangi talablar asosida yo‘lga qo‘yish, bu yo‘nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligini mustahkamlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga ko‘taradi.

Mavjud muammolarni hal etish yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish ko‘lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida Vatanimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirish bo‘yicha yagona tizim yaratish, yoshlarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishni talab etadi. Bu borada nafaqat respublikamiz, balki jahon ta’lim tizimida yoshlarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish metodikasi, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash mexanizmi, yoshlarning axloqiy sifatlarini rivojlantirishning amaliy pedagogik tizimi, o‘qitish modellari texnologik taraqqiyot g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirilgan interfaol dasturlar ta’lim jarayoniga tatbiq etilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “XXI asrning Oliy ta’limi” Butunjahon deklaratsiyasi, YuNESKOning “Oliy ta’limni isloh qilish va rivojlantirish” dasturiy hujjatlarida dunyo miqyosida ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirishga, modulli ta’limni tashkil etishga, o‘qitishning zamonaviy usullarini joriy etish orqali talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash metodikasini yanada takomillashtirishga alohida e’tibor berilgan.

Jahon oliy ta’lim tizimida yoshlarni kasbiy ijtimoiylashtirish, ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish, ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini tarbiyalash

metodikasini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. AQSh, Rossiya, Germaniya, Fransiya, Xitoy, Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda talaba-yoshlarning tafakkurini o'stirish, qobiliyatlarini erta aniqlash, ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlari samaradorligini oshirish metodikasini takomillashtirishda modulli o'qitish, "blended learning" (aralash o'qitish), mahorat darslari, vebinarlar tashkil etilib kelinmoqda.

Respublikamizda ko'pgina olimlar tomonidan ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining turli jihatlarini o'rganilgan hamda ushbu tadqiqotlar natijalarini ta'lim-tarbiya jarayonida qo'llash imkoniyatlari tavsiya etilgan. Bu tadqiqotlarning ba'zilari keng qamrovli bo'lgan ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining ma'lum bir qirrasini tahlil etishga qaratilgan bo'lsa, boshqalari ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning mazmunini boyitishga va turli o'quv kurslarida yangi usullarini qo'llashga yo'naltirilgan, ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar tizimini takomillashtirish masalalari tadqiq etilgan.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonini rivojlantirish borasida milliy qadriyatlardan foydalanish yo'llari va milliy tarbiya asoslari, ma'naviy-axloqiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari, oliy ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish hamda bo'lajak mutaxassislarining ma'naviy-kasbiy tayyorgarligi muammosi, ayniqsa, ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar tizimini samarali tashkil etish masalalari bo'yicha V.Karimova, N.Dj.Mahmudova, O.Musurmonova, Sh.Sh.Olimov, M.Quronov, N.X.Oripova, Z.Q.Ismoilova, N.A.Muslimov, N.M.Ochilova, Y.P.Azarov, Z.E.Azimovalarning ilmiy ishlarida oliy ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish hamda bo'lajak mutaxassislarining ma'naviy-kasbiy tayyorgarligi muammosi tahlil qilingan. Binobarin, professor O.Musurmonova tomonidan ishlab chiqilgan xulosalar ilmiy jihatdan asoslangan bo'lsa-da, ularni amalga oshirish metodlariga oid tavsiyalarida izchillikka e'tibor qaratish lozim.

Talaba-yoshlar ma'naviy madaniyatini shakllantirishga doir shakl va metodlar (konferensiya darslari; seminar dars; munozara darsi; amaliy dars; o'yin darsi; sayohat darslari; rolli darslar; tarbiyaviy tadbirlar; ekskursiya; davra suhbatlari; kichik guruhlarda ishlash; ma'naviy madaniyatni shakllantirish metodlari: muammoli-munozarali vaziyat; qiyosiy-izohli tahlil; badiiy-ma'rifiy asarlar ustida ishlash; ijodiy ish; tushunchali tahlil; mantiqiy tahlil; timsollar tahlili; ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni sharhlab o'rganish; mustaqil ish va h.k.) tizimi ma'naviy-axloqiy tarbiya metodikasi taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Shunisi e'tiborliki, ma'naviy-axloqiy tarbiya yo'nalishlarini ta'lim bosqichlari bo'yicha tasniflash mustaqillik davridagi pedagogik tadqiqotlarning yetakchi xususiyatidir.

Jumladan, Sh.Sh.Olimov tomonidan kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmuni, shakl va metodlarini nazariy jihatdan

takomillashtirish va amaliyotga joriy etishga oid metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan yangi tadqiqotda muallifning kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda imkoniyati yuqori bo'lgan fanlarga e'tibor qaratish, har bir fan mazmuni va malaka talablari asosida tarbiya usullarini tanlash, dars mashg'ulotlarida noan'anaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, darsdan tashqari ishlar jarayonida tarbiyaviy tadbirlar tashkil etish yuzasidan bildirilgan fikr-mulohazalari ilmiy-metodik jihatdan ilm-fanning so'nggi yutuqlari asosida yoritilganligi bilan ajralib turadi.

Z.Ismailovning ma'naviy-ma'rifiy ishlarda talaba-yoshlar shaxsini axloqiy tarbiyalash masalasiga doir ilmiy ishida Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi asosiy g'oyalar talaba shaxsini axloqiy shakllantirish mezoni sifatida belgilangan. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning asosiy xususiyatlari bo'lgan oila, mahalla, el-yurt tushunchalari muqaddasligi, ota-ona, mahalla-ko'y, umuman, jamiyatga yuksak hurmat-e'tibor, millatning o'lmas ruhi bo'lgan ona tiliga muhabbat, sabr-bardoshlilik, mehnatsevarlik, halollik kabilar talaba-yoshlar shaxsini axloqiy shakllantirishning asosiy omillari ekanligi e'tirof etilgan. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonida talaba-yoshlar shaxsini axloqiy shakllantirish modeli ishlab chiqilganligini mazkur dissertatsiyaning muhim jihatlaridan biri deyish mumkin.

5-§. Innovatsion tarbiya texnologiyalarining o'quvchilarning axloqiy sifat va fazilatlarini shakllantirishda foydalanish.

Yosh avlod tarbiyasi, avvalo, pedagogning kasbiy mahoratiga bog'liq. Shu o'rinda, yurt kelajagi va istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liqligini qayd etish mumkin. O'qituvchi kasbiy axloq va odob normalarini mukammal egallasagina, o'z kasbining fidoyisi bo'la oladi. Bugungi kunda ana shunday fidoyilik har qachongidan ham muhim ekanligi ushbu sohada olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarining dolzarbligini yanada oshiradi.

Yoshlarda pedagog odobi fazilatlarini shakllantirish alohida obyekt sifatida o'rganilgan N.M.Ochilovning dissertatsiya ishida muammoning nazariy asoslari va xususiyatlari tahlil qilingan hamda bu borada qo'llanilgan samarali yondashuvlar taqdim etilgan. Tadqiqotda pedagog odobi fazilatlarini shakllantirish modeli ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, ishda talabalar axloqiy tarbiyasining joriy holati, pedagogik faoliyat uchun zarur axloqiy fazilatlarining namoyon bo'lishi masalalari o'rganilgan bo'lib, "O'qituvchi odobi" nomli maxsus kurs tashkil etib, unda "Jamiyatning o'qituvchi shaxsiga munosabati", "O'qituvchi shaxsining jamiyatga munosabati", "Vatanga munosabat", "O'z-o'ziga munosabat", "Mehnatga munosabat", "Insonlarga munosabat" mavzulari doirasida pedagog odobi xususiyatlari, munosabatlarda kasb odobi fazilatlarining aks etishi va uning o'ziga xosligi mavzusida ma'ruzalar tashkil etish g'oyasi ilgari surilgan.


Bu borada Z.K.Ismailovning “Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” asosida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning nazariy eksperimental metodik asoslariga doir ilmiy-tadqiqot ishi alohida o‘rin tutadi. Muallif tomonidan barkamol shaxsni tarbiyalash metodlarining xususiy axloqni tarbiyalash metodlari; jamoatchilik orqali xulq-atvorni shakllantirish metodlari; ijtimoiy ong va axloqni shakllantirish metodlari; o‘z-o‘zini boshqarish va tarbiyalash metodlari; rag‘batlantirish metodlariga bo‘linishi tarbiya metodikasining tub mohiyatini tashkil etish orqali talabalarning ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish maqsadga muvofiq ekanligini alohida qayd qilish mumkin.

O‘zaro fikr almashish. Tahlillar asosida yoshlarning ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligi asosida ma’naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishda ma’naviy-axloqiy bilimlar, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, ma’naviy-axloqiy fazilatlar, ma’naviy faoliyat kabi komponentlarni o‘z ichiga olishi aniqlandi

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning tarkibi sifatida ma’naviy-axloqiy bilimlarning shakllanishi natijasida talaba-yoshlarda baxt, vijdon, burch, adolat, or-nomus, muhabbat, ezgulik, shon-sharaf, e’tiqod, sadoqat kabi bir qancha axloqiy kategoriyalar shakllanadi. Ma’naviy-axloqiy bilimlarni o‘zlashtirgan talaba-yoshlarda tashabbuskorlik, ijtimoiy faollik, vatanparvarlik, halollik, mehnatsevarlik, kamtarlik, fidoyilik kabi fazilatlar qaror topa boshlaydi. Ushbu fazilatlarga ega yoshlar axloqiy me’yorlar talablarini ongli bajaradi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar sanalmish ma’naviy meros, urf-odat va an’analarga nisbatan hurmatda bo‘ladi. Ammo ma’naviy-axloqiy me’yorlar haqida bilimga ega bo‘lish, uni tushunish, ezgu fazilatlarni tarkib toptirish hali yoshlarning ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanganini anglatmaydi. Insoniylik fazilatlar qachonki hayotiy tajribalarda aks etib, shaxsning munosabatlarga kirishish faoliyatida yorqin namoyon bo‘lsa, bu uning tarbiyalanganlik darajasini belgilaydi.

Jamiyat taraqqiyoti uchun, avvalo, ma’naviy-axloqiy kompetentli, ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalash, shuningdek, asosiy e’tiborni yoshlarning tarbiyalanganlik darajasini oshirish masalasiga qaratish zarur. Negaki ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalangan shaxslarsiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur etib bo‘lmaydi. Yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda, eng avvalo, millatimiz tarixi va ma’naviyati ildizlariga e’tibor qaratish taqozo etiladi. Turonzaminda azal-azaldan inson ma’naviy kamoloti, axloqiy fazilatlar tarbiyasi ajdodlarimiz diqqat markazida bo‘lib kelganini yoshlarning tafakkuriga singdirishga erishish zarur.

Ta’lim metodlaridan foydalanish. O‘tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlillariga tayangan holda oliy ta’lim muassasalari talaba-yoshlarida ma’naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish bosqichlarini quyidagi ko‘rinishda izohlash lozim topildi (2-rasmga qarang).



2-rasm. Yoshlarda ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish bosqichlari


Yoshlarda ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish o'ziga xos bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bunda, avvalo, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad hamda vazifalarini to'g'ri yo'lga qo'ya bilish, ish mazmunini aniqlash, maqsadga erishish uchun tizimli yondashuvni tashkil etish zarur. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi quyidagicha belgilandi: ta'lim muassasalarida izchillik asosida olib boriladigan ta'lim-tarbiya natijasida ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan kasbiy kompetentli mutaxassis tayyorlash.

Yoshlarning ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishda quyidagi vazifalar nazarda tutiladi:

- uzluksiz ta'lim-tarbiyaning har bir bo'g'inida ma'naviy-axloqiy tarbiya maqsadiga erishish yo'llarini izlab topish;
- ta'lim-tarbiya jarayonida turli ta'sir vositalari orqali yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash;
- ma'naviy-axloqiy tarbiyada shaxsga yo'naltirilgan metod va vositalar, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- yoshlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalanganlik darajasini aniqlash maqsadida anketa so'rovlarini o'tkazib, natijalarini qayd etib borish;
- ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan, yoshlarni kompetentli ijtimoiy faol mutaxassis sifatida tayyorlashga erishish.

Bu esa, o'z navbatida, ta'lim muassasalari yoshlari ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishning mantiqiy-tuzilmaviy modelini yaratishga imkon beradi (3-rasm). Bunday zamonaviy ta'lim modeli yoshlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda ma'naviy-axloqiy kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish muhim hisoblanadi. Chunki yoshlarda zarur

kompetensiyalarni shakllantirish uchun, avvalo, pedagogning o'zida kompetentlik rivojlangan bo'lishi lozim.



3-rasm. Oliy ta'lim muassasalari talabalari ma'naviy-axloqiy kompetentligini rivojlantirishning mantiqiy-tuzilmaviy modeli.

Ijtimoiy-pedagogik faoliyatni, yoshlarda tashabbuskorlikni, faollikni tashkil etish uchun ta'lim muassasalarida o'qitiladigan tarbiyaga xos fanlarni o'qitish jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya texnologiyalari hamda hamkorlik ta'limini

amalga oshirish muhim sanaladi. Mazkur ta'lim-tarbiya texnologiyalari orqali talaba shaxsini ijtimoiylashtirishga erishish imkoniyati yaratiladi.

Demak, yoshlarda aynan ijtimoiy munosabatlarga kirishish uchun lozim bo'lgan ma'naviy-axloqiy kategoriyalar, normalar, qadriyatlar tizimi haqida bilim hosil qilish hamda ulardan amaliy faoliyatda foydalanish ko'nikmalari takomillashtirilishi muhim o'rin tutadi. Bu o'rinda o'qitiladigan tarbiyaga oid fanlarda ijtimoiy ongini shakllantirish metodlari (suhbat, bahs-munozara, muammoli ta'lim)dan unumli foydalanish maqsadga muvofiq.

Ta'lim muassasalari talaba-yoshlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaviy sifatlarning rivojlanganligini baholash namunali, yaxshi, qoniqarli mezonlar orqali aniqlab boriladi. Past ko'rsatkich aniqlansa, korreksiyalash ishlari amalga oshiriladi, buning uchun yoshlar bilan individual-psixologik ishlar olib boriladi hamda natijaga erishish uchun harakat qilinadi.

Tayanch kompetensiyalar – inson kim va qanday kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, shaxs hayotida, kasbiy faoliyatida, ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli bo'lishi uchun egallashi lozim bo'lgan layoqatlar, qobiliyatlar va hayotiy ko'nikma va malakalar majmuyidan iborat. Bunda har bir shaxs kommunikativ bo'lishi, axborot bilan ishlay olishi, shaxs sifatida o'zini rivojlantirishi, ijtimoiy faol fuqaro bo'lishi, umummadaniy xislatlarga ega va fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo'lishi nazarda tutiladi.

6-§. O'quvchilarga mehnat tarbiyasini singdirish.

Insonning kundalik turmush tarzi mehnat va faoliyat bilan bog'liqdir. Shu sababli mehnat umuminsoniy, milliy, moddiy va ma'naviy boylklarning ijtimoiy taraqqiyoti negizi hisoblanadi. Har tomonlama yetuk, barkamol avlodni yetishtirishda mehnat tarbiyasining o'rni beqiyosdir. Mehnat tarbiyasi shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismidir. Shuningdek, bolaning har tomonlama shakllanish vositasi, uning shaxs sifatida ulg'ayish omili hamdir. Muntazam qilingan mehnat jarayonida bola o'z aqlini, irodasini, hissiyotini, xarakterini rivojlantirishi mumkin. Mehnat tarbiyasi o'quvchilarga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki kasbiy ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mehnat tarbiyasini shunday tashkil etish kerakki, inson mehnat jarayoni va uning natijasidan qanoatlanishini tarkib toptirishga ko'maklashsin. Mehnat tarbiyasining provard maqsadi shaxs xarakterining asosiy xislati sifatida uning mehantga bo'lgan ehtiyojini shakllantirishdir.

O'quvchilar mehnat faoliyatining turlari xilma-xil bo'lib, ular quyidagilardir:

1. Maishiy mehnat;
2. O'quv mehnati;

3. O‘quv ishlab chiqarish mehnati;
4. Texnik mehnat;
5. Ijtimoiy-unumli mehnat;
6. Ijtimoiy-foydali mehnat va boshqalar.

Oilada mehnat tarbiyasining dastlabki unsurlari qo‘llaniladi. Bola muayyan yoshga to‘lgach, kattalarga yordamlashadi, o‘z imkoniyatlarini anglab yetadi va o‘quv (ta‘lim) mehnatiga muntazam tayyorlanadi.

Mehnat tarbiyasini tashkil etishning pedagogic shart-sharoitlari:

1. Bolalar mehnatining o‘quv-tarbiyaviy vazifalar bilan bog‘liqligi;
2. Ijtimoiy ahamiyatli mehnatni o‘quvchilarning qiziqishlari bilan birga qo‘shib olib borilishi;
3. Mehnat faoliyatining hamma bopligi va qo‘ldan kela olishi;
4. Mehnat faoliyatining majburiyligi va vijdoniyligi;
5. Mehnat faoliyatini tashkil etishda jamoaviy va individual shakllarini birga qo‘shib olib boorish.

Mehnatning ijtimoiy-axloqiy ahamiyatiga e‘tibor berish, mehnat o‘quvchining yoshi, hayot tajribasi va imkoniyatlariga mos bo‘lishi, ularning mehnat faoliyatlari ijodiy harakatda bo‘lishi, o‘z vaqtida kasblar haqida ma‘lumotlar berib borilishi, mehnat ahillari bilan doimo suhbat va uchrashuvlar tashkil qilish kabilar. Mehnat tarbiyasining bosh g‘oyasi shaxsda mehnat faoliyatini tashkil etish, ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, ijtimoiy mehnatni qadrlash, mehnatsevarlik xislatini tarbiyalash sanaladi.

Buyuk ajdodlarimiz mehnat tarbiyasi to‘g‘risida to‘xtalib, qimmatli fikrlarni bildirib o‘tishgan. Masalan, Abdurahmon Jomiy: “Oltin topmagnu o‘rgan-gin hunar, hunarning oldida xasdir oltin-zar”, - degan fikr bildirsalar, ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy: “Umrni zoye etma, mehnat qil, mehnatni saodatning kaliti bil”, - deydilar. Fransuz adibi Anatol Frank: “Eng yaxshi axloqiy va estetik dori – mehnat”, - degan fikrni ilgari suradi. Bundan tashqari “Avesto”, Kaykovusning “Qobusnoma”, Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri”, Abu Rayhon Beruniyning “Geodeziya”, “Minerologoya”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma‘rifiy meros namunalarida mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan.

Bir qator o‘zbek maqollarida ham inson hayotida mehnat alohida ulug‘lanadi. Masalan, “Mehnat baxt keltirar”, Mehnat e‘tibor garovi”, “Mehnatsiz rohat yo‘q”, “Mehnat qacha og‘ir bo‘lsa, keti shuncha shirin bo‘lar” va boshqalar.


Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, mehnat, mehnat tarbiyasining ahamiyati bolaning hayotida, uning jisomanan, ma‘nan tarbiya topishida, hamda yuksak kamolotga erishishida beqiyosdir. Har qanday tarbiya uchun poydevor eng avval oilada

barpo qilinar ekan, mehnat tarbiyasi ham bolada o'z uyida uy yumushlarida oila a'zolariga ko'maklashishidan boshlab rivojlanib boradi. Shu orqali bolada mehnatga nisbatan muhabbat, kelajak uchun esa ko'nikma va malaka hosil bo'ladi. Keyinchalik ta'lim dargohlarida, ya'ni bog'cha, maktab, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida mehnat tarbiyasi bosqichma-bosqich shakllantirib boriladi. Bu esa bolani uning jismoniy, aqliy qobiliyatiga, qiziqish va imkoniyatiga qarab kasb-hunarga to'g'ri yo'naltirishga yordam beradi.



Nazorat savollari:

1. Mafkuraviy immunitet tushunchasi haqida fikr yuriting.
2. O'quvchilarda aqliy tarbiyani shakllantirish mazmuni haqida ayting.
3. Shaxsda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari ayting.
4. Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash kabi fazilatlarni shakllantirish mazmuni.
5. Innovatsion tarbiya texnologiyalarining o'quvchilarning axloqiy sifat va fazilatlarini shakllantirishda foydalanish haqida nimalarni ayta olasiz?
6. O'quvchilarga mehnat tarbiyasini singdirishda nimalarga e'tibor qaratish kerak.



VI. TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA OILA, AHALLA VA TA'LIM MUASSASASI INTEGRATSIYASI

Tayanch tushunchalar: *oila, oilaning jamiyatdagi o'rni, oilaning maktab bilan aloqasi, jamoa, ota-ona, shakl va metod, shaxs tarbiyasi.*

1-§. Oilaning yuksak tarbiyaviy ahamiyati.

Farzandlarimiz ongida elu yurtga, Vatanga muhabbat tuyg'ulari oilada, yashab turgan mahallada shakllanadi. Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo'lishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda o'sib-unayotgan bolalarimizga bog'liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila, o'sha mahalla gullab-yashnaydi.

Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak?, degan savol ko'pchilikni o'ylantiradi. Ko'pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug'ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug'ullanish lozim, deb javob bergan. Oila, odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. "Bir bolaga yetti qo'shni ota-ona" degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o'zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog'lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko'chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o'tib ketmagan, shu zahotiy oq tanbeh berib to'g'ri yo'lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go'zal xulqli bo'lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi.

Oiladagi muhit ota-ona o'z ma'suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo'ladi. Bolalarning odobli bo'lib ulg'ayishi uchun ota-ona bilan bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir. "Qush uyasida ko'rganini qiladi", deb bejiz aytmagan xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida olijanob fazilatlarini namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o'z odatlari bilan ba'zan o'zlari sezmaganda holda ularga ta'sir qiladilar.

Oiladagi qo'pol munosabatlar, ko'p yolg'on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan nosog'lom muhitni keltirib chiqaradi. Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o'rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib, kaltak yeb katta bo'lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta'sir qiladi. Bu esa o'z navbatida oiladagi nosog'lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan "ma'naviy kasal" insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma'naviyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oilada ota-onalar "ommaviy madaniyat" ta'siriga berilib ketishi oqibatida farzandlarning tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Istiqlol tufayli xalqimiz chet-el yurtlarini kezib, yangi xalq va urf-odatlarini guvohi bo'lib qaytmoqdalar. Shu jumladan Yevropa davlatlariga sayr qilib kelayotgan fuqarolarimiz bugungi kunda g'arb o'smirlari orasida boshqa mamlakatlar yoshlariga qaraganda uyushgan jinoyatchilik va zo'ravonlikka berilish holati yuqori. Bunga sabab bolalarga keragidan ortiq erkinlik berilgani ekan. Ularni hozirdan aysh-ishratga berilib, turli axloqsiz hatti-harakatlarga ruju qo'yishdan hech kim qaytarmasligini aytib berishmoqda.

Inson hayoti davomida biror shaxsni o'ziga o'rnak deb biladi, bundan inson u kabi hayot kechirishni, u erishgan yutuqlar kabi muvaffaqiyatlarga erishishni, yuksak cho'qqilarga chiqishni ko'zlaydi. Bugun jamiyatning yosh a'zolari o'z hayotlari uchun boshqa madaniyat vakillarining fikrlash va hayot tarzini o'rnak qilib olishlari ko'p muammolarni keltirib chiqarmoqda.

XXI asrda turli hayot tarzlari va g'oyalar raqobatga kirishdi. Bunda muvaffaqiyatga erishish uchun har bir davlat o'zligini saqlagan holda diniy va milliy qadriyatlarini boshqalarga anglatishni asos qilgan mafkuraga ega bo'lishi lozim. Aks holda, o'zlikni yo'qotish, bebaho qadriyatlardan voz kechish kishini taraqqiyotdan ajratib, uni tobe, mustaqil fikri yo'q manqurtga aylantirib qo'yadi. Hozirgi kunda g'arazli maqsadlarni amalga oshirish uchun zimdan olib borilayotgan fitnalar ba'zi millatlarning o'zligini yo'qotishga qaratilganini sezish mumkin. Bunda e'tibor xududlarini egallash emas, balki inson ongini egallashga yo'naltirilgan.

2-§. Bola tarbiyasida maktabgacha ta'lim, oila va jamiyatning o'rni.

Tarbiya - ijtimoiy hodisa. U kishilik jamiyati paydo bo'lgan davrdan beri mavjud. Inson yer yuzidagi eng mukammal zot bo'lishi uchun, avvalo, tarbiyalanishi zarur. Abu Lays Samarqandiy «Bo'stonul-orifin» asarida tarbiya va tarbiyalashning ma'nosini ta'riflab: «Ey o'g'il, farzandlaringni tarbiyalashdan oldin o'zingni tarbiyala, tarbiya ko'rgan oilada baodob, yaxshi fazilatli, bilimli odam voyaga yetadi», - degan edi. Ibn Sino ijodiyotida ham bu g'oya alohida o'rin tutadi.

Kimga qanday pandu nasihat qilsang, unga avvalo o'zing amal qil», - deydi alloma. Sharq mutafakkirlari, pedagog olimlari barkamol insonni yetishtirish uchun tarbiya naqadar zarurligini, uning mohiyati va mazmunini asoslab berganlar. Tarbiya jarayoni tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o'rtasida tashkil etiluvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiyaning maqsadi - har tomonlama shaxsni shakllantirish. Tarbiya mazmuni deganda, qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda tarbiyalanuvchilarning egallashi lozim bo'lgan bilim, malaka, e'tiqod, shaxs sifati va xarakteri, xulq-atvor tizimi tushuniladi. Tarbiyaning umumiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ✓ tarbiyalanuvchilarning maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish;
- ✓ jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi "inson kapitali"ni tayyorlash;
- ✓ madaniyatlarni uzatib turish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash;
- ✓ ma'lum jins yoshi va ijtimoiy-kasbiy guruhlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakatini tartibga solish.

Tarbiya qonuniyatlari - bu bir tomondan, ijtimoiy hodisa sifatida tarbiyaning xususiyatlari, ikkinchi tomondan, shaxsning rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan barqaror aloqalardir. Maktabgacha ta'lim muassasasining maqsadi: bolalarni o'qitish, tarbiyalash, qarab turish va parvarish qilish jarayonida paydo bo'ladigan tomonlarning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini sezilari amalga oshiruvchi ta'lim - tarbiya jarayonini olib borishdir. Maktabgacha ta'lim muassasasi maktabgacha ta'lim ustaviga

muvofiq bo'lgan zarur shart-sharoitlarni ta'minlaydi. Bolalar hayotini muhofaza qilish va sog'lig'ini mustahkamlashga doimo g'amxo'rlik qiladi.

Maktabgacha tarbiya yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur ta'limi bo'ladi. Hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy xayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali-obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so'z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarda tafakkur faoliyatini tarkib toptirishi, bu hodisalarni, voqealarni chuqur anglab olish, ularning muhim bo'lgan va muhim bo'lmagan tomonlarini ajratishga o'rgatishi lozim.

Bola shakllanishi va rivojlanishida qiziquvchanlik o'ziga xos xususiyatdir. U bolaning tevarakatdagi voqea-hodisalarga, narsa va buyumlarga qiziqish bilan qarashida, hamma narsani ushlab, his qilib, diqqat bilan kuzatishida namoyon bo'ladi. Tarbiyachi kuzatishlar tashkil etib, bolalarda paydo bo'lgan savollarga o'z vaqtida javob berishga harakat qiladi, ularni mustaqil javob qidirishga yo'llab, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda qiziquvchanlikning susayishiga yo'l qo'ymaydi. Bolalarni o'z navbatida tarbiyalab boradi. Ota-onalar bilan olib boriladigan ishlarning mazmuni rang-barang bo'lib, unda ayrim masalalar birgalikda muhokama qilinishi taqozo etiladi. Masalan:

- ✓ bolalarni tarbiyalashda oilaning roli, ota-onalarning vazifasi to'g'risidagi qonunlar, bolalarni maktabga tayyorlash haqida;
- ✓ maktabgacha tarbiya muassasasining yillik ish rejasi to'g'risida;
- ✓ ota-onalar jamoatchiligining ishi haqidagi masalalar shular jumlasidandir.

Bu masalalarni jamoa bo'lib muhokama qilish uchun ota-onalarning guruhi va umumiy majlislari, maslahatlar, konferensiyalar, ota-onalar kechalari kabi ish shakllari jamoa ish shakllariga kiradi. Tarbiyachilar bola tarbiyasini shakllantirishda oila tarbiyasiga chambarchas bog'laydilar. Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to'rt bo'limga ajratadi:

1. "Tarbiyaning zamoni".
2. "Badan tarbiyasi".
3. "Fikr tarbiyasi".
4. "Axloq tarbiyasi" haqida hamda uning ahamiyati to'g'risida fikr yuritadi.

Shunday ekan bola tarbiyasi bir vaqtning o'zida "Maktabgacha ta'lim", "Oila" va "Jamiyat" nuqtai-nazarida shakllanib boradi. Biz oilani "davlat ichra kichik davlat"-deb ataymiz. Unda yangi inson, ya'ni davlatning yangi bir vakili dunyoga keladi. Kichik davlat - oila esa bu inson uchun dastlabki hayot dorilfununi bo'ladi. Shu sababli ota - onalar farzandning birinchi o'qituvchisi va tarbiyachisidir. Farzandni barkamol va ma'naviy yetuk qilib o'stirish uchun, eng avvalo ota - onaning o'zi yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi kerak.

Farzand tarbiyasini ota - onalar o‘z shaxsiy ishi deb bilmasliklari kerak. Aslida bola tarbiyasi ota - onaning jamiyat oldidagi fuqarolik burchi va davlat oldidagi mas’uliyati hamda qarindosh - urug‘lar oldidagi javobgarligi. Shuning uchun ham ota - ona obro‘si farzand tarbiyasida ma’naviy ozuqa bo‘ladi. Bu ma’naviy ozuqa bola tarbiyasida “ufq” ni ko‘zlab ish tutishda mustahkam poydevor hisoblanadi. Bunday tarbiyalash jarayonida mehnat va ijtimoiy faoliyatni oilaviy vazifalar bilan qo‘shib olib boradigan farzandlari hayotiga qiziqadigan va ularga oqilona, odilona rahbarlik qiladigan ota - onalar ijobiy o‘rnak bo‘ladigan kishilardir, ya’ni obro‘li ota - onalardir. Bunday odamlar o‘z farzandlari tarbiyasiga oilada ham, maktabgacha ta’limda ham e’tibor beradigan aqlli odamlar, namunali oilalar a’zolari bo‘ladi. Ilmiy manbalarga qaraganda inson shaxsi uchta faktorlar ta’sirida tarkib topadi. Ulardan birinchisi odam tug‘ilib o‘sadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta’siri bo‘lsa, ikkinchisi odamga uzoq muddat davomida sistemali beriladigan ijtimoiy ta’limtarbiyaning ta’siridir va nihoyat, uchinchisi odamga nasliy yo‘l bilan beradigan irsiy omillarning ta’siridir. Shunday qilib, insonning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhit va tarbiyaning roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Bu o‘z navbatida bola shaxsini tarbiyalashda oila va jamiyatning ham roli nihoyatda katta ekanligini ko‘rsatib beradi.

3-§. Maktabning oila va keng jamoatchilik bilan aloqasi.

O‘zbekistonda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar "Oila, mahalla, o‘quv bilim yurti hamkorligi" yo‘nalishidagi shaxs tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla, o‘quv bilim yurtining asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqozo qiladi. Ayniqsa, sinf rahbari bilan oila o‘rtasidagi bu xildagi o‘zaro xabarlashuvlar o‘quvchini to‘la o‘rganishga, ta’lim va tarbiyada shu o‘quvchi uchun eng maqbul tarbiya va ta’sir vositasini topishga yordam beradi.

Sinf rahbari o‘z kuzatishlari, oiladan olgan axborotlari natijasini kundalikka yozib borsa, undagi to‘plangan ma’lumotlarni vaqti-vaqtida o‘rganish bilan shularga asoslanib tegishli xulosalar chiqarsa, bola xulqini va fazilatlarini yaxshilash yo‘llari, keyingi rejalarni belgilasa, erishilgan darajani hisobga olib yangi pedagogik talablar qo‘yib bo‘lsa, tarbiya albatta samarali natija beradi. Sinf rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari g‘oyat keng, ko‘p qirrali bo‘lib, bu ishlar faqat sinf va maktab miqyosi bilan cheklanmaydi, aksincha turar joylardagi va o‘quvchining ota-onasi ishlab turgan korxonadagi jamoatchilik bilan ham yaqin aloqada bo‘lishni taqozo etadi. Yuqorida keltirilib o‘tilgan fikrlardan ma’lum bo‘ladiki, shaxsni tarbiyalashda oila, maktab va mahallaning hamkorlik usullarining xilma-xilligini ko‘rsatadi va bu esa mavzuning dolzarbligini asoslaydi. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishda "Oila, mahalla, maktab hamkorligi" Konsepsiyasining o‘rni va ahamiyati.

Tarbiya jarayoni ishtirokchilari sa’y-harakatlarini birlashtirish maqsadida 1993-yilda ishlab chiqilgan "Oila, mahalla, o‘quv bilim yurti hamkorligi" Konsepsiyasi

yoshlarni istiqloq g'oyalariga sadoqatli, ma'naviy barkamol, vatanparvar etib tarbiyalashda keng jamoatchilik faoliyatini muvofiqlashtirish borasida ma'lum dasturilamal bo'ldi. Zero, ta'lim-tarbiyani takomillashtirishda ham davlat bosh islohotchidir, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, **birinchidan**, yosh avlodga o'zligimizni, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni singdirish;

ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud bo'lgan hurfiylikdan qat'iy nazar yoshlarni jipslashtiradigan, xalqimiz va davlatimiz daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng yuksak maqsadlar sari chorlaydigan yagona g'oya – milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;

uchinchidan, yoshlarni baynalmilal jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda O'zbekistonga munosib hurmat tug'dirish uchun intilish ruhida tarbiyalash;

to'rtinchidan, yosh avlodni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat, yuksak odamiylik va insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash;

beshinchidan, yosh avlodni ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklari, ayni vaqtda jahon va zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida tarbiyalash O'zbekistonda o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashning eng dolzarb masalasidir.

Davlatimiz rahbari ko'rsatib berganidek, ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlar:

birinchidan, ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta'sir ko'rsatishga, umuman mamlakatdagi mavjud muhitni butunlay o'zgartirishga;

ikkinchidan, insonning hayotda o'z o'rnini topishini tezlashtirishga;

uchinchidan, jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishda;

to'rtinchidan, insondagi mavjud salohiyatni to'la ro'yobga chiqarishga;

beshinchidan, umumiy va maxsus bilimlarga ega, ongli, tafakkuri ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan, kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etadigan komil insonlarni tarbiyalashga qaratilgan.

Mazkur Konsepsiyada taraqqiyotimizning ma'naviy-axloqiy negizi milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi ekanligi e'tirof etildi, milliy va umuminsoniy tarbiyaning quyidagi o'zaro aloqalari, uyg'un yo'nalishlari belgilab olindi.

Milliy tarbiya yo'nalishi orqali yoshlarda o'zlikni anglash, vatanparvarlik, milliy g'urur, millatlararo muloqot madaniyati, milliy mafkuraviy onglilik, milliy odob, fidoyilik fazilatlarini shakllantiriladi.

Umuminsoniy yo'nalishda huquqiy, iqtisodiy, jismoniy, aqliy, estetik, ekologik, g'igiyenik va boshqa tarbiya yo'nalishlari amalga oshiriladi. Bu Konsepsiya milliy davlatchilik va jamiyat qurilishi talablari asosligini ta'minlaydi. Konsepsiyada oilaga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekistonda 1998-yil "Oila yili" deb e'lon qilinishi oilaning tarbiyaviy rolini yanada kuchaytirdi. Qayd etilgan masalalar jamiyatimiz, xalqimiz,

davlatimiz taqdiri va uning dunyo miqyosidagi syosiy, iqtisodiy, ijtimoiy salohiyatini shakllantirishda g'oyat katta ahamiyatga ega ekanligiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 26-martda qabul qilingan "Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 130-sonli qarori misol bo'la oladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining 30-moddasida "Voyaga yetmagan shaxslarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari shaxsning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, o'quv muassasasigacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi olishlari uchun javobgardirlar", deb belgilab qo'yilgan.

"Oila, o'quv bilim yurti, mahalla hamkorligi" bugungi kunning ma'naviy, ma'rifiy, mafkuraviy, tarbiyaviy zarurati ekanligini bildiradi. Yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqimizning boy milliy, madaniy, tarixiy an'alariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, zamonaviy pedagogik texnologiyaning ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilishi, shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligini ta'minlash; umumiy hamda milliy pedagogik madaniyatni oshirish; mamlakatimiz fuqarolari orasida milliy mafkuraviy tarbiya ishlarini takomillashtirish "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi" Konsepsiyasining asosiy maqsadidir. O'zbekistonda ruy berayotgan o'zgarishlar "Oila, mahalla, o'quv bilim yurti hamkorligi" yo'nalishidagi shaxs tarbiyasida oila, ota-ona, mahalla, o'quv bilim yurtining asosiy vazifalarini mazmunan yangilab hayotga tatbiq etishni taqozo qiladi.

4-§. Sinf rahbarining oila va jamoa bilan olib boradigan faoliyati.

Maktabning oila va keng jamoatchilik bilan aloqasi sinf rahbari orqali amalga oshiriladi. Sinf rahbari ota-onalar bilan olib boradigan ishlariga quyidagi vazifalarni hal qiladi:

1. Ota-onalar bilan yaqindan aloqa o'rnatadi va aloqani doimo mustahkamlab boradi;
2. O'quvchiga nisbatan maktabning va oilaning yagona talablar qo'yishga erishadi;
3. Sinf ota-onalar jamoasini tashkil etib, ularning sinfdagi tarbiyaviy ishlariga faol qatnashishlarini ta'minlaydi;
4. Ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni tarqatadi va ularning pedagogik madaniyatini yuqori darajaga ko'taradi;
5. Sinfga otaliq qilayotgan tashkilotlar, oila va maktabga yordam beruvchi tashkilotlar bilan aloqa o'rnatadi va ularni sinfdagi tarbiyaviy ishlarga jalb qiladi.

Sinf rahbarining o'quvchini yaxshi tarbiyalashdagi oila va jamoatchilik bilan hamkorligining muvaffaqiyati ularning bola bilan qilayotgan ishlari haqida bir-

birlariga qanchalik ko'p, aniq va muntazam xabar berib turishlariga bog'liq. Ana shu maqsadda sinf rahbari oilaga bir qator tizimli axborotlar berib turishi kerak:

– o'quvchining o'quv mehnatiga tavsifnoma, o'qishdagi muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligi, ularning sabablari, olayotgan baholari.

– o'quvchining ijtimoiy faolligi haqida axborotlar, o'quvchining jamoa hayotidagi ishtiroki nimalardan iborat ekanligi, jamoat topshiriqlari va vazifalarning bor-yo'qligi, sababi, ularga o'zining munosabati.

– o'quvchining o'z o'rtoqlari, o'qituvchilari bilan munosabatida vujudga kelgan holatlarning xarakteri, maktabdagi munosabatlarning doirasi.

– o'quvchining ayrim hatti-harakatlarini tahlil qilib, ularga pedagogik izohlar berish. Oilaga o'quvchi tarbiyachi haqida maslahat va tavsiyalar.

Oila ham o'z navbatida farzandi haqida o'z mulohazalari, kuzatishlari yuzasidan sinf rahbariga quyidagi mazmunda ma'lum axborotlar berib borishi mumkin:

✓ farzandi uyga berilgan vazifalarni qanday bajaradi, unga sarflaydigan vaqti, dars tayyorlash tartibi, mustaqillik darajasi.

✓ belgilangan kun tartibining bola tomonidan bajarilishi.

✓ o'quvchining maktab haqidagi hikoyalari, taassurotlari, gaplari, sinf hayotidagi turli voqealarga baholari.

✓ ota-onaning ayrim o'qituvchilardan, sinf rahbaridan, maktab rahbarlaridan iltimoslari va takliflari.

Sinf rahbari bilan oila o'rtasidagi bu xildagi o'zaro xabarlashuvlar o'quvchini to'la o'rganishga, ta'lim va tarbiyada shu o'quvchi uchun eng maqbul tarbiya va ta'sir vositasini topishga yordam beradi. Sinf rahbari o'z kuzatishlari, oiladan olgan axborotlari natijasini kundalikka yozib borsa, undagi to'plangan ma'lumotlarni vaqti-vaqtida o'rganish bilan shularga asoslanib tegishli xulosalar chiqarsa, bola xulqini va fazilatlarini yaxshilash yo'llari, keyingi rejalarni belgilasa, erishilgan darajani hisobga olib yangi pedagogik talablar qo'yib bo'lsa, tarbiya albatta samarali natija beradi.

Sinf rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari tajribasida shaxsiy, sinf-sinfl va ommaviy kabi shakllar keng tarqalgan. Ayniqsa, uning ota-onalar bilan olib boradigan ommaviy ishlari bu sohada faoliyatining asosiy yo'nalishidir. Chunki bu barcha ota-onalarni birlashtiradi hamda ularni maktab talablari bilan tanishtirish, jamiyatning tarbiyadan kuzatadigan maqsadlari, ota-onaning vazifalari, tarbiyani amalga oshirish yo'llari, uslub va shakllari haqida bilim berish, sinf hayotidagi o'zgarishlar, rejalarni haqida maslahatlashish uchun pedagogik ma'ruzalar tashkil etish ilmiy anjumanlar, "ochiq eshik" kunlari, savol-javob kechalari, ota-onalar majlislari o'tkazish ommaviy ishning turlaridir.

Sinf rahbarining tajribasida ota-onalar majlislari keng tarqalgan va qaror topgan ish shaklidir. Bu majlislar sinf ota-onalar jamoasining yuqori organi sifatida o'z qarorlari bilan sinfdagi, oiladagi va turar joylardagi amalga oshiriladigan tarbiyaviy

ishlarning vazifasini va yo‘nalishini belgilab beradi. Sinf ota-onalar majlislarining bir necha xili mavjud: sinfdagi tashkiliy ishlar bilan bog‘liq majlislar, ota-onalarga pedagogik ma‘lumot berishga bag‘ishlangan majlislar, munozara shaklidagi majlislar, yarim yillik yoki yil yakuniga bag‘ishlangan majlislar.

Bu majlislarning har biri o‘z maqsadiga tayyorlash va o‘tkazish tartibiga ega. Tashkiliy masalalar bilan bog‘liq sinf ota-onalari majlisida odatda ota-onalar sinfi saylanadi, ish rejalari tasdiqlanadi, ota-onalar o‘rtasidagi vazifalar taqsimlanadi. Ko‘pgina maktabdagi sinf rahbarining ota-onalar bilan olib borayotgan ishlari tajribasida savol-javob kechalari, maslahatlar va munozaralar ham vujudga kelmoqda. Maslahatlar ko‘proq shaxsiy ish shakli bo‘lib, unga sinf rahbari ota yoki onaga farzandini tarbiyalashdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish va boshqa masalalar yuzasidan aniq maslahatlar beradi. Sinf rahbari o‘zining shaxsiy suhbatini, oilani o‘rganish va kuzatish asosida to‘plagan ma‘lumotlarni ota-onalar bilan o‘tkaziladigan ishlarni hisobga olib boradigan maxsus jurnaliga yozib borishi g‘oyatda muhim. Agar bu xil jurnalni sinf rahbarlari har yili muntazam holda yuritib borsa, u tarbiyaviy ta‘siri yaxshilashning muhim vositasiga aylanadi.

5-§. Ota-onalar bilan ishlashning shakl va metodlari.

Sinf rahbari ota-onalar bilan ish olib borishda ishlashning xilma-xil shakl va metodlaridan foydalanishi lozim. Ota-onalar bilan ishlashga shaxsiy ishlar jamoa bilan birgalikda olib borilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Biz quyida ota-onalar bilan ishlashning asosiy shakllari bilan tanishib chiqamiz :

1. O‘quvchilarning uylariga borish – bu oila bilan aloqa qilishning eng samarali shakllaridan biridir. Bunda sinf rahbari o‘quvchining ota-onasi, uning yashash sharoiti, moddiy imkoniyatlari bilan tanishishga imkon topadi.

2. Ota-onalarni maktabga chaqirish. Bundan maqsad, faqatgina o‘quvchilarning xulqi, savodliligi va boshqa xususiyatlari bilan ota-onani tanishtirish emas, balki shu bilan birgalikda ota-onalarga pedagogik va ruhiy maslahatlar berib, ularga o‘quvchini oilada tarbiyalashlariga yordam ham qilishdir.

3. Ota-onalar bilan ishlash. Bu esa o‘quvchiga chaqiriqlar yoki maxsus da‘vatnomalar orqali amalga oshiriladi.

4. Ota-onalar sinf majlisini o‘tkazish. Bu shakldagi aloqa maxsus ish rejasi orqali amalga oshiriladi.

5. Ota-onalarni maxsus pedagogik va psixologik bilimlar bilan qurollantirish maqsadida ular bilan suhbat va ma‘ruzalar o‘tkaziladi.

6. Savol-javoblar kechasi. Ishning bu shakli sinf o‘quvchilarning xususiyati, xarakterini yaxshiroq o‘zlashtirish imkonini beradi.

7. Ota-onalarning tarbiya borasidagi ilg‘or tajribalar bilan fikr almashish, o‘rtoqlashish. Bu narsa quyidagi mavzuda bo‘lishi mumkin:

a) yoshlarni qanday qilib mehnatga tayyorlash mumkin?

b) o‘quvchining kundalik rejimi haqida.

v) “Ota-onalarning obro‘si” haqida, “Oilada yoshlarga axloqiy tarbiya berish” va hokazolar to‘g‘risida anjumanlar o‘tkazish.

8. Maktab qoshida ota-onalar universitetlarini tashkil etish va bu universitetlardan tizimli ish olib borish:

a) ota-onalarni tarbiya sohasidagi adabiyotlar bilan tanishtirish.

b) “Ota-onalar, sizlar uchun” degan mavzuda og‘zaki jurnal.

v) faol ota-onalarning tarbiyaviy ish tajribalari bilan boshqa sinf rahbarlarini tanishtirish kabi ishlar olib borilishi lozim.

Sinf rahbarining ota-onalar bilan olib boradigan ishlari g‘oyat keng, ko‘p qirrali bo‘lib, bu ishlar faqat sinf va maktab miqyosi bilan cheklanmaydi, aksincha turar joylardagi va o‘quvchining ota-onasi ishlab turgan korxonadagi jamoatchilik bilan ham yaqin aloqada bo‘lishni taqozo etadi. Bizning yosh avlod xalqimizni inqilobiy, mehnat, jangovar an‘analarini o‘zlashtirib, o‘ziga katta avlodning eng yaxshi fazilatlarini – g‘oyaviy e‘tiqod va matonatni, Vatanga muhabbatni, uning iqtisodiy, siyosiy va jangovar qudratini mustahkamlashda ishtirok etishga intilishni singdiribgina o‘z bobolari va otalari ishini davom ettira va ko‘paytira oladi. Buni barcha sinf rahbarlari nazarda tutishlari muhimdir, Bunda shaxsning huquqiy yetukligi shaxs ijtimoiylashuvining mahsuli ekanligini har bir oilaga tushuntirish g‘oyat muhimdir. Oila shaxs uchun uning ijtimoiylashuv jarayoni ro‘y beradigan, uning axloqi, dunyoqarashi asoslari va hokazolar tarkib topadigan dastlabki va nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan jamoadir.

Oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli pavishta odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta‘sir ko‘rsatishga qodirdir va odatda ta‘sir ko‘rsatadi. Oila tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va psixologik ta‘sir ko‘rsatiishning chuqur o‘ziga xosligi bilan uyg‘unlashib ketadi. Bu esa uni oliy darajada ta‘sirchan qilibgina qolmay, shu bilan birga shaxsni shakllantirish jarayonining zarur bo‘g‘iniga ham aylantiradi. Oilaning yuksak tarbiyaviy imkoniyati shaxslar va ota-onalarning o‘ziga xos xususiyatlari: qon-qarindoshligi, muhabbati, yaqinligi, ishonchi, burch hissi, obro‘liligi va hokazolar bilan ta‘minlanadi. O‘z farzandining barcha zaif va kuchli tomonlarini yurgakdagi chog‘idan biladigan, uning qalbidagi eng kichik harakatni ham sezadigan va tushunadigan, unga ta‘sir etishni biladigan onadan va otadan yaxshiroq kim ham ularni ezgulikka, mehnatsevarlikka, do‘stlikka, muhabbatga o‘rgata oladi!

Ma‘lumki, xilma-xil faoliyat sharoitida shaxsning qobiliyatlari eng samarali rivojlanadi, uning ijodiy imkoniyatlari ochiladi, shaxsni oiladan boshqa qaerda ham faoliyatning xilma-xil turlariga jalb etish mumkin. Oilaviy tarbiyaning qimmatliligi va ahamiyati yana shundaki, kichik shaxslik paytida oilada egallangan narsalar bir umr saklanib qoladi. Xuddi shuning uchun ota-onalarning shaxslarni har tomonlama

tarbiyalash majburiyati qonuniy tarzda belgilab qo'yilgan. Sinf rahbarlari ota-onalar bilan birgalikda tarbiyaviy ishni tashkil etar ekanlar, eng yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar ma'lumotlarini e'tiborga olishlari ham muhimdir, ularga muvofiq o'sib kelayotgan kishi shaxsini shakllantirishga oilaning qo'shadigan hissasi turli yosh bosqichlarida turlicha bo'ladi va to'liqsimon o'zgaradi. Dastlabki 3 yil ichida u ayniqsa kuchli bo'ladi, shundan keyin oilaviy ta'sirning muayyan darajada barqarorlashuvi davri boshlanadi. Uning navbatdagi odatda maktabgacha yosh tugaydigan paytga to'g'ri keladi, shundan keyin taxminan o'smirlilik davrigacha u zaiflashgandek bo'ladi. Yana ota-onalarning ta'siri ota-ona oilasidan ajralib, o'z oilasini tuzguncha ancha kuchayadi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlarning ma'lumotlari ba'zan shaxsning imkoniyatlari to'grisidagi barqaror tasavvurlarni o'zgartirib yuboradi. Masalan, ych yillik shaxslar olimlar bir necha yil muqaddam taxmin qilganlariga nisbatan ancha chuqur idrok etish qobiliyatiga ega, uch yoshli shaxs hozir faqat olti yoshli shaxslar qilgan va qilmagan narsalarni bilishi va qilishi mumkinligi kichkintoyini yurishdan oldin suzishga, ona tili bilan deyarli baravar chet tilida gapirishga o'rganish mumkinligi va hokazolar ma'lum bo'ldi. Vaholanki, tajribaning ko'rsatishicha, ota-onalar ko'pincha o'zlarini tarbiyaviy ishga to'la tayyor deb biladilar va maxsus pedagogik bilimlarni egallashni zarur deb hisoblamaydilar. Ota-onalarning bu xususiyatini taniqli pedagog va psixolog D. Ushinskiy o'z davrida ta'kidlagan edi.

Tarbiya san'ati, - deb degan edi u, - shunday xususiyatga egaki, deyarli barchaga tanish va tushunarli, ba'zilarga esa juda oson ish bo'lib tuyuladi - odam bu ish bilan nazariy va amaliy jihatdan qanchalik kam tanish bo'lsa, unga bu shunchalik tushunarli va oson bo'lib ko'rinadi. Deyarli hamma tarbiya sabr-toqatni talab etishini e'tirof qilishadi, ayrimlar buning uchun tug'ma qobiliyat va malaka, ya'ni ko'nikma kerak, deb o'ylaydilar; lekin juda kam odam sabr-toqat, tug'ma qobiliyat va malakadan tashqari yana maxsus bilimlar kerakligi haqida ishonch hosil qilish. Bunday bilimlarning yo'qligi oilaviy tarbiyada ko'plab xatolarga olib keladi, guruh rahbari ota-onalar bilan ishlashda buni hisobga olmay iloji yo'q. Bu jihatdan ota-onalarning shaxslarni tarbiyalashdagi quydagi qiyinchiliklari va xatolarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Ota-onalarning shaxslar bilan muomalasining yetishmasligi. Ular o'zlari, ishlari haqida kam so'zlab beradilar, o'quv bilim yurti o'quvchilar jamoasining hayoti, o'z shaxssining qiziqishlari, uning jamoat ishlari, bu ishga munosabati va hokazolar bilan kam qiziqadilar. Muomalaning yetishmasligi shaxslarning ota-onadan uzoqlashishiga olib keladi, kattalarni shaxsga yanada faolroq ta'sir ko'rsatish imkoniyatidan mahrum etadi.

2. Shaxslarni mehnat jarayonlariga jalb etish orqali ularning mehnat tarbiyasini tashkil qila bilmaslik ona ishga ko'milib ketgan paytda shaxslar oilaviy ishlardan, turar

joylardagi ishlardan va hokazolardan ozod etiladilar. Buning natijasida mehnatga mensimay munosabatda bo'ladilar.

3. Ota-onalar turmushida salbiy misollarning mavjudligi o'quv muassasasining pedagogik kuch-g'ayratini yo'qqa chiqaradi.

4. Ota-onalar tarbiyaviy ta'sirining izchil emasligi – onda-sonda o'qishini tekshirish, biror nojo'ya ish uchun jazolash va hokazolar axloqiy immunitet hosil bo'lishiga yordam bermaydi.

5. Oilaviy tarbiyaning asosi sifatida taqiqlashlar sistemasi – ijobiy namuna asosida tarbiyalay bilmaslik, shaxs hayotini u har doim turli hatti-harakatni mashk kiladigan tarzda tashkil eta olmaslik natijasidir. Bu sistema shaxsning kattalar xohishiga salbiy munosabatini tug'diradi, mustaqillikning rivojlanishini susaytiradi.

6. Harakatlarning o'quv bilim yurti bilan muvofiqlashtirilmaganligi yoki u bilan kelishmovchilikonsepsiya Tarbiyalanuvchida pedagogga, o'quv bilim yurtiga ishonchsizlik paydo bo'ladi va o'sib boradi, bu esa uning kamchiliklarini tuzatishni qiyilanshtiradi, pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi.

7. Ayrim ota-onalarning shaxslar ulg'ayib borishi bilan tarbiyaviy faollikni susaytirib yuborishlari, bu esa shaxslarning ota-onalardan uzoqlashuviga, o'quv bilim yurtiga qiziqishi pasayishiga va hokazolarga olib keladi.

8. Qarorlar qabul qilishda kechikish. Shaxs katta bo'lgandan keyin aqli kirib, tuzaladi deb o'ylash odatda o'zini oqlamaydi, ko'pincha qayta tarbiyalashni talab etadigan pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi.

Ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar qatoriga ota-onalarning tarbiya usullarini bilishlarini, shaxslar ulg'ayishi bilan ularni o'zgartirishni bilmaslik yoki istamaslik ota bilan onaning talablari birligining, pedagogik odob, chidamning yo'qligi, ota-onalarning turmushning ma'naviy tomoniga zid tarzda moddiy tomoniga qiziqib ketishi va boshqalarni qo'shish mumkin. Ota-onalar bilan ish shakllari va usullarini tanlashni odatda sinf rahbari o'z shaxsiy xususiyatlari tajribasini, o'quvchilarning oilalarida vujudga kelgan o'ziga xos xususiyatlarni, ota-onalarning bilim va tajribasini, tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda yuqorida ko'rsatib o'tilgan xatolar va qiyinchiliklarni, fe'l-atvor xususiyatlarini, o'quv muassasasi pedagoglar jamoasidagi muhitni, ota-onalar bilan ish olib borishda tarkib topgan an'analarni va hokazolarni hisobga olib belgilaydi, tajribaning ko'rsatishicha, sinf rahbarining ota-onalar bilan hamkorligining ommaviy, sinf. tarzidagi va yakka tartibdagi ish shakllarini oqilona birga qo'shib olib borish, bunda uning mazmunida izchillikka rioya etish orqali erishiladi. Ko'rsatilgan shakllar ta'rifi va ularni qo'llashning eng yuqori natija berishini ta'minlaydigan shart-sharoitlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz. O'quvchilarni tarbiyalashda oilaning bir qancha vazifalari mavjud bo'lib ular quydagilardir:

- oilada sog‘lom muhitni yaratish, milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish, farzandlar uchun ota-ona har tomonlama o‘rnak bo‘lishi, farzandlarning ota-onasiga, Vatanga muhabbat tuyg‘usini shakllantirish, o‘zaro g‘amxo‘p bo‘lishni ta‘minlash;
- oilada huquqiy tarbiyani yaxshilash, oila a‘zolarining o‘z huquq va burchlarini anglab yetishlarini va ularga rioya qilishlarini ta‘minlash;
- farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish, ma‘rifatli va ma‘naviyatli kishilar bo‘lib yetishishlarini ta‘minlash;
- bozor munosabatlariga mos bo‘lgan kasb-hunar o‘rgatish, iqtisodiy tushunchalarni farzandlar ongiga singdirish;
- shaxslarning ma‘naviy barkamol va jismonan sog‘lom bo‘lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish;
- shaxslarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, istiqloq g‘oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;
- shaxslarning bo‘sh vaqtlarini pedagogik nuqtai nazardan kelib chiqib unumli tashkil qilish, ularga qo‘shimcha ta‘lim berish;

6-§. Shaxsni tarbiyalashda oila, mahalla va ta‘lim muassasasi hamkorligini amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari.

Yosh avlodni yaxshi xulqli, davlat ramzlariga sadoqatli qilib tarbiyalashda ularning yosh jihatlariga, xarakteriga alohida ahamiyat berish lozim, chunki bularsiz tarbiyada ko‘zlangan maqsadga erishib bo‘lmaydi. Oila, mahalla, o‘quv bilim yurti hamkorligida quyidagi tamoyillarga va bosqichlarga amal qilinganda samaradorlik yanada yuqori bo‘ladi:

- ✓ ta‘lim va tarbiya sohasida hamkorlik jarayoni ishtirokchilari harakatlarining ish birligi;
- ✓ tarbiyalanuvchiga hurmat va talabning uyg‘unligi;
- ✓ hamkorlik jarayoni sub‘ektlarining teng huquqliligi va yuksak mas‘uliyati;
- ✓ faoliyat jarayonida millat va davlat manfaatlari ustuvorligi;
- ✓ hamkorlikning ilmiy asoslanganligi.

Birinchi bosqich. Yosh oilalar bilan ishlash. Yosh ota-onalarga farzand va uning tarbiyasi haqida falsafiy, tibbiy tushunchalarni berish va bu masalalarga tibbiyot xodimlari, obro‘li xotin - qizlarni, ota-onalarni jalb qilib, "Yosh onalar va otalar o‘quv muassasasi" faoliyatini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi bosqich. Farzandning o‘quv muassasasigacha bo‘lgan davridagi jismoniy, aqliy va ma‘naviy rivojlanishini ta‘minlash borasida ularga rasm chizish, voqealarni bayon qilish, o‘ziga o‘zi xizmat qilish, harf tanish, qo‘shiq, aytish va raqs tushish, turli o‘yinlarda ongli qatnashish tushunchalarini singdirish va mustaqil ravishda bilim olish ko‘nikmalarini shakllantirish yuzasidan o‘quv muassasasiga tayyorlash sinflari, "Yakshanbalik o‘quv maskanlar" ishini tashkil qilish.

Uchinchi bosqich. Kichik yoshdagilar uchun mo'ljallangan (6-11 yosh) o'quv muassasalarida shaxslarning jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy shakllanishini ta'minlash, uning ilk iqtidori, qiziqishi va aqliy imkoniyatlarini aniqlash, o'z hatti - harakatlariga javobgarlik hissini tarbiyalash, bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilishni o'rgatish, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lib, do'stlik, baynalmilallik, vatanparvarlik xislatlarini shakllantirish.

To'rtinchi bosqich. O'smirlarning (11-16 yosh) qiziqishini, bilimga chanqoqlik va aql zakovatini hisobga olgan holda ijtimoiy faoliyatga tortish, jismonan baquvvat bo'lishini ta'minlash, maishiy mehnat faoliyati orqali turli kasblarga yo'naltirish, o'smirlar sinflari va jamoatchilik orasida o'z o'rnini topa olishiga ko'maklashish, o'z hatti-harakatlari uchun jamiyat, qonun va ota-onalari oldida javobgarlik tuyg'usini shakllantirish, ijtimoiy faolligi va mustaqil dunyoqarashini yuzaga keltirish.

Beshinchi bosqich. Yoshlarni (16 yosh va undan yuqori) dunyo andozalariga mos bilim olishlari, kasb tanlashlari, mustaqil hayotga tayyorgarliklarini ta'minlash. Ularning imkoniyatlari darajasida ta'lim olishlariga, tanlagan kasblari bo'yicha ish bilan ta'minlanishlariga, iqtisodiy mustaqil bo'lishlariga shart-sharoit yaratish. Vatan, Davlat va jamiyat oldidagi fuqarolik burchlarini ado etishga javobgarlik hissini to'la shakllantirish, mustaqil oila qurishga tayyorlash.

Ta'lim va tarbiya sohasiga e'tiborni kuchaytirish, bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qonun va hujjatlarni, direktiv ko'rsatmalarni samarali bajarish uchun oila, mahalla, o'quv muassasasi hamkorligi faoliyati o'ziga xos pedagogik tizim, uslub va shakllarga ega bo'lishi zarur.

O'tkazilgan tadbirlar har tomonlama puxta, shuning bilan qatnashchilarning yoshlariga mos pedagogik va psixologik mujassamlashgan, mantiqan teran, qiziqarli va ko'rgazmali, ta'sirchan, ommabop, amaliy jihatdan qisqa va lo'nda, estetik jihatdan keng ko'lamli bo'lishi kerak.

Hamkorlikda olib borilayotgan ishlar mahalla hududidagi barcha yoshlar va toifadagi fuqarolarni qamrab olishi hamda ularning qiziqish va intilishlariga mos bo'lishi lozim. Hamkorlik tadbirlarining mavzulari "Sog'lom avlod uchun", "Ota-onangga rahmat", "Odobinga balli", "Sog' tanda sog'lom aql", "Mehr chashmasi", "Qizlar ibosi", "Bir yigitga qirq, hunar oz", "O'g'lim posbonim", "Hayot - ustoz, xalq - muallim", "O'zbekiston Vatanim manim!", "Milliy burch va mas'uliyat", "Oila saboqlari", "Oila etikasi", "Oila tinch - mahalla tinch", "Mustaqil hayot bo'sag'asida", "Askarlik - yigitlik o'quv muassasasi", "Oila baxti - Vatan baxti", "Sportchi oila", "Oilamiz ohanglari", "Vatan ostonadan boshlanadi", "Biz kimmiz" kabi tadbirlardan iborat bo'lishi mumkin.

Bahslar, bellashuvlar, uchrashuvlar va turli sanalarga bag'ishlangan anjuman va tantanalardan iborat bo'lishi mumkin. Joriy qilingan jamoatchilik kengashi o'z faoliyati to'g'risida mahalla ahliga har chorakda bir marotaba hisobot beradi. Zarurat

tug‘ilganda o‘quv-tarbiya muassasalari, mahalla faollari, mahalla hududida joylashgan tashkilot, korxonalar va idoralarning ta‘lim-tarbiya yuzasidan olib borilayotgan ishlari to‘g‘risida hisobotlarini tinglab, ularga amaliy va nazariy yordam berishi ish samarasiga va uning izchilligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli paviyishda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta‘sir ko‘rsatishga qodirdir va odatda ta‘sir ko‘rsatadi. Oila tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va psixologik ta‘sir ko‘rsatishning chuqur o‘ziga xosligi bilan uyg‘unlashib ketadi:

- farzandlarida mavjud bo‘lgan iste‘dod kurtaklarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- o‘z farzandlarining o‘quv muassasasi, mahalla, davlat va jamiyat oldidagi burchlarini to‘la ado etishlari uchun oilada mas‘uliyatli bo‘lish;
- ota-onalar o‘zlarining pedagogik va psixologik bilim saviyalarini doimo oshirib borishi;
- shaxslarda tejamkorlik va ishbilarmonlikning ma‘naviy axloqiy tomonlarini shakllantirish;
- oilada milliy va umuminsoniy tarbiyaning barcha yo‘nalishlarini uyg‘un holda bosqichma-bosqich amalga oshirishga mas‘ullikni ta‘minlash;
- sanitariya-gigiyenik, ekologik ko‘nikmalarni singdirish, diniy aqidaparastlik, ichkilikbozlik, giyohvandlikka qarshi tarbiyani amalga oshirish;
- oila, o‘quv bilim yurti va mahalla oldida o‘z farzandlarining barcha hatti-harakatlari uchun javobgardir;
- sog‘ligida va aqlida nuqsonlari bo‘lgan farzandlariga hayot talablariga mos ravishda bilim va kasb-kor o‘rgatishdan iborat.


Ota-onaning farzand oldidagi burchi, o‘zbekona ta‘bir bilan aytganda, farzandga yaxshi nom qo‘yish, yaxshi muallim qo‘liga topshirib savodini chiqarish, ilimli, kasb-hunarli qilish, oilali va uyli-joyli qilishdan iboratdir.



Nazorat savollari:

1. Oilaning yuksak tarbiyaviy ahamiyati haqida fikr yuriting.
2. Bola tarbiyasida maktabgacha ta‘lim, oila va jamiyatning o‘rni haqida gapirib bering.
3. Maktabning oila va keng jamoatchilik bilan aloqasi haqida nimalarni ayta olasiz.
4. Sinf rahbarining oila va jamoa bilan olib boradigan faoliyati talab darajasidami?

5. Ota-onalar bilan ishlashning shakl va metodlari sanag.
6. Shaxsni tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasasi hamkorligini amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari.



VII. TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI

Tayanch tushunchalar: *Miliy qadriyatlar, urf-odatlar, shaxs kamoloti, Milliy aksiologiya, pedagogik fikrlar.*

1-§. Tarbiya darslarida milliy qadriyatlar.

O'zbek xalqining urf-odatlari, turmush tarzi, oilaviy marosimlari, ta'lim-tarbiya, madaniyat an'analari moziy uzoq asrlariga borib taqaladi. Barg ildizdan quvvat oladi deganlaridek, hozirgi va kelajak avlod o'z ajdodlarining milliy marosimini chuqur bilishi ular ma'naviyatning mag'zi to'qligi omilidir. Bu hamisha hamma avlod tomonidan e'tirof etilgan. Haqiqatda Kaykovus (1020- 1099)ning "Qobusnoma" sidan tortib al-Xorazmiy (783-850), Abu Nosir al- Forobiy (873-950), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Ali ibn Sino (980- 1037)larning nazmiy va nasriy asarlarida Yusuf Xos Hojib (XI asr) ning "Qutadg'u bilig" ("Baxt keltiruvchi bilim"), Ahmad Yugnakiy (XIII asr)ning "Hibbatul haqoyiq" ("Haqiqat sovg'alari") kabi jahonga mashhur asarlaridan Alisher Navoiy(1441-1501)ning o'lmas she'riyatida, Qori Niyoziyning "Hayot maktabi", Abdulla Avloniyning (1879-1934) "Guliston yoxud turkiy axloq" asarlarida Sharq xalqlari, xususan, (1878-1934) o'zbek xalqiga xos ibratli tomonlar ochib berilganki, ular qalami orqali xalqimizga xos bo'lgan ota-onani hurmatlash, insoniylik, mehr-shafqat, mehmondo'stlik, ma'rifatga chanqoqlik, onani (ayolni) ulug'lash, farzandga mehrlil va fidoyi bo'lishlik kabi fazilatlarni dunyoga tanitgan bo'lsa ajab emas. Yurtimizning inqilobdan keyingi dastlabki yillaridayoq ta'lim-tarbiya, ma'rifat va madaniyat borasidagi xalq tarbiyashunosligining ibratli tomonlari yuksak baholangan edi. Umuminsoniy, oilaviy urf-odatlar va an'analarni chuqur o'rganish, ularni tahlil qilish, turkumlashtirish, ularning paydo bo'lish yo'llari, tadrijiy taraqqiyotini bilish, aniqlash, ilmiy asoslangan g'oyalarni ilgari surish va shular asosida an'analardan foydalanish yo'llarini tavsiya etishni hayot talab etmoqda. Bularning hammasi kelajak kishisini tarbiyalashda amaliy yordam berishi muqarrar. Qadim zamonlardan, hatto o'zbek xalqining yozuvi bo'lmagan paytlarida yosh avlodni tarbiyalash asosan oilada amalga oshirilgan. Yuqoridagi fikrlarni inobatga oladigan

bo'lsak bizning mazkur kurs ishimiz ana shunday dolzarb muammolardan birini yoritishga bag'ishlangan.

Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot - yo falokat, yo saodat – yo falokat masalasidir"

Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xussiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy ishdir. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq.

Tavallud, Beshik, Alla udumlari. Tavallud topgan bolaning qulog'iga otabobolarimiz avval mulla chaqirib azon aytirganlar. Azon aytilganda bolaning qulog'i ochilgan. ismi ilk bor chaqaloqning o'z qulog'iga singdirilgan. So'ng ularning chillasikichik chilla va katta chilla o'tkaziladi. qirq kunlik katta chillasi chiqqandan so'ng beshikka belash marosimi o'tkaziladi. Tavallud topgan bosh farzand bo'lsa, bozordan beshik sotib olinadi. Beshik ajdodlarimiz kashfiyotlari orasida aloxida o'rin tutadi. Beshik yasash aloxida sanoat darajasiga ko'tarilgan.

Bola bor joyda alla aytilishi tabiiy. Onalar qadimdan o'z bolalari tepasida kechakunduz alla aytib kelishgan. Alla insonda, ong qatlamlarida bir umr mungli, xazin, nurli qo'shiq bo'lib saqlanib qoladi.

Qadriyat - tarix sinovlaridan o'tgan, milliy manfaatlarimiz, bugungi va ertangi orzu-intilishlarimizga, taraqqiyot talablariga to'la javob beradigan, yillar o'tgani sari qadri ortib boradigan g'oya va tushunchalardir.

An'ana - kishilar ongida, hayotida o'z o'rnini topgan ijtimoiy hodisa bo'lib, avloddan avlodga o'tadigan, takrorlanadigan tartib va qoidalardir.

Urf-odat - kishilarning kundalikdagi turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan ko'nikma va xulq-atvor qoidalaridir. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, mehmonlarni alohida hurmat bilan izzatlash.

Marosim - ko'pincha an'ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo'lib, insonhayotidagi muhim voqealarni nishonlashga qaratilgan hayotiy tadbirlardir. Yangilanish va ezgulik timsoli bo'lgan Navro'z falsafasi xalqimizga mansub odamiylik, mehr - oqibat, muruvvat va himmat kabi yuksak xususiyatlardan oziqlanib kelgan, ajdodlarimiz asrlar davomida qanday buyuk umuminsoniy g'oyalardan bahramand. Demak, Navro'z bayramini nishonlash, u bilan bog'liq urf-odatlar, rasm-rusumlarni o'tkazish yoshlar tarbiyasida juda katta ahamiyatga ega.

Xalqimiz kuzgi tengkunlikda hosil yig'ish yakuni, qishga tayyorgarlikning boshlanishi sifatida "Mehrjon" bayramini o'tkazgan. Hozirgi kunda bu bayram qayta tiklanib nishonlanmoqda.

Yoz oyida nishonlanadigan "Suv sayli" , "Angom bayrami" O'rta Osiyo iqlimi sharoitida suvga bo'lgan tabiiy ehtiyoj asosida shakllangan. Suvning qadriga yetish,

uni isrof qilmaslik, e'zozlash kabi xislatlarni tarbiyalashda ushbu bayramning ahamiyati katta bo'lgan. Yoz oylarining oxiridan boshlab uzum sayli, qovun sayli, anor, anjir sayillari, turli-tuman tabiat va mehnat bayramlari nishonlangan.

Sada bayrami qadimda olov kashf etilgan kun deb nishonlangan. Islom dini kirib kelgach, bu bayram yo'qola borgan, lekin uning ba'zi elementlari hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan. Masalan, ba'zi viloyatlarda kelinni olov atrofida aylantirish udumi hozir ham bor.

Dehqonchilik bilan bog'liq juda ko'p marosimlar qatorida — Shoxmoylar alohida quvonch va tantana bilan nishonlangan, bu kun dalaga qo'sh chiqarish kuni sifatida bayram qilingan.

Bu bayram bilan bog'liq udumlar kishilarni hamjihatlikka, mehrlilikka va mehnatsevarlikka undagan.

Bu urf-odatlar va marosimlarda yoshi kattalar ulug'langan, halqimiz kelajakka umid va ishonch bilan qarashni o'rganganlar.

Jo'rachilik va ulfatchilik asosida tashkil qilinadigan — gap hozirgacha saqlanib kelayotgan urf-odatlardan biri. Unda turli tarbiyaviy mazmundagi suhbatlar uyushtirilgan, ashula va raqslar ijro etilgan, mehmonnavozlikning o'zbekona udumlariga rioya qilingan.

Diniy bayramlarimizdan Ro'za va Qurbon hayiti insonparvarlik xarakteriga ega bo'lgan bayramlar safiga kiradi. Bu bayramlarning kelib chiqishi, mohiyati haqida juda ko'p ma'lumotga egasiz, shu bois hayit bayramlari bilan bog'liq ba'zi bir urf-odat va udumlar haqida to'xtalmoqchimiz. Ro'za hayiti Ramazon oyining yakunida nishonlanadi. Ramazon oyining uchinchi kunidan boshlab eshikma-eshik yurib "Yo ramazon" qo'shig'i ijro etiladi.

2-§. Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida urf-odat va marosimlarni o'rganish.

An'analar juda murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lib, ular ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oladi. Har bir xalqning ilo'or va qoloq an'analari bor. Har bir an'ananing ilg'orligi va qoloqligi, avvalo jamiyat hayotida uning qanday rol o'ynashiga bog'liq. Ilg'or an'analar doimo xalq manfaatlar uchun xizmat qilgan va qilib kelmoqda. Ular ma'lum tarixiy sharoitlarda vujudga kelib, sinflar, millatlar va umuman jamiyatning ma'lum ehtiyojlarini qondirgan. Eskirib qolgan unsur yaxshi sharoitlarda yuzaga kelgan, mazmuni jihatidan yangi bo'lgan unsurlarga o'z o'rnini bo'shatib bergan. Shu sababli ham tarixiy taraqqiyot davomida xalq turmushining yangi sharoiti talablariga javob beradigan ba'zi an'analar saqlanib qoladi va xalq ommasi manfaatlariga uzoq vaqt xizmat qiladi, ayrimlari esa o'z umrini o'tab, o'rnini jamiyat taraqqiyoti yuzaga keltirgan yangi an'analarga bo'shatib beradi.

Taraqqiyot davomida kishilarning, yangi avlodi o'zining ma'lum an'alariga amal qilib, ularga o'z hissasini qo'shadi, ulami o'zgartiradi, yangi tarixiy sharoitda

yuzaga kelgan yangi fikr va tuyg'ular bilan boyitadi. "An'ana" tushunchasi "urf-odat" tushunchasi bilan mustahkam bog'langan. An'ana tushunchasi ijtimoiy munosabatlarning, ijtimoiy ongning barcha shakllariga taalluqli bo'lib, hajm va mazmun jihatidan urf-odat tushunchasidan kengroqdir. Ibtidoiy jamiyatning ilk davrida urf-odatlar shakllangan bo'lib, bu davrda hali hech qanday doimiy tasavvurlar vujudga kelmagan edi. Urf-odatlar jamiyatning dinsiz davrida yuzaga kelgan ijtimoiy hodisadir. Ular kishilarning ijtimoiy mohiyati zaminida vujudga kelib, jamiyat rivojlanishiga, kishilar ongining o'sishiga faol ta'sir ko'rsatgan. Chunki kishilar an'ana va urf-odatlar orqali o'zlarining mehnat jarayoni, ijtimoiy xatti-harakatlarini tabiiy-estetik shaklda ifodalaganlar. Bunday odatlarga ko'pchilik qiziqish bilan qaragan, ular faol mehnat malakalarining o'sishiga jiddiy ta'sir etgan, kishilarda kuchli ijobiy tuyg'ular uyg'otgan. Urf-odatlar orqali shaxs jamoa bilan chambarchas bog'langan, jamoaning ijtimoiy, axloqiy normalarini, ideallarini anglagan va qabul qilgan. Demak, an'ana, urf-odatlar insonning ham hissiyotiga, ham tafakkuriga kuchli ta'sir eruvchi hodisadir. Ular insonda turli kechinma va kayfiyatlar uyo'otadi.

Inson turmushidagi urf-odatlar ma'lum darajada odamning o'z -o'zini, ijtimoiy burchini anglashga, shaxs sifatida shakllanishiga ham ijobiy ta'sir qiladi. Ular odamlarga hayot kechirish, kurashish uchun ijtimoiy yo'l-yo'riqlar beradi. Bu xususiyat uzoq o'tmishdagi urf-odatlardan tortib, bizning davrimizdagi urf-odatlarga ham xosdir. Chunki fan, adabiyot, san'at sohasida urf-odatlar amal qilmaydi, mehnat an'analari ham urf-odat sanalmaydi. Urf-odatlar oilaviy turmush munosabatlarning, axloqiy normalarning mayda tafsilotlarida namoyon bo'ladi. Xotin -qizlar bilan munosabatda bo'lish tartiblari, ular bilan salomlashish qoidalari, keksalarga ko'rsatiladigan hurmat-ehtiro, mehmondorlik va mezbonlik qoidalari, dafn marosimlariga borish, undan qaytish tartiblari va boshqalar urf-odat hisoblanadi.

An'analardan farqli o'laroq urf-odatlar kishilarning ishlab chiqarishdan tashqari faoliyatlarini o'z ichiga oladi. Shuning uchun urf-odatlar nisbatan barqaror ijtimoiy munosabatlar yio'indisi hisoblanib, ko'pincha jamoatchilik fikriga tayanadi.

Xulosa qilib aytganda, kishilarning mustahkam qaror topgan urf-odatlari didlari, hulq-atvor qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarning norma va prinsiplari yig'indisidir.

Maishiy hayot va oilaviy turmush urf-odat bilan chambarchas bog'langan hodisadir. Ular kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan va rivojlanib boradigan obyektiv hodisa bo'lib, jamiyat tarixining ilk davrida vujudga kelgan. Har bir oilaning ichki tartibi, boshqa oilalardan ajralib turadigan o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi, ya'ni har bir oilada dam olish, mehnatni uyushtirish, bayramlarni nishonlash, o'zaro munosabatlarga kirishda o'ziga xoslik bor.

3-§. Milliy qadriyatlarning shaxs kamolotiga tasiri.

Ko'p asrlik milliy va diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash, dunyo ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bebaho merosini o'rganish, uning asosida yoshlarni komil inson etib tarbiyalash jamiyatda barqaror ijtimoiy-ma'naviy muhitni ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda mamlakatimizda tashkil etilgan Islom sivilizatsiyasi markazi, Islom akademiyasi, Mir Arab oliy madrasasi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari boy ilmiy-tarixiy merosimizni o'rganish va targ'ib qilishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, dunyoda ro'y berayotgan voqea-hodisalar va ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tahlili diniy-ma'rifiy sohadagi faoliyat samaradorligini oshirishni va malakali kadrlar tayyorlashning yaxlit tizimini yaratishni taqozo etmoqda. Xalqimizga azal-azaldan xos bo'lgan ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik, mehr-muruvvat, bunyodkorlik kabi ezgu fazilatlar va qadriyatlarimizni keng targ'ib qilish, jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashda diniy-ma'rifiy soha vakillarining o'rni va ishtirokini oshirish, yosh avlodni milliy ma'naviy qadriyatlarimizga mos ravishda tarbiyalash, ular ongida kichik maktab yoshidan boshlab hadis ilmi saboqlari asosida insoniy fazilatlarni shakllantirish, ularni vatanparvarlik kabi tushunchalarni singdirish muhim vazifa hisoblanadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o'zlarining Yangi yil munosabati bilan O'zbekiston xalqiga yo'llagan tabrigi «Inson qadrini ulug'lash - yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash demakdir. Bu borada jamiyatimiz asosi bo'lgan mahalla hal qiluvchi o'rin tutadi», deb ta'kidlaganlar. Inson va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar milliy tarbiya tufayli, ajdodlardan asta-sekin tadrijiy ravishda avlodlarga o'tadi. Milliy tarbiya atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda, u inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ma'naviy ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda milliy tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy tuzum, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, TV, OAV va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi milliy tarbiya tarkibiga bu sohada ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi. Tor ma'noda, milliy tarbiya muayyan shaxsning ma'naviy rivoji, dunyoqarashi, axloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradilar.

Bizga ma'lumki, har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki, ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki ma'naviy-axloqiy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi. Ana shu sababdan ham ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu

ma'rifat, ta'lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilganlar. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlagani kabi, "Ta'lim-tarbiya-ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya'ni, xalq ma'naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir.

Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o'zgartirmasdan turib, ma'naviyatni rivojlantirib bo'lmaydi. Shu bois bu sohada yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o'ylanmagan ishlarga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Maktab, ta'lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llab quvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladi bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" degan chuqur ma'noli so'zlarini eslayman. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi". Istiqloq yillarida mamlakatimizda milliy tarbiyani amalga oshiradigan o'quv muassasalari va umumta'lim maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga e'tiborni kuchaytirish eng muhim va jiddiy masalaga aylandi.

Xulosa qilib aytganda, milliy tarbiya har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki, uning o'sishi va taraqqiyoti uchun moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod ushbu boyliklarni yaratishda o'z ajdodlaridan yuqoriroq darajaga ko'tarilmog'i darkor. Yoshlarni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan to'g'ri tarbiyalashda zamonaviy meditsina, pedagogika, psixologiya fanlari tavsiyalarini har qaysi oilada joriy qilish ayniqsa zarur. Har bir oila, ota-ona, eng avvalo, bola timsolida shaxsni ko'rishi, uning uchun shaxsga tegishli barcha huquq va erkinliklar ta'minlashi borasida o'zining mas'ul ekanligini doimo his etib turishi nihoyatda muhim. Milliy tarbiyada milliy g'oyaga, milliy g'ururni yuksaltirishga xizmat qiladigan timsollar, ramzlarning har biri – katta bir darslik, kuchli tarbiya vositasi hisoblanadi. Bundan tashqari, buyuk ajdodlar tavallud sanalarini nishonlash ham ma'naviy va tarixiy ahamiyatga ega. Bunday marosimlarni o'tkazish orqali yoshlar yangi qadriyatlar asosida tarbiyalanadilar, ular qalbiga tarixni anglash va qadrlash, o'tmishga hurmat bilan yondashish, ularni asrab-avaylash, shu xalqqa mansubligi bilan g'ururlanish tuyg'ulari singdiriladi. Umuman olganda, yoshlarning etnik qiyofasi millatning bugungi milliy tarbiyasi, mentaliteti, madaniyatining o'zaro dialektik munosabati vositasida shakllanadi. Ma'naviy jihatdan yaxshi tarbiya olgan shaxs o'z aqli, o'z tafakkuri, o'z mehnati, o'z mas'uliyati bilan ongli ravishda, ozod va hur fikrli inson bo'lib yashaydi. Markaziy Osiyoda yashab, ijod qilgan qomusiy olimlar, buyuk

ajdodlarimiz, XIX asr va XX asr mutafakkirlari va pedagoglarining ta'lim-tarbiya xususida aytgan nazariy fikrlari, pedagogik nazariyalari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Zamonaviy pedagogikada ulardan foydalanish o'z samarasini beradi. Yuqorida oilada bola tarbiyasi yuzasidan berilgan nasihatlardan hozirgi tarbiyachilar o'z tajribalarida foydalansalar va bugungi yangi ilmiy qarashlar bilan bog'lab yondashsalar, shak-shubhasiz yaxshi natija olish mumkin. Demak, oilada inson tarbiyasi, uning hayotda o'z o'rnini aniqlashi, shaxsni yashashga o'rgatish jamiyat faoliyatining muhim sohalaridan bo'lib kelgan. Tarbiyaning ijtimoiy vazifasi shaxsni biror bir faoliyatga o'rgatishdan iborat. Tarbiyaning umumiy yo'nalishlari qadim zamonda vujudga kelgan va rivojlangan. Tarbiyaning umumiy tamoyillar asosida olib borilishi o'ziga xos xarakterga ega. Shunday ekan, ota-onalar ham butun davlatimiz bilan birgalikda oilada farzandlarini tarbiyalashda milliy qadriyatlarimiz tarbiya jarayonida samaradorlik omili ekanligini anglab, uni yangi shakl va metodlar bilan bog'lab qo'llasalar, farzandlar qalbi, psixologiyasidagi tushunchalarni hozirgi davr tushunchalari bilan hamohang bog'lab borsalar, ayni muddao bo'ladi. O'zbek xalqi o'zining ta'lim-tarbiyaga oid ulkan ma'naviy merosini yaratib, insoniyatning ko'plab avlodlarini insonparvarlik, mehr-oqibat, mehnatsevarlik, mardlik, odoblik kabi umuminsoniy qadriyatlar va yaxshi fazilatlar ruhida tarbiyalab kelmoqda. Ayniqsa, xalq tomonidan yaratilgan qomusiy ahamiyatga ega bo'lgan "Pandnoma" lar, xalq og'zaki ijodining turli janrlarida yaratilgan, xalqimiz yuragiga yaqin bo'lgan buyuk allomalar Abu Rayhon Beruniy, Al-Farobiy, Abu Ali ibn Sino, Imom al-Buxoriy, At-Termiziy, Amir Temur, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Bahovuddin Naqshband, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek, Sa'diy, Ahmad Yugnakiy, Ahmad Yassaviy, Ahmad Donish, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi o'nlab buyuk shoir va mutafakkirlar qoldirgan nodir va durdona asarlarida ko'p e'tibor berilayapti. Bu mutafakkirlarning, maktab va oilada bolani xushxulq, axloqiy va har tomonlama kamol topgan qilib tarbiyalash haqidagi qarashlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ular yoshlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga, ilmni puxta egallashlariga alohida e'tibor bilan qarab, mehnat bilan topilgan boylik baxt keltirishini, ilmli kishi xor bo'lmasligini aytib o'tadilar. Buyuk mutafakkirlar o'zlarining ijodlarida o'quvchi-yoshlarni odobli bo'lishga, halol mehnat qilishga, ota-onaga mehribon bo'lishga, halol mehnat bilan yashashga da'vat etadilar. Abu Ali ibn Sino o'zining pedagogik qarashlarida jamoadan, jamiyatdan ajralib tarbiya topgan bolaning baxtsiz bo'lib qolishi, inson oilada dunyoga kelgani bilan jamiyatga aloqadordirligini ta'kidlaydi. Al-Farobiy fikricha: "Insonning va jamiyatning g'alabaga erishuvi, yaxshilikni qo'lga kiritishi, axloqiy va aqliy yo'nalishga erishuvi inson va jamoaning o'z qo'lidadir". Tabiiy boshlang'ich tarbiya ta'siri ostida kamol topib, insonga aylanishgina kifoya qilmaydi, chunki u inson bo'lib, insoniy kamolotga erishuvi uchun so'zlash qobiliyati va kasb-hunarga muhtojdir. Milliy maktablarimizda

ta'lim-tarbiya olayotgan o'quvchilarni yuqorida ko'rsatilganlardek qilib tarbiyalash uchun avlod-ajdodlarimiz yaratgan boy ilmiymadaniy merosimizni keng va har tomonlama o'rganishimiz, tarbiyaviy soatlar o'tish jarayonida maktab o'quvchilarini ulardan bahramand etishimiz lozim.

4-§. Milliy aksiologiya.

Qadriyat tushunchasi nihoyatda xilma-xil ma'noda, turli sohalarda qo'llaniladi. Qadriyatning kundalik hayotdagi ma'nosi kishilar o'rtasidagi muloqotlarda, ommaviy ahborot vositalarining habarlarida o'ziga hos tarzda namoyon bo'lmoqda. Kundalik hayotda, ko'pchilik nazarida narsalar (masalan, qimmatbaho buyumlar, taqinchoqlar), tabiat hodisalari, ijtimoiy voqealar, jamiyatdagi talablar, orzu-umidlar, an'ana va marosimlar, madaniy boyliklar va boshqalar qadriyat sifatida tushuniladi. Bundan tashqari, odamlar o'zlari ishonib, gohida intilib, qiziqib yoki orzu qilib yashaydigan maqsad, orzu yoki ideallarga ham «qadriyat» tushunchasini qo'llaydilar. Xullas, kundalik hayotda ko'pchilik tomonidan qo'llaniladigan «qadriyat» iborasi, odamlar uchun biror zarur ahamiyat kasb etadigan obekt, narsa, hodisa va boshqalarga nisbatan ishlatiladi.

Tabiat va madaniyat buyumlarining inson ehtiyojini qondirishi va uning maqsadlariga hizmat qilishi ta'kidlanganida, asosan ularning foydasi, qimmatini nazarda tutiladi. Haqiqatan ham, buyumlarning iqtisodiy qimmatini kishilar uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ammo buyumning qadri hisobga olinmasa, masalaning aksiologik jihati ochilmaydi. Qadriyat kategoriyasi buyum yoki narsalarning iqtisodiy qimmatini ifodalaydigan tushunchadan farq qiladi.

Shu ma'noda qadriyat narsa va buyumlarning qimmatiga nisbatan qo'llanilmasdan, balki inson uchun biror ahamiyatga ega bo'lgan voqelikning shakllari, holatlari, narsalar, voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblar va boshqalarning qadrini va ijtimoiy ahamiyatini ifodalash uchun ishlatiladigan falsafiy kategoriyadir. Bu kategoriya o'zida qadriyat ob'ektining nafaqat qimmatini, balki ijtimoiy ahamiyatini, falsafiy-aksiologik mazmunini, jamiyat va inson uchun qadrini ham ifodalaydi.

Qadriyat, baho va qadr. Qadriyatlar muammosiga bag'ishlangan (asosan rus tilidagi) ilmiy-falsafiy manbalarning ko'pchiligida qadriyat (sennost') tushunchasini baho (otsenka) tushunchasi bilan qiyoslash, ularga bir hil daraja va ko'lamdagi tushunchalar sifatida qarash hollari uchraydi. Bu ikki tushuncha qiyoslanayotganda, qadr tushunchasi e'tiborga olinmaydi. Balki, bunday holga rus tilidagi "otsenka" va "sena" so'zlarining o'xshash ma'noli (ko'proq iqtisodiy) tushunchalar ekanligi sabab bo'lishi ham mumkin. Rus tilida qadr iborasi ishlatilmaydi, uning ruscha tarjimasini yo'q. Qadr tushunchasi o'zbek tilida serqirra ma'no va mazmunga ega, u tilimizdagi ba'zi ibora va so'zlarda o'ziga hos sharqona falsafiy mazmun borligidan dalolat beradi.

Qadriyatning mazmuni va ahamiyati «baho» tushunchasida to‘la-to‘kis aks etmasligi, turlicha ifodalanishi ham mumkin. Qadriyatning haqiqiy qadrini, mazmuni va ahamiyatini bahosiga qarab aniqlash qiyin bo‘ladigan hollar ham uchraydi. Aslida qadriyatning qadrini bilish, uning ahamiyatini anglab olish va baholash bir-biri bilan uzviy bog‘liq jihatlarni tashkil qiladi. Qadriyatning ahamiyati anglab olinmasa, qadri tug‘ri tushunilmasa, unga tug‘ri baho berib bo‘lmaydi. Aynan shu ma’noda qadriyatni baholash unga bo‘lgan munosabatni ham ifodalaydi, bu esa o‘z navbatida kishilarning talablari, ehtiyojlari va maqsadlari bilan bog‘liqdir. Qadriyatni baholashda qancha xilma-xil maqsad va ehtiyojga ega bo‘lgan kishilar ishtirok etsa, uning haqiqiy bahosini aniqlash ham shuncha qiyinlashib boraveradi.

Qadriyatning obekti va subekti. Qadriyatshunoslikda qadriyat tushunchasi bilan bu tushuncha bog‘langan obekt o‘rtasida farq bor, deb qaraladi. Agar qadriyat berilgan qadri ifodalaydigan falsafiy tushuncha sifatida qaralmasa, unga ta’riflarning son-sanoqsiz bo‘lishi aniq. Negaki, dunyoda qadrlanadigan narsalar, hodisalar, voqealar, jarayonlar, joylar va sifatlar, ideal va maqsadlar nihoyatda ko‘p. Qadriyat tushunchasi esa ularning birortasi uchun tug‘ridan-tug‘ri ism, atama yoki bevosita nom bo‘la olmaydi, balki ularning qadrini anglatadigan tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi.

Qadriyatlar va ijtimoiy jarayonlar. Odamlar bitta jamiyatda, bir davrda va o‘xshash sharoitlarda yashayotganliklariga qaramasdan, u yoki bu narsaning qadri turlicha anglab olinadi, tushuniladi va talqin qilinadi. Ijtimoiy jarayonlar ta’sirida kishilarning qadriyatlar tug‘risidagi tasavvuri, qarashlari o‘zgaradi, bu esa taraqqiyot jarayonida odamlarning turmush sharoitlari, hayoti va ma’naviy qiyofasidagi o‘zgarishlar bilan bog‘liqdir.

Ana shunga ko‘ra, hammada ham qadrlash tuyg‘usi doimo bir hil bo‘lavermaydi, ijobiy va salbiy qarashlar, turli hil jihatlari har qanday qadriyatning qarama-qarshi tomonlarini tashkil qiladi. Ijobiyligi va salbiyligi, baholanishi va ahamiyatiga ko‘ra bir-biriga mutlaqo ziddek bo‘lib ko‘rinadigan yahshilik va yomonlik, haqiqat va haqsizlik, baht-saodat va g‘am-kulfat, taraqqiyot va tanazzul kabi tushunchalar hayotning bir-biriga zid va chambarchas bo‘lgan tomonlarini ifodalaydi.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, qadriyatlar jamiyatning rivoji va kishilar hayotining turli davrlarida turlicha ahamiyat kasb etadi, tarixiy zaruriyatga mos ravishda goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning eng oldingi poQonasiga chiqib oladi, boshqalarini hiralashtirganday bo‘lib tuyuladi. Natijada ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot qonuniyatlariga mos ravishda, oldinga chiqib olgan qadriyatni barqaror qilishga intilish nisbatan kuchayadi. Masalan, yurtni yov bosganida - ozodlik, imperiya hukmronligi nihoyasida - istiqloq, urush davrida - tinchlik, tutqunlikda - erkinlik, kasal va bemorlik onlarida – salomatlikning qadri oshib ketadi, ularga intilish kuchayadi.

Ta’lim tarbiyaning muhim omillari bo‘lgan qadriyatlarining namoyon bo‘lish shakllari orasida o‘z ahamiyatini, ijobiylik hususiyatlarini doimiy saqlab qoladiganlari

ham bor. Bular - inson vujudining tirikligi, umri va hayoti, sihat-salomatligi, mehnati, bilimi, muomalasi. ular inson va jamiyat bor ekan, o'zining ijtimoiy ahamiyatini saqlab qolaveradi. Afsuski, ularning qarama-qarshisi bo'lgan kasallik, ma'nosiz hayot kechirish, bilimsizlik va boshqalar ham tarixiy jarayonlarning hamrohi. Tiriklik bor ekan - o'lim, borliq eng buyuk ma'vo ekan - yo'qlik, inson tirik jonzod ekan - kasallik, hayot kechirishdan maqsad mazmunli umr ekan - ma'nosiz qo'yilgan ba'zi qadamlar, yashashning zaruriy shartlaridan biri bilish va anglash ekan – bilimsizlik, taraqqiyotga intilish bor ekan - tanazzul va boshqalar insoniyatni doimo ta'qib qiladi. Yuqoridagi ijobiy qadriyatlarning ahamiyati ham ularga teskari bo'lgan jihatlarga nisbatan aniqlanadi. Yoshlarda, ayniqsa, talaba va o'quvchilarda ma'naviy etuk tuyg'ularni shakllantirishda ana shunday aksiologik bog'liqliklarning botiniy va zohiriy tomonlarini o'rgatish katta ahamiyat kasb etadi.

Qadriyatlar tizimi. Har qanday jamiyat, ijtimoiy-tarixiy birliklar (urug', qabila, elat, halq, millat), ijtimoiy subektlar va boshqalar o'ziga hos qadriyatlar tizimiga ega bo'ladi. Bu qadriyatlar tizimida asosiy bo'lmagan qadriyatlar muayyan qatorni tashkil qiladi, turli holatlarda namoyon bo'ladi. Jamiyat rivojining muayyan davri yoki biror davlatda ham ana shunday qadriyatlar tizimi mavjud bo'ladiki, u o'sha davr, jamiyat va davlat kishilari, ularning faoliyati uchun umumiy mezon vazifasini o'taydi. Har bir ijtimoiy tarixiy birlik, sinf va partiyalar ham ana shunday qadriyatlar tizimi asosida faoliyat ko'rsatadilar, ulardan foydalanadilar yoki ularga erishishning turli usullarini qo'llaydilar.

U yoki bu qadriyatning ahamiyatini aniqlashda ana shunday tizimlar mavjud ekanligini unutmaslik, uning biror davr, ijtimoiy birlik, soha, jarayon va boshqalar uchun qanday mavqega ega ekanligini nazardan qochirmaslik lozim.

Qadriyatlarning namoyon bo'lish shakllari. Bir qarashda qadriyatlarning shakllari son-sanoqsiz va nihoyatda tartibsizga o'xshab ko'rinadi. Aslida esa bashariyat, olam, tabiat va jamiyatda ajabtovur uyg'unlik mavjud. Qadriyat shakllari ham ularga mos ravishda ana shunday uyunlikda, qonuniy bog'lanishda, umumiy aloqadorlikdadir. Bunday holatda ularning klassifikაციyasida tabiat va jamiyatdagi narsa, voqea, hodisa, jarayonlar muayyan ko'lamda, qadriyat shakllari esa ular bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Makon va zamonda ushbu qadriyat ob'ektlari borliqning biror shakli, jihati, voqelikning biror qismi, olamdagi narsalar va atrof-muhitning eng muhim tomonlari sifatida namoyon bo'ladi. ushbu ma'noda qadriyatlarning umumbashariy, umumsayyoraviy va mintaqaviy hamda biror kichik hudud yoki joyga bog'liq bo'lgan shakllarini ko'rsatish mumkin. Bunda umumiylik, hususiylik va alohidalikning dialektikasi zamonaviy atamalar "global", "zonal" va "local" qadriyat obektlarining o'zaro munosabati tarzida zohir bo'ladi.

Jamiyatning yashashi, odamlarning hayot kechirishi uchun yuqoridagi qadriyatlar bilan birga jamiyatdagi umumijtimoiy va umuminsoniy qadriyatlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning jamiyat, uning tuzilishi, ijtimoiy birliklar va ijtimoiy ong shakllariga aloqador turkumlarini ko'rsatish mumkin. Masalan, jamiyatning tuzilishiga hos milliy, sinfiy, irqiy va boshqalar yoki ijtimoiy ongning shakllariga bog'liq: siyosiy, huquqiy, ahloqiy, diniy, hamda jamiyatning asosiy sohalariga bog'liq: iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy. Ijtimoiy qadriyat shakllari orasidagi farqlar aslo mutlaq emas, balki nisbiydir. ular orasida o'tib bo'lmas chegaralar yo'q.

Bugungi kunga kelib qadriyatlar iborasi nihoyatda mashhur bo'lib ketdi. Uni juda keng ma'noda ishlatish, ayniqsa, madaniy-ma'naviy hodisalar, urf-odatlar, an'analar va boshqalarga nisbatan umumiy nom yoki atama sifatida qo'llash hollari ko'p uchramoqda. Kundalik muloqotda qadri bor narsa, voqea, hodisa, hususiyat va boshqalarni "qadriyat" deb atashga ko'pchilik o'rganib qoldi. Ammo har bir so'z, atama va tushunchaning mohiyati va mazmunini o'ziga sig'diradigan sifat chegarasi bor. U yoki bu tushunchadan ana shu mazmunga sig'maydigan ko'lamni talab qilishning keragi yo'q. Zero, qadriyat tushunchasining ommalashib, mashhur bo'lib ketganligi juda yahshi. Lekin uni yanada kengroq ma'noda yoki zarur bo'lmagan hollarda ham ishlatish bu tushunchaning mazmunini hiralashtirishi, uning mohiyatini ifodalaydigan sifat chegarasini sarobga aylantirib qo'yishi, qadriyatni tushirishi mumkin.

Xalqimizning "Qadrsiz qadriyat yo'q!", "Qadrlanmaydigan qadriyat sarobga o'xshaydi", degan hikmatlari bor. Ana shu sababdan ham, mamlakatimiz taraqqiyoti hozirgi davrining yuksak ifodalari bo'lgan istiqlol, buyuk kelajak, vatanparvarlik, insonparvarlik, demokratiya, qonunning ustuvorligi kabi serqirra qadriyatlarni nihoyatda qadrlashimiz lozim. Ularning birinchisi - istiqlol e'lon qilgan O'zbekiston taraqqiyotining yangi asr bo'sag'asidagi asosiy haqiqati, ikkinchisi - istiqboldagi eng oliy orzu-idealimiz, boshqalari esa qurilayotgan jamiyatimizning ijtimoiy va ma'naviy tamoyillarini belgilaydigan purma'no qadriyatlarimizdir.

Inson qadri. Istiqlol inson qadri, uning manfaat va ehtiyojlari bilan bog'liq masalalarni dolzarblashtirib yubordi. Inson qadri uning ijtimoiy hususiyatlari, jamiyatda amalga oshirgan faoliyati, boshqalarga va atrof-muhitga munosabati, kamolotga etganligi, ijtimoiy hususiyatlarni o'zlashtirib olganligi va ularni ma'naviy qiyofasida namoyon qila olganligida ham ko'rinadi. Odam bolasining shahsga aylanishi, o'z qadriyatini va o'z g'alalar qadriyatini anglash jarayoni uzoq yillar davom etadi.

Umuman, odamzod naslining hozirgi avlodi uchinchi ming yillikni kutib olayotgan bugungi kunlarda butun dunyoda qadrlash falsafasining umuminsoniy mezonlarini amaliyotda qo'llashga ehtiyoj kuchaydi. Taassufki, inson zoti sayyoramizda yashagan ilk davridan boshlab qadr va qadriyatni ustuvor bilganida, Yer yuzining zamonaviy manzarasi butunlay boshqacha tus olgan, kishilikni ekologik

bo'hronlar, urush havfi va ma'naviy tanazzul kabi umumbashariy muammolar kutib turmagan bo'larmidi?

Bugungi kunga kelib, insoniyat yana tabiat va odamzod naslining uyg'unligini saqlab qolish uchun qadr va qadriyat nihoyatda zarur ekanligini angladi. XX asrning oxirgi va XXI asrning boshlanishidagi birinchi besh yilliklar BMT tomonidan "Inson huquqlari o'n yilligi" deya e'lon qilinganligi, kishilik jamiyati esa yangi ming yillikka umuminsoniy qadriyatlarni barqaror qilishga bel bog'lab o'tayotganligi bejiz emas. Hozirgi O'zbekistonda inson manfaatlari va haq-huquqlarini ro'yobga chiqarish, qadrlashning umuminsoniy tamoyillarini ustuvor qilish bilan bog'liq faoliyatlar butun jahonda bu boradagi umumiy hamkorlikni mustahkamlash harakatining tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Yoshlar va qadrlash tamoyillari. Insonning butun umri shahsiy qadriyatlarni takomillashtirish, o'z qadrini kamolga etkazish, o'zgaralar, jamiyat, zamon va undagi sodir bo'layotgan o'zgarishlar qadrini anglashga intilish jarayonidan iboratdir. O'z shaxsi va boshqalar qadrini anglab etish uchun insonning kamoloti davomida shakllangan ma'naviy qiyofasi va dunyosi ezgulikka hizmat qilishi, yuksak ijtimoiy sifatlarga ega bo'lishi, uning o'zi esa hayotning mohiyati va maqsadini tug'ri anglaydigan darajada tarbiyalangan bo'lmoqi lozim. Ushbu ma'noda, Suqrotning "O'z o'zingni angla!" - shiori g'oyat katta ahamiyat kasb etadi.

Shaxsning qadri u yashayotgan zamon, undagi jarayonlar, ijtimoiy, tarixiy shart-sharoitlar bilan dialektik aloqadorlikda namoyon bo'ladi. Muhit va davr talablari shahs qadrini shakllantirib, sayqallab boradi, uning o'zi esa o'z qadrining shahsiy talablari, ehtiyojlari va maqsadlari bilan naqadar aloqadorligini chuqurroq anglab olish tomon boradi. Qadriyatlar yoshlarga hayot mazmunini chuqurroq tushunish, jamiyat qonun-qoidalaridan tug'ri foydalanish, o'zlarining hatti-harakatlarini ana shu ma'naviy mezonlar talabiga moslashtirish imkonini beradi.

Hozirgi davrda talaba va o'quvchilarga qadrlash va qadrsizlanish jarayonlarining mohiyatini anglatish, mustaqillik e'lon qilgan qadriyatlarning ahamiyatini tug'ri tushuntirishga erishish nihoyatda dolzarb masaladir.

Yoshlar, xususan talabalar va o'quvchilarni ma'naviy barkamol avlod vakillari sifatida tarbiyalash va shakllantirishda qadr va qadrlash tuyg'usi, qadriyatlar kategoriyasi, ularning mohiyati, mazmuni, namoyon bo'lish shakllari tug'risidagi bilimlarning majmuasi bo'lgan zamonaviy aksiologiya, ya'ni qadriyatshunoslikning asoslarini o'rgatish nihoyatda muhim. Ana shu sababdan ham umuminsoniyatning qadrlash me'yorlari borasida to'plagan yutuqlarini umumlashtirgan bilim sohalari imkoniyatidan foydalanish ta'lim-tarbiya samaradorligining asosiy mezonlaridan biridir.

5-§. Qadriyat tushunchasining mazmun, mohiyati.

XIX asr o'rtasiga qadar falsafada "borliq" va "qadriyat" tushunchalari bir-biridan ajratilmagan edi. Aksiologiya (yunoncha axia - qadriyat va logos ta'limot so'zlaridan) mustaqil fan sifatida borliq tushunchasi ikki komponentga ajralgan paytda yuzaga keladi: bir narsaning mavjud bo'lishi va uning mohiyati. Boshqacha qilib aytganda, obekt va subektning o'zaro ta'siri paytda sub'ekt uchun obektda shunday bir narsa ayon bo'ladiki, uni ob'ektning mavjud bo'lishining o'zigagina bog'lab bo'lmaydi, ya'ni u go'yo ushbu mavjudlik chegarasidan tashqarida turadi va u uchun muayyan ahamiyatga ega bo'ladi. Obekt va subektning o'zaro ta'sirini ana shunday tushunish qadriyat tushunchasini hozirgi zamon falsafasining kategorial apparatining elementi sifatida shakllanishi uchun boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qildi. *Qadriyatlar - voqyelikdagi muayyan hodisalarning qimmatini belgilash uchun xizmat qiluvchi falsafiy kategoriya bo'lib, u mazkur hodisaning sub'ekt tomonidan aks ettirilishi natijasida paydo bo'ladi.*

Qadriyatlarning tabiati haqida so'z ketar ekan, falsafiy adabiyotlarda bir-biri bilan raqobat qiluvchi to'rtta asosiy yondashuvlarni ajratib ko'rsatish mumkin. *Birinchi yondashuvga ko'ra*, qadriyatlar dunyosi alohida, mustaqil, sub'ektga ham, ob'ektga ham nisbat berib bo'lmaydigan olam sifatida talqin etiladi. Neokantianlikning klassiklaridan biri G.Rikkert yozganidek, "qadriyatlar sub'ekt va ob'ektdan tashqarida joylashgan butunlay mustaqil saltanatni tashkil etadi". *Ikkinchi yondashuvga ko'ra* esa, qadriyaviy xususiyatlar narsalarning o'zida mavjuddir. Boshqacha qilib aytganda qadriyatlar manbai tashqi voqyelik xususiyatlarida ko'rinadi. Ana shu bilan bog'liq ravishda qadriyatlar narsalarning muayyan ehtiyojlarni qondira olishga bo'lgan obektiv qobiliyati sifatida qaraladi. *Uchinchi yonda-shuv-ning* mohiyati shundan iboratki, tabiatda qadriyatlar mustaqil mavjud emas. U yoki bu narsalar faqat sub'ektning baholash faoliyati tufayli o'z qadr-qimmatiga ega bo'ladi. Bunga misol sifatida g'arb estetikasi antologiyalaridan birining tuzuvchisi bo'lgan M.Reyderning fikrini keltirish mumkin: "Haqiqatlarga qarama-qarshi o'laroq, qadriyatlar shunchaki tasavvur qilinadi xolos. Faktlar kuzatuvchilar guruhi uchun bir xil xususiyatga ega bo'lsa, qadriyat har bir baholovchining sub'ektiv fikri bilan bog'liq ravishda turli tabiatga ega bo'ladi". Bir kishi uchun qimmatli bo'lgan narsa boshqa kishi uchun unday bo'lib ko'rinmaydi. To'rtinchi yondashuvda esa oldingi yondashuvlarning o'ziga xos sintezi amalga oshiriladi va qadriyatlarning ikki yoqlama (ob'ektli va sub'ektli) tabiatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Falsafiy adabiyotlarda qadriyatlarning turli tiplari ajratib ko'rsatiladi.

1. Qadriyatlar quyidagi belgi bo'yicha farqlanishi mumkin: Nima baholanyapti va nimaga asosan baholanyapti? Shu bilan bog'liq ravishda ular quyidagicha turlarga ajratiladi:

a) *predmetli qadriyatlar* - qadr-qimmat munosabatlarining ob'ektlari, ya'ni voqeyelikdagi sub'ekt uchun muayyan qimmatga ega bo'lgan hodisalar. Ularga quyidagilar kiritiladi:

- tabiiy ob'ektlar, jarayonlar va hodisalar;
- ijtimoiy ob'ektlar, jarayonlar va hodisalar.

b) sub'ektli qadriyatlar - u yoki bu hodisalarni baholash tadbirini o'tkazishda asos bo'lib xizmat qiluvchi usullar va mezonlar. Ularga quyidagilar kiradi:

-me'yoriy taqdimnomalar sifatida bayon etilgan ko'rsatmalar, baholar, imperativlar, maqsadlar, loyihalar.

2. Qadriyatlar sotsiumining qanday sohasi bilan bog'liq ekanligiga qarab ham bir-biridan farq qiladi. Shundan kelib chiqib *axloqiy, badiiy, utilitar, ilmiy, diniy* va boshqa qadriyatlar farqlanadi.

3. Qadriyatlar umumiylik darajasiga qarab, ya'ni, u yoki bu hodisa qancha miqdordagi sub'ektlar uchun qimmatga ega ekanligiga qarab ham farqlanadi. Shu bilan bog'liq ravishda quyidagi turlar ajratib ko'rsatiladi;

- *individual qadriyatlar*;
- *guruhliy qadriyatlar* (milliy, diniy, jinsiy, yosh); ushbu guruhlar doirasida *g'arb va sharq qadriyat* tizimlari haqida so'z yuritish mumkin.
- *umuminsoniy*;

4. Qadriyatlar ular sub'ekt tomonidan qay darajada o'z xususiy maqsadi yoki tamoyillari sifatida tan olinishi yoki tashqi sharoitdan kelib chiquvchi bir narsa sifatida qabul qilinishiga ko'ra farq qilishi mumkin. Shu bilan bog'liq ravishda tashqi va ichki qadriyatlar ajratiladi.

5. Qadriyatlar inson hayoti va faoliyatining negizlari uchun, uning ehtiyojlari va mo'ljallarining mohiyatini ifodalash uchun qayo darajada qimmatga ega ekanligiga qarab ham farqlanadi. Shu munosabat bilan ular quyidagi turlarga ajratiladi:

- *mutlaq* yoki boqiy qadriyatlar (konstantalar);
- vaziyatli*, o'tkinchi yoki qadriyatlar va qadriyaviy mezonlarining muayyan tarixiy shakllari (empirik o'zgaruvchan qadriyatlar).

6. Qadriyatlar ular bajaradigan funksiyaga ko'ra ham farqlanadi. Shu bilan bog'liq ravishda qadriyatlar mezon usuli sifatida, qadriyatlar ijtimoiy guruhlarda nazorat usuli sifatida, qadriyatlar ijtimoiy tartibni yaratish va saqlashda funksional zarur bo'lgan me'yorlar sifatida ajratiladi.

Aksiologiyada juda ko'p an'anaviy va hozirgi zamon falsafiy muammolari yangicha ko'rib chiqiladi. Masalan, an'anaga ko'ra, *haqiqatga* yetish ilmiy bilishning ideali, shaksiz ne'mat, yaxshilik deb hisoblangan. Biroq XX asr ushbu qarashga o'z tuzatishlarini kiritdi. Industrializmning va texnitsistik yondashuvlarning salbiy oqibatlari, ommaviy qirg'in qurollarining yaratilishi va qo'llanishi, gen muhandisligining paydo bo'lishi shuni ko'rsatadiki, muammoga sof gnoseologik

yondashuv yetarli emas. Bugungi kunda «faqat haqiqatning qadri haqidagina emas, balki uning bahosi haqidagi masala ham paydo bo‘ladi, bunda boshlang‘ich hisob nuqtasi sifatida inson va uning baxt-saodati namoyon bo‘ladi». Haqiqat tobora ko‘proq aksiologik kategoriyalar ko‘zgusi orqali qarala boshlanmoqda. Lozim va zarur narsalar haqida qadriyaviy ideallar sifatida so‘z yuritir ekan, aksiologiya borliqning muammoli masalalari borasida bizning tasavvurlarimiz doirasini kengaytirdi. Ilgari me‘yoriy hodisa deb hisoblangan narsalar hozirgi zamon aksiologik yondashuvlari ko‘zgusida unday bo‘lib ko‘rinmaydi.

Qadriyaviy mezon va qadriyaviy qarash amalda hayotimizning barcha sohalariga kirib bormoqda. Bugungi kunda shu narsa ayon bo‘lyaptiki, biron bir ijtimoiy institut, biron bir muhim ijtimoiy muammo, jamiyatning biron bir sohaga aksiologik yondashuvlardan tashqarida ko‘rib chiqilishi mumkin emas. Bunda qadriyatlarni qayta baholash lokal masalalarga ham, global masalalarga ham birdek tegishlidir. Texnik taraqqiyot baxt-saodat keltiradimi? Insonni klonlashtirish mumkinmi? Evtanaziya - bu ezgulikmi yoki qotillikmi? Agar uning kashfiyotlaridan foydalanish odamlarning halok bo‘lishiga sabab bo‘lsa, olim o‘z kashfiyotining oqibatlari uchun javobgar bo‘ladimi? Ilmiy va siyosiy ongda asta-sekin sof iqtisodiy, sof texnologik, qadriyaviy komponentlardan tashqarida qaraluvchi sof tadqiqotchilik loyihalaridan voz kechish tamoyili yuzaga kelayotganini ko‘rish mumkin.

O‘z navbatida qadriyatlarning o‘ziga, munosabat va qadriyaviy ongga gnoseologik, sotsiologik, psixologik, semiotik va boshqa yondashuvlar nuqtai nazaridan qaralmoqda.

6-§. Milliy urf-odat, qadriyat va an’analar haqida zamonaviy yondoshuv.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda yoshlarni milliy an’analar ruhida tarbiyalashga e’tibor qaratilgan. O‘zbek yoshlari oldida turgan katta muammolardan biri qadriyat sifatida talqin etilayotgan urf-odatlarini inkor etib, zamon talabiga mos yashashdir.

Keyingi paytlarda yoshlarni jamoatchilik fikriga quloq solishga, rahbarlar gapini ikki qilmaslikka, kattalar fikrini inkor etmaslikka undash odatlari kuchaygani kuzatiladi. Biroq ayrim ziyolilar va psixologlar fikricha, bu kabi tarbiya shaxsni emas, oson boshqariladigan olomoni yetishtiradi.

Milliy urf-odatlarini qadriyat sifatida ulug‘lab, hayotga joriy etishga, uni saqlab qolishga urinish mana shu jarayonning bir ko‘rinishidir. Biroq bu kabi holatlar yoshlarni taraqqiyotga emas, mahdudlikka boshlaydi, degan fikrlar ham yo‘q emas. Ziyolilardan biri shunday deydi:

“Menimcha, taraqqiyot jarayonida milliy urf-odatlarining ayrimlari o‘z-o‘zidan eskirib, yo‘qolib ketishi kerak. Va, efitimol, ularning o‘rniga yangilari paydo bo‘lishini ham tabiiy jarayon sifatida qabul qilish kerak. Ayniqsa, juda eskirib ketgan va mohiyat-ma‘no jihatdan bugungi kun talabiga javob bermaydigan milliy urf-odatlarini qadriyat sifatida mahkam ushlab olib, ularga yopishib olish - bu millatning

taraqqiyoti uchun, ayniqsa, yoshlarning taraqqiyoti uchun, ma'naviyati uchun xizmat qilmaydi".

Uning nazarida bu hol, aksincha, yoshlarni mahdudlikka olib keladi, bir xil fikrlashga olib keladi. An'anaviy qadriyatlarga suyanilsa, shu urf-odatlar doirasida qolib ketish kerak.

"Bu, ayniqsa, qizlarning uy bekasi bo'lib qolishiga ko'proq rag'bat bildirilishi, yigitlarning aytaylik, ota-onasining chizig'idan chiqmay xizmat qilishiga, doim ota-onasi xizmatida bo'lishiga da'vat qilishlar ham, mening nazarimda",- deydi ziyoli, "bugungi kun zamon talabida juda mahkam yopishib oladigan darajada chuqur qadriyatlar emas". Amerika universitetlaridan birida tahsil olgan Dilnora Azimova o'zbek urf-odatlari unga yaqinroq ekanini aytadi. Uning fikricha, o'zbekona qadriyatlarga suyanmaslik, o'zlikdan tonishday gap ekan:

"Sababi shuki, chet elda o'qish menga O'zbekistonga boshqa bir munosabatda bo'lishni, ya'ni Vatanga sodiqlik tuyg'usini oshirdi, desam adashmayman. Sababi, O'zbekistonda bo'lib hali o'zbekchilik qanchalik boshqacharoq, qanchalik qiziqroq va o'ziga xosligini tushunolmaysiz".

O'zbek yoshlari oldida turgan katta muammolardan biri – qadriyat sifatida talqin etilayotgan urf-odatlarni inkor etib, zamon talabiga mos yashashni bilish muammosidir. Bugungi o'zbek jamiyatiga an'anaviy ruhda tarbiya olgan yoshlar ko'proq kerak ko'rinadi. Ba'zi ziyolilar va psixologlar bunday tarbiya shaxsni emas, itoatdagi olomonni yetishtirib beradi, degan fikrda. "G'arb ta'lim tizimi, qadriyatlari Shaxsni tarbiyalashga qaratilgan bo'lsa, Sharqda bu ta'lim-tarbiya tizimi asosida, ayniqsa, yoshlarni tarbiyalashda ko'proq omma fikriga, jamoatchilik fikriga quloq solishga undash ko'proq seziladi. Natijada Sharqda Shaxs emas, aytaylik, olomonni tarbiyalashga moyillik kuchliroq bo'ladi". "Aytaylik, yoshlarga bolaligidan boshlab miyasiga singdirilgan "kattaning aytganini qilgin, uning gapidan chetga og'ishma, ayniqsa, rahbarlarning gapini ikkita qilma, ota-onaning gapini qonun sifatida qabul qilish kerak" degan tushunchalar bora-bora yoshlarning miyasiga shu qadar o'rnashib qoladiki,- deydi ziyolilardan biri, "bu qolipdan chiqish unchalik oson kechmaydi, albatta.

"Hamisha taraqqiyotning negizida mustaqillikka intilib yashash, mustaqil insonning falsafasi yotadi, albatta. Urf-odatlarni qadriyat sifatida talqin qilib, zo'rlab yoshlarning ongiga tiqishtirishga urinish va bunga qisman erishish o'zbek yoshlari orasida Shaxslarni kamaytirishga olib keladi. Shaxsi yo'q yoshlar esa olomonning bir qismiga aylanishadi. Olomonni albatta boshqarish oson, olomonga o'zining fikrini o'tkazish oson. Shaxslar bilan esa bunday muomala qilib bo'lmaydi", - deydi ziyolilardan biri.


Men bugungi o'zbek jamiyatida an'anaviy ruhda tarbiya olgan yoshlar keyinchalik itoatdagi olomon bo'lib yetishadi, degan fikrga qo'shilmayman. Agar

shunday bo'lganda, Buxoriy, Motrudiy hazratlari, Yassaviy hazratlari, Samarqandiy va mana shunaqa ziyolilarimiz, yana minglab Sharq ma'naviyatining nuri hisoblangan odamlar yetishib chiqqan.



Nazorat savollari:

1. Tarbiya darslarida milliy qadriyatlar haqida fikr yuriting.
2. Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida urf-odat va marosimlarni o'rganishda nimalarga e'tibor berish kerak?
3. Milliy qadriyatlarning shaxs kamolotiga tasiri qanday?
4. Milliy aksiologiya.
5. Qadriyat tushunchasining mazmun, mohiyati nimalarni ayta olasiz.
6. Milliy urf-odat, qadriyat va an'analar haqida pedagogik fikrlar.



VIII. TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHINI O'Z USTIDA ISHLASH JARAYONI (1-4 SINIF TARBIYA DARSI)

Tayanch tushunchalar: *ko'nikma, intellektual qobiliyat, kreativlik, burch, huquq, majburiyat, kommunikatsiya.*

1-§. O'quvchida ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.

O'zbekistonda islohotlarning davomiyligini ta'minlash hamda demokratik fuqarolik jamiyatini shakllantirish, yoshlar, xususan, ularning ijtimoiy faolligiga bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning BMT Bosh Assambleyasining 2017 yil 19 sentyabrdagi 72-sessiyasida so'zlagan nutqida: "Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir. Buning uchun yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish lozim, deb hisoblaymiz. Shu munosabat bilan O'zbekiston globallashuv va axborotkommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab

chiqishni taklif etadi. Bizning nazarimizda, mazkur hujjatni imzolaydigan davlatlar ushbu sohani o'z ijtimoiy siyosatining asosiy va muhim hayotiy ustuvor yo'nalishlaridan biri darajasiga ko'tarish bo'yicha qat'iy majburiyatlarni o'z zimmasiga olishi kerak" – degan fikrlari dunyo hamjamiyati tomonidan ham keng e'tirof etilmoqda. Yosh avlodning har tomonlama kamol topishi jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omil bo'lishi bilan bir qatorda uning shaxs sifatida ijtimoiy faollashuvida ham etakchi o'rin tutadi.

O'quvchi shaxsining ijtimoiy faolligi quyidagi ikki jihatga ko'ra muhim ahamiyatga ega: birinchidan, shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun zamin yaratadi, ikkinchidan esa, uning bilimi, kuch-quvvati, imkoniyati hamda iqtidori jamiyat rivoji yo'lida mehnat qilishga yo'naltiriladi. Manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, demokratik jamiyatda o'quvchilar ijtimoiy faolligi o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, balki muntazam tarzda maqsadli ravishda olib borilgan pedagogik faoliyat natijasida shakllantiriladi. O'quvchiyoshlarga nazariy-amaliy bilimlarni berish, ularda ijtimoiy faollik ko'nikma va malakalarini hosil qilish pedagogika nazariyasi va amaliyoti uchun ham o'ziga xos ahamiyatga ega ekanligi bilan dolzarblik kasb etadi

Bugungi jamiyatda kichik maktab yoshidan boshlab bolalarning ijodiy faolligini rivojlantirish ta'lim tizimining dolzarb vazifasidir. Bizning vaqt - o'zgarishlar davri. Endi bizga nostandart qarorlar qabul qilishga qodir, ijodiy fikrlashga qodir insonlar kerak. Afsuski, zamonaviy maktab hali ham bilimlarni o'zlashtirishga ijodiy bo'lmagan yondashuvni saqlab qolmoqda. Xuddi shu harakatlarning monoton, stereotipli takrorlanishi o'rganishga bo'lgan qiziqishni o'ldiradi, bolalar kashfiyot quvonchidan mahrum bo'ladi. Zamonaviy maktab ta'limi asosan o'quvchining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan. Ta'limga bunday yondashuv shaxsning ijodiy tomonining rivojlanishini sekinlashtirishi mumkin. Shuning uchun kichik maktab yoshidan o'quvchilarning ijodiy faoliyatni rivojlantirish muammosi har tomonlama dolzarb bo'lib qolmoqda.

Ijod - bu ongning oliy darajasi, faoliyatning yuqori va ancha murakkab shakli bo'lib, u insonga hosdir. Ijod insonning barcha psixik jarayonlarni, barcha bilim, malaka, barcha hayotiy tajriba, ahloqiy, jismoniy kuchini mobilizatsiyasi natijasida original va tarixiy-ijtimoiy, betakror sifat yangiliklari bo'lib tug'iluvchi mo'jizadir. Ta'limda ijodning natijasi yangi g'oyalar va rivojlanishga xizmat qiluvchi innovatsion tadqiqotlar hisoblanadi. - ijodkorlik - bu o'ziga xos qiymatga ega bo'lgan g'oyalarni yaratish jarayonidir. Bu bir kechada sodir bo'lgan voqea emas, balki jarayon. Asl g'oyalar kamdan-kam hollarda tasodifan yuzaga keladi (garchi ular shunday bo'lsa ham). Qoidaga ko'ra, murakkab muammoni hal qilishdan oldin siz ko'p vaqt va kuch sarflashingiz kerak. Keyin bu qarorni amalga oshirish kerak va yakuniy natija asl g'oyadan juda farq qilishi mumkin. - ijodiy fikrlash asl fikrlashdir. Butun dunyo uchun

yangi narsalarni o‘ylab topish shart emas, fikr o‘zingiz uchun va, ehtimol, sizning davrangiz uchun o‘ziga xos bo‘lishi kerak.

Ba’zida odamlarning atrofdagi dunyoga bo‘lgan qarashlarini butunlay o‘zgartiradigan kashfiyotlar sodir bo‘ladi, ammo bu ijodkorlik uchun zaruriy shart emas. - har qanday ijodiy jarayonda “ideal”ga erishish uchun o‘z ishimizga baho berib, tanqid qilishimiz kerak. Siz she’r yozyapsizmi, nutq so‘zlayapsizmi yoki rejalashtiryapsizmi, o‘z ishingizga qarab, “bu men o‘ylaganimdan biroz boshqacha” yoki “Men yaxshi ish qilganimga ishonchim komil emas” kabi his qilish tabiiy. Biz doimo biror narsani baholaymiz, o‘zgartiramiz, chunki ijodkorlik boshlanishi va oxiri bo‘lgan o‘z-o‘zidan paydo bo‘ladigan jarayon emas. Ko‘pincha hamma narsa aqliy hujum, nazariyalar va farazlar bilan boshlanadi, keyin esa tinimsiz mehnat, hamma narsani to‘g‘ri qilishga qayta-qayta urinish.

Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining ijodiy faoliyatini faollashtirish jarayonini o‘rganish uchun asos sifatida biz Altshuller, X.Aristova, D.B.Epiphany, G.Weintswaig, L.S.Vygotskiy, G.M.Komskiy, E.V.Krilova, V.A.Molyako, miloddan avvalgi Muxina, A.N.Luk, R.A.Nizomov, V.V.Belich, G.I.Shchukina, L.I.Bojovich, A.V.Zaporojets va boshqalarning asarlariga murojaat qildik..

Qadriyat yo‘nalishlari hayot davomida shakllanadi, lekin axloqiy va qadriyat yo‘nalishlarini rivojlantirish uchun eng muhimi 6-12 yoshda bo‘lib, bu yoshda atrofdagi dunyoni va o‘zini bilishning intellektual mexanizmlari shakllanadi. Maktabga qabul qilish bilan bolalar rivojlanishida burilish yuz beradi. Butun hayot tarzi va qadriyatlari boshqacha bo‘ladi. Kichik maktab o‘quvchisida yangi intilishlar imkoniyatini va voqelikka munosabatning zarur darajasini belgilaydigan shaxsiy xususiyatlarning jadal shakllanishi mavjud. Kichik maktab yoshi - bilimlarni o‘zlashtirish, to‘plash davri, mukammal assimilyatsiya davri. Ushbu muhim hayotiy funktsiyani muvaffaqiyatli bajarishga ushbu yoshdagi bolalarning o‘ziga xos qobiliyatlari to‘sqinlik qiladi: hokimiyatga ishonchli bo‘ysunish, sezgirlikni oshirish, ta’sirchanlik, ular duch keladigan ko‘p narsalarga sodda o‘ynoqi munosabat. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning o‘rganilayotgan o‘quv materialiga va o‘z o‘quv faoliyati jarayoniga shaxsiy va semantik munosabatini tahlil qilish va baholash imkonini beruvchi ko‘rsatkich bo‘lib, ular quyidagilardir:

- umuman mavzuga bevosita qiziqish;
- o‘rganilayotgan fanning ijtimoiy ahamiyatiga o‘quvchining bahosi;
- kognitiv faoliyat tajribasidan foydalanish va ijobiy o‘zgartirish zarurati: o‘quv ishlari usullari, to‘plangan bilimlar;
- maktab o‘quvchilari tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqilgan (intellektual, axborot, tadqiqot va boshqalar) o‘quv ishining usullarini shakllantirish, unda o‘quv jarayonida o‘zlashtirilgan material bilan ishlash usullari va o‘quvchining o‘z tajribasini to‘plash natijalari taqdim etiladi;

Maktab o'quvchilarining meta-bilimga ega bo'lish mezonini quyidagi ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi:

- meta-bilimni o'zlashtirish zarurati (bilim haqidagi bilim);
- meta-bilimning mavjudligi - o'quv materialini o'zlashtirish texnikasi va vositalari haqidagi bilimlar (aqliy faoliyat texnikasining mohiyati haqida bilim);
- har qanday turdagi matnlarning mazmuni va tuzilishini, o'quv topshiriqlarini tahlil qilish qobiliyati;
- ta'riflar, muammolar va teoremlarda asosiy narsani ajratib ko'rsatish qobiliyati.
- kognitiv ob'ektlarni taqqoslash, tasniflash qobiliyati. Keyingi ko'rsatkich o'quvchining ilmiy bilim mantig'ini o'zlashtirish mezonini hisoblanadi.

Ushbu mezon doirasida talabalarning fan bo'yicha bilim sifati hisobga olinadi. Shunday qilib, bizning fikrimizcha, "ta'lim sifati" ni quyidagicha belgilash mumkin. O'qitish sifati - bu diagnostik maqsadlarga erishish mezonini sifatida maqsadlar va o'quv natijalarining nisbati bo'lib, u o'zlashtirish jarayonida o'qituvchi va talabaning o'zaro ta'siri natijasini tavsiflovchi ta'lim ko'rsatkichlarining yaxlit to'plami bilan tavsiflanadi. ikkinchisi tomonidan taqdim etilgan o'quv materialini. Bugungi kunda maktab ichidagi boshqaruvdagi nazorat o'z o'rnini diagnostikaga bo'shatib bormoqda. An'anaviy nazorat usullarini qayta ko'rib chiqishga nima sabab bo'ldi?

Bu ta'lim-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirishning kuchayishi, o'quvchiga faol, ongli, teng huquqli ishtirokchi sifatida munosabatda bo'lish, bolalarning imkoniyatlari va qobiliyatiga jiddiy e'tibor qaratish bilan bog'liq. Ijodkorlikni baholab bo'lmaydi, degan fikr bor. Biroq, ta'rifga qaytadigan bo'lsak, ijodkorlikning asosiy tushunchalari o'ziga xoslik va qiymatdir. Har qanday o'ziga xoslik mezonlarini belgilash mumkin, shuningdek, qanday g'oyalarni qimmatli deb hisoblash, qanday g'oyalarning kreativ va noyob ekanligini tahlil qilish mumkin. Buning uchun o'qituvchining ta'lim - tarbiya jarayoniga akmeologik yondashuvi o'quvchilardagi kreativlikning rivojlanishiga yordam beradi. Kreativ shaxsni tayyorlash - ijodkorlikka o'rgatish va o'zini o'zi ijodiy namoyon etish jarayonida shaxsda barqaror kreativ sifatlarni shakllantirish va rivojlantirish mazmuni; Ijod - ijtimoiy sub'ektning yangiligi, ahamiyati va foydaliligi jamiyat yoki muayyan guruh tomonidan tan olingan faoliyati yoki faoliyati natijasi Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlari:

- 1) bilishga oid (gnostik) malakalar;
- 2) loyihalash malakalari;
- 3) ijodiy-amaliy (konstruktiv) malakalar;
- 4) tadqiqotchilik malakalari;
- 5) muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) malakalari;
- 6) tashkilotchilik malakalari;

7) izchillikni ta'minlovchi (protsessual) malakalar;

8) texnik-texnologik malakalar

Mehnat ijodning ichida boshqa faoliyatlar qatori (ancha yashirin, «ichki» sezgi, hotira, tafakkur va boshq.) faoliyat bo'lsada, unda ijodning natijalari yaqqol ko'rinadi. Boshlang'ich sinf o'quv jarayonlarida o'quvchilarini ijodkorlikka o'rgatishning o'ziga xos psixologik xususiyatlari mavjud bo'lib, har bir bolada o'zgacha namoyon bo'ladi. Psixologiyada shaxsiyatning xususiyatlari, o'zlarini muntazam ravishda namoyon etadigan asosiy xususiyatlarning barcha turlarini qamrab oladi. Masalan, har bir kishi tasodifiy kerakli ma'lumotlarni unutishi mumkin, ammo umuman olganda hammasi unutilmaydi. Yagona holatlar belgilar xususiyatining mavjudligini ko'rsatmaydi. Qarama-qarshilikka uchragan shaxslarning xarakteristikalari odat va bezovtalik kabi xususiyatlarni o'z ichiga olishi mumkin, lekin bu boshqalarga g'azablanishga qodir bo'lgan har bir kishi ziddiyatli shaxs bo'lishini anglatmaydi. Shuni aytib o'tish joizki, inson hayot tajribasini yig'ib oladigan barcha fazilatlar oladi. Doimiy ravishda emas, balki umr bo'yi o'zgarishi mumkin. Qobiliyatlar, qiziqishlar va xarakterlar - bularning barchasi hayot tarzida o'zgarishi mumkin. Shaxs ekan, rivojlanadi va o'zgaradi.

2-§. O'quvchilarda jismoniy va intellectual qobiliyatini rivojlantirish

Boshlang'ich sinf o'quvchisining jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun harakatli o'yinga asoslangan dars, mashqlarni to'g'ri tashkil etish va o'tkazish eng muhim masaladir. K.Balsevich tadqiqoti bo'yicha, bolalarning jismoniy faolligini quyidagicha ta'riflab beradi: 1-4 sinf bolalar jismoniy sifati ko'rsatkichining barchasi o'sishning yuqori tempda borayotganligini namoyon etadi. Faqat egiluvchanlik ko'rsatkichining tempi bu davrda pasayib boradi. Bu yoshdagi bolalarda biodinamik harakatning va eng avvalo, koordinatsion qismlarning shiddatli rivojlanishi ro'y beradi. 1-4 sinf orasida jismoniy sifatlarning va koordinatsion qobiliyatning, inson harakat faolligining namoyon bo'lishi uchun amaliy jihatdan juda yaxshi zamin tayyorlanadi.

F.N.Nasriddinov, A.Sh.Qosimovlar ko'rsatkichlari bo'yicha jismoniy tayyorgarlik natijalari yoshdan yoshga o'tish bilan hamma ko'rsatkichlar ma'lum miqdorda ortib borishini ko'rsatadi. A.N.Liviskiy ilmiy tadqiqot ishlarining ko'rsatishicha, qo'l panjalari mushaklarining kuchi 7 yoshda 13-14 kg.ga yetadi. Shu yoshdan boshlab, harakatli o'yinlar vositasida, bu sifatlarni yanada rivojlantirish ehtimoli kuchli. Yosh o'zgarishi dinamikasida ayrim keskin bosqichlar belgilanganki, ular morfologik va funksional xususiyatlar majmui bilan tavsiflanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning sog'lomlashtirish-tarbiyaviy ishlarini harakatli o'yinlar vositasida yanada jonlantirish uchun ularning jismoniy rivojlanish va tayyorgarlik ko'rsatkichi o'rtasidagi o'zaro bog'liqligini aniqlash lozim. Bu samarali vositalarni tanlashga, keyin pedagogik sinov-tajriba o'tkazishga imkoniyat yaratadi.

Maktab o'quvchisining shaxs, komil inson bo'lib shakllanishida, rivojlanishida jismoniy tarbiya alohida ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Xalq jismoniy tarbiyasi esa

insoniyat rivojining ilk bosqichlaridayoq bola va o'smirlarning shakllanishida asosiy vositalaridan biri bo'lgan. Shu bois bugungi o'zligimizga qaytgan davrimizda xalqning milliy qadriyatlariga asoslangan jismoniy tarbiya alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'yinlarining ruhi, tabiati, xarakteri, ishtirokchilarning xatti-harakatlari kabi jihatlariga ham e'tibor berish zarur. Boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy tarbiyasini qiziqarli va foydali o'tkazish uchun biz tavsiya etayotgan ba'zi milliy o'yinlardan foydalanishda ham xuddi shu xususiyatlarga e'tibor berish kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida jismoniy tarbiya darslarida qadriyatlarga muhabbat uyg'otish, xalq an'analarini avaylab-asrashga o'rgatish ko'p jihatdan xalq milliy harakatli o'yinlaridan unumli foydalana bilishga bog'liq bo'ladi. Sababi, milliy harakatli o'yinlar orqali bola bir tomondan jismoniy bilimlarni shu orqali qadriyatlarga qiziqtirish muhim ahamiyat kasb etadi. 1-4 sinf bolalar yoshiga mos o'yinlarni jismoniy sifatlarni rivojlantirishiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1. Bolalarda tezkorlikni va egiluvchanlikni tarbiyalovchi o'yinlar;
2. Bolalarda kuchni oshirib beruvchi o'yinlar.
3. Bolalarda chidamlilikni va chaqqonliknirivojlantiruvchi o'yinlar.

Ayrim o'yin turlari bolalarning barcha bo'g'inlariga mos kelishi mumkin, ya'ni jismoniy sifatlarni yaxlit holda tarbiyalashga qaratilgan o'yinlar ko'pchilikni ta shkil etadi, ularda turli jismoniy sifatlarni ketma-ket rivojlanishi mumkin. Milliy harakatli o'yinlardan foydalanish jarayonida boshlang'ich maktab o'quvchilarining quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish kerak:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchisining kattalar faoliyati, ularning predmetlarga munosabati va o'zaro muomalasiga, munosabatiga qiziqishining ortishi.
2. Bolalar xalq harakatli o'yinlari atrofdagi voqelikning eng tashqi ifodali, jo'shqin his-tuyg'uli jihatlarini aks ettirishini.
3. Xarakatli o'yinlarda boshlang'ich sinf o'quvchisining kattalar bilan bir xil sharoitda, yagona zaminda yashayotganini his etgan holda o'z istagini amaliyotga tadbiiq qila olishi.

Yosh avlodning jismoniy jihatdan to'kis, sog'lom, Vatan himoyasiga tayyor, baquvvat tarzda o'sib-ulg'ayishidan xalq ham, jamiyat ham manfaatdor, Buning uchun o'quvchilar jismoniy tarbiya bilan chuqur shug'ullanishlari, turli milliy harakatli o'yinlardan foydalanish mahoratini egallashlari zarur. Bu esa yosh avlod tarbiyasiga e'tiborni yanada kuchaytirish, ularni o'z xalqi, mustaqil davlati va jamiyat oldidagi burchini his etish ruhida tarbiyalashdek g'oyat muhim vazifalar bilan bog'liq tarzda maktabda o'qiy boshlagan birinchi kundanoq mehnatga muhabbat, ishchanlik, boshlangan ishini oxiriga yetkazish, sabotlilik xususiyatlarini shakllantirish imkoni yaratiladi. Bunda jismoniy tarbiyaning barcha zamonaviy vositalari bilan birga o'zbek xalq milliy harakatli o'yinlari juda qo'l keladi, chunki bu o'yinlar bolalarni ruhiy,

jismoniy, ma'naviy jihatdan tarbiyalashning barcha jihatlarini o'z ichiga ola biladi. Zero, millatning kelajagi bo'lgan yoshlarni sog'lom, yetuk va komil inson qilib tarbiyalash mustaqil yurtimiz kelajagining egallasa, ikkinchi tomondan, uni jismoniy tarbiyaga, zamini mustahkam bo'lishiga xizmat etadi. Xarakterli o'yinlari va milliy sport turlari tarixiy taraqqiyot jarayonida jiddiy o'zgargani, har bir iqtisodiy tuzum ularning mazmuni, qoidalarida o'zining muayyan izini qoldirgani haqida yuqorida to'xtalgan edik. Ba'zi o'yinlarning nomi va qoidalari hozircha saqlanib qolgan. Ana shunday o'yinlardan foydalanishda bolalarga jismoniy ta'siridan tashqari tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishini ham nazardan soqit qilmaslik, ularni ijodiy qo'llashni maqsadga muvofiqlashtirish kerak. Masalan, Uloq o'yini deganda odatda ot bilan o'ynaladigan, chavandozlar haqiqiy uloq uchun kurashadigan qadimiy ko'pkari o'yini tushuniladi.

Ma'lumki, bolalar jismoniy tarbiyasi, jismoniy rivojlanishi va tayyorgarligini usuliy, pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri aniqlash uchun bolalar fiziologiyasi hamda ruhiyatini yaxshi bilish shart, shularga suyangan holda har bir mashg'ulot oldidan ma'lum vazifalar qo'yilishi lozim. Vazifalar soni ikki-uchtadan iborat bo'lib, ularni bir necha guruhlarga bo'lib o'tish, asosiy harakatlar va mashqlar, milliy harakatli o'yinlar tanlanadi. Tanlangan mashqlar, birinchidan, asosiy harakatlar bilan bog'liq bo'lishi lozim. Ikkinchidan, mashqlar o'quvchilarning yoshiga, tayyorgarlik darajasiga, jinsiga mos bo'lishi ham kerak. Bundan tashqari bu mashqlar bolaga oddiy, tushunarli, tanish va ular bajara oladigan bo'lishi lozim.

3-§. O'quvchilarda kreativ sifatlarini namoyon qilishning mazmuni.

Shaxsiyatning hech qaysi belgisi tug'ma bo'lishi mumkin emas, deb ishoniladi - ularning barchasi hayot davomida qo'lga kiritilgan. Tug'ilganda, insonga his-tuyg'ular organlari, asab tizimi va miya ishlarini o'z ichiga olgan fiziologik xususiyatlar beriladi va ularning xususiyatlari xarakterning rivojlanishi hisoblanadi. Masalan, o'quv jarayonida o'qituvchining yuksak pedagogik mahorati va akmeologik yondashuvi orqali topshiriqni bajarish jarayonida o'quvchilardagi yashirinib turgan kreativlikka yon bosuvchi psixologik holatlar yuzaga kela boshlaydi. Ayniqsa, hissiyot - ijod kuchlari orasida alohida o'rinni egallaydi, bu reproduktiv kuchi deb aytiladi, qaysiki uning yordami bilan inson tashqi olam bilan aloqada bo'ladi va o'zining aql-idroki bilan aks ettiradi. Hissiyot idrok, sezgi, hotira asosida, shuningdek tafakkur va boshqalar bilan insonga hayotdan olgan taassurotlar zapasiga ega bo'lishni taqozo etadiva bu sohada turli faoliyatlarni amalga oshiradi, jumladan, mehnatning eng oliy darajasi hisoblangan ijod bilan ham. Shunday qilib, mehnatning oliy shakli ijoddir. Har bir inson dunyoni idrok qiladi, tasavvur qiladi, yaqqolroq his etib boradi. Kuzatishlar asosida ko'pdan-ko'p taassurotlar olib, eshitib, o'qib xotirada ancha yorqin saqlab qolishga harakat qiladi. Bular asar yaratishda juda ham zarur, qaysiki, hotirada faqat o'z mazmunida borliqqa estetik, hissiy munosabat aks etib turuvchi voqealar aks etadi.

Xotira - xuddi hissiyot kabi badiiy ijodning reproduktiv kuchi hisoblanib, u o'z navbatida o'zida eng zaruriy psixik jarayonni - odamning o'tgan tajribasini namoyon etadi. Jumladan, yodga olish, yodda saqlash va so'ngra shunday narsa yaratiladiki, uni o'tmish tajriba mazmuni bilan bog'lamasdan hotiraning aralashuvisiz borliqni, jumladan, badiiylikni ham idroq etib bo'lmaydi. Xotira badiiylikni aks ettirishda xizmat qiladi. Inson hayotida va har qanday faoliyatida xotirani chetlab o'tolmay qoladi, xususan u o'sha taassurotlar bilangina yashab yuradi. U o'tgan, ko'rganlarini, anglaganlarini va taasurot materiallarini taxliliga ko'ra, tafakkurning natijalaridan foydalanishi zarur bo'ladi. O'tmish tajriba faqat hotira evazigagina saqlanib qolishi mumkin. Iroda - ijod kuchining samarasini belgilovchi, ijod uchun eng zaruriy psixik jarayonlardan biri hisoblanadi. Iroda mehnat faoliyatining asosiy turi sifatida amalga oshsada, lekin mehnatning samarasi irodaviy xususiyatlarning namoyon bo'lishiga bog'liq.

Irodasizlik ma'naviyatning kuchsizlanishiga olib kelishi, so'ngra jismoniy kuch va insonda dangasalik va xatto ongsizlikka olib kelishi mumkin. Bu holda insonning biror ahamiyatli narsa yaratishi xaqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Iroda psixologik nuqtai-nazaridan o'zida shaxsning ongli ravishda o'z xarakatlarini boshqaradigan psixik jarayon bo'lib, maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'lidagi ko'nikmasini egallashdagi urinishlarida namoyon bo'ladi. Iroda maqsadga yetish uchun aqliy va jismoniy kuch-quvvatini ongli ravishda boshqara olish yoki aksincha qandaydir voqeani amalga oshirmoqlikdir. U faqat insonga hosdir. Iroda oddiy va murakkab xarakatlar orqali amalga oshadi. Murakkab irodaviy xarakatlar avvalo, anglash va masalani qo'yish, masalani qo'yish va rejalashtirish, rejalashtirish va maqsadni amalga oshirishni nazarda tutadi. Iroda ma'lum xususiyatlari bilan xarakterlanadi:

- harakatchanlik
- mustaqillik
- qat'iyatlilik,
- sabr-toqatlilik
- o'z-o'zini boshqara olish.

Irodaviy xususiyatlarning namoyon bo'lishi, irodaviy imkoniyatlarni so'zsiz, quyidagi psixik jarayonlar - hayol, sezgi, hotira, tasavvur kabilar bilan bog'laydi. Shunday qilib, iroda katta kuch sifatida ijodni aktivlashtiradi, yuqori natijalarga erishishi va yana o'quvchining yetuk shaxs sifatida shakllanishida yuzaga chiqadi.

Tafakkur - ijodiy faoliyatning mukammallashtiruvchi kuchlaridan biri bo'lib, borliq materiallari haqida fikrlashda, tahlil qilishda idrok, sezgi, hissiyot va esda qoldirishda asosiy rol o'ynaydi. Intuitsiya - sezgirlik, bu inson hayotida alohida fenomenal va murakkab faoliyat bo'lib, inson ruhiy faoliyatida - ya'ni ijodiy mehnatda, xususan badiiy ijodda katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga so'zsiz intuitsiya hotira,

tafakkur va obrazli tasavvur bilan jips aloqada bo‘ladi. Intuitsiya obyektiv borliqni aks ettiruvchi sifatida bo‘lsada, uni rivojlantirish yo‘llari ham bordir. Mana shu zaruriy jarayonda o‘qituvchi o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini qulay muhitda to‘la namoèn qilishlari uchun imkoniyat yaratib bera olsa, o‘quvchilar birin - ketin muvaffaqiyatga erishib boradilar. Agar ta‘lim berishda noto‘g‘ri metod yoki yo‘nalish tanlansa, ya‘ni o‘quvchi tanqidga uchrasa bunday vaziyatda unda kreativ fikrlash ko‘nikmalarini samarali shakllantirish èki rivojlantirish mumkin bo‘lmaydi. O‘quvchilarda kreativlikni odatga aylantirish orqaligina kreativ fikrlash ko‘nikmasini muvaffaqiyatli shakllantirish mumkin.

4-§. Vatan oldidagi huquq, burch va majburiyatlarini anglash

Fuqaro - fuqaroligi huquqiy jihatdan e‘tirof etilgan hamda muayyan jamiyat a‘zosi bo‘lgan shaxs. Fuqarolik - insonning Vatan, xalq oldidagi huquq va vazifalari, ijtimoiy va axloq me‘yorlariga bo‘ysunishi, ijtimoiy faolligini hamda ma‘naviy yetukligidir. Fuqarolik deganda, insonni huquqiy yoki siyosiy-huquqiy tomondan himoyalaniishi va qonuniy manfaatlarinining ushbu davlat ichida va uning tashqarisida himoyalaniishi tushuniladi. Fuqarolik tarbiyasi fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o‘quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari yo‘lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan jarayon. Fuqarolik tarbiyasining vazifalari tizimini quyidagilar tashkil etadi:

Yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo‘lgan axloqiy va huquqiy me‘yorlarga rioya etishga o‘rgatib borish. O‘quvchilarga fuqarolik huquq va burchlari to‘g‘risida ma‘lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida ko‘nikma va malakalar hosil qilish.

O‘quvchilarda davlat ramzlariga nisbatan hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti sha‘ni, or-nomusini himoya qilishga tayorlik hissini shakllantirish.

O‘quvchilarda xalq o‘tmishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish, ulardan g‘ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini oshirish.

Vatan, xalq va millat ishiga sodiqlik o‘z manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg‘unlashtira olishga erishish, fidoyi fuqaroni tarbiyalab voyaga yetkazish.

Yosh avlodga turli fanlar asoslarini chuqur o‘zlashtirish ularning tafakkuri va dunyoqarashini boyitishga, shuningdek, fuqaro sifatida o‘z majburiyatlarini to‘laqonli anglashlari uchun imkoniyat yaratishni tushuntirib borish maqsadga muvofiqdir. Fidoyilik, intiluvchanlik, tashabbuskorlik, qa‘iyat, matonat, uyushqoqlik kabi xislatlar o‘quvchilarda fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonida tarbiyalanadi. Fuqarolik tarbiyasini tashkil etish uchun ma‘lum shart -sharoitlarning mavjudligi taqozo etiladi:

✓ o‘quv yurtida tashkil etilayotgan ta‘lim-tarbiya jarayoni yuksak darajada uyushtirilishi kerak;

- ✓ fuqarolik tarbiyasini tashkil etish jarayonining muvaffaqiyati o'qituvchi va o'quvchilar jamosiningsaviyasiga bog'liq;
- ✓ tarbiyaviy ishning rejali, uzluksiz, tizimli bo'lishiga erishish;
- ✓ oila, maktab va mahalla o'rtasida o'zaro hamkorlikning yuzaga kelish fuqarolik tarbiyasining muvaffaqiyatini ta'minlaydi;
- ✓ o'quvchilarning axloqiy va huquqiy me'yorlar, umumiy tartibga qat'iy rioya etishga o'rganish, zimmasidagi birinchi to'laqonli ado etishlariga qaratish.

Fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda suhbat, munozara, ma'ruza, bahslardan foydalanish, mashq, test, anketa savollariga javoblar olish kutilgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradi.

Vatanparvarlik shaxsning o'zi mansub bo'lgan millat, tug'ilib o'sgan vatani tarixidan g'ururlanishi, buguni to'g'risida qayg'urishi hamda uning porloq istiqboliga bo'lgan ishonchini ifoda etuvchi yuksak insoniyfazilat hisoblanadi. Vatanparvar shaxs qiyofasida quyidagi sifatlar namoyon bo'ladi: Vatanga bo'lgan mehr-muhabbat, unga bo'lgan sadoqat.

O'zi mansub bo'lgan millat o'tmishini, urf-odatlari, an'analari va qadriyatlariga sodiqlik. Vatan va millat tarixidan g'ururlanish. Yurtning moddiy, shuningdek, millat tomonidan yaratilgan ma'naviy boyliklarini asrash, ularni ko'paytirish borasida g'amxo'rlik qilish. Vatan ravnaqi va millat taraqqiyoti yo'lida mehnat qilish. Vatan ozodligi va millat erkiga qilnayotgan har qanday tahdidga qarshi kurashish. Vatan millat obro'i, sha'ni, or-nomusini himoya qilish. Vatan ravnaqi va millat taraqqiyotiga nisbatan ishonchga ega bo'lishi.

Baynalmilallik o'zga millat va elatlarning haq-huquqlari, erki, urf-odatlari, an'analari, turmush tarzi, tili hamda vijdon erkinligini hurmat qilish, ularning manfaatlariga ziyon yetkazilmaslikni ifoda etuvchi shaxsga xos ma'naviy-axloqiy fazilatlardan biridir. O'quvchilar o'rtasida vatanparvarlik va baynalmilallik tarbiyasi ularga oid mavzularda suhbat, davra suhbat, matbuot konferensiyasi, viktorina, uchrashuv, ko'rik -tanlov, bahs -munozaralar tashkil etish kabi shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Shuningdek, o'quvchilarni Respublika Baynalmilallik markazi yoki joylardagi Milliy-madaniy Markazlarining faoliyati bilan yaqindan tanishtirish, ayni paytda respublika hududida turli millat va elat vakillarini birlashtiruvchi 138 ta Milliy-madaniy markazlar faoliyat yuritayotgani to'g'risida ma'lumotlar berib, ular tomonidan uyushtirilayotgan tadbirlarga o'quvchilarni faol jalb etish ham ijobiy natijalarni beradi.

Huquqiy ta'lim - tarbiya uzluksiz jarayon bo'lib, yoshlikdan boshlab berib borilishi lozim. Bolalar oilada, maktabgacha ta'lim muassasidayoq xulq-atvor qoidalaridan xabardor bo'lishi, ma'naviy va ba'zi huquqiy normalar to'g'risida boshlang'ich tushunchalar olishi, kelgusida bu bilimlar kengaytirilishi va chuqurlashtirilishi aniq ifodalangan huquqiy xususiyat kasb etishi zarur. Shuning

uchun 2000-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasida maktabgacha ta’lim muassasalari va umumiy o‘rta ta’lim turlarida bosqichma- bosqich huquq saboqlari, huquqiy bilim va tarbiya berib borilishi yo‘lga qo‘yildi.

5-§. O‘quvchilarni o‘z ustida ishlashga o‘rgatish.

Bugun Yangi O‘zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar haqida to‘lqinlanib so‘zlamalikning iloji yo‘q. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ta’lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo‘yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini

rivojlantirish, Prezidentimiz ta’kidlaganidek: “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug‘iladi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi”

Ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta’lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Bugungi davrda Yangi O‘zbekiston “Inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat va xalqparvar davlat”² degan muhim g‘oya negizida barpo etilmoqda. Davlatimiz Rahbari belgilab bergan bu ulug‘vor maqsad asosida xalqimiz yangidan-yangi islohotlarning haqiqiy muallifiga aylanib bormoqda.

Yurtimizda inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish yo‘nalishida bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada umumiy o‘rta ta’lim mazmunini zamon talablari asosida qayta takomillashtirish, zamonaviy yondashuvlar asosida qayta ko‘rib chiqishga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Yosh avlod ongiga jahon ilmu fani va madaniyati rivojiga benazir hissa qo‘shgan buyuk mutafakkirlarimiz hayoti va ijodini, shuningdek, yurtimizda bunyod etilgan moddiy merosni asrab-avaylash mas’uliyatini singdirish,

ularni munosib vorislar etib tarbiyalash bugungi kunda maktab ta'limining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabining eng muhim maqsadi: Oquvchilarga ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanadigan bilimlar berishdir. Oquvchi vaqt o'tishi bilan maktabda olgan bilimlarining bir qismini unutadi. Lekin ular izsiz yo'qolmaydi. Olingan bilimlar, garchi o'quvchilar unutganda ham, aqliy kamolotda ma'lum darajada iz qoldiradi. Ko'pincha bolalar o'zlarining amaliy faoliyatlariga bog'lanmagan maktab materialini eslaridan chiqaradilar. Bazan o'rganish jarayonida mashq va mustaqil ishlar kam bajarilishi sababli, materiallar xotirada mustahkam saqlanmaydi. Bulardan tashqari, oldingi mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar yanada murakkabroq materialni o'rganish uchun bir pog'ona, tayanch bo'ladi. Ilmiy bilimlarni egallash o'quvchilarning xotirasini, mantiqiy tafakkurini, ijodiy faolligi va turli ishlarni bajarishdagi mustaqilligini rivojlantiradi

Har bir o'quvchining ta'lim - tarbiya jarayonidagi faoliyati o'ziga xos bo'lib biri - birini takrorlamaydi. Shunday ekan ularning salohiyatini, iqtidori jarayonidagi harakatini bir xillikda baholash bir mavqeda ko'rish albatta noo'rin. O'quvchilarning mustaqil ishlari, fikrlashi salohiyatlarida ham farq katta. O'quvchilarda mustaqil ishlash, avvalo unga tayyorlash o'qituvchi tomonidan materiallarni muammoli tarzda bayon etish kabi yo'llar bilan hosil qilinadi. Bunda quyidagi topshiriqlarni muntazam ravishda tavsiya etish mumkin: materialni darslik asosida o'rganish, namunaviy mustaqil mashqlar, yangi turdagi topshiriqlar, ijodiy ishlarni o'rgatishni o'z ichiga oladi. Mustaqil faoliyat faollikni oshiradi, bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish yaxshi samara beradi. Mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida uyg'un holda rivojlanishi kerak. Buning uchun avvalo, o'quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash, ularda biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli qilib bajarishga ishonch hosil qilish lozim.

Mustaqil ish turlarini qanday turlari bo'lishi kerak? Avvalo, ish turlari o'qituvchi tomonidan puxta o'ylangan, ta'lim maqsadiga asoslangan va surunkali bo'lishi kerak. Bunda har bir o'quvchining imkoniyati hisobga olinishi, ularning yosh xususiyati, nimalarga qiziqishi ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. O'quvchilarni aqliy rivojlantirishning sifatlaridan biri topshiriqlarni to'la eslab qolib bajarishlaridir. Bunda bajariladigan ishning maqsadini tushungan (tasavvur qilgan) holda, uning rejasini belgilash va ish usulini tanlash yo'l qo'yilgan xatolarni mustaqil topa olish va uni tuzata bilishlariga alohida e'tibor beriladi.

O'quvchilarning topshiriqlarni tez, to'g'ri bajarishlari uchun qulay usullarni tanlash, uni tashkil etish uchun doimiy yetakchi savollar berib tayanch so'zlar tavsiya etish foydalidir. O'quvchilarda mustaqil ishlarni sifatli qilib bajarishda qiyinchiliklar paydo bo'lishi tabiiy. Chunki hali ularning tasavvurlari yorqin, so'z boyligi yetarli

emas. Ma'lumki bola ilk bor tarbiyani oiladan oladi. Oiladagi ijtimoiy muhit uning ichki tartib intizomi ongli ravishda bola tarbiyasigatasir ko'rsatadi. Oilada bola tarbiyasi masalasi buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy merosida ham munosib o'rinni egallaydi. U o'zining qator asarlarida ta'lim-tarbiya masalalari umuminsoniy g'oya ekanligini o'rta surdi. Uning fikricha, jamiyatning yetukligi, uning taqdiri va kelajagi yoshlar kamoloti bilan bog'liqdir, shunga ko'ra bola tarbiyasi ota-onalar oldida turgan olijanob vazifadir, deydi.

Alisher Navoiy o'zining "Olim bo'lish oson, Odam bo'lish qiyin", degan hikmatida ota-onalarning yaxshi sifatlarini ulug'laydi. Bunday sifatning ularda jamuljam bo'lishi bola tarbiyasida muhim rol o'ynashini ko'rsatib o'tadi. Masalan, uning xotinlar haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir: "Yaxshi xotin, deydi Navoiy - oilaning davlati va baxti. Uning oroyishi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo'lsa - ko'ngil ozig'i, xushmuomala bo'lsa jon ozig'idir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib intizom bo'ladi ... U beandisha, shallaqi bo'lsa, ko'ngil undan ozor chekadi, yomonlik axtaruvchi bo'lsa, undan ruh azoblanadi. Agar mayxo'r bo'lsa, uy obodligi yo'qoladi, aqlsiz bo'lsa, oila rasvo bo'ladi" Alisher Navoiy oiladagi ayrim illatlarni va o'zaro kelishmovchiliklarni bola tarbiyasiga salbiy ta'siri va uning buzulishiga sabab bo'luvchi asosiy omillar haqida ham yozadi. Shuningdek, yaxshi va yomon xulqlar va ularning kelib chiqish sabablarini ko'rsatib beradi. Bolada paydo bo'ladigan yomon xulqlarni oldi olinmasa, u bora-bora illatga aylanadi. Alisher Navoiy ta'kidlashicha, ota-onani hurmat qilish farzandlar "... uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizmaing qancha ortiq bo'lsa ham, kam deb bil. Otang oldida boshingni fido qilib, uning boshi uchun butun jisingni sadqa qilsang arziydi" degan gaplarni ham aytib o'tganlar. Alisher Navoiyning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g'oyalari bosh o'rinda turadi. Uning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrlidir. Alisher Navoiyning barcha asarlari yoshlar tarbiyasi uchun muhim xazina hisoblanadi. U o'z asarlarida har bir so'zdan unumli va o'rinli foydalana olgan. Har bir hikmati biz uchun ibratlidir. Alisher Navoiyning hayoti va merosi yoshlarda umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalashda bizga har tomonlama namuna bo'ladi. Ulug' shoir o'zining ta'lim-tarbiyaga oid fikr-mulohazalari bilan barkamol avlod tarbiyasiga katta hissa qo'shdi, umuminsoniy fazilatlar to'g'risidagi fikrlari hozirgi davrimiz uchun ham muhimdir. Har bir o'qituvchi- pedagog faoliyat yuritar ekan, berayotgan ta'lim-tarbiyasining yanada samarali bo'lishi uchun o'z ustida muttasil ishlashi, bilimni, mahoratini o'stirishi, o'quvchilar bilan bo'ladigan munosabatlarni puxta o'ylab, ularning ko'ngliga ozor yetkazmasdan ish olib borishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 64-moddasida belgilanishicha – "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetkunlaricha boqish va tarbiyalashga majburdirlar". Ushbu qoidaga muvofiq ota-onalarning o'z farzandlari oldidagi

majburiyatlari huquqiy kafolatlangan va farzandini voyaga yetkazish, tarbiyalash otaonaning burchi ekanligi uqtirilgan. Farzand dunyoga kelganidan so'ng, uni voyaga yetkazish, moddiy taminlash, o'qitish tarbiya berish ota-ona zimmasidagi yuksak mas'uliyatdir. Ana shunday mas'uliyatli ishlarga befarqlik, bepisandlik bilan munosabatda bo'lish kechirib bo'lmaydigan hollarga olib kelishi hammaga ayon. Bola tarbiyasi yuzasidan oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi xozirgi kunimizning dolzarb mas'alaligi ham mana shundadir. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bolalar o'qituvchi rahbarligida ishlaganda tez mushohada qiladilar. Bu holga o'rganib qolmasliklari uchun ko'proq ularning o'zlarini mustaqil fikrlashga da'vat etish lozim.

O'quvchilar e'tiborini jalb etish maqsadida matndagi voqealarni eslatib: Nega? Nega shunday bo'ldi? Seningcha qanday bo'lishi kerak edi? Kabi savollar berib, uning fikrini ma'qullab, yana o'ylasang topasan, juda yaxshi, juda soz! kabi rag'batlantiruvchi so'zlarni ishlatish foydalidir. O'quvchilarni mustaqil faoliyatga o'rgatishda quyidagilarga amal qilishi lozim:

- ✓ beriladigan har bir topshiriq o'quvchilarning imkoniyatlariga mos bo'lsin va qiziqish uyg'ota olsin;

- ✓ ish osondan qiyinga, soddadan murakkabga qarab yo'naltirilsin, o'quvchiga tushunarli bo'lsin;

- ✓ ishni bajarishda bolalarda o'ziga ishonch hissi uyg'onsin, ishga kirishishda ular o'zlarida dadillik sezsin;

- ✓ mustaqil bajariladigan topshiriqlar yakkama-yakka tarzda amalga oshirilsin (hamma o'quvchi uchun bir xil topshiriq berish bu mustaqil faoliyat emasligini eslatamiz), albatta bunda bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchiga e'tibor berish kerak.

- ✓ topshiriqlarni doimo navbatlashtirib, turini almashtirishga alohida ahamiyat berish kerak;

- ✓ topshiriqlarni hamma bir vaqtda boshlab, ma'lum vaqtda tugatishi kerakligini eslatib, bo'sh o'zlashtiruvchi bolalarni shu talabni bajarishga ko'niktirish lozim;

- ✓ ish joyi hamisha qulay, saramjon-sarishta bo'lishi (parta ustida ortiqcha narsalar bo'lmasligi) kerak;

- ✓ topshiriqlar darsning turli bosqichida bajarilishi mumkin;

- ✓ darslik, didaktik materiallar bilan ishlashda uzviylik bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Uyga beriladigan vazifalar ham mustaqil ishning bir turidir. Bolalarga, iloji boricha sinf sharoitida asosiy bilim va malakalarni singdirish, uyga vazifalar berishni me'yorlash kerak.

Bolalar darsdan keyin (og'ir, mashaqqatli mehnatdan keyin) tiniqib dam olsalar, ko'proq ochiq havoda bo'lib, harakatli o'yinlar, sayr, kuzatishlar bilan vaqtlarini o'tkazib, tunda osuda uxlab, ertangi kungi darslarga yaxshi kayfiyat bilan kelsalar, darsni o'zlashtirish yaxshi bo'ladi. Shuning uchun uy vazifalari oson bo'lishi, asosan, bolalarni kuzatishlarga undashi lozim.

- Darslarda yangi pedagogik, zamonaviy texnologiyalar, noan’anaviy usullardan keng qo‘llash;
- Ko‘rgazmali, didaktik, test, tarqatma materiallaridan keng foydalanish;
- O‘quvchilarga do‘stona munosabatda bo‘lish;
- O‘qish sifati va samaradorligiga e’tibor berish;
- O‘quvchilarni erkin va mustaqil fikrlashga orgatishda turli mashqlardan foydalanish;
- Nutq o‘stirishga alohida e’tibor qaratish;
- Yanga axborot texnologiyalardan foydalanish;
- Lug‘at ustuda ishlashga o‘rgatish;
- Xalq og‘zaki ijodidan foydalanish;
- “She’riyat gulshani”, “Ifodali o‘qish” kabi to‘garaklar tashkil etish;
- Bo‘sh vaqtlarda ulgurmovchi o‘quvchilar bilan alohida, yakka tartibda ish olib borish;
- Fanlar a‘robog‘ijlikka ahamiyat berish. O‘quvchilar bilishini nazorat qilib borishda albatta past o‘zlashtirgan o‘quvchiga alohida e’tibor qaratish lozim. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarni o‘qishning bir necha turlari yani, ongli, tez, to‘g‘ri va ifodali o‘qishga o‘rgatib boriladi.

Har bir o‘quvchining ta’lim - tarbiya jarayonidagi faoliyati o‘ziga xos bo‘lib biri - birini takrorlamaydi. Shunday ekan ularning salohiyatini, iqtidori jarayonidagi harakatini bir xillikda baholash bir mavqeda ko‘rish albatta noo‘rin. O‘quvchilarning mustaqil ishlari, fikrlashi salohiyatlarida ham farq katta. O‘quvchilarda mustaqil ishlash, avvalo unga tayyorlash o‘qituvchi tomonidan materiallarni muammoli tarzda bayon etish kabi yo‘llar bilan hosil qilinadi. Bunda quyidagi topshiriqlarni muntazam ravishda tavsiya etish mumkin: materialni darslik asosida o‘rganish, namunaviy mustaqil mashqlar, yangi turdagi topshiriqlar, ijodiy ishlarni o‘rgatishni o‘z ichiga oladi. Mustaqil faoliyat faollikni oshiradi, bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatish yaxshi samara beradi. Mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida uyg‘un holda rivojlanishi kerak. Buning uchun avvalo, o‘quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash, ularda biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli qilib bajarishga ishonch hosil qilish lozim.

Mustaqil ish turlarini qanday turlari bo‘lishi kerak? Avvalo, ish turlari o‘qituvchi tomonidan puxta o‘ylangan, ta’lim maqsadiga asoslangan va surunkali bo‘lishi kerak. Bunda har bir o‘quvchining imkoniyati hisobga olinishi, ularning yosh xususiyati, nimalarga qiziqishi ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. O‘quvchilarni aqliy rivojlantirishning sifatlaridan biri topshiriqlarni to‘la eslab qolib bajarishlaridir. Bunda bajariladigan ishning maqsadini tushungan (tasavvur qilgan) holda, uning rejasini

belgilash va ish usulini tanlash yo‘l qo‘yilgan xatolarni mustaqil topa olish va uni tuzata bilishlariga alohida e‘tibor beriladi.

Xulosa qilib aytganda darslarda o‘qituvchi o‘z bilimi, ko‘nikma va malakalarini mashg‘ulotlar vositasida o‘quvchilarga yetkazadi, o‘quvchilar esa uni o‘zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘ladi. O‘quvchilar mustaqil ishlash jarayonida o‘zlashtirishning turli ko‘rinishlaridan foydalanishadi, ya‘ni o‘zlashtirilayotgan ma‘lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o‘ziga xos tafovutlarga tayanadi. Shu tariqa o‘zlashtirish natijalari ortib boradi, olingan bilimlar mustahkamlanadi. Ta‘lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o‘quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta‘lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta‘limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta‘lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo‘lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta‘limning maqsadi imkoniyatlaridan to‘g‘ri, aniq, o‘rinli foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g‘oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma‘naviy boyitishdan iboratligi ta‘kidlangan. Ta‘limiy maqsad asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, og‘zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi.

Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma‘naviy, g‘oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o‘rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo‘ladi. Ulug‘ donishmandlardan biri «...kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o‘qit», degan ekan. Yurtimizda ta‘lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma‘noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma‘noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o‘zgarish bo‘ldi, desak xato bo‘lmaydi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev shuni takidlab o‘tganlarki “Bizning asosiy maqsadimiz - yoshlarning sifatli ta‘lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishiga erishish, ularning o‘z qobiliyati va iste‘dodini ro‘yobga chiqarish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berishdan iborat”. Shunday ekan biz pedagoglar qo‘limizdan kelguncha o‘quvchilarni bilim darajalarini oshirish va rivojlantirishimiz lozimdir

6-§. O‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish.

O‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish uchun ta‘lim texnologiyalarini tanlashda o‘quv fani o‘qituvchisi taqvim mavzu rejada mazkur sinf uchun belgilangan tayanch kompetensiyalarni belgilab oladi. Shundan so‘ng, o‘rganilishi zarur bo‘lgan mavzu va shakllantiriladigan kompetensiyalarni hisobga olgan holda darsni o‘tish metodi, usuli tanlanadi.

Interfaol yondashuv. O‘qituvchilar dars jarayonini yaxshi tashkil etish uchun qulay muhit yaratadi. O‘quvchilarning o‘zaro fikr (axborot) almashishlariga imkon

beriladi. Yechimini kutayotgan masalalarni hamjixatlikda muhokama etadilar, yechadilar. Vaziyatdan chiqishda hamkorlikda yechim topadilar. Olgan axborotlari asosida bilimlarini bir-birlariga namoyish etadilar.

Loyihalash metodi. Loyihalash metodi - o'quvchilar uzluksiz ravishda murakkablashib boradigan amaliy topshiriqni rejalash, konstruksiyalash va bajarish jarayonida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladigan o'qitish tizimidir. Ta'lim oluvchilar keng miqyosdagi muammoli (ijodiy, axborot, kommunikatsiya va h.k.) masalalar bilan bog'liq loyihalarni bajaradilar.

Mazkur metodning yuqori samara berishi uchun loyihani bajarishda o'quvchilarda motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi, shart hisoblanadi.

Loyihalash metodi orqali o'quvchilarda quyidagi shaxsiy kompetensiyalar shakllanadi: komandada ishlash; ishchanlik; ma'suliyatni his etish; o'ziga ishonch; o'qitishlilik; tezkor fikrlash; jarayon rivojini ko'ra bilish; mushohada qila bilish; uzoqni ko'ra bilish; tashxislash; motivatsiya.

Muammoli modulli ta'lim metodi. Muammoli modulli ta'lim metodi olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashni nazarda tutadi. Mazkur metod o'qitishning turli modellarining didaktik asosini tashkil etib, o'qitish vositalari va pedagogik texnikaning qo'llash usulari bilan farqlanadi. U o'quv predmetini nisbatan kichik bo'laklarga – modullarga bo'lishni ifodalaydi.

O'quvchi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim.

Ijtimoiy munosabatlarga kirishuvchi va ijtimoiy taraqqiyotda faol ishtirok etuvchiodamni Shaxs deb ataladi. Individ sifatida dunyoga kelgan odam keyinchalik shaxsgaaylanadi. Individ tushunchasida kishining nasl-nasabi mujassamlashgandir.

Loyihalash metodi - o'quvchilar uzluksiz ravishda murakkablashib boradigan amaliy topshiriqni rejalash, konstruksiyalash va bajarish jarayonida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ladigan o'qitish tizimidir, ta'lim oluvchilar keng miqyosdagi muammoli (ijodiy, axborot, kommunikatsiya va h.k.) masalalar bilan bog'liq loyihalarni bajaradilar.

Mazkur metodning yuqori samara berishi uchun loyihani bajarishda o'quvchilarda motivatsiyaning yuqori darajada bo'lishi, shart hisoblanadi.

Quyidagi shaxsiy kompetensiyalar shakllanadi:

- komandada ishlash;
- ishchanlik;
- ma'suliyatni his etish;
- o'ziga ishonch;
- o'qitishlilik;
- tezkor fikrlash;
- jarayon rivojini ko'ra bilish;
- mushohada qila bilish;

- uzoqni ko‘ra bilish;
- tashxislash.

KLASTER (Klaster-tutam, bog‘lam)-axborot xaritasini tuzish yo‘li - barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g‘oyalarni yig‘ish.

Bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo‘yicha yangi o‘zaro bog‘lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi.

Klasterni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Yozuv taxtasi yoki katta qog‘oz varag‘ining o‘rtasiga asosiy so‘z yoki 1-2 so‘zdan iborat bo‘lgan mavzu nomi yoziladi.

Birikma bo‘yicha asosiy so‘z bilan uning yonida mavzu bilan bog‘liq so‘z va takliflar kichik doirachalar "yo‘ldoshlar" yozib qo‘shiladi. Ularni "asosiy" so‘z bilan chiziqlar yordamida birlashtiriladi. Bu "yo‘ldoshlarda" "kichik yo‘ldoshlar" bo‘lishi mumkin. Yozuv ajratilgan vaqt davomida yoki g‘oyalar tugagunicha davom etishi mumkin.

Toifa-xususiyat va munosabatlarni muhimligini namoyon qiluvchi (umumiy) alomat.

Ajratilgan alomatlar asosida olingan ma‘lumotlarni birlashtirishni ta‘minlaydi.

Tizimli fikrlash, ma‘lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Toifalarni jadval ko‘rinishida rasmiylashtiradilar. G‘oyalarni ma‘lumotlarni toifaga mos ravishda bo‘ladilar. Ish jarayonida toifalarning ayrim nomlari o‘zgarishi mumkin. Yangilari paydo bo‘lishi mumkin. Ish natijalarining taqdimoti

BBB Jadvali - Bilaman/ Bilishni hohlayman/ Bilib oldim.

Mavzu, matn, bo‘lim bo‘yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishdilar. Alohida kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.

"Mavzu bo‘yicha nimalarni bilasiz" va "Nimani bilishni hohlaysiz" degan savollarga javob beradilar (oldindagi ish uchun yo‘naltiruvchi asos yaratiladi). Jadvalning 1- va 2-bo‘limlarini to‘ldiradilar.

Ma‘ruzani tinglaydilar, mustaqil o‘qiydilar.

Mustaqil kichik guruhlarda jadvalning 3-bo‘limini to‘ldiradilar.

VENNA diagrammasi. 2- va 3-jihatlarini hamda umumiy tomonlarini solishtirish yoki taqqoslash yoki qarama-qarshi qo‘yish uchun qo‘llaniladi.

Tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

VENNA diagramma tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik guruhlarda diagramma Vennani tuzadilar va kesishmaydigan joylarni (x) to‘ldiradilar.

Juftliklarga birlashtiradilar, o‘zlarining diagrammalarini taqqoslaydilar va to‘ldiradilar.


Doiralarni kesishuvchi joyida, ikki-uch doiralalar uchun umumiy bo'lgan, ma'lumotlar ro'yxatini tuzadi.

1. Aylana yoki to'g'ri to'rtburchak shakllaridan foydalanishni o'zingiz tanlaysiz.
2. Chizmaning ko'rinishini - mulohazalar zanjirini to'g'ri chiziqli, to'g'ri chiziqli emasligini o'zingiz tanlaysiz.
3. Yo'nalish ko'rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo'lgan yo'nalishingizni belgilaydi.



Nazorat savollari:

1. O'quvchida ijtimoiy faollik ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida gapiring.
2. O'quvchilarda jismoniy va intellektual imkoniyatlarni rivojlantirishda nimalarga e'tibor qaratish kerak.
3. O'quvchilarda kreativ sifatlarini namoyon qilishning mazmuni.
4. Vatan oldidagi huquq, burch va majburiyatlarini anglashda nimalarga e'tibor qaratish lozim.
5. O'quvchilarning o'z ustida ishlashga o'rgatishni qanday yo'lga qo'ysa bo'ladi?
6. O'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish.



IX. INNOATSION YONDASHUV ASOSIDA “TARBIYA” DARSLARINI TASHKIL ETISH

Tayanch tushunchalar: *innovatsiya, tarbiya darslari, ta'lim muhiti, mediata'lim, innovatsion yondashuv, tarbiyaviy texnologiya.*

1-§. Innovatsion ta'lim muhitida tarbiya darslarini tashkil etish.

Respublikamizda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya islohotlari, mutaxassis kadrlar salohiyotini oshirishga qaratilgan bo'lib, oliy o'quv yurtlarida pedagoglarning metodik mahoratini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilarimiz bu vaziyatdan chiqishda ularni o'z faoliyatiga tanqidiy yondashib, psixologik jixatdan qayta ko'rib chiqib, ularni yangi sharoitda bolalarga samimiy munosabatda bo'lish, ularni rivojlantirishda shaxsiy yondashuv, hamkorlik, hamijodkorlik, individuallashtirish

asosida, ularni ta'lim - tarbiya jarayoniga motivatsiya hosil qilish orqali ta'lim jarayonida faol ishtirokini ta'minlashga barcha kuchlarini va e'tiborlarini qaratishni talab etadi.

Agar o'qituvchi o'zining faoliyatni kuzatib borsa, tahlil qilsa, o'ziga baho bera olsa, o'z faoliyatiga tuzatishlar, yangiliklar kiritish olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli ham respublikamizda interfaol metodlarni o'quv jarayoniga qo'llash keng joriy etilmog'i kerak. Bu o'z navbatida o'quv jarayonini insonparvarlashtirish, demokratiyalashtirish, liberalizatsiyalashni tashkil etishni taqozo etmoqda. Qisqa qilib aytganda, o'quv jarayoni markazida o'quvchi shaxsi, uning ehtiyoji bo'lmog'i lozim. O'quv jarayoni uning hoxish, istagiga qaratilgan, yo'naltirilgan bo'lmog'i talab etiladi. Shaxsga qaratilgan ta'lim o'quvchini o'quv-biluv faoliyatini tashkil etishning harakatlantiruvchi, qiziqish, ehtiyojini, hoxish, istaklarini ro'yobga chiqaruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi. Innovatsiya:

Yangilanish, o'zgarish;

Biror-bir yangilikni kiritish;

Yangilikni o'zlashtirish jarayoni.

Innovatsiya – (inglizcha Innovation – yangilik kiritish) – tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, amaliyot va nazariyaning muhim qismi. Innovatsion jarayonning mazmuniy tomonini o'z ichiga oladi (ilmiy g'oyalar va ularning texnologiyalarini amaliyotga kiritish).

Demak, faqatgina innovatsion jarayonlarni pedagogik tizimga bog'lash yoki kiritish orqaligina ta'limda yuqori darajalarga erishish mumkin. Bunda yangiliklarni sekinlik bilan, bosqichma-bosqich kiritish, uni qanchalik foyda keltirishini atroflicha o'ylab, o'lchab amalga kiritish maqsadga muvofiqdir. Innovatsiyalarni pala-partish, tartibsiz, oldindan natija olishni mo'ljallamay amalga oshirish zarar keltirishi ham mumkin.

Zero, innovatsiya chuqurroq bilim olish, o'rganish, o'zlashtirish, keng hajmdagi bilimlarni olishga qaratilmog'i yaxshi natijalar berishi mumkin. Bular doimiy pedagogik muammo bo'lib kelayotgan: o'quv-tarbiyaviy faoliyat motivatsiyasini oshirish, dars jarayonlarida o'quv materialni hajmini oshirish, o'quv jarayonini jadallashtirish, vaqtni tejash, ko'proq ilg'or metodlardan foydalanish, o'quv-tarbiyaviy ishlarda interfaol usullardan foydalanish, ilg'or texnologiyalarni qo'llash, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy qilishdan iborat. Yuqori natijalar beradigan yangi g'oyalar, yangi nazariy bilimlar beruvchi, insonni rivojlanishiga olib keluvchi, tom ma'nodagi innovatsiyalarni yaratish, izlash, joriy etish talab etiladi. Ko'plab umumiy va xususiy loyihalarni tahlil etib, pedagogik nazariya va amaliyotga tadbiq etilish xususiyat va holatlarini o'rganish asosida umum pedagogik innovatsiyalarni shunday ko'rishda bo'lishini belgilash mumkin:

➤ juda yangi bo'lmasada, doimiy faol bo'lgan, o'zining g'oyasi – ahamiyati jixatdan eskirmagan, o'quv – tarbiya jarayoni texnologiyalarini, o'quv jarayonini optimallashtirish nazariyasi va amaliyotini;

➤ gumannistik pedagogika va uning nazariy va amaliy jihatlari texnologiyalarini;

➤ pedagogik tizim jarayonidagi boshqaruvlarni yangi g'oya, yondashuvlar asosida tashkil etilishi;

➤ yangi g'oyalarga asoslangan texnologiyalar, axborot vositalari va ommaviy kommunikatsiyalarga suyanish kabilar kiradi.

Innovatsiyani (yangiliklarni) bosh va asosiy yo'nalishlari qilib pedagogik sistemadagi:

- pedagogik sistemaning bir butunligiga;
- o'quv muassasalari;
- pedagogik nazariya;
- o'qituvchi;
- ta'lim oluvchilar;
- pedagogik texnologiya;
- mazmun;
- shakl, metod, vosita;
- boshqaruv;
- maqsad va natijalarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Chuqur o'zgarishlarni amalga oshirish orqali pedagogik tizimga ta'sir etish asosida innovatsiyani amaliyotga joriy qilish mumkin. Rus olimi Bobanskiyning keyingi 10 yilliklar orasida fanda yangi va muhim yo'nalish bo'lib, innovatsion jarayon va novatsiyalar nazariyasi paydo bo'ldi, deydi. Bu nazariya o'qituvchining bevosita mehnat faoliyatiga bog'liqdir.

O'quv – tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishning yana bir yo'li o'quv jarayonini insonparvarlashtirishdir.

Darsni insonparvarlashtirish:

- hamkorlik;
- o'quvchiga g'amxo'rlik;
- o'quvchini hurmat qilish;
- e'zozlash;
- kechirimli bo'lish;
- o'z – o'zini rivojlantirishga muhit yaratish;
- psixologik sog'lom muhit yaratish;
- ijodiy muhit;
- do'stona munosabatda ish yuritish;

– o‘quvchini extiyoji, qiziqishi, shaxsiy fazilati, iqtidorini, ichki imkoniyatlarini ishga solish.

– o‘zining shaxsiy – kasbiy sifatlari va fazilatlarini tahlil qilishi, bu boradagi kamchiliklarni aniqlashi va ularga barham berish yo‘llarini izlashi;

– pedagogik jarayonda do‘stona, samimiy muhit, hamkorlik, hamijodkorlik va g‘amxo‘rlik vaziyatda ish faoliyatini olib borish;

– o‘quvchi, talaba shaxsini xurmat qilish va e‘zozlash yo‘llarni egallashi, o‘qitish jarayonida ijodiy va qulay ijtimoiy – psixologik muhitni yaratish ko‘nikma va malakalarini egallagan bo‘lishi;

– o‘quvchilarni rag‘batlantirish va uni yangi metodlarini qo‘llash ko‘nikmalarini;

– o‘zining pedagogik va o‘quvchilarning bilish faoliyatidagi kamchiliklarga barham berishning samarali usullarini egallagan bo‘lishi kerak.

Albatta, yuqoridagi ishlarni amalga oshirish ta‘lim sifati va samaradorligi oshirishni kafolatlaydi. Buning uchun o‘qituvchilarning bilimlarini va pedagogik mahoratlarini takomillashtirib borishlari doimiy, uzluksiz holda olib borilishi talab etiladi. Innovatsion faoliyatda ish yuritish uchun yuksak madaniy – insonparvarlik asosida ta‘limga yondashishi talab etiladi. Insonparvarlik pedagogikasi shaxs va uni rivojlanishiga qaratilgandir. Uning belgilari: ma‘lumotlarni egallab olish va ma‘lum doiradagi mahorat va ko‘nikmalar hosil qilish uchun texnik, jismoniy, aqliy rivojlanishiga diqqatni qaratilishidir. Mustaqil fikrlovchi va harakat qiluvchi shaxsni shakllantirishga qaratilgan kuchlarni to‘plash, har qanday hayotiy va o‘quv vaziyatlarda asoslangan qarorlarni tanlay olib, qaror qabul qila olishdir.

O‘quv jarayonini qayta qurish va yo‘naltirishga zaruriy tashkiliy sharoitlarni yaratish. O‘quv jarayonini insonparvarlashtirish yondashuvi asosida haqiqiy insoniy munosabatlarni o‘rnatish orqali avtoritar pedagogikadan voz kechib borish demakdir. Insonparvar pedagogika maktabni o‘quvchiga moslashuvi, qulay sharoit, ijodiy muhit yaratib, “psixologik himoya” bilan ta‘minlashni talab etadi. Insonparvarlik maktabi amaliyotini innovatsion faoliyatning aniq uslublarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Ular:

1. O‘quv – tarbiya jarayonini differentsiyalash;
2. O‘quv – tarbiya jarayonlarini har bir shaxs xislat – qobiliyatlariga qarab muvofiqlashtirish;
3. Har bir tarbiyalanuvchini uning qiziqishini rivojlantirish uchun kerakli sharoitlarni yaratib berish;
4. Gotogen sinf, sinflar va shunga o‘xshashlarni tashkil etish;
5. O‘quv – tarbiya faoliyatni qulayligi;
6. Psixologik xavfsizlik, o‘quvchilarni himoyalash;
7. O‘quvchilarning kuchiga va imkoniyatlarga ishonish;

8. O‘quvchini qanday bo‘lsa, shunday qabul qilish;
9. Ta‘lim – tarbiya muvaffaqiyatini ta‘minlash;
10. Maktab yo‘nalishini maqsadga qarab o‘zgartirish;
11. Insonparvarlik ta‘limini kuchaytirish.

2-§. Innovatsion ta‘lim muhitida tarbiya darslarini tashkil etishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari.

Innovatsion, interfaol ta‘lim o‘qituvchi va o‘quvchiga doimiy ijodiy izlanish, uzluksiz o‘z shaxsini rivojlantirish, takomillashtirish imkonini beradi. Yuqorida aytganimizdek, o‘quvchi shaxsiga, uning qiziqish, hoxish, istagiga, ehtiyojiga qaratilmog‘i kerak, ya‘ni ta‘limni individuallashtirishga qaratilmog‘i talab etiladi. Endi ta‘limni individuallashtirish deganda nimani tushunish kerak? degan savolga javob beraylik. Demak, ta‘lim – tarbiya sifati va samaradorligi o‘quvchining ta‘lim mazmunini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan mustaqil mutoala bilan samarali shug‘ullanishi, mustaqil fikr yuritishi va tafakkur faoliyati bilan bog‘liq.

Interfaol metodlarda dars jarayonini olib borishda o‘quvchilarda quyidagi xususiyatlarning rivojlanishini ko‘rsatish mumkin: O‘quvchi o‘qitilibgina qolmay, mustaqil o‘qish, o‘rganish, ishlashga, o‘zlashtirishga o‘rgatiladi. O‘quvchilarni mustaqil ravishda tahlil qilish orqali o‘zlashtirishga, ijodiy mulohaza yuritishga, shaxsiy xulosalar asosida erkin fikr yuritishga o‘rgatiladi. Bizga yot fikrlarga qarshi fikr yurita olish, o‘z nuqtai nazarini himoya eta olish ko‘nikmalari shakllantiriladi. O‘quvchiga bilimlar tayyor holda berilmasdan, bilimlarni darsliklardan, axborot – resurs markazlaridan, internetdan, turli boshqa manbalardan izlash, topish, qayta ishlash orqali ijodiy mushohada yuritish imkoniyati yaratiladi. O‘quvchining darsliklar bilan ishlash, o‘qish, o‘rganish, konspekt yozish, qo‘shimcha adabiyotlar va manbalardan foydalanib, mustaqil o‘zlashtirish ko‘nikmalarini egallashga o‘rgatiladi.

Sinfidagi barcha o‘quvchilarni o‘z qobiliyatlari darajasida o‘zlashtirishlari kafolatlanadi. O‘quvchining o‘zlashtirganligini, olgan bilimlarini kundalik hayotda, amaliy faoliyatda foydalana olish ko‘nikma va malakalari bilan belgilanadi. O‘qituvchi - o‘quvchilar interfaol metodlar asosida ishlashni o‘rganib, uni o‘z o‘quv - biluv faoliyatlariga olib kira olsalar, barcha o‘quvchilar deyarli bir xil natijalarga erishadilar.

Interfaol metodda dars jarayoni tashkil etilganda:

- ✓ o‘quvchilarning o‘zaro faolligi oshadi, hamkorlik, hamijodkorlikda ishlash ko‘nikmalari shakllanadi.
- ✓ o‘quv reja, dastur, ta‘lim mazmuni, darslik, standart, me‘yor, qo‘llanmalar bilan ishlash malakalari shakllanadi.
- ✓ ta‘lim mazmunini, matnini mustaqil mutoala qilish, ishlash, o‘zlashtirish kundalik shaxsiy ishlariga aylanadi.

✓ o‘quvchi erkin fikr bildirish, o‘z fikrini himoya qilish, isbotlay olish, tasdiqlay olishga odatlanadi.

✓ eng muhimi o‘quv jarayonida didaktiv motivlar vujudga keladi. Ya’ni o‘quvchining extiyoji, hoxish, istagi qondiriladi, dars qiziqarli kechayotganligi sababli, vaqt o‘tayotganini bilmay qoladi. O‘quv – biluv jarayonida o‘quvchining shaxsiy manfaatdorligi oshadi. Bu holat o‘quvchini o‘quv maqsadlariga intilishi va erishishida yuqori bosqichga ko‘taradi.

Darslarni interfaol metodlarda tashkil etishning afzalliklari.

➤ o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi.
➤ o‘z vaqtida o‘quvchi – o‘qituvchi – o‘quvchilar orasida ta’limiy aloqalar o‘rnatiladi.

O‘qitish usullari ta’lim jarayonida turli xil ko‘rinishlarda kechadi (yakka, juft, guruh, katta guruh). O‘quv jarayoni o‘qish extiyojini qondirish bilan yuqori motivatsiyaga ega bo‘ladi. O‘zaro axborot berish, olish, qayta ishlash orqali o‘quv materiali yaxshi esda qoladi. O‘quv jarayonida o‘quvchining o‘zi o‘ziga baho berishi, tanqidiy qarashi rivojlanadi. O‘quvchi uchun dars qiziqarli o‘qitilayotgan predmet mazmuniga aylanadi. O‘qish jarayoniga ijodiy yondashuv, ijobiy fikr namoyon bo‘ladi. Har bir o‘quvchining o‘zi mustaqil fikr yurita olishiga, izlanishga, mushohada qilishga olib keladi. Interfaol usulda o‘tilgan darslarda o‘quvchi faqat ta’lim mazmunini o‘zlashtiribgina qolmay, balki o‘zining tanqidiy va mantiqiy fikrlarini ham rivojlantiradi. Interfaol metodlarda darsni tashkil etishda o‘quvchi shaxsini rivojlantirish o‘zi – o‘ziga zamin yaratishdan boshlanishi kerak. Ya’ni o‘quvchining:

✓ o‘zi mustaqil mutoala qilishi, o‘qishi asosida bilim olishi;
✓ o‘zini – o‘zi anglab etishga, anglab tarbiya topishga;
✓ o‘z kuchi va imkoniyatlariga ishonch bilan qarashga;
✓ o‘quv mehnatiga mas’uliyat xissi bilan qarashga;
✓ o‘z faoliyatini mustaqil tashkil eta olishi, har bir daqiqani g‘animat bilishga;
✓ o‘quv mehnatiga o‘zida hoxish, istak uyg‘ota olishga;
✓ har qanday vaziyatda faollik ko‘rsata olishga;
✓ ayniqsa, hozirgi tezkor axborot manbalaridan unumli foydalana olishni asosiy va bosh maqsad qilib olishga o‘rganmog‘i zarur.

Noan’anaviy o‘qitish usullaridan foydalanishdan maqsad nima uning afzalliklari darsning samaradorligini oshirish tamoyillari nimadan iborat degan savolga quyidagicha xosilalar asosida javob berish mumkin.

1. Noan’anaviy o‘qitish eng sodda qulay usul.
2. Mustaqil fikrlashni o‘rgatadi.
3. Ko‘p tarmoqli.
4. Sodda va oson.
5. Bilim boyligini oshiradi.

6. Vaqtdan yutadi.
7. Qiziqarli o'tadi.
8. Darsning samaradorligini oshiradi.
9. Dunyoqarashni kengaytiradi.
10. Tafakkurni rivojlantiradi.
11. O'quvchilarining diqqat e'tiborini tortadi.
12. Har bir o'quvchi bilan individual munosabatda bo'ladi.
13. Xotirani kuchaytiradi.
14. Izlanishga chorlaydi.
15. O'quvchilarni o'z ustida ishlashga chorlaydi.

O'qitishdan ko'zlanadigan maqsad bu davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim va ko'nikmalarini o'quvchiga etkazishdan iborat. Qachonki o'quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib etilsa yoki o'quvchi malaka oshirish uchun mo'ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina o'qitish muvaffaqiyatli kechdi deb hisoblasa bo'ladi.

3-§. Innovatsion ta'lim muhitida tarbiya darslarini tashkil etishda mediata'limni yo'lga qo'yish.

Boshlang'ich ta'lim darslarini o'qitishning interfaol usullari asosida tashkil etish-ular da tashkil etiladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, shuningdek, boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga bilim berish va ularni tarbiyalashda samaradorlikga erishishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo'lib, bunda bir qator pedagogik vazifalar hal etilishi lozim. Ular quyidagilardan iboratdir:

- boshlang'ich ta'lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasida muayyan shart-sharoitlarni yaratish;
- boshlang'ich ta'lim darslari pedagog xodimlari o'rtasida interfaol metodlar mohiyatini ochib berishga qaratilgan maxsus o'quv seminarlarini tashkil etish;
- ular tomonidan pedagogik texnologiya asoslarini puxta o'zlashtirilishiga erishish;
- boshlang'ich ta'lim darslari pedagoglarida ta'lim-tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuv hissini tarbiyalash;
- boshlang'ich ta'lim darslarining o'qituvchilarida texnologik yondashuv asosida tashkil etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish;
- boshlang'ich ta'lim darslari o'qituvchilari tomonidan ta'lim-tarbiyaviy ishlarni interfaol metodlar asosida tashkil etilishiga erishish;
- boshlang'ich ta'lim darslari o'qituvchilarining texnologik asosda pedagogik faoliyatni tashkil etish borasidagi mahoratlarini oshirish;
- boshlang'ich ta'lim darslarining samaradorligini ta'minlash.

Boshlang'ich ta'lim darslari o'qituvchilarida pedagogik faoliyatni interfaol metodlar asosida tashkil etish malakasini shakllantirishga quyidagi tamoyillarga amal qilish asosida erishiladi:

1. Boshlang'ich ta'lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasidagi yagona maqsadning qaror topganligi.

2. Boshlang'ich ta'lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish borasidagi harakatning izchil, maqsadga muvofiq, tizimli va uzluksiz amalga oshirilishi.

3. Boshlang'ich ta'lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etishda mavjud shart-sharoit hamda sub'ektiv yondashuvlarni inobatga olish.

4. Pedagogik mahorat va iqtidorlarni erkin namoyish etish.

5. Yangi tajribalarni ommalashtirish.

6. Nazariy va amaliy faoliyat birligi.

7. Boshlang'ich ta'lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etishda xorijiy mamlakatlarning donor tashkilotlari bilan hamkorlik va hokazolar.

Boshlang'ich ta'lim darslarini interfaol metodlar asosida tashkil etish quyidagi omillar asosida amalga oshiriladi:

1. Obektiv omillar:

– boshlang'ich ta'lim darslarida moddiy-texnik bazaning yaratilganligi;

– Ta'lim-tarbiya jarayonining zarur texnik hamda axborotli vositalar bilan ta'minlanganligi;

– boshlang'ich ta'lim darslarida pedagogik monitoring (ma'lumotlar banki)ning tashkil etilganligi, uning maxsus adabiyotlar bilan boyitilganligi.

2. Subektiv omillar:

– boshlang'ich ta'lim limi darslarining o'qituvchilarida PT mohiyatini o'rganishga nisbatan ichki ehtiyoj va qiziqishning yuzaga kelganligi.

– ularda o'z faoliyatlarida PT lardan foydalanishga nisbatan rag'batning qaror topganligi;

– kasb-hunar kolleji rahbariyati va jamoasining o'quv yurti faoliyatini interfaol metodlar asosida tashkil etish yo'lidagi birligi va yakdilligining shakllanganligi;

– boshlang'ich ta'lim darslari o'qituvchilarining PT mohiyatidan xabardorliklari;

– ularda o'z faoliyatlarini texnologik yondashuv asosida tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarning tarkib topganligi;

– boshlang'ich ta'lim darslari o'qituvchilarining o'z pedagogik faoliyatlarida PTni qo'llay olish mahoratiga egaliklari;

– ularda ijodkorlik, izlanuvchanlik, boshlang'ich ta'lim o'quvchilari orasida ko'tarinki kayfiyatni yarata olish sifatlarining mavjudligi;

- PT asosida pedagogik faoliyatni tashkil etayotgan o'qituvchilarni rag'batlantirib borish va hokazolar.

Boshlang'ich ta'lim darslari o'qituvchilarining pedagogik faoliyatni interfaol metodlar asosida tashkil etish borasidagi mahoratlari darajasi quyidagi ko'rsatgichlarga muvofiq belgilanadi:

- boshlang'ich ta'lim darslari o'qituvchilarida boshlang'ich ta'lim o'quvchilari bilan muloqotni muvaffaqiyatli tashkil etish, pedagogik faoliyatga nisbatan ijodiy yondoshuv, pedagogik vaziyatlarni baholay olish va ularga muvofiq xatti-harakatni tashkil etish malakalari shakllanganligi;

- pedagogik faoliyat mazmuni, ko'lami, sur'ati hamda samaradorligining yuqori darajasi.

Tadqiqot muammosini nazariy-amaliy asoslarini o'rganish natijasida shu holat aniqlandiki, pedagogik texnologiyalar mohiyatini boshlang'ich ta'lim darslari pedagoglari o'rtasida targ'ib qilish jarayonida ijtimoiy-gumanitar fanlarga nisbatan tabiiy fanlar o'qituvchilari mazkur pedagogik texnologiyalarning nazariy-amaliy asoslarini tez va puxta o'zlashtirishga muvaffaq bo'lganlar. Buning boisi, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining bilim, ko'nikma va malakalari, shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan metodlarning statistik xususiyatga egaligidadir.

Hozirgi sharoitda innovatsion faollik oliy ta'limning ham mazmun hamda tashkiliy tuzilmaviy jihatdan qayta ishlab chiqish bilan bevosita bog'liq. Bu jarayonlarning asosi bo'lib oxirgi uch, o'n yillikda pedagogik ta'lim nazariyasini tezkor ishlab chiqilishi bo'ldi (A.A.Abdulina, Ye.V.Bondarevskaya, V.I.Zagvyazinskiy, V.S.Ilin, N.M.Kan-Kalik, V.A.Slastenin va b.q). Pedagogik ta'lim rivojlanishining zamonaviy innovatsion yo'nalishlarini ichida xususiy innovatsion nazariyani shaxsiy (xususiy) yo'nalishli ta'lim sohasidagi ishlanmalarni, ta'limni tashkiliy-tuzilmaviy modelini, ta'limni ko'p darajali tizimini rivojlantirishni ajratib ko'rsatish mumkin.

Hayotiy kelajakni amalga oshirish uchun inson ongli tarzda qayta o'z-o'zini faoliyatini yo'lga qo'yadi va buning uchun ta'lim jarayoni imkoniyatlaridan foydalanadi. Ayniqsa, bu jarayon talaba yoshi davri, yoshlik davri ayni ushbu jarayonni yo'lga qo'yish uchun muhim bosqich davri hisoblanadi. Ushbu konsepsiyaning keyingi g'oyasi pedagogik sub'ektivlikni rivojlanishi bilan bog'liq: talaba "o'rganuvchi", "o'quvchi", "o'qitadigan" pozitsiya orqali o'tadi. Agar oliy o'quv yurti "o'qish joyi va vaqti emas, balki yigit va qizlarni katta bo'lish maydoni" (D.B.Elkonin) deb qaralsa, u holda ushbu oliy o'quv yurtidagi pedagogik jarayon uni amalga oshirish orqali ta'lim olayotgan talabaning o'z-o'zini rivojlantirishini faollashtiruvchi, hech bir narsa bilan qiyoslab bo'lmaydigan pedagogik jarayonni ijodiy-o'zini qayta qurish sub'ekti ham talaba, ham pedagog uchun imkoniyatlar hisoblanadi.

O'qituvchi faoliyati ham o'zgaradi: "usta" ishlari orqali bilimlarini pedagogik texnologiya asosida yetkazishdan, talabalarda pedagogik qobiliyatni shakllantirish maqsadida birgalikdagi faoliyatni tashkil etuvchi "maslahatchi" pozitsiyada talabalar bilan birgalikda uning kelajak kasbiy faoliyatini loyihalovchiga aylanadi. Shunga ko'ra integrativ ta'lim texnologiyalarini yo'lga qo'yish dolzarb bo'lib qoladi. Ushbu masalada ta'limni loyihalash bilan shug'ullanuvchi muammolar instituti bugungi kundagi dolzarb masalada yetakchilik qilmog'i zarur. Bundan tashqari oliy ta'limda har bir fanlarni o'qitish sohasida pedagogika va psixologiya fanlari bloki tezkor texnologik izlanishlarni amalga oshirish bilan shug'ullanishlari kerak.

Pedagogik ta'lim amalga oshirishining tashkiliy-tuzilmaviy modeli haqida alohida to'xtalish kerakligi e'tiborga loyiq. Bular: kichik darajadagi, ko'p bosqichli va ko'p darajadagi modellarga qaratilishidan iborat. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan har bir model mustaqil yaxlit ta'lim sifatida qaralib, ular o'zlarining jilg'alariga ega bo'lib, aniq ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy xolatlar bilan bevosita bog'liq.

Kichik darajadagi tizim – bu oliy ta'limdagi an'anaviy tizim hisoblanib, u qat'iy hisoblanib, bunda tor mutaxassislar tayyorlanib, ta'lim jarayonida o'qitish variantlarini tanlash imkoniyati mavjud emas. Qabul qilingan 1998yildagi DTS da variativ qismi kiritilgan bo'lsada, lekin bu tizim ham baribir shaxs tanlash imkoniyatlarini chagaralaydi. Ko'p bosqichli tizimda o'rta maxsus ta'lim tizimi asosida oliy ta'lim olish uchun imkoniyatlar mavjud bo'lib, o'zaro bog'lovchi o'quv rejasi ishlab chiqilgan. Ushbu tizim ixcham hisoblanib, bitiruvchilarni uchinchi kursga qabul qilish bilan bog'liq ko'plab muammolar kelib chiqadi: qaysi mablag' asosida o'qitish, birinchi o'rinda pedagogika bilim yurti va pedagogika kollejlari talabalarni egallagan bilimlari sifati masalasi turlicha gumon uyg'otadi. 1997 yilda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi Qonunga muvofiq oliy ta'limning ko'p bosqichli tizimi yo'lga qo'yildi. Oliy ta'limning ko'p bosqichli tizimini ishlab chiqish va joriy etishni kuchli innovatsion jarayon sifatida belgilash mumkin. Ushbu masalada G'arbiy Yevropa mamlakatlari tajribasi har tomonlama tahlil etilib, baho berildi va O'zbekiston Respublikasi sharoitida o'zimizning mentalitetimizdan kelib chiqib, oliy ta'limning o'ziga xos ko'p bosqichli tizimi yaratildi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, fakultetlarda oliy ta'limdagi ko'p bosqichli tizim (OTKT) asosida ishlash va an'anaviy tizim bilan ishlash qiyosiy taqqoslab ko'rilganda, talabalar (OTKT) yangicha ta'lim tizimida ongli, ijodiy ishlashga ko'proq e'tibor qaratgani, talabalarda ta'lim motivatsiyasi darajasi yuqori ekanligi ko'zga tashlanadi. Oliy ta'limni fakultetlari va kafedralarida tuzilmaviy-funksional va mazmunli-texnologik qayta qurish amalga oshiriladi. Umuman olganda oliy ta'limda individual-ijodiy va jamoaviy-ijodiy faoliyat sohasida bugungi kunga kelib sezilarli tajribalar to'plandi, o'quv pedagogik jarayoni ishtirokchilari o'rtasida sub'ekt-sub'ekt munosabatlari rivojlanishida o'zgarishlar sodir bo'layotganini

kuzatish mumkin. Ushbu tizim orqali talabalarni mustaqil ishlashga ishtiyoqi ortib, reyting tizimida ularning faol ishtiroki ta'minlansa, ikkinchi tomondan pedagoglar tomonidan talabalar faoliyatini boshqarishda metodik madaniyat darajasi o'sib borishi kuzatiladi.

O'qitish jarayonida innovatsion uslublarni ishlab chiqish va joriy etishning tashkiliy jihatlari Ma'lumki, didaktikaning predmetini o'rgatish, o'rganish ta'lim mazmunini tashkil qiladi. Bunda ishtirok etayotgan uchta komponent bir-birlari bilan shunday uzviy aloqadagi, ulardan birini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas. Xo'sh, nimani nimadan boshlash kerak? Ishni o'rganish yoki o'rgatishdan boshlasak, tabiiy ravishda savol tug'iladi: nimani (qanday mazmundagi o'quv materialini) o'rganmoqchisiz yoki o'rgatmoqchisiz? O'rgatish ham, o'rganish ham asosiy maqsadga yo'naltirilgan ta'lim ob'ekti va oxirgi natija mahsuli bo'lmish ta'lim mazmuniga bog'liq. Har xil mazmun uni o'zlashtirishning o'ziga xos usullari bilan farq qilganligi uchun o'rganishning qanday bo'lishi uning mazmuniga bog'liq, bu esa o'rganishni tashkil etuvchi o'rgatuvchiga bog'liq. Shunday qilib, didaktik tafakkur - bu o'rganish, o'rgatish va ta'lim mazmunining doimiy aloqalari, munosabatlarini izlash, aniqlash demakdir.

O'qituvchi o'quvchini faollashtiradigan, o'zi va o'rganuvchi uchun qulay bo'lgan yo'llarni, usul va uslublarni, o'qitish shakllari, metod va vositalarni izlaydi, ularni takomillashtiradi. Shu boisdan ham "pedagogik texnologiya", "didaktik texnologiya", "ta'lim texnologiyasi" atamaları qatoridan "pedagogik innovatsiyalar" atamasi ham mustahkam o'rin olmoqda. Yuqorida sanab o'tilgan tarzda o'rgatish, o'rganishda ta'lim mazmuni asosiy o'rin tutadi. Shuning uchun ham, o'z oldimizga Davlat ta'lim standartlarini yaratish birinchi galdagi vazifa qilib qo'yildi. Bu vazifaning uddasidan chiqdikonsepsiya Davlat ta'lim standartlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanib, har bir ta'lim muassasalariga, har bir o'quvchiga yetkazildi. Endigi vazifa shu standartlarni tezroq hayotga tatbiq etish mexanizmini yaratishdan iborat. Biroq, e'tirof qilish kerakki, hali Respublikamizda yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'lim innovatsiyalarini to'plash, ular ichidan faoliyatimizda eng ko'p samara beradiganlarini tanlash, tajriba-sinovdan o'tkazish va qo'llash- joriy etishni yo'lga qo'yadigan tizim (mexanizm) shakllantirilmagan edi.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "talablari asosida ishlab chiqilgan umumiy ta'lim fanlari bo'yicha Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich amalga oshirishga kirishilgandan keyin bu sohadagi ishlarni aniq bir tizimga solish, qo'llab-quvvatlash, yangiliklarni joriy etishga yetarli shart-sharoitlar yaratadigan tuzilmalarga bo'lgan ehtiyoj yaqqol ko'zga tashlandi. Chunki, Davlat ta'lim standartlari o'quvchilar bilimiga qo'yiladigan majburiy minimal daraja bo'lib, davr o'quvchilarga ta'lim standartlari darajasi talablaridan oshirib bilim, iqtidor va ko'nikmalar berishni taqozo etadi. Bu masalani ijobiy hal qilish ilg'or tajribalar, yangi pedagogik texnologiyalarni

izlash, ularning didaktik imkoniyatlarini sinab ko'rgan holda amaliyotga tatbiq etishga bo'lgan hayotiy ehtiyojni oshirib yubordi. Bundan kelib chiqadigan amaliy hulosalar - ilg'or ta'limiy yangiliklarni aniqlash, ularning jamg'armalarini tashkil etish, sinab ko'rish, pedagogik amaliyotga joriy qilishning, ilmiy xulosalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish tizimini yaratish masalasining dolzarbligini oshirdi. Hozirgi kunda bu tizimni yaratish yo'lida bir qator izlanishlar, sa'y-harakatlar boshlab yuborilgan. Jumladan, vazirlik, viloyat xalq ta'limi boshqarmalari tarkibida Davlat ta'lim standartlari boshqarmalari va bo'limlari (monitoringi) tashkil etilgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Davlat ta'lim standartlari- bu o'quvchilar bilim saviyasining minimal darajasini belgilaydi, bu darajadan yuqori ko'rsatkichlarga erishish uchun ma'lum izlanish hamda tashabbus lozim, pedagogik innovatsiyalarni yaratish, shuningdek, ularni boshqarish avvalam bor, ana shu dorlzarb vazifalarni hal qilishga xizmat qiladi. Shu boisdan ham pedagogik innovatsiyalarni izlab topish. o'rganish, tahlillar ostida eng ko'p samara beradiganlarini tanlab olish va ularni amaliyotda qo'llash tartibini belgilab beradigan tizimni yaratish maqsadga muvofiqdir. Fikrimizcha, buning uchun, innovatsiyalar haqida aniq ma'lumotlar jamg'armasini yaratish zarur bo'lib, buni shartli ravishda innovatsiyalarni "to'plash" jarayoni deb qabul qilamiz.

Innovatsion yangiliklarni to'plovchilar jadvalga ko'ra vazirlik tizimida yangi tashkil qilingan markazlar, jumladan, xalq ta'limi xodimlari malakasini oshirish instituti barcha talim muassasalari rahbarlari malakasini oshirish bo'yicha doimiy ishlovchi Respublika doimiy kursi qoshidagi monitoring markazi va respublika ta'lim markazi asosiy bo'g'in hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalarni qo'llash bilan uni to'plab, ilmiy jihatdan xulosalar tayyorlovchi bo'g'in o'rtasidagi "Pedagogik matbuot" asosan nashr ishlari, ommalashtirish, keng pedagogik jamoalar, ilmiy-pedagogik xodimlarga ularni yetkazish, ularning taklif va mulohazalarini olish, tajriba-sinov xulosalari asosida innovatsiyalarni yanada takomillashtirish ishlari bilan shug'ullanadi. O'ylaymizki, ta'lim texnologiyasi va pedagogik innovatsiyalarga bunday tizimli yondashuv Davlat ta'lim standartlarini amalga oshirishda o'z samarasini ko'rsatadi. O'qituvchining pedagogik faoliyatini olib borishga halaqit beradigan psixologik to'siqlarni umumlashtirib yangilik kiritishlarga o'qituvchilarning ko'proq qarshilik bildirishini keltiradigan sabablarni ta'kidlab o'tish zarur:

1. O'zgarishning maqsadi o'qituvchilarga tushuntirilmagan yashirin, gapning ikki ma'nosi xavotir va noma'lumlikni keltiradi. Noma'lumdan qo'rquv har qaysi yangi usulga o'qituvchilarni yo'llashi mumkin.

2. O'qituvchilar yangilikni kiritishda rejalashtirish va ishlab chiqarishda qatnashmaganlar.

3. Jamoa an'analarini e'tiborga olmaslik va o'z ishining odatiy usuliga rioya qilish.

4. Yangi usullarga sub'ektiv munosabat va qo'rquv, statusni yo'qotish xislari.

5. Ish xajmining ko'payishi rahbar o'qituvchilar faoliyatida o'zgarishlarni rejalashtirmasligi oqibatida qo'rqish paydo bo'ladi.

Yangilik kirituvchi tashabbuskor odam hurmat va ishonchga ega bo'lmasa. Afsus, ko'pincha o'qituvchilar loyihaga emas, uning muallifiga qaraydi. Agar bu insonning hurmati past bo'lsa, pedagog uning qadrligiga qaramay, bu odamga ishonchsizligi uning g'oyasiga o'tkaziladi. O'qituvchi ijodkorligini shaxsiyatning axloqiy munosabatiga qarab mulohaza qilish mumkin. Agar ijodiy faollik asossiz va mavjud qadriyatlarga e'tiborini qaratmasa, demak bu faollik juda xavfli. Yosh o'qituvchining bilim berishi va kasbiy faoliyatida ijodiy rivojlanishi uchun ko'p variantli yechimlarga olib boruvchi mashqlarni topmaganlar. O'quvchilarga ularning ijodiy faoliyatidagi ma'nosini umumiy yo'nalishlarini anglashga yordam berish, o'z imkoniyatlarning rivojlanishini bilish. Bunday tushunchasiz ijodiy faoliyatni kuchaytiradigan mashqlar o'yin sifatida o'zlashtiriladi. Yuqorida sanab o'tilgan maslahatlar erkin muloqotda, fikr-almashuvda, ijodiy bahslashuvda eksperimental ish jarayonida bo'lib o'tishi mumkin.

Misol uchun qobiliyatlar rivojlanishining natijasini ko'rib chiqamiz: "Shuni ko'rib o'tish kerakki, hozir nimalarni mulohaza qilsa, uni hammasini tushunarmikan..? Nimaga u o'z qarashiga meni ishontirmoqchi?". Menimcha: "ma'lumotlarim yetarli emas: yetmagan to'lato'kislarni bilib olsam, yaxshi bo'ladi. U nohaq deb aytyapmanmi yoki ochiqchasiga o'z munosabatimni bildiryapmanmi? Bu holda men ishonchliroq tarzda o'z fikrimni o'zgartirishim kerak". O'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish metodlarini va mazmunini didaktik izlash bilim va usullarni shakllantirishga olib keldi. Shunday tadqiqiy mo'ljal o'quv jarayoniga pedagogik yondashuvni o'ziga xos tarzda yo'lga qo'yishni taqozo etadi. Bu esa o'z o'rnida ta'limning maqsadi yosh o'qituvchilarda yangi tajriba, kasbiy – tadqiqiy faoliyatda yangi bilimlar bilan qurollanishni, rolli va o'xshatish kabi modellashlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi. Bolalar tomonidan mazmunan ma'lumotlarni o'zlashtirishi bilan bog'liq bo'lgan aniq shakllarga murojaat qilamiz. Talim modellarining misollar orasida biz muammolarni tizimli yechim asosida ijobiy izlanishning tashkillashtirishni bahslashuv va didaktik o'yinlarini ajratamiz. Sanab o'tilgan modellar orasida biz didaktik va rolli o'quv o'yinlariga alohida e'tibor qaratamiz. Didaktik o'yinlar metodikasining asosiylari ularning tizimida o'rnatilgan 4 bosqichni ajratsa bo'ladi. Orientatsiya – o'rnatiladigan mavzuning tasavvuri, o'xshatilishi va uning qoidalar harakteristikasi, o'yin mulohazalarining bayoni, o'yin o'tkazishda uning sahnalashtirishi, o'yin mazmunining detallarini ishlab chiqarish katta ahamiyatga ega. Sahna – bu o'yinning tashkiliy va syujetli sxemasi, umumiy rejasi ekan.

4-§. Tarbiya darslarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish.

Ta'lim tizimida yangiliklar kiritish mazmuni va yo'nalishlari masalasini o'rganishga kirishishdan oldin "Pedagogik tizim" va "Pedagogik tizimda yangiliklar kiritish" tushunchasini aniqlab olaylikonsepsiya Pedagogik jarayon bilamizki, pedagogik tizim asosida yo'lga qo'yiladi. Pedagogik tizim - bu tashkil etuvchilarning birlashtirilgan majmui bo'lib, ular o'zgarishlarda ham barqarorligicha qolaveradi. Agarda o'zgarishlar (yangilik kiritish) qandaydir mumkin bo'lgan chegaradan oshib ketsa, tizim buziladi, uning o'rniga yangi boshqa hususiyatli tizim yuzaga keladi. Pedagogik tizim - elementlarning juda mustahkam birlashuvidir.

Har qanday pedagogik tizimning tuzilishi hozirgi davrda quyidagi elementlar yig'indisidan iborat bo'lib, ular o'zaro bog'liq holda quyidagi ko'rinishga ega: o'quvchi; tarbiyaning maqsadi; tarbiya mazmuni; tarbiya jarayoni; o'qituvchilar (yoki TTV - ta'limning texnik vositalari); tarbiyaviy ishlarning tashkiliy shakllaridan iborat bo'ladi. Bu tizimning tarkibiy qismlaridan har biri har qanday darajada elementlarga bo'lib, yoyib ko'rsatilishi mumkin. Ko'rilgan tizimni mukammal tarkibiy tuzilish emas deb hisoblashga asoslarimiz bor. Ko'rsatib o'tilganlarga qo'shila olmaydiganlar pedagogik tizimning muhim tarkibiy qismlari, shuningdek, "natijalar", "o'quv tarbiyaviy jarayonni boshqarish", "texnologiya"lardan iborat, deb ham hisoblashlari mumkin. Ular berilgan chizmadagi pedagogik tizim modelida ko'zga tashlanadi. Maqsadlar natijalar bilan mos kelib, uzluksiz jarayon tashkil etadi. Maqsadlarning natija bilan to'la mos kelishi pedagogik jarayonning ishonchi, o'lchov ko'rsatkichi bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik tizim boshqaruv, birlashtiruvchi hamma tarkibiy qismlari nisbatan mustaqil qism hisoblanadi, chunki ular o'z maqsad va tuzilishlariga egadir. Pedagogik tizimning tashkil etuvchi tarkibiy qismi sifatida alohida omillar birligi deb ta'kidlagan holda ularni ko'pincha, o'quv-tarbiya jarayonining texnologiyasi deb ko'rsatadilar. Bunday yondashishda pedagogik tizim ko'zlangan maqsadga erishishni ta'minlaydigan mustahkam tashkiliy texnologik kompleks bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, pedagogik tizim har doim ham texnologiyadir. Ana shu belgisi bo'yicha pedagogik tizimning tarkibiy qismlar ixtiyoriy "to'plamidan" ajratib olish osondir. Texnologiya - bu qat'iy tashkiliy mantiqqa bo'ysunuvchi imkoniyatlarini belgilovchi tizimning ichki sifatidir. Shu bilan birga topshiriqni baholash darajasining o'zidayoq, texnolog ma'lum jarayonlar hamda hodisalarga tayanadi. Ma'lum jarayonlar muvaffaqiyat ifodasining dalili sifatida foydalaniladi, ajoyib xodisalar natijalari esa yangi sabab va formula manbalari sifatida amalga oshiriladi.

O'quv texnologiyalarni loyihalashtirish metodik "tajribalarni umumlashtirishdan" farqli "mumkin emas" xulosasini bermaydi. Texnolog uchun bu faqatgina vaqt va harajatlar masalasidir. Texnolog faqatgina yaxshi ma'lum, tekshirib ko'rilgan, asoslangan, shubha qilinmaydigan fikrlarga asoslanadi. Texnolog tajribalar

o'tkazmay, aniq ko'zlangan natijalar bilan ish olib boradi. Texnologiya variantlikka yo'l qo'ymaydi uning asosiy vazifasi -aniq kafolatlangan natija olishdir, u har doim ham asosiy yechimida oddiydir. Asosiy yechimni tushunish qolgan hammasini, o'zaro zarur elementlar tizimi, tartibining mazmunini ochib beradi. Texnologiyadan hech bir qismini olib tashlab bo'lmaydi, u yerda ortiqchasi bo'lmaydi, bo'lishi mumkin ham emas. Bu juda murakkab holat, har ikkinchi o'qituvchi izlash - tadqiqotchilik tartibida ish olib boradi va shu bilan bolaning maktabdagi hayoti natijasining noaniqligini kuchaytiradi. Har doim, ayniqsa "aniq" fanlar deb nomlanuvchi yo'nalish vakillari orasida pedagoglarni harakterlari uchun koyib turuvchilar topiladi va ular har galgidek pedagogika tizimi modellarini reviziya qilish va moderizatsiyalashdan boshlaydilar. Endi quyida pedagogika tizimida sodir bo'ladigan jarayonlarni ba'zi prinsipial harakteristikalarida to'xtalib o'tamiz.

Pedagogik tizimining har bir aniq modifikatsiyasi ko'zlangan natijaga erishishi aniq hususiyat va imkoniyatlarga ega degan qoidadan kelib chiqamiz. Bu imkoniyatlar tizimining aniq hususiyatlari bilan qat'iy belgilab qo'yilgan. Bu tarzda biz ta'lim va tarbiyaviy jihatdan ko'zlangan daraja va sifatga erishmoqchi bo'lsak, unda shunga mos pedagogik tizim haqida o'ylashimiz kerak va uning ishlashi pedagogik jarayonning kerakli yo'nalishi va intensivligini ta'minlashi zarur. Buning natijasi, o'quv-tarbiyaviy jarayonning yanada yuqoriroq samaradorligi, har doim pedagogik tizimni takomillashtirish oqibatidir. Bu juda murakkab muammo, ularni ishlab chiqishga dunyoda endi kirishilmoqda. Hozirgi, umumiy ko'rinishga juda ko'p ko'rinishli ko'rsatgich, "harajat" va "natija"larni to'plash mumkin bo'lmoqda va ushbu muammoning foydaliligini aniqlash esa uni iqtisodiy nuqtai nazardan hal qilish imkonini beradi.

Intuitiv va sub'ektiv baholarni juda oson noto'g'ri deyish mumkin va bu yerda vaziyatdan chiqish faqatgina fikrlarni to'plashdan iborat bo'ladi. Har qanday pedagogikaning maksimal umumiy samarasi 100% ko'zlangan maqsadga to'la erishilgan xisoblanib, agar tarbiyachilar uchun ilgari erishilgandan pastroq darajada bo'lmasa mumkin bo'ladi. Yana biron-bir pedagogik tizim tuzilishiga nazar tashlaylik, u "yomon" va "yaxshi" pedagogik tizim uchun ham birdir. Uning uchun o'qituvchi ham birdir. Uni o'qituvchi, o'quvchilar munosabatigacha soddalashtiramiz. Bu munosabatlar ilgari o'rganilgan edi va umumiy xulosa ma'lum: deyarli 50% o'qituvchidan, 50% esa o'quvchiga bog'liq. Bundan kelib chiqadiki, masalan: eng yomon pedagogik tizimning samaradorligi, aytaylik o'qituvchi, umuman hech qanday harakatlarni amalga oshirmagan holda, ammo tizim ishlasa 50% dan kam bo'lmaydi. An'anaviy pedagogik tizimning foydali harakat koeffitsenti 60% dan oshmaydi deb hisoblanadi. Bu esa maktab tarbiyalanuvchilarining faqatgina yarmidan ozgina ko'prog'i dasturni to'la o'zlashtira oladi deganini bildiradi. Yana bir muhim fikr, tizimning umumiy nazariyasidan ma'lumki tizimni baravariga bir necha parametrlar

bo'yicha yaxshilash mumkin emas. To'g'ri yo'l yangilikni asta-sekin, uning foydaliligiga ishonch hosil qilib, har tomonlama tekshirib ko'rib, keyingi ishlarni o'ylab kiritishdan iborat.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki har bir yaratilgan yangilik oldiniga albatta ilgarisidan ham yomon ishlaydi. Chunki bu jarayonni o'rganish, moslashish, sustkashlikni yengish kerak. Pedagogik tizimni takomillashtirishning asosiy yo'llari ikkita: intensiv va ekstensiv. Intensiv rivojlanish pedagogik tizimni ichki imkoniyatlar xisobiga, ekstensiv yo'l esa qo'shimcha kuchlar jalb etish - ya'ni, vositalar, asbob-uskunalar, texnologiyalar xisobiga takomillashtirishni ko'zda tutadi. Pedagogik texnologiyaning, intensiv rivojlanish imkoniyatlari tugagan deb hisoblanadi: maktabning mavjudligi ming yilliklar davomida hamma yo'llarni sinab ko'rib bo'lgan, hozirgi pedagoglar nasibasi qaytarish, tarbiya mazmuni va vazifasini, mantiqiy chuqur esga olish, uning birlamchi asoslariga chuqur tushib borishdan iborat. Yana bir bor qaytarib aytamiz, agarda maktab hali o'lmagan bo'lsa agarda u yashayotgan, rivojlanayotgan va bolalarni o'qitayotgan bo'lsa, bu faqatgina o'zining konservativ tabiati hisobigadir.

Ba'zi nazariyotchilar aytadilarki, juda yaqin vaqt ichida pedagogikada innovatsiya bir ma'noni - orqaga, o'tmishga, o'ylab va oqilona tarbiyalash, ma'naviy tarbiyalovchi, yangiliklarsiz va tirishishlarsiz tinch tizimga qaytishnigina bildiradi degan fikrni aytmoqdalar. G'arb maktablari ekstensiv yo'l bilan pedagogik mahsulotni yangi informatsion texnologiyalar, vaqtni turli xil o'quv faoliyatlariga taqsimlash, sinfdagi differentsatsiya va individuallashtirish hisobiga oshirish bilan rivojlanib bormoqda. Shu bilan pedagogik mahsulot sifati yaxshilanmoqdaki, bu savol aniqligicha qolmoqda: ko'pchilik mustaqil ekspertlar bunga ishonchsizlik bildirmoqdalar. Bu holatdan chiqish yo'li "O'zaro bog'liqlikdagi innovatsiya (yangiliklar)" deb ataluvchi, intensiv va ekstensiv yo'llarni birlashtirishga imkon beruvchi pedagogik tizim rivojlanishi hisoblanadi. Bu pedagogikaning foydalanish imkoniyatlarini chuqur tekshirishni talab qiladi, bu esa ular turli ko'rinishdagi turli xarakterli va turli darajadagi pedagogik tizim tashkil etuvchilari uchrashgan nuqtada namoyon bo'ladi. Bo'sh joylarini yangi texnologiyalar bilan mustahkamlab, pedagogik tizimning umumiy samarasini yaxshilashga urinsa bo'ladi. Bunday yondashishda innovatsiya o'ylab topilgai "tashqi" chora bo'lib ko'rilmaydi, balki chuqur mazmunli talab va tizimni bilish, anglab yetilgan qayta tuzish hisoblanadi. Agar shunday nuqtai nazar bilan innovatsion chaqiriqlarga qaralsa ularda deyarli yangi jihatlar yo'qdek tuyuladi. Jumladan, eski muammolarni hal etish uchun yangi "retsept"lar ham yo'q. Umuman olganda innovatsion g'oyalarga insoniyat taraqqiyoti jarayoni haqidagi yangi bilimlarga asoslangan, pedagogik muammolarni hal qilishga ilgari qo'llanilmagan nazariy yondashuvlar, aniq amaliy texnologiyalardan olingan yuqori natijalarni kiritishga majburmiz.

Pedagogika fanida berilgan g'oyalarni ishlanganlik darajasining muvofiqlik jihatlari bo'yicha umumiy va qisman innovatsion loyihalar miqdori, shuningdek, pedagogik amaliyotda ulardan foydalanishning tahliliy umumiy pedagogik innovatsiyalarga kiritish imkonini berdi. Nazorat shakllari: tayanch konspekt bo'yicha yozma ish, mustaqil ishlar, baland ovozda so'rash, magnitafonda, juftlikda o'zaro nazorat, guruhdagi o'zaro nazorat va uy nazorati, o'z-o'zini baholash. O'quvchi tomonidan olingan har bir baho bilimlar uchun maxsus ochilgan ko'zguga qo'yib boriladi. U go'yo o'quvchiga xizmat qiladigan ro'yxat vazifasini bajaradi. Baholar yesa ijobiy shifrlangan tavsifnoma ahamiyatiga yega bo'ladi. Bunday tavsifnomani ye'lon qilish katta tarbiyaviy ahamiyatga yega bo'ladi. Bu tavsifnomaning yeng muhim tomoni shundaki, unda o'quvchi xohlagan vaqtida har qanday bahoni nisbatan yuqori bahoga o'zgartirishi mumkin. Ochiq imkoniyat tamoyilining mohiyati ham shunda. Har bir baho, - deb ta'kidlaydi V.F.Shatalov, avvalambor, o'quvchida ijobiy ye'tiborni qo'zg'atadigan vosita, turtki bo'lib xizmat qilishi lozim. Ikki baho salbiy hislarga sabab bo'ladi hamda o'qituvchi va fan bilan ziddiyatni keltirib chiqaradi. Shatalov bunday konfliktli vaziyatlarni bartaraf qiladi. V.F.Shatalov tomonidan ishlab chiqilgan o'quv faoliyati tizimi maktab o'quvchilarida eksperiment qilingan, lekin uning metodikasi matematika o'qitish doirasidan chiqib, nafaqat tabiiy fanlar, balki gumanitar fanlar: til, tarix kabi fanlarni o'qitishda ham keng tarqaldi. G.Selevko pedagogik texnologiyani rejalashtiriladigan natijalar bilan birga boshqariladigan tizim deb ta'riflaydi.

5-§. Tarbiyaviy texnologiya turlari.

Texnologik jarayon tuzilmasini axborotlarning uch asosiy harakat yo'nalishi bilan tavsiya etiladi. Bu tuzilmada G.Selevko uch shahobchani belgilaydi:

1. Asosiy shahobcha - mazmunning harakati bo'lib, u axborotning manba (o'qituvchi)dan qabul qiluvchi (talaba)ga uzatish (o'quvchilar ye'tiboriga uzatish, o'quv-bilish faoliyatiga rahbarlik qilish, o'quvchilar tomonidan bilimlarni idrok yetish, o'zlashtirish va mustahkamlash). Unda axborotlarni qo'shimcha boshqarish manbalari - kitoblar, texnik vositalar, kompyuterlar va o'quvchi tomonidan ularni mustaqil idrok etish (o'z-o'zini boshqarish jarayoni) muhim holat hisoblanadi.

2. Boshqarishga ta'sir o'tkazish shahobchasi. U o'z ichiga rejalashtirishni (strategik va taktik), ta'limiy axborotlarning asosiy psixologik harakati korreksiyasini qamrab oladi.

3. Jarayonlar haqidagi (qayta bog'lanish, nazorat, baholash, qo'shimcha axborotlar shahobchasi) axborotlar o'qituvchidan o'quvchiga uzatilish shahobchasi.

O'quv jarayonining samaradorligi:

- ✓ o'quv axborotlari mazmunining yeng maqbul tuzilmasi;
- ✓ boshqarish samaradorligi va bilish faoliyatini tashkil etish;
- ✓ axborotlarni o'zlashtirishda individual o'z-o'zini boshqarish imkoniyatlaridan foydalanish;

✓ axborotlarni o'zlashtirishning samarali nazoratini tashkil etishga bog'liq. Tayanch sxemalar izohidan foydalangan holda istiqbolli o'qitishni boshqarish S.N.Lisenkova texnologiyasi. Bu texnologiya asosida quyidagilar yotadi:

- ✓ hamkorlik pedagogikasiga bo'lgan shaxsiy yondashuv;
- ✓ o'zlashtirish (muvaffaqiyat) - o'qitish jarayonida bolalar rivojlanishining eng muhim sharti;
- ✓ sinfdagi fayz: xayrixohlik, o'zaro yordam;
- ✓ xatolaridan ogoh qilish, lekin xatolar ustida ishlash emas;
- ✓ o'quv materialining ketma-ketligi, izchilligi;
- ✓ vazifaning har bir o'quvchiga qulayligi va ularga alohida-alohida bo'lib berilishi;
- ✓ asta-sekin to'liq mustaqillikka o'tish;
- ✓ bilag'on o'quvchi vositasida bilmaydigan o'quvchilarni o'qitish.

S.N.Lisenkova metodikasining xususiyati shundaki, qiyin mavzular dasturda belgilangan soatlarda emas, balki undan oldin o'rganila boshlanadi. Bu istiqbolli tayyorgarlikdir. Istiqbolli tayyorgarlik o'rganilishi yaqinlashib kelayotgan qiyin mavzularni yo'l-yo'lakay o'tishning boshlanishidir. Umumlashtirish bu muayyan bilimlar asosidagi mavzuni umumlashtirishdir. S.N.Lisenkova metodikasi asosida materialni o'zlashtirish uch bosqichda kechadi:

1. Kelgusida o'zlashtirilishi lozim bo'lgan bilimlarni oldindan kichik hajmlarda berib borish;

2. Yangi tushunchalarni aniqlashtirish, ularni umumlashtirish va qo'llash;

3. Fikrlash usullari va o'quv xatti-harakatlarining ravonligini rivojlantirish.

Inge Unt, A.S. Graniskaya, V.D. Shadrikov tadqiqotlarida individual o'qitish o'quv jarayonini tashkil etish shakli, modeli sifatida belgilanadi. Unda:

– pedagog faqat birgina talaba bilan o'zaro munosabatda bo'ladi;

– bir talaba faqat o'qitish vositalari (kitoblar, kompyuter va b.) bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Individual o'qitishda faoliyatning mazmuni, metodlari va surati talabaning xususiyatlariga moslashtiriladi. Shaxsiy yondoshish deganda:

– pedagogikaning tamoyili bo'lib, unga ko'ra pedagog o'quv – tarbiya ishlari jarayonida talabalarning shaxsiy xislatlarini hisobga olgan holda ayrim talabalar bilan individual model bo'yicha o'zaro munosabatda bo'lish hamda individual xususiyatlarga asoslanish;

– o'quv jarayonida talabalarning individual xususiyatini hisobga olish;

– barcha talabalarning rivojlanishigina emas, balki har bir talabaga alohida rivojlanish uchun psixologik-pedagogik tadbirlar yaratish tushuniladi. O'qitishni individuallashtirish:

– o'quv jarayonini tashkil yetish bo'lib, unda o'qitish usullari, suratini tanlash talabaning individual xususiyatlari bilan bog'lanadi;

– individual yondashuvni taʼminlovchi turli oʻquv-metodik, psixologik-pedagogik va tashkiliy-maʼmuriy tadbirlardir.

6-§. Tarbiyaviy texnologiya turlari mazmuni.

Zamonaviy texnik vositalar yordamida 100-150 kishidan iborat katta guruhlarda yuksak malakali oʻqituvchilar, professorlar leksiya oʻqiydilar. 10-15 kishidan iborat kichik guruhlar esa leksiya materiallarini muhokama qiladilar, bahs yuritadilar. Individual ishlar esa maktab kabinetlarida, laboratoriyalarida oʻtkaziladi. Leksiya mashgʻulotlariga 40%, kichik guruhlardagi mashgʻulotlarga 20%, kabinet va laboratoriyalardagi individual ishlarga yesa 40% ajratiladi. Odatdagi sinf tushunchasi yoʻq, kichik guruhlar ham doimiy emas. Dasturlashtirilgan oʻqitish XX asrning 50-yillari boshida paydo boʻldi. U amerikalik psixolog B.Skinner¹¹ nomi bilan bogʻliq. U materiallarning oʻzlashtirilishini boshqarishning samaradorligini oshirishda, axborotlarni qismma-qism uzatishning muntazam programmasi asosiga qurish va uni nazorat qilishni tavsiya etdi. V.P.Bespalko bilish faoliyatini tashkil yetish va boshqarish namunasidagi pedagogik texnologiya tasnifini tavsiya etdi. U oʻqituvchi va taʼlim oluvchi (boshqariluvchi) munosabatlarini quyidagicha belgilaydi:

- ✓ berk- (oʻquvchilarning nazorat qilinmaydigan va tuzatilmaydigan faoliyati);
- ✓ davriy (nazorat, oʻz-ozini nazorat qilish, oʻzaro nazorat);
- ✓ tarqoq – (frontal) yoki yoʻnalganlik (individuallik);
- ✓ goh (ogʻzaki) yoki avtomatlar (oʻquv vositalari) orqali.

Dasturlashtirilgan oʻqitishning beshta asosiy tamoyili farqlanadi:

1. Boshqarish qurilmalarining muayyan bosqichlilik (ierarxiya) tamoyili. Bu programmashtirilgan oʻqitish texnologiyasining ierarxiya tuzilmasida avvalambor pedagog turadi, va bu fanda dastlabki umumiy moʻljallanadi; oʻqitishning murakkab nostandart vaziyatlarida individual yordam va korreksiya oʻrin oladi.

2. Qayta aloqa tamoyili. U oʻquv faoliyatining har bir tadbiri boʻyicha oʻquv jarayonini boshqarishning davriy tashkil yetish tizimini talab qiladi. Bunda awalo toʻgʻri aloqa oʻrnatiladi - zaruriy harakat obrazi toʻgʻrisidagi axborot boshqaruvchi obektdan boshqariluvchiga uzatiladi. Qayta aloqa, V.P.Bespalko taʼkidlashicha, pedagog uchungina emas, balki taʼlim oluvchiga ham zarur birinchisiga korreksiya uchun, ikkinchisiga esa oʻquv materialini tushunish uchun. Ichki va tashqi qayta aloqa ham mavjud. Ichki qayta aloqa taʼlim oluvchilarning oʻz natijalarini va oʻzining aqliy faoliyati xarakterini mustaqil korreksiya qilish uchun xizmat qiladi. Tashqi qayta aloqa taʼlim oluvchiga bevosita oʻquv jarayonini boshqaruvchi qurilmalar vositasida yoki pedagog tomonidan taʼsir etishda amalga oshiriladi.

3. Oʻquv materialini yoritish va uzatishda amalga oshiriladigan odimlovchi texnologik jarayon tamoyili. Odimlovchi oʻquv tadbiri – bu texnologik usul boʻlib, unda oʻquv materialini programmada axborot boʻlaklari va oʻquv vazifalari (bilim va malakalarni samarali oʻzlashtirishni taʼminlashga xizmat qiladigan va taʼlim

oluvchining bilimlarni o'zlashtirishning muayyan nazariyasini aks ettirgan)ning kengligi bo'yicha alohida, mustaqil, lekin o'zaro bog'langan va optimal bo'lgan qismlardan iboratdir. To'g'ridan-to'g'ri va qayta aloqa uchun zarur bo'lgan axborotlar to'plami, bilish harakatlari va qoidalarining ta'limiy programma odimini hosil qiladi. Bu odim tarkibiga uch o'zaro aloqador kadr (zveno) qo'shiladi: axborot, qayta aloqa tadbiri va nazorat. Odimlovchi o'quv tadbirlari izchilligi programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasi asosini tashkil etuvchi ta'limiy programmani hosil qiladi.

4. O'qitishda individual namuna va boshqarish tamoyili davom ettiriladi. Bu tamoyil ta'lim oluvchining har biriga shunday axborot jarayonini yo'naltiradi va tavsiya etadiki, u ta'lim oluvchiga mashq jarayonida, tezlikda oldinga siljishga imkoniyat beradi, chunki uning bilish kuchi unga muvofiq ravishda boshqaruvchi tomonidan uzatilgan axborotga, moslashishga qulay bo'ladi.

5. Programmalashtirilgan o'quv materialini uzatish uchun maxsus texnik vositalardan foydalanish tamoyili.

Programmalashtirilgan o'qitish texnologiyasini ilmiy asoslash bir qator ta'limiy programmalarni farqlash imkoniyatini beradi:

- rayon programmalar;
- tarmoqlanuvchi programmalar;
- soddalashtirilgan programmalar;
- aralash programmalar;
- algoritmlar;
- blokli o'qitish;
- modulli o'qitish;
- bilimlarni to'la o'zlashtirish;

Ravon programmalar – bu nazorat topshiriqlari va o'quv axborotlarining almashinib turuvchi u qadar katta bo'lmagan bloklari ketma-ketligidir. Ravon programmada ta'lim oluvchi to'g'ri javob berishi shart. Ba'zan yehtimol deb topilgan javoblardan birini shunchaki tanlaydi. To'g'ri topilgan javobda u yangi o'quv axborotiga ega bo'ladi. Agar javob to'g'ri chiqmasa, axborotni qaytadan o'rganishga tavsiya etiladi. Tarmoqlanuvchi programma. Ta'lim oluvchi noto'g'ri javob berganda, unga qo'shimcha o'quv axboroti beriladi va u ta'lim oluvchiga nazorat topshiriqlarini bajarish, to'g'ri javob qaytarish va o'quv axborotlarining yangi bo'laklarini olish imkoniyatini beradi.

Soddalashtirilgan programma. U ta'lim oluvchiga yangi o'quv materialini murakkablik darajasiga qarab tanlab olish, uni o'zlashtirish jarayonida u yoki bu tarzda o'zgartirish, oddiy ma'lumotnoma, lug'at va qo'llanmalardan foydalanish imkoniyatini beradi. Modulli o'qitish. U modullar bo'yicha tuzilgan o'quv programmalarini asosida o'qitishni tashkil yetishdir. Modul kurs mazmunini uch sathda qamrab oladi: to'la,

qisqartirilgan va chuqurlashtirilgan. Programma materiallari bir vaqtning o'zida barcha yehimol ko'rilgan kodlarda: rasm, test, ramzlar va so'z bilan berilishi mumkin. O'qitish moduli o'quv materialining avtonom (mustaqil) qismi bo'lib, quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

- ✓ aniq ifodaga ega bo'lgan o'quv maqsadi (maqsadli programma);
- ✓ axborotlar banki: o'qitish programmasi shaklidagi ayni o'quv materiali;
- ✓ maqsadlarga erishish bo'yicha metodik qo'llanma;
- ✓ zaruriy malakalarni shakllantirish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar;
- ✓ qo'yilgan modul maqsadiga qat'iy muvofiq keluvchi nazorat ishi.

Bilimlarni to'la o'zlashtirish texnologiyasi. O'quv materiallari bir necha bo'laklarga bo'linadi: o'zlashtirilishi tegishli bo'lgan o'quv unsurlari, undan so'ng bo'limlar bo'yicha tekshirish uchun materiallar ishlab chiqiladi, undan so'ng o'qitish, tekshirish – joriy nazorat, korrektirovka va qayta, o'zgartirilgan tarzda ishlab chiqish - o'qitish. Hozirgi davr o'quv jarayoniga pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish bilan xarakterlidir. Pedagogik texnologiyalardan foydalanish ta'lim texnologiyalarining ilmiy asoslarini ishlab chiqish, pedagogik innovatsiyalar, mualliflik maktablari va yangi texnologiyalarni yeksperiment qilish bilan bog'liqdir. Bu tajribalar muayyan tizimni ishlab chiqish va umumlashtirishni talab etadi. "O'qitish tizimining qurama texnologiyasi" saviyasiga va darslarda mavzu bo'yicha davriylikni rivojlantirishga ko'ra sinf ichidagi o'qitishning tabaqalashtirilishi deb qaraladi, Darslar har bir mavzu bo'yicha ketma-ket joylashgan besh tipdan iborat bo'ladi:

- 1) mavzuni umumiy tahlil qiluvchi darslar (ular leksiya deb yuritiladi);
- 2) ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlari jarayonida o'quv materialining chuqurlashtirib ishlab chiqishini ko'zda tutgan, tuzilgan seminar mashg'ulotlari (bunday darslar uchtdan beshtagacha bo'lishi mumkin);
- 3) bilimlarni umumlashtirish va tartibga tushirish (gurahlash) darslari (mavzular bo'yicha sinovlar);
- 4) fanlararo materiallarni umumlashtirish (mavzular bo'yicha vazifalarni himoya qilish);
- 5) dars-praktikumlar.

Keyingi bosqichda o'qituvchi o'quvchilarning saviyalariga ko'ra tabaqalashtirish ishlarini tashkil yetadi. Bu ish yangi materialni berish, uni mustahkamlash va takrorlash, bilim, malaka va ko'nikmalarni nazorat qilish orqali amalga oshiriladi. Bu texnologiyada uchta tabaqalashtirishning turli darajadagi qiyinchiliklari: "A", "V", "S" dasturlari ajralib turadi. Dasturlar quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- ✓ muayyan darajadagi bilim, malaka va ko'nikmalarni egallashni ta'minlaydi;
- ✓ ta'lim oluvchilarning ma'lum darajadagi mustaqilligini ta'minlaydi; "S" dasturi tayanch standart sifatida qayd qilinadi. Uni bajarish orqali ta'lim oluvchilar fan bo'yicha o'quv materialini, uni qayta tiklay olish darajasida o'zlashtiradilar. "S"

dasturi vazifalarini nisbatan qiyin dasturga o'tmasdan oldin har bir o'quvchi bajara olishi lozim.

“V” dasturi mavzuni qo'llash bilan bog'liq masalalarni yechish uchun zarar bo'lgan o'quv va aqliy faoliyatining umumiy va o'ziga xos usullari bilan birga yegallashni ta'minlaydi. Ushbu dasturga kiritiladigan qo'shimcha ma'lumotlar birinchi bosqich materiallarini kengaytiradi, asosiy bilimlarni isbotlaydi, namoyish yetadi va oydinlashtiradi hamda tushunchalarning amal qilish va qo'llanishini ko'rsatib turadi. “A” dasturi o'quvchilarning bilimlarini to'la anglash, ijodiy qo'llash darajasiga ko'taradi. Bu dasturda ijodiy qo'llash istiqboli tobora takomillashib boruvchi ma'lumotlar, chuqurlashtiriladigan materiallar, hamda uning mantiqiy asoslanganligi joylashtirilgan. Materiallarni takrorlashda turli darajadagi vazifalarni yerkin tiklash metodikasi qo'llanadi. Tabaqalashtirilgan vazifalarni nazorat qilishda individuallikka o'tiladi va u chuqurlashtiriladi.



Nazorat savollari:

1. Innovatsion ta'lim muhitida tarbiya darslarini tashkil etishda nimalarga e'tibor berish kerak?
2. Innovatsion ta'lim muhitida tarbiya darslarini tashkil etishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari.
3. Innovatsion ta'lim muhitida tarbiya darslarini tashkil etishda mediata'limni yo'lga qo'yishda nimalarga e'tibor berish kerak?
4. Tarbiya darslarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish haqida nimalar ayta olasiz?
5. Tarbiyaviy texnologiya turlari haqida gapiring.
6. Tarbiyaviy texnologiya turlari mazmuni.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR

1-amaliy mashg‘ulot

O‘zbekiston Respublikasida tarbiya jarayonining hozirgi bosqich muammolari

Amaliy mashg‘ulot jarayonida bajariladigan topshiriqlar:

1-topshiriq. Berilgan tayanch iboralarga uch tilda lug‘at tayyorlang (o‘zbek, rus, ingliz): tarbiya, axloq, ijtimoiy ong, barkamol inson, ilmiy-tadqiqot metodlari, mutafakkir, meros, ijtimoiy jarayon, pedagogik qarashlar, odob.

2-topshiriq. Quyidagi savollarga javob yozing.

- 1) Ta'lim-tarbiya jarayoni deganda nimani tushunasiz?
- 2) Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fanining asosiy maqsadi?
- 3) Hikoyaning qanday xillarini bilasiz?
- 4) Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fanining asosiy vazifasi?
- 5) Axloq nima?
- 6) Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fanining o‘rganish obyekti nima?
- 7) Boshlang‘ich ta’limda tarbiya fanining predmetini ayting?
7. “Intizom deb qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o‘z vaqtida tartibi ila qilmoqni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo‘lmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmas edilar” bu so‘zlar qaysi allomaning fikrlari.
8. Axloqiy tarbiya vazifalaridan biri...
9. Tarbiya mazmuni deganda nimani tushunasiz?
10. Jamoaning shakllanganlik darajasini izohlab bering?
11. Tarbiyalanuvchilarning individual o‘ziga xosliklari ?
12. Tarbiyaviy shart-sharoitlar haqida tushunchangizni izohlab bering?
13. Tarbiya vositalari deb nimaga aytiladi?
14. Pedagogik malakani egallaganlik darajasi.-bu.....
15. Tarbiya vaqti-qachon amalga oshiriladi?
16. Kutiladigan natija deganda nimani tushunasiz?
17. Forobiy o‘zining falsafiy qarashlarida odamning qaysi hususiyatlariga e’tibor qaratadi.


3-topshiriq. Jadvalni to‘ldiring.

Sharq mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlari

№	Mutaffakir	Ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlari
1.	Abu Rayhon Beruniy	
2.	Abu Nasr Forobiy	

3.	Ahmad Yassaviy	
4.	Amir Temur	
5.	A.Navoiy	
6.	Z.M.Bobur	
7.	Ismoil Al-Buxoriy	
8.	Yusuf Xos Hojib	

4-topshiriq. Keys-stadi metodidan foydalangan tarbiya fanining 5 ta vazifasini yozing.



5-topshiriq. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi va turlariga doir topshiriq. Kichik guruh ishtirokchilari Aqliy hujum orqali quyidagi savollarga javob berishadi

1-guruh	
1	O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganidan qat'iy nazar...
2	Davlat ta'lim standartlari...
3	Umumiy o'rta ta'lim bosqichlari quyidagicha...
4	O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: ...
5	O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi: ...

6	Tegishli ma'lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan shaxslar...
7	Ta'lim muassasasini akkreditatsiyalash....
8	Yetim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarning vasiyligisiz qolgan bolalarni o'qitish va ularni boqish...
2-guruh	
1	Davlat ta'lim muassasalarini moliyalash...
2	Nodavlat ta'lim muassasalariga qabul...
3	Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlariga quyidagilar kiradi: ...
4	Ta'lim va kadrlar tayyorlash sohasida marketingni rivojlantirish yo'li bilan...
5	... bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.
6	O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona va ...
7	Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O'zbekiston Respublikasi ... tomonidan belgilanadi.
8	Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni ... asosida olishga haqlidirlar.
3-guruh	
1	... aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir.
2	O'zbekiston Respublikasida ta'lim ... turda amalga oshiriladi.
3	... bola shaxsini sog'lom va etuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.
4	Davlat ta'lim standartlarini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ... uchun majburiydir.
5	... yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi.
6	... o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan uch yillik o'rta maxsus o'quv yurtidir
7	... o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'rta kasb-hunar o'quv yurtidir.
8	... umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

6-topshiriq. Muammoli savol. Tarbiyaning hozirgi bosqich muammolari haqida fikringizni bayon eting.

Keys stadi		
Vaziyatdagi muammo turlari	Muammoli vaziyatni kelib chiqishi	Vaziyatdan chiqib ketish harakatlari
Tarbiyaning hozirgi bosqich muammolari		

7-topshiriq. Ta'lim to'g'risidagi qonunni avvalgi va yangi tahririni tahlil qiling (qanday o'zgartirishlar kiritilgan).

“Ta’lim to'g'risida”gi qonun (1997-yil 29-avgust) va uning ahamiyati

“Ta’lim to‘g’risida”gi qonun (2020-yil 23-sentabr) va uning mohiyat

8-topshiriq. Test topshiriqlari.

1. O‘zbekiston Respublikasida tarbiya jarayonining hozirgi bosqich muammolari, tarbiya fanining mazmuni to‘g‘ri belgilangan qatorni toping?

a) tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlariga ko‘ra va ham metodik, ham tajribalarning hammasi

- b) shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, amaliy pedagogik jarayon
- c) ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodni tarbiyalash

d) yosh avlod hamda kattalarni milliy istiqloq g'oyalari asosida tarbiyalash

2. Tarbiya turlari to'g'ri berilgan qatorni toping.

- a) iqtisodiy, jismoniy, madaniy
- b) ekologik, iqtisodiy, rag'batlantiruvchi
- c) jismoniy, ruhiy, ekologik
- d) jismoniy, ekologik, vatanparvarlik, axloqiy, iqtisodiy, estetik

3. Turkiy tilda yaratilgan dastlabki ta'limiy-axloqiy asar qaysi?

- a) "Devoni lug'otit-turk"
- b) "Qutadg'u bilig"
- c) "Hibbat-ul haqoyiq"
- d) "Mahbub-ul qulub"

4. Didaktika bu...?

- a) ta'lim qonuniyatlari, prinsiplari
- b) o'quv tillarini tashkil etishning formulalarini takomillashtirish
- c) ta'lim nazariyasi
- d) ilmiy fan bo'lib, ta'limning asoslarini o'rgatadi

5. Shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar

- a) mikromuhit, iste'dod, xotira
- b) ijtimoiy muhit, irsiyat, ta'lim-tarbiya
- c) shaxsiy faoliyat, mafkura
- d) irsiyat, iste'dod, muhit

6. Tarbiya mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi omillar qanday turlarga bo'linadi?

- a) obyektiv, subyektiv
- b) subyektiv
- c) obyektiv
- d) katta va kichik

7. Axloq-odob munosabatlari dastavval qaerda shaqllanadi?

- a) Axloq-odob munosabatlari dastavval oilada shaqllanadi
- b) Axloq-odob munosabatlari dastavval jamoada shaqllanadi
- c) Axloq-odob munosabatlari dastavval maktabda shaqllanadi
- d) Axloq-odob munosabatlari dastavval guruhda shaqllanadi

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risidagi qarori qachon qabul qilingan?

- a) 2016-yil 15-yanvar

- b) 2015-yil 13-yanvar
- c) 2017-yil 6-aprel
- d) 2016-yil 7-aprel

9. Tarbiya fanining maqsadi nima?

a) o'quvchilarda ijtimoiy -emotsional ko'nikmalar, milliy, umummadaniy va faol fuqarolik kompensatsiyalarini rivojlantirish

b) har bir tarbiyaviy jarayon elementlarining puxta asoslanganligi, samaradorlikning tajriba asosida baholanishi tushuniladi.

c) tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimini o'rganish

d) tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladigan, odamlar tomonidan qadrlanadigan omillar yig'indisi

10. Ta'lim nima?

a) Sinfda dunyoqarash tarkib toptiradigan jarayon.

b) Tarbiyachi va tarbiyalanuvchining birgalikdagi tarbiyaviy sifatlarini shakllantirish jarayoni.

c) Maxsus tayyorlangan kishilar raqbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarda dunyoqarash hosil qiladigan jarayon.

d) Maxsus tayyorlangan kishilar raqbarligida o'tkaziladigan, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantiradigan, bilim qobiliyatlarini o'stiradigan, dunyoqarashni tarkib toptiradigan jarayon.

2-amaliy mashg'ulot

Milliy tarbiya konsepsiyasi

Amaliy mashg'ulot jarayonida bajariladigan topshiriqlar:

1-topshiriq. Berilgan tayanch iboralarga uch tilda lug'at tayyorlang (o'zbek, rus, ingliz): konsepsiya, milliy tarbiya, milliy tarbiyaning mazmun, milliy tarbiya konsepsiyasi, ma'naviy tarbiya, milliy ong, dunyoqarash, tizimli yondashuv, vatan, mafkuraviy immunitet, simpozium, ma'naviy tarbiya indikatorlari, apostil.

2-topshiriq. Quydagi savollarga javob yozing.

1. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun Konsepsiya tushunchasining mazmuni.
2. Milliy tarbiyaning mazmuni
3. Milliy tarbiyaning mohiyati.
4. Milliy tarbiya konsepsiyasi.
5. Oilalarda uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirish

6. Milliy tarbiya –o‘quvchilarda milliy ongini shakllantirishning muhim omili sifatida.

7. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida ma’naviy tarbiya jarayoni o‘z ichiga necha davrni qamrab oladi?

8. Konsepsiya nechta bosqichni qamrab oladi:

9. Ma’naviy tarbiya indikatorlari.

10. Milliy tarbiya konsepsiyasining maqsadi.

3-topshiriq. BBB metodidan foydalangan holda “Milliy tarbiya konsepsiyasi” mavzusi yuzasidan fikrlaringizni yoritib bering

BILMAYMAN	BILISHNI HOHLAYMAN	BILIB OLDIM

4-topshiriq. Ushbu suratdagi holatga izoh bering.



Internet zamonida farzandlarimizga zarur nasihatlar:


O‘g‘lim! Pashsha kabi gulga ham, go‘ngga ham qo‘nib, o‘zing bilmagan holda kasalliklarni tashima!

⚠ Bu ijtimoiy tarmoqlarda ma’lumot juda ko‘p. Lekin, hammasi ham haqiqat emas. Kimlarning sahifasini kuzatayotganingga e’tiborli bo‘l. Dunyoying va ohiratingga zararli bo‘lganini tark et!

5-topshiriq. Muhokama uchun savol: Shaxsni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarga 100% ballni qanday taqsimlaysiz va nima uchun? Javobingizni dalillar asosida isbotlang.

Biologik omil (Irsiyat)	Iltimoiy omil (Muhit)	Ta'lim -tarbiya

6-topshiriq. Jismoniy va aqliy tarbiya:tushunchalar mazmunini ifodalang va qiyosiy taqqoslang.



7-topshiriq. Test topshiriqlari.

1. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya “ Konsepsiyasi necha bosqichda amalga oshiriladi?

- a) 3
- b) 4
- c) 5
- d) 6

2. Pedagogik tizim?

- a) elementlarning juda mustahkam birlashuvi

- b) texnologiyalar yig'indisi
- c) lotincha "erishmoq"
- d) to'g'ri javob yo'q

3. Dasturlashtirilgan o'qitishning nechta asosiy bosqichi bor?

- a) 5
- b) 4
- c) 3
- d) 2

4. Dasturlashtirilgan o'qitishning asosiy bosqichlarini sanang?

- a) boshqarish qurilmalarining muayyan bosqichliligi
- b) qayta aloqa tamoyili
- c) o'quv materialini yoritish va uzatishda amalga oshiriladigan odimlovchi texnologik jarayon tamoyili
- d) barcha javoblar to'g'ri

5. Maktab dasturlarini o'zgartirish ikki asosiy yo'nalishda amalga oshiriladi. Bular qaysilar?

- a) ichki va tashqi
- b) ekstensiv va intensive
- c) ta'lim va tarbiya
- d) to'g'ri javob yo'q

6. Umumta'lim maktablari fanlari bo'yicha uzluksiz ta'limning Davlat talim standartlari va o'quv dasturlarini ishlab chiqish to'g'risidagi qo'shma qarori qachon qabul qilingan?

- a) 2012-yil
- b) 2013-yil
- c) 2014-yil
- d) 2015-yil

7. "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari bo'yicha o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini loyihalari tajriba-sinovdan o'tkazish to'g'risida"gi qo'shma buyrug'i qachon qabul qilingan?

- a) 2012-yil
- b) 2013-yil
- c) 2014-yil
- d) 2015-yil

8. Boshlang'ich ta'lim DTSining mazmuni qanday?

- a) Boshlang'ich ta'limni nihoyasida boshlang'ich tahlimning mazmuni bo'icha o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan BKMLarning darajasini belgilab beruvchi davlat talablarining davlat tomonidan tasdiqlangan modeli.

b) Boshlang'ich ta'limni nihoyasida boshlang'ich tahlimning mazmuni bo'icha BKMLarning darajasini belgilab beruvchi

c) Boshlang'ich ta'limni nihoyasida boshlang'ich tahlimning mazmuni bo'icha o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan BKMLarning darajasini belgilash

d) Boshlang'ich ta'limni nihoyasida boshlang'ich tahlimning mazmuni beruvchi davlat talablarining davlat tomonidan tasdiqlangan modeli.

9. O'quv fani bo'yicha davlat ta'lim standarti qanday qismlardan iborat bo'ladi?

a) 1-4-sinflarda berilishi zarur bo'lgan majburiy minimal ta'lim mazmuni; Boshlang'ich ta'lim bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan majburiy minimal talablar.

b) 1-4-sinflarda berilishi zarur bo'lgan majburiy minimal ta'lim mazmuni; Boshlang'ich tahlim bitiruvchilarining majburiy minimal talablar

c) 1-4-sinflarda berilishi zarur bo'lgan majburiy minimal ta'lim mazmuni; bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan majburiy minimal talablar

d) 1-4-sinflarda o'quvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan majburiy minimal talablar

10. "Ijtimoiy-ma'naviy muhitni yanada sog'lomlashtirish, diniy aqidaparastlikning oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 130-sonli qarori qachon qabul qilingan?

a) 1997-yil

b) 1996-yil

c) 1998-yil

d) 2000-yil

3-amaliy mashg'ulot

Jahon tarbiyaviy konsepsiyalari namunalarining qiyosiy-pedagogik tahlili

Amaliy mashg'ulot jarayonida bajariladigan topshiriqlar:

1-topshiriq. Berilgan tayanch iboralarga uch tilda lug'at tayyorlang (o'zbek, rus, ingliz): Avesto, milliylik, tadrijiylik, konstitutsiya, tarbiyaviy ishlar inqirozi, milliy birlik, ieroglif, dzyuki, xalq, iymon, insof, insonparvarlik.

2-topshiriq. Quyidagi savollarga javob yozing.

1. Boshqa davlatlar pedagogik tajribasini qiyosiy o'rganishning koni foyda ekanligini kim aytgan?

2. Demografik o'sish nima?

3. Yangi jentelmenlarni tarbiyalash g'oyasining asoschisi

4. Avestoda qaysi xalqlarining mushtarak, umumiy qimmatga ega bo'lgan tarbiyaviy qadriyatlari aks etgan.

5. Sha'riat nima?

6. "Milliy tarbiya rejasi" nima uchun ishlab chiqildi

7. Tarbiya nechta vazifasi boruch bosqich – vazifadan iborat:

8. Aqliy tarbiya nima?

9. Ahloqiy tarbiya nima?

10. Diniy tarbiya nima?

11. "Ovrupo tarbiyasi" haqida ma'lumot bering?

12. Avesto kitobi qachon paydo bo'lgan?

13. Avesto qaysi millatni kitobi

3-topshiriq. Kesmalar orqali mos jummalarni birlashtiring.

“KESMA CHIZIQLAR” TEXNOLOGIYASI			
№	Tushuncha		Ta'rif
1	Shaxs		shaxsning muayyan faoliyatni tashkil eta olish qobiliyati.
2	Tarbiya		shaxning ongida tushunchalar, sxemalar, ma'lum obrazlar ko'rinishida aks etuvchi borliq haqidagi tizimlashirilgan ilmiy ma'lumotlar majmui.
3	Ta'lim		muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni.
4	Bilim		muayyan harakat yoki faoliyatni bajarishning avtomatlashtirilgan shakli.
5	Ko'nikma		psixologik jihatdan taraqqiy etgan, shaxsiy xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turuvchi, muayyan xulq-atvor va dunyoqarashga ega bo'lgan jamiyat a'zosi
6	Malaka		o'quvchilarni nazariy bilim ,amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish, ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish va dunyoqarashlarini shakllantirishga yo'nalatirilgan jarayon.

4-topshiriq. Jadvalni to'ldiring.

Maktabga borishdan maqsad	Maktab qadriyatlari	Maktabning nomini yuksaltirish uchun taklif	Maktab qoidalari


5-topshiriq. Keys-stadi metodidan foydalangan holda 3-sinf Tarbiya fanidan biror bir mavzuga oid dars ishlanmasini tuzing.

1. Maqolni davom ettiring.
 Kitob – bilim bulog'i _____ o'rtog'i. Kitob _____ donishmand. Kitob _____, bilim _____. Kitobdan yaxshi _____ yo'q. (*do'st, xazina, buyuk, o'quvchining, boylik*)

2. Jadvalda kitob haqidagi maqollar chalkashtirib berilgan. Siz ularni tartibga solib o'qishingiz kerak.

Ko'p o'qigan,	eng yaxshi do'st
Kitob bilan do'st bo'lsangiz –	kitobsiz, xuddi qo'lsizdek
Oltinni yerdan qazib olishadi,	bilim manbayi
Kitob – sening do'sting,	ko'p biladi
Yaxshi kitob	aql olasiz
Kitob –	bilimni kitobdan

6-topshiriq. Venn diagrammasi orqali Xitoy, Yaponiya, AQSH davlatlari horijiy tajribalarini o'ziga xos va o'xshash tomonlarini aniqlang.



7-topshiriq. «Jahon tarbiyaviy konsepsiyalari namunalarining qiyosiy-pedagogik tahlili» mavzuiga oid 5 ta oddiy test, 5 ta murakkab test tuzing.

8-topshiriq. Test topshiriqlari.

1. Ushbu pedagogik o'qitish tizimi qaysi davlatga tegishli?

- ✓ jahon tarbiyaviy konsepsiyalari namunalarining qiyosiy pedagogic tahlili
- ✓ bolani o'z kuchi va imkoniyatiga ishonch ruhida tarbiyalash;

✓ o‘quvchining eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun kurash;

- ✓ bolani kamsitmaslik, insoniy qadriyatlarini va g‘ururini yerga urmaslik;
- ✓ Vataniga faxr va iftixor ruhida tarbiyalash va h.k.

- a) Yaponiya
- b) Germaniya
- c) Fransiya
- d) AQSH

2. Ushbu pedagogik o‘qitish tizimi qaysi davlatga tegishli?

- ✓ bolani maktabga puxta tayyorlash;
- ✓ kichikintoylar ta‘lim va tarbiyasiga ota-onalar mas‘uliyatini kuchaytirish;
- ✓ o‘quvchilarni nafosat, jismoniy kamolotiga berilayotgan e‘tibor;
- ✓ o‘qituvchi kadrlarga yuksak talabchanlik;
- ✓ yosh iqtidor sohiblari bilan olib borilayotgan izchil ishlar.

- a) Yaponiya
- b) Germaniya
- c) Fransiya
- d) AQSH

3. Ushbu metodika qaysi olimga tegishli?

✓ Kelgusida o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilimlarni oldindan kichik hajmlarda berib borish;

- ✓ Yangi tushunchalarni aniqlashtirish, ularni umumlashtirish va qo‘llash;
- ✓ Fikrlash usullari va o‘quv xatti-harakatlarining ravonligini rivojlantirish.

- a) Inge Unt
- b) Lisenkova
- c) Komenskiy
- d) Shadrikov

4. Quyidagi fikrlar qaysi olimning o‘qituvchi va ta‘lim oluvchining munosabatlarini belgilaydi?

- ✓ berk- (o‘quvchilarning nazorat qilinmaydigan va tuzatilmaydigan faoliyati);
- ✓ davriy (nazorat, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘zaro nazorat);
- ✓ tarqoq (frontal) yoki yo‘nalganlik (individuallik);
- ✓ goh (og‘zaki) yoki avtomatlar (o‘quv vositalari) orqali.

- a) Bepalko
- b) Pushenskiy
- c) Y.A.Komenskiy
- d) A. Avloniy

5. “O‘qituvchi qancha o‘rgansa, shuncha yashaydi. O‘rganishni to‘xtatgan zahoti unda o‘qituvchilik o‘ladi”. Ushbu fikrlar muallifini toping.

- a) Y.A.Komenskiy
- b) A.Avloniy
- c) Ushinskiy
- d) Bepalko

6. «Maktab muvaffaqiyati va farovonlik timsoli» gina bo'lib qolmay, «u insonlarni yaxshilaydi», degan fikr ishonch va e'tiqodga aylangan davlat qaysi?

- a) Yaponiya
- b) Fransiya
- c) Germaniya
- d) Fillandiya

7. Abu Ali Ibn Sinoning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari.

- a) Tarbiya yagona jarayon.
- b) 6 yoshdan bolani muallimga topshirish.
- c) Bolaga jamoada ta'lim berish afzalligi.
- d) Hamma javoblar to'g'ri

8. «Buyuk didaktika» asarini kim yozgan?

- a) Suqrot
- b) Arastu
- c) Ya.A.Komenskiy
- d) J.J.Russo

4-amaliy mashg'ulot

Ilg'or xorijiy tajribalar asosida tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish

Yaponiya rivojining oddiy sirlari

1. Yaponiyada boshlang'ich sinflarga toki oltinchi sinfgacha "Axloq tomon yo'l" dasturi ostida dars o'tishadi. Bunda o'quvchilar faqat axloq va kishilar bilan muomalani o'rganishadi.

2. Birinchi sinfdan uchinchi sinfgacha imtihon bo'lmas ekan. Chunki bu vaqtda maqsad tarbiya qilish, tushunchalarni undirish va shaxsiyatni shakllantirishdir.

3. Yaponlar boy bo'lishiga qaramasdan ularda xizmatkorlar yo'q. Uy va bolalarga ota-ona mas'ul bo'ladi.

4. Yapon o'quvchilari ustozlari bilan birga xar kuni 25 daqiqa maktabni tozalash bilan shug'ullanishadi. Bu ularni tozalikka haris bo'lib, kamtarin bo'lib o'sishlariga yordam beradi.

5. Yapon o‘quvchilari maktabga o‘zlari bilan zararsizlantirilgan tish cho‘tkasini olib borishdani kerak. Ovqatdan so‘ng tishlarini yuvish uchun. Ular yoshlikdan salomatliklariga e‘tiborli bo‘lishga ko‘niktiriladi.

6. Maktab mudirlari o‘quvchilardan yarim soat oldin ovqatlanishadi. Bu bilan ovqat bolalarga zarar beradimi yo‘qmi, shuni aniqlab berishadi. Ular o‘quvchilarni Yaponiya kelajagi deb bilishar, ularni himoya qilish lozim deb e‘tiqod qilishadi...

Amaliy mashg‘ulot jarayonida bajariladigan topshiriqlar:

1-topshiriq. Berilgan tayanch iboralarga uch tilda lug‘at tayyorlang (o‘zbek, rus, ingliz): Konfutsiylik, Psixik xususiyat, Daosizm, Buddizm, Ikudzi, samaradorlik.

2-topshiriq. “Ilg‘or xorijiy tajribalar asosida tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish” mavzusiga doir blis-so‘rov savollari:

1. Tarbiya konsepsiyalari tarixi haqida gapirib bering?
2. Xitoyda Konfutsiylik axloqining besh asosiy ustuni haqida gapirib bering.
3. Yaponiyada tarbiya tajribasi qanday amalga oshirildi?
4. AQSH da tarbiya jarayoni qanday amalga oshiriladi?
5. Xitoyda tarbiya jarayoni qanday amalga oshiriladi?
6. Angliyada ta‘lim-tarbiya jarayoni qanday amalga oshirila?
7. Germaniyada bolalarning rivojiga 3 yoshdan boshlab katta e‘tibor beriladi?
8. Finlyandiya tarbiya jarayoni
9. Shvetsiyada bolalarga qanday shaxs sifatida qarashadi.

10. Nima uchun yaponiyada birinchi sinfdan uchinchi sinfgacha imtihon bo‘lmaydi.


3-topshiriq Siz xususiy maktab ochsangiz qaysi rivojlangan davlatlarni ta‘lim tizimini joriy qilardingiz? Fikringizni FSMU metodi orqali izohlab bering.

4-topshiriq. Tarbiya to‘g‘risidagi fikr bildirgan olimlarni fikrlarini birlashtiring.

№	Olimlarning ismi	Fikrlari
1	K.D.Ushinskiy	900 yilda aytgan fikri: "...tarbiyaviy ishlarda maktabning milliy xususiyatlarini dunyo sivilizatsiyasining tarkibiy qismi sifatida o‘rganish kerak
2	L.Tolstoy	Jahon kezib, bu borada qilgan ilmiy xulosalari alohida e‘tiborga sazovordir. Qator Ovrupo mamlakatlari tarbiyaviy tizimlarini o‘rganib chiqqach, u “barcha xalqlar uchun umumiy bo‘lgan tarbiya tizimi nafaqat amalga, balki nazariy darajada ham bo‘lishi mumkin emas. Olmon pedagogikasi - nemis tarbiyasi nazariyasi

		demakdir va bundan ortiq narsa emas”,- deya xulosa qiladi
3	Professor P.Kapnistin	Har qanday chet el tarbiya tizimini Rossiyaga keltirishga keskin qarshi chikqan edi. CHunki o‘z "xalqi rioya qiladigan asosiy qoidalarni anglagan maktabgina yaxshi maktab bo‘la oladi". Atoqli mutafakkir Rossiyada rus tarixi va milliy xususiyatlaridan kelib chiquvchi xalq ta’limi tizimi yaratilmog‘i kerakligini qat’iy turib talab qilgan ed

5-topshiriq. Avesto kitobidgi axloqiy 3 tamoyilni yozing.



6-topshiriq. Test topshiriqlari.

1. Germaniyada oliy o‘quv yurtini kim boshqaradi?

- a) shtatdagi tektor
- b) bir necha yilga saylangan prezident
- c) A va B
- d) to‘g‘ri javob yo‘q

2. Fransiyada boshlang‘ich ta’lim maktablarini necha yoshdagi bolalar tashkil etadi?

- a) 6-11
- b) 7-12
- c) 6-12
- d) 6-15

3. Fransiyada boshlang'ich ta'lim maktablariga necha yoshdan necha yoshgacha bo'lgan bolalar jalb etiladi?

- a) 5 yoshdan 9 yoshgacha.
- b) 8 yoshdan 12 yoshgacha.
- c) 6 yoshdan 10 yoshgacha.
- d) 6 yoshdan 11 yoshgacha.

4. «Maktab muvaffaqiyati va farovonlik timsoli» gina bo'lib qolmay, «u insonlarni yaxshilaydi», degan fikr ishonch va e'tiqodga aylangan davlat qaysi?

- a) Yaponiya
- b) Fransiya
- c) Germaniya
- d) Fillandiya

5. Fransuz maktablarida qanday ta'limga alohida e'tibor berishadi?

- a) Ahloq
- b) Musiqa
- c) San'at
- d) Nafosat

5-amaliy mashg'ulot

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida muvaffaqiyatga erishishga intilish motivi shaxsni ustuvor xususiyati sifatida

Amaliy mashg'ulot jarayonida bajariladigan topshiriqlar:

1-topshiriq. Berilgan tayanch iboralarga uch tilda lug'at tayyorlang (o'zbek, rus, ingliz): motiv, oddiy harakatlar, faoliyat, motivatsiya, muvaffaqiyat, xulq, mehnat, rohat, raqobat, qadr.

2-topshiriq. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida muvaffaqiyatga erishishga intilish motivi shaxsni ustuvor xususiyati sifatida" o'zlashtirilishiga doir blis-so'rov savollari.

1. Ijtimoiy motivlarning paydo bo'lishi.
2. O'z qobiliyatlarini bilishga va mehnatsevarlikka o'rgatish qanday amalga oshiriladi?
3. Mehnat tarbiyasi orqali
4. Bolaning o'z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishini kuchaytirish va o'z-o'zini baholashga qo'yayotgan talablar.
5. O'z xalqining va boshqa xalqlarning an'analari, qadriyatlariga qiziqishning namoyon bo'lishi.
6. Muvaffaqiyat nima

7. Siz hech qachon muvaffaqiyat yaratganmisiz
8. O‘zingiz uchunmi yoki boshqa birov uchunmi?
9. Muvaffaqiyatga erishgan insonlarni sanab bering?
10. Muvaffaqiyatga erishish sirlari bormi?

3-topshiriq. “Muvaffaqiyat insonga nima uchun kerak?” mavzusidagi munozarani o‘tkazishga doir ko‘rsatmalar

1. O‘qituvchi savolni muhokama qilish uchun o‘rtaga tashlaydi va o‘ylash uchun bir daqiqa vaqt beradi.

2. Talabalarning javoblari tinglanadi va doskaga ketma-ketlikda yozib boriladi. Garchi takrorlanish holati mavjud bo‘lsa ham, mazkur holatda hamma javoblarning yozib borilishi talab etiladi.

3. Hamma o‘z fikrini bildirib bo‘lgach, o‘qituvchi doskaga yozilganlarini talabalar bilan birgalikda muhokama qiladi va to‘g‘ri javoblar ajratib olinadi.

4-topshiriq. Muvaffaqiyatga erishishga doir topshiriqlar.

Muvaffaqiyatga erishish bosqichlarini o‘z dunyoqarashingiz va fikringizni chizma yoki sxemalar orqali ifodalang.

5-topshiriq. Muvaffaqiyatga erishishga doir ijodiy test topshirig‘i

1. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z yoki jumlani topib qo‘ying.

... ta’kidlashicha, hissiyotlar faoliyat dinamikasi, sur’ati va tonusini belgilaydi. Shuning uchun ham har bir yosh davri uchun xos bo‘lgan motivlar sohasining belgilangan rivojlanish qonuniyatlari ta’limning yangi dasturlarini ishlab chiqish hamda unda maxsus vazifalarni belgilash orqali o‘quv-biluv motivlarini faollashtirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

2. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z yoki jumlani topib qo‘ying.

... esa motivlar insonga faoliyati uchun, shuningdek, o‘quv faoliyati uchun ham turtki bo‘ladi va uni yo‘naltiradi deb hisoblaydi. Uning ta’kidlashicha, faoliyat – bu subyektning borliqqa faol munosabatidir. Motiv va maqsadning bir-biriga mos kelishi faoliyatning eng muhim xususiyatidir.

3. Gapni tugallang.

Ehtiyojlar, motivlar, stimullar – bir dalaning ...

4. Gapni davom ettiring.

...xalqni xalq, millatni millat qilib ko‘rsatadi.

5. Gapni davom ettiring.

Motivlar qo‘yilgan maqsadga erishish uchun ...

6. Nuqtalar o‘rniga kerakli so‘z yoki jumlani topib qo‘ying.

o‘quvchi tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat tarkibiga kiruvchi harakatlarning ahamiyati katta. Harakatlar turlicha bo‘lishi mumkin. ... harakatlar (qandaydir bir harakatlarni takrorlash), ... harakatlar, ... va ... harakatlar.

6-topshiriq. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muvaffaqiyatga erishishga intilish motivi shaxsni ustuvor xususiyati sifatida” mavzuiga oid 5 ta oddiy test, 5 ta murakkab test tuzing.

7-topshiriq. Test topshiriqlari.

1. Muvaffaqiyat nima?

- a) biror ishda erishilgan yaxshi natija, yutuq va omaddir
- b) fanlararo bog‘liqlikni ifodalovchi tushuncha
- c) avlodlar tomonidan to‘langan bilim va madaniy qadriyalarni uzatish jarayoni
- d) yaxlit jarayon bo‘lib, u o‘quvchining ehtiyojidan kelib chiqqan holda, bir maqsadga yo‘naltirilgan oldindan puxta liyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayon

2. Aksariyat yetuk insonlarning hayoti va karerasi shuni ko‘rsatmoqdaki, muvaffaqiyatning asosiy kaliti nima?

- a) Kitob o‘qish
- b) Vaqtni to‘g‘ri taqsimlash.
- c) Sayr qilish.
- d) Kundalik tutish.

3. 80 mingdan ortiq sahifali turli qo‘lyozmalarni qoldirgan shaxs kim?

- a) Komenskiy
- b) Bespalko
- c) A.Enshteyn
- d) A.Avloniy

4. Mas‘uliyat tushunchasiga ta‘rif bering.

a) muvaffaqiyat darajasi, turmush sharoiti sifati, shuningdek, shaxsni o‘zini o‘zi anglashi faqat uni qo‘lida ekanligini mustaqil ravishda anglash qobiliyati

b) ma‘lum bir shaxsning shuningdek bir guruh odamlar yoki tashkilotning o‘z majburiyatlari uchun javob berish qobiliyatlari

- c) barchasi to‘g‘ri
- d) to‘g‘ri javob yo‘q

5. “So‘zlaringizga ehtiyor bo‘ling tushunchangizga aylanmasin, tushunchangizga ehtiyor bo‘ling xatti-harakatingizga aylanmasin, xatti-harakatingizga ehtiyor bo‘ling his-tuyg‘ularingizga aylanmasin, his-tuyg‘ularingizga ehtiyor bo‘ling, bahoyingizga aylanmasin, bahoyingizga ehtiyor bo‘ling fe‘l-atvoringizga aylanmasin, fe‘l-atvoringizga ehtiyor bo‘ling taqdiringizga aylanmasin”- Ushbu fikr kimning qalamiga mansub?

- a) M.Gandi
- b) A.Avloniy
- c) M.Behbudiy
- d) Ya.A.Komenskiy

6. Tabiat, ijtimoiy jamiyat, tafakkur hamda shaxs faoliyati mazmunining rivojlanib borishini belgilab beruvchi dialektik qarashlar va e'tiqodlar tizimi nima?

- a) Fikrlash
- b) Dunyoqarash
- c) Ma'naviyat
- d) Muloqot

7. Inson aqliy faoliyatining yuksak shakli sanalib, ijtimoiy voqea-hodisalar, jarayonlarga nisbatan ilmiy yondashuvni anglatadi. Quyidagi fikrlar nimani anglatadi?

- a) Ijtimoiy dunyoqarash
- b) Muloqot
- c) Ilmiy dunyoqarash
- d) Pedagogik jarayon

8. Dunyoqarash negizida aks etuvchi ijtimoiy- falsafiy, tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, manaviy-axloqiy, estetik hamda ekologik bilimlarning takomillashgan ko'rinishi; muayyan g'oyaga cheksiz ishonch bo'lib, uning shakllanishi bir necha bosqichda kechadi. Quyida qaysi tushunchaga ta'rif berilgan?

- a) Pedagogik jarayon
- b) E'tiqod
- c) Muloqot.
- d) Ijtimoiy fikr

9. "Muvaffaqiyat bu yerga urilganda, iloji boricha balandroqqa sakrash degani". Ushbu fikr muallifi kim?

- a) Jorj Batton
- b) Uinston Cherchil
- c) Ushinskiy
- d) To'g'ri javob

10. Milliy tarbiya nazariyasi o'z qoidalarini asoslash uchun qaysi fanlardan foydalanadi?

- a) falsafa, etika, estetika
- b) adabiyot pedagogika etika
- c) adabiyot etika estetika psixologiya pedagogika falsafa
- d) psixologiya falsafa adabiyot

6-amaliy mashg'ulot

O'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni shakllantirishda ta'lim texnologiyalaridn foydalanish

Amaliy mashg'ulot jarayonida bajariladigan topshiriqlar:

1-topshiriq. Berilgan tayanch iboralarga uch tilda lug'at tayyorlang (o'zbek, rus, ingliz): tolerantlik, texnologiya, diagnostika, korreksion faoliyat, kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, rivojlanish, ta'lim texnologiyalari, pedagogik texnologiya, hamkorlik texnologiyasi, muammoli ta'lim texnologiyasi, .dasturlashtirilgan ta'lim texnologiyalari, rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari, xususiy pedagogik texnologiyalar, alternativ pedagogik texnologiyalar, mualliflik pedagogik texnologiyalari.

2-topshiriq. Quyidagi savollarga javob yozing.


1. Pedagogik texnologiyalar nima?
2. Pedagogik texnologiyalarni sanab bering.
3. Ta'lim texnologiyasi va pedagogic texnologiyalarni farqi nimada?
4. Diagnostika va korreksion faoliyat mazmuni nima
5. O'quvchilarda ijtimoiy kompetensiyalarni qanday shakllantiriladi
6. O'quvchilarni o'rganish, kuzatish va ta'sir ko'rsatish qanday amalga oshiriladi

7. Diagnostika nima

8. Pedagogik diagnostika nima uchun kerak

9. Pedagogik diagnostika metodlarini sanab bering

3-topshiriq. Quyida berilgan rasmga fikr bildiring.



4-topshiriq. “Munosabat” metodi

O‘quv jarayonida metoddan foydalanish o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha muayyan masalalarni hal etish, ma’lum jarayonning kelib chiqish sabablari, ularni bartaraf etish yo‘llarini topish asosida talabalarda mustaqil fikrlash, ijodiy izlanish, fikrni isbotlash va turli vaziyatlardan chiqq olish ko‘nikma va malakalarni hosil qiladi.

Kichik guruhga bo‘lingan holda quyidagi sxema asosida topshiriqlarni bajaradi:

1-guruh. Muammo: Siz boshlang‘ich sinf o‘qituvchisiz. sizga 1-b sinfni berishdi. sinfda 2 o‘quvchini darsga qiziqishi yo‘q. uyga berilgan vazifalarni umuman bajarmaydi. darsga qiziqmaydi. Ota-onasini ogohlantirganizda e‘tibor ham berishmadi.qanday yo‘l tutasiz

Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni hal qilish yechimlari	Sizning xulosangiz

2-guruh. Muammo: 11-sinf o‘quvchisi Ravshan algebra darsida o‘qituvchi bilan tortishib qoldi. algebra fani o‘qituvchisi Ravshanni gap qaytargani uchun urdi. Ravshanni o‘rtoqlari yonini olib o‘qituvchi bilan tortishib qoldilar. O‘qituvchi o‘quvchilarni bu qilgan ishlari uchun ularni jazolashini aytdi. Algebra fanidan davlat imtihonlarini topshirishayotganlarida o‘qituvchi “5” bahoga o‘qiydigan o‘quvchilarga “3” baho qo‘yib berdi. Shundan so‘ng o‘quvchilar tarix o‘qituvchisini yomon ko‘rib qoldilar.

Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni hal qilish yechimlari	Sizning xulosangiz

3-guruh. Muammo: Siz maktabda yangi ish faoliyatingizni boshladiz.ishlaydigan maktabda bir nechta o‘quvchiga o‘zingiz o‘tayotgan fandan 1-chorak bo‘yicha baho qo‘ymadingiz.biroq o‘quv yili yakunida jurnalda mazkur o‘quvchilarga baho qo‘yilganining guvohi bo‘ldingiz. Siz o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosariga uchrashdingiz. O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari ularga bahoni sinf rahbari qo‘yib yuborganini aytdi. Mazkur vaziyatda siz qanday yo‘l tutgan bo‘lardingiz?

Muammoning kelib chiqish sabablari	Muammoni hal qilish yechimlari	Sizning xulosangiz

5-topshiriq. Ta'lim texnologiyalarining mohiyati va mazmunini aniqlashga doir tushunchalar tahlili metodini bajarish.

TUSHUNCHALAR TAHLILI				
№	Ta'lim texnologiyalari	Ta'lim texnologiyalari mazmuni	Kasbiy faoliyatingizdagi o'rni	Qo'shimcha fikrlar
1	An'anaviy			
2	Muammoli o'qitish			
3	O'yin			
4	Tadqiqot			
5	Hamkorlikda o'qitish			
6	Erkin ta'lim			
7	Masofaviy o'qitish			
8	Dasturli o'qitish			
9	Tabaqalashtirilgan ta'lim			
10	Indivuellashgan ta'lim			
11	Modulli o'qitish			
12	Rivojlantiruvchi			
13	Kompyuterli ta'lim			

6-topshiriq. Test topshiriqlari.

1. Kompetensiya so'zining ma'nosi nima?

- a) erishyapman, loyiqman
- b) mahorat, san'at
- c) tiklash, to'ldirish
- d) butun, munosib

2. Nazorat topshiriqlari va o'quv axborotlarining almashinib turuvchi u qadar katta bo'lmagan bloklari ketma-ketligini ifodalovchi dastur programmasining turini toping?

- a) soddalashtirilgan
- b) tarmoqlanuvchi

- c) ravon programma
- d) muammoli o'qitish programmasi

3. Ta'lim oluvchiga yangi o'quv materialini murakkablik darajasiga qarab tanlab olish, uni o'zlashtirish jarayonida u yoki bu tarzda o'zgartirish, oddiy ma'lumotnoma, lug'at va qo'llanmalardan foydalanish imkoniyatini beruvchi ta'limiy programma nima?

- a) Soddalashtirilgan
- b) Ravon
- c) Tarmoqlanuvchi
- d) Aralash

4. Tabaqalashtirilgan ta'limning qanday dasturlari bor?

- a) "A", "V", "S" dasturlari
- b) Muammoli O'qitish, Ravon
- c) Tarmoqlanuvchi, aralash.
- d) BBB, 3×3

5. Noan'anaviy ta'limning funksiyalarini belgilang.

- a) O'quvchilarni bilim olishga qiziqtiruvchi
- b) Bilim doiralarini kengaytiruvchi
- c) O'quvchilarda hozirjavoblik hususiyatini tarbiyalovchi
- d) Faollashtiruvchi

6. O'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi

- a) 1,2,3
- b) 3,4,5
- c) 1,3,4,5
- d) 1,2,3,4,5

7. Quyidagilardan ta'limning noan'anaviy shakllarini belgilang.

- a) kollektiv mehnat shakllaridan foydalanish
- b) mavzuga qiziqish uyg'otish
- c) mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarini rivojlantirish
- d) barcha javoblar to'g'ri

8. Mustaqil ta'limning vazifalarini belgilang.

- a) yangi bilimlarni mustaqil tarzda o'zlashtirishga undaydi
- b) kerakli ma'lumotlarni izlash va o'rganishga jalb etadi
- c) A va B javoblar to'g'ri
- d) to'g'ri javob yo'q

9. Klaster so'zining ma'nosi nima?

- a) birlashtirish, bog'lash
- b) tutam, bog'lam
- c) muvofiqlashtirish, moslash

d) bog‘lash, tuzish

10. TTV nima?

- a) Ta'limning texnik vositalari
- b) Ta'lim-tarbiya vazirligi
- c) Ta'lim tarbiya vazifalari
- d) Ta'limiy vazifasi

7-amaliy mashg‘ulot

O‘quvchilard ijobiy fazilatlarni shakllantirish

Amaliy mashg‘ulot jarayonida bajariladigan topshiriqlar:

1-topshiriq. Berilgan tayanch iboralarga uch tilda lug‘at tayyorlang (o‘zbek, rus, ingliz): ijobiy fazilatlar, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, dilozorlik, mehr-oqibat, mas‘uliyatlilik, irodalilik, komil inson, sabrlilik, mafkuraviy immunitet, aqliy tarbiya, axloqiy fazilat, innovatsion texnologiyalar, mehnat tarbiyasi.

2-topshiriq. “O‘quvchilard ijobiy fazilatlarni shakllantirish” mavzusini o‘zlashtirilishiga doir blis-so‘rov savollari:

1. Mafkuraviy immunitet tushunchasi haqida fikr yuriting.
2. O‘quvchilarda aqliy tarbiyani shakllantirish mazmuni haqida ayting.
3. Shaxsda ma‘naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari ayting.
4. Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlik, mas‘uliyatlilik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash kabi fazilatlarni shakllantirish mazmuni.
5. Innovatsion tarbiya texnologiyalarining o‘quvchilarning axloqiy sifat va fazilatlarini shakllantirishda foydalanish haqida nimalarni ayta olasiz?
6. O‘quvchilarga mehnat tarbiyasini singdirishda nimalarga e‘tibor qaratish kerak.

3-topshiriq. Muzeyga yoki kutubxonaga ekskursiya uyushtirishga doir ishlanma tayyorlash.

Ekskursiya ishlanmasini tayyorlashga doir ko‘rsatmalar:

1) ekskursiya ishlanmasi o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan quyidagi aniq *tarkibiy tuzilishga* ega bo‘lishi lozim: tayyorlov bosqichi, ekskursiyaning borishi va ekskursiyadan keyin amalga oshiriladigan ish;

2) *tayyorlov bosqichida* ekskursiya mavzusi, uning mazmun-mohiyati, o‘tkazilish muddati belgilab beriladi. SHuningdek, ekskursiya uyushtiriladigan

obhektning joylashgan o‘rni va marshruti aniqlanadi. Ekskursiya davomida beriladigan namunaviy savollar tuziladi;

3) *ekskursiyani amalga oshirish* jarayoni rejalashtirilishi lozim. turli xil savollardan foydalaniladi: 1) dalillar keltirishni talab etuvchi savollar (qanday nomlanadi, qanday qismlardan iborat, qanday xususiyatlar va o‘ziga xosliklarga ega); 2) fikrlashni faollashtiruvchi, qiyoslash, taqqoslash, farqini ajratish, umumlashtirishni talab etuvchi savollar (munosabat, aloqadorliklarni hosil qilish uchun); 3) anglash faolligini rag‘batlovchi, ijodiy fikrlash, xulosalar chiqarishga undovchi savollar;

4) *ekskursiyadan so‘ng amalga oshiriladigan ish* (alg‘bom tayyorlash).

4-topshiriq. Kerakli so‘zni topib qo‘ying.

O‘quv materialining tarbiyaviy imkoniyatlarini aniqlash, darsdagi faoliyat, aniq erishilishi mumkin bo‘lgan tarbiyaviy maqsadlarni shakllantirish va qo‘yish, faqat o‘quv ishlari maqsadlari va mazmunidan tabiiy ravishda kelib chiqadigan tarbiyaviy masalalarni belgilash, o‘quvchilarni umuminsoniy qadriyatlarda tarbiyalash, hayotiy muhim sifatlar (tirishqoqlik, tartiblilik, mashuliyatlilik, intizomlilik, mustaqillik, ish bajarishga qobiliyatlilik, ehtiborlilik, halollik va boshqalar)ni shakllantirish kabilarning darsga qo‘yiladigan ... talablarni o‘zida aks ettiradi.

5-topshiriq. “O‘quvchilard ijobiy fazilatlarni shakllantirish” mavzuiga oid 5 ta oddiy test, 5 ta murakkab test tuzing.

6-topshiriq. Test topshiriqlari.

1. Tarbiya jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qaysi fazilatlarni shakllantirish taqozo etiladi?

- a) vatanni sevish
- b) o‘zgalarni hurmat qilish
- c) mehnatsevarlik
- d) hamma javob to‘g‘ri

2. Navoiyning talqinida barcha insoniy xislatlarning bosh bo‘g‘ini nima sanaladi?

- a) udum
- b) odob
- c) an‘ana
- d) tartib

3. Abdurahmon jomiyning qaysi asarida ta‘lim tarbiya masalalari xususida fikr bildiradi?

- a) Bahoriston
- b) Layli va majnun
- c) Silsilat uz-zahhob
- d) Guliston

4. Shaxsning asosiy axloqiy sifatlarini keltiring.

- a) Sabrlilik, vazminlik, irodalilik, qat'iyatlilik.
- b) Jismoniy rivojlanish, salomatlikni mustah- kamlash, organizmni chiniqtirish;
- c) Vatanparvarlik, insonparvarlik, intizomlilik, sofdillik, adolatparvarlik, mehnatsevarlik, jamoatchilik;

d) Tejamkorlik, insoniylik, yaxshilik qilish, to'g'ri so'zlilik.

5. O'quvchilarni o'rganishning eng samarali usuli.

- a) Pedagogik kuzatish.
- b) Suhbat.
- c) Anketa.
- d) Tushuntirish

6. "Kamtar odamlar ko'p gapirishlan qochadilar, ular ko'p eshitmoqni istaydilar. Eshitmoq kishini boyitadi, ko'p gapirmoq sayozlatadi. Ko'p gapirgan ko'p yanglishadi". Bu misralar kimga tegishli?

- a) A.Navoiy.
- b) A.Avloniy.
- c) Ibn Sino.
- d) Z.Bobur

7. «Hunarning afzalligi», «Farzandni parvarish qilish haqida» xikmatli so'zlar qaysi kitobdan olingan?

- a) «Qobusnoma» kitobidan.
- b) A.Navoiyning "Maxbub ul qulub"asaridan
- c) «Ravshan» dostonidan
- d) Ibn Sinoning «Tadbiri manzil»asaridan.

8. Chaqaloq xayotida qanday voqealar an'anaviy nishonlanadi?

- a) Beshikka solish.
- b) Tug'ilgan kuni.
- c) Ism qo'yish.
- d) Birinchi qadam.

9. «Ahloq» deganda nimani tushunasiz?

a) Jamiyatda qabul qilingan va jamoatchilik fikri bilan qo'llab quv- vatlanadigan inson hulqi normalarini yig'indisidir

- b) Kishini o'z obro'sini ardoqlash his tuyg'usini ulug'lash
- c) Ota- onaga, oila a'zolarini xurmat qilish, xollaridan xabar olish
- d) Gazeta, jurnal o'qib, televizor ko'rish

10. Tarbiya turlari to'g'ri belgilangan qatomi ko'rsating:

- a) Iqtisodiy, jismoniy, madaniy va h.k.
- b) Ekologik, iqtisodiy, rag'batlantiruvchi.
- c) Jismoniy, ruhiy, ekologik va h.k.
- d) Jismoniy, ekologik, vatanparvarlik, axloqiy, iqtisodiy, estetik.

8-amaliy mashg'ulot

Ta'lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning o'rni.

Amaliy mashg'ulot jarayonida bajariladigan topshiriqlar:

1-topshiriq. Berilgan tayanch iboralarga uch tilda lug'at tayyorlang (o'zbek, rus, ingliz): *milliy qadriyatlar, islom akademiyasi, ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik, mehr-muruvvat, bunyodkorlik, pandnoma, qadriyat obekti, qadriyat sub'ekti, bashariyat, sub'ektli qadriyatlar, ijtimoiy ob'ektlar, tabiiy ob'ektlar, qadriyatlar, mutlaq qadriyatlar, empirik qadriyatlar.*

2-topshiriq. "Ta'lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarning o'rni" mavzusini o'zlashtirilishiga doir blis-so'rov savollari:

1. Milliy aksiologiya.
2. Qadriyat tushunchasining mazmuni
3. Qadriyat tushunchasining mohiyati.
4. Qadriyat nima?
5. An'ana nima?
6. Urf-odat nima?
7. Yoz oyida nishonlanadigan bayramlar.
8. Qadriyatning obekti va subektini aytib bering?
9. Inson qadri deganda nimani tushunasiz?
10. Falsafiy adabiyotlarda qadriyatlarning turli tiplari ajratib ko'rsatiladi.

3-topshiriq. Quyida qaysi o'zbek pedagogigining fikri keltirilgan. Izohlang.

«Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot - yo falokat, yo saodat – yo falokat masalasidir»

4-topshiriq. Jadvalga falsafiy adabiyotlarda keltirilgan qadriyatlarning turlari va tiplarini ajratib yozing

No	Qadriyat turlari	Qadriyat tiplari
1.		
2.		
3.		
4.		

5-topshiriq.



6-topshiriq.



7-topshiriq. Test topshiriqlari.

1. Tarbiya jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida qaysi fazilatlarni shakllantirish taqozo etiladi?

- a) vatanni sevish
- b) o'zgalarni hurmat qilish

- c) mehnatsevarlik
- d) hamma javob to'g'ri

2. Tarbiya jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida qaysi fazilatlarni shakllantirish taqozo etiladi?

- a) vatanni sevish
- b) o'zgalarni hurmat qilish
- c) mehnatsevarlik
- d) hamma javob to'g'ri

3. Navoiyning talqinida barcha insoniy xislatlarning bosh bo'g'ini nima sanaladi?

- a) udum
- b) odob
- c) an'ana
- d) tartib

4. Abdurahmon jomiyning qaysi asarida ta'lim tarbiya masalalari xususida fikr bildiradi?

- a) Bahoriston
- b) Layli va majnun
- c) Silsilat uz-zahhob
- d) Guliston

5. Shaxsning asosiy axloqiy sifatlarini keltiring.

- a) Sabrlilik, vazminlik, irodalilik, qat'iyatlilik.
- b) Jismoniy rivojlanish, salomatlikni mustah- kamlash, organizmni chiniqtirish;
- c) Vatanparvarlik, insonparvarlik, intizomlilik, sofdillik, adolatparvarlik, mehnatsevarlik, jamoatchilik;
- d) Tejamkorlik, insoniylik, yaxshilik qilish, to'g'ri so'zlilik.

6. O'quvchilarni o'rganishning eng samarali usuli.

- a) Pedagogik kuzatish.
- b) Suhbat.
- c) Anketa.
- d) Tushuntirish

7. «Kamtar odamlar ko'p gapirishlan qochadilar, ular ko'p eshitmoqni istaydilar. Eshitmoq kishini boyitadi, ko'p gapirmoq sayozlatadi» Ko'p gapirgan ko'p yanglishadi. Bu misralar kimga tegishli?

- a) A.Navoiy.
- b) A.Avloniy.
- c) Ibn Sino.
- d) Buxoriy.

8. «Hunarning afzalligi», «Farzandni parvarish qilish haqida» xikmatli soʻzlar qaysi kitobdan olingan?

- a) «Qobusnoma» kitobidan.
- b) A.Navoiyning “Maxbub ul qulub” asaridan
- c) «Ravshan» dostonidan
- d) Ibn Sinoning «Tadbiri manzil» asaridan.

9. Chaqaloq xayotida qanday voqealar anʼanaviy nishonlanadi?

- a) Beshikka solish.
- b) Tugʻilgan kuni.
- c) Ism qoʻyish.
- d) Birinchi qadam.

10. «Ahloq» deganda nimani tushunasiz?

- a) Jamiyatda qabul qilingan va jamoatchilik fikri bilan qoʻllab quvvatlanadigan inson hulqi normalarini yigʻindisidir
- b) Kishini oʻz obroʻsini ardoqlash his tuygʻusini ulugʻlash
- c) Ota- onaga, oila aʼzolarini xurmat qilish, xollaridan xabar olish
- d) Gazeta, jurnal oʻqib, televizor koʻrish

9-amaliy mashgʻulot

“Oila, mahalla va taʼlim muassasasi hamkorligi” Konsepsiyasi

Amaliy mashgʻulot jarayonida bajariladigan topshiriqlar:

1-topshiriq. Berilgan tayanch iboralarga uch tilda lugʻat tayyorlang (oʻzbek, rus, ingliz): oila, mahalla, maktab, hamkorlik, integratsiya, sinf rahbari, jamiyat, burch, farzand, ota, ona, vatan,

2-topshiriq. “Oila, mahalla va taʼlim muassasasi hamkorligi” Konsepsiyasi mavzusiga doir blis-soʻrov savollari:

- 1. Bola tarbiyasida maktabgacha taʼlim tashkilotini oʻrni qanday?
- 2. Bola tarbiyasida oila vazifasi sanab bering
- 3. Sinf rahbarining oila bilan olib boradigan faoliyati.
- 4. Ota-onalar bilan ishlashning shakl va metodlari.
- 5. Ota-onalar bilan ishlashning metodlari.
- 6. Shaxsni tarbiyalashda oila, mahalla va taʼlim muassasasi hamkorligini amalga oshirish tamoyillari va bosqichlari. haqida gapirib bering
- 7. Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda nechki boʻlimga ajratadi:

8. “Oila, mahalla va ta’lim muassasasi hamkorligi” Konsepsiyasi qachon qabul qilingan.

9. O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi qonunining 30-moddasini ayti bering

10. Ota-onalarning bilim va tajribasini, tarbiyalanuvchilarni tarbiyalashda qanday xatolar va qiyinchiliklarga duch kelishadi.

11. Ota-onaning farzand oldidagi burchi

12. “Tarbiyaning zamoni”.

13. “Badan tarbiyasi”.

14. “Fikr tarbiyasi”.

15. “Axloq tarbiyasi

3-topshiriq. Oilangiz logotipini tuzing.

4-topshiriq. Oila mustahkam bo‘lishi uchun nima qilish kerak? Rasmlar orqali ifodalang.

5-topshiriq. Suratga izoh bering.



6-topshiriq. “Bizga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishda ota-onalarimiz va o‘qituvchilarimiz qanday yo‘llardan foydalanishgan?” mavzusida erkin yozish topshirig‘i:

1) Bizga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishda ota-onalarimiz va o‘qituvchilarimiz qanday yo‘llardan foydalanishgan?

2) “Sizni talaba bo‘lishingizga sababchi bo‘lgan insonlar” mavzusida besh daqiqa mobaynida o‘z fikrlaringizni daftarga yozing. O‘ylagan fikrlaringizni hech qanday to‘xtovsiz bayon eting.

Erkin yozish ustida ishlashga doir ko‘rsatma:

✓ Talabalardan besh daqiqa mobaynida berilgan mavzu bo‘yicha o‘z fikrlarini yozish so‘raladi.

✓ 2.besh daqiqa tugagach,vaqt tuganganligi ma’lum qilinadi.biroqbir minut sukut saqlab turiladi. Chunki odatda eng yaxshi fikrlar inson tang holatda qolgan vaziyatda tug‘iladi.

✓ Talabalardan ayrimlarining fikrlari tinglanadi. Uch-to‘rt talaba o‘z yozganlarini o‘qib bergach, o‘qituvchi qolgan talabalardan aytilganlariga o‘xshamaydigan fikr kimda bo‘lsa bildirishlarini so‘raydi.

7-topshiriq. Quyida keltirilgan fikrlarni o‘qing va ularni ikki guruh rahbarining huquqlari va majburiyatlari tarzida turkumlang.

1. Tarbiyalanuvchilarning jismoniy va psixik rivojlanishi haqida ma’lumotlar olish.

2. Murakkab muammolarni hal etishda o‘quvchilarga yordam ko‘rsatish.

3. Har bir o‘quvchining o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini nazorat qilish.

4. O‘quvchilarning o‘quv mashg‘ulotlariga qatnashishini nazorat qilish.

5. O‘quvchilarning shaxsiy salohiyatining rivojlanishi uchun sinfda maqbul ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish.

6. Mazkur guruhda dars beradigan o‘qituvchilar ishini muvofiqlashtirish.

7. Maktab jamoasidan zarar pedagogik yordam olish.

8. Ota-onalar bilan aloqa o‘rnatish va ularga tarbiyaviy ishda yordam berish.

9. Bolalar bilan individual ishlash tartibini aniqlashtirish.

10. “Kichik pedkengash”, pedagogik konsilium, mavzuli va boshqa tadbirlar o‘tkazish orqali guruh o‘quvchilari bilan tarbiyaviy ishlarni tashkil etish.

Guruh rahbarining huquqlari	Guruh rahbarining majburiyatlari

8-topshiriq. Test topshiriqlari.

1. «Oila, mahalla, maktab konsepsiyasi» qachon qabul qilingan?

a) 1994

- b) 1993
- c) 1992
- d) 1995

2. Sinf rahbari kim?

- a) Sinf rahbari o'suvchilarni bir xil sinfda, bir xil yoshda, bilimi jihatidan ham teng bo'lgan jamoani boshqarib turuvchi pedagog.
- b) Sinf rahbari o'suvchilarni bir xil yoshda bilimi jihatidan ham teng bo'lgan jamoani boshqarib turuvchi pedagog.
- c) Sinf rahbari o'suvchilarni bir xil sinfda, bilimi jihatidan ham teng bo'lgan jamoani boshqarib turuvchi pedagog.
- d) Sinf rahbari o'suvchilarni bilimi jihatidan ham teng bo'lgan jamoani boshqarib turuvchi pedagog.

3. Sinf rahbarining asosiy maqsadi nimalardan iborat?

- a) Komil shaxsni tarbiyalash hamda o'quvchilarni hayotni bilishga va unga tayyorlanishga yo'naltirish
- b) O'quvchilarini to'g'ri tarbiyalash jarayonida o'quvchi va sinf rahbari bilan bir-birini tushuna olishi
- c) O'quvchilarini to'g'ri tarbiyalash jarayonida ularga ehtiborliroq bo'lish
- d) O'quvchilarini to'g'ri tarbiyalash jarayonida ota-onalar bilan ishlash

4. O'quvchi-bolalarni axloqiy tarbiyalash qanday yo'nalishlarda tashkil etiladi?

- a) o'qitish jarayoni bilan birga, darsdan bo'sh vaqtlarida, oilada.
- b) maktabdan tashqari o'quv muassasalarida vayashash joylarida
- c) jamoada, oilada
- d) dars jarayonida

5. O'zbek oilalarida o'zbek xalq ertaklari qanday ahamiyatga ega?

- a) O'zbek xalq ertaklari oilada bola tarbiyasida hayot darsligi hisoblangan
- b) O'zbek xalq ertaklari oilada bola tarbiyasida o'zak hisoblangan
- c) Bola tarbiyasida o'rnak namuna darsligi hisoblangan
- d) Oilada bola tarbiyasida yordamchi vosita hisoblangan

6. Inson shaxsining kamol topishi qanday jarayon?

- a) Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon
- b) Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab jarayon
- c) Inson shaxsining kamol topishi uzluksiz jarayon
- d) Inson shaxsining kamol topishi uzoq davom etadigan uzluksiz jarayon

7. Axloq-odob munosabatlari dastavval qaerda shaqllanadi?

- a) Axloq-odob munosabatlari dastavval oilada shaqllanadi
- b) Axloq-odob munosabatlari dastavval jamoada shaqllanadi
- c) Axloq-odob munosabatlari dastavval maktabda shaqllanadi

d) Axloq-odob munosabatlari dastavval guruhda shaqllanadi

8. Inson shaxsining tarbiyasiga ta'sir etuvchi vositalar?

a) Ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat

b) Jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat

c) Atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat

d) Ota-onasi, maktab, mahalla, ommaviy axborot vositalari

9. Sinf rahbari ishining o'ziga xos xususiyati nimadan iborat?

a) U oddiy bolalar jamoasini emas, balki o'quvchilar jamoasini shakillantiradi.

b) U oddiy bolalar jamoasini shakillantiradi.

c) U oddiy bolalar jamoasini emas, tutli yoshdagi o'quvchilar jamoasini shakillantiradi.

d) U oddiy bolalar jamoasini shakillantiradi.

10. Sinf dan tashqari ish formalari nimalarda aks etadi?

a) Ommaviy tadbirlar, to'garak ishlari, individual ishlar

b) Ommaviy tadbirlar, individual ishlar

c) Ommaviy tadbirlar, to'garak ishlari

d) Ommaviy tadbirlar.

11. Surat, jadval, doskadagi rasm, model, mulyaj, diapozitiv, kinofilm, xarita, sxema ko'rgazmalilikning qaysi turiga kiradi?

a) tasviriy

b) predmetli

c) jonli

d) jonsiz

12. O'qituvchi sinfda ish olib bora turib, har o'quvchi bilan yakka tarzda ishlash, ijobiy hislarni rivojlantirish, salbiylarini bartarf etish, sinfni jamoa ishiga tortish maqsadida har bir bolaning shaxsiy qobiliyatini o'rganish va hisobga olish qaysi tamoyilga muvofiq?

a) O'qitishning individuallashtirish tamoyili

b) Bilimlarni puxta o'zlashtirilishi tamoyili

c) O'quvchilarning ongliligi va ijodiy faolligi

d) Muntazamlilik va izchillik

13. Matn bilan ishlash, savol va topshiriqlar bilan ishlash, darslikdagi rasmlar bilan ishlash uslublari tabiatshunoslik o'qitishning qaysi vositalariga xos?

a) Darslik bilan ishlash

b) Ko'rgazmali qurollar bilan ishlash

c) Suratlar bilan ishlash

d) Sinf taxtasi bilan ishlash

14. «Voyaga yetmagan shaxslarning ota- onalari yoki qonuniy vakillari shaxsning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning ta'lim-tarbiyasi, o'quv muassasasi, o'rta maxsus, kasb hunar ta'limini olishi uchun javobgardir». Ushbu fikr O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonunning nechanchi moddasida keltirilgan?

- a) 30
- b) 43
- c) 47
- d) 53

15. Integratsiya so'zining ma'nosi nima?

- a) tiklash, to'ldirish
- b) loyiqman, erishayotgan
- c) rivojlantirish, yuksalish
- d) to'g'ri javob yo'q

16. O'zbekistonda 1998- yil nima deb nomlangan?

- a) oila yili
- b) Sog'lom ona va bola yili
- c) Sog'lom avlod yili
- d) Amir Temur yili

10-amaliy mashg'ulot

Yunisef xalqaro tashkiloti faoliyatida yoshlarni huquqiy himoya qilish masalari

UNICEF O'zbekistonda 1994-yildan buyon samarali faoliyat yuritib keladi. Bolalar huquqlarini himoya qilish, ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirishga ko'maklashish va salohiyatlarini har tomonlama rivojlantirish uchun imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan faoliyat yuritish maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi UNICEFga tegishli mandat (vakolat) taqdim etgan. Hamkorlik dasturini amalga oshirish orqali UNICEF bolalar va ularning oilalarining huquqlari va farovonligi bilan bog'liq bo'lgan masalalarda O'zbekiston hukumatiga respublika va mahalliy darajalarda yordam berib kelmoqda. Ushbu ezgu amaliyotlar jamoat tashkilotlari, parlament, jamiyat, yoshlar, ommaviy axborot vositalari hamda rivojlanish bo'yicha ko'p tomonlama va ikki tomonlama tashkilotlar bilan hamkorlikda olib boriladi. Hozirgi vaqtda amalga oshirilayotgan va 2010-2015-yillarga mo'ljallangan Mamlakatlararo hamkorlik dasturi milliy ustuvorliklar va Ming yillik

rivojlanish maqsadlariga (MRM) javob beradi. Dasturning asosiy vazifasi - tenglik tamoyillariga rioya qilgan holda bola huquqlarini izchil amalga oshirish. Shunday yo‘nalishga qaratilgan dasturning amalga oshirilishi yuqoridagi tamoyillar asosida mamlakat MRMga erishishiga munosib hissa qo‘shadi. Ushbu dastur bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya va ayollarga nisbatan diskriminatsiyaning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risidagi Konvensiyaga muvofiq tenglikka erishish hamda bolalar va ayollarning huquqlarini amalga oshirishga qaratilgan tadbirlarni rejalashtirish, o‘tkazish va nazorat qilish sohasida milliy salohiyatni mustahkamlash vazifalarini qamrab olgan. BMT Nizomiga ko‘ra uning oltita organi mavjuddir.

1. Bosh assambleya

U BMTning bosh maslahat idorasidir. U a‘zo bo‘lgan har bir davlatning vakillaridan iborat bo‘lib, ularning har biri bir ovozga egadir. Quyidagi o‘ta muhim masalalar: tinchlik va xavfsizlik, yangi a‘zolari qabul qilish, byudjet masalasi bo‘yicha qarorlar 2/3 ko‘pchilik ovoz bilan qabul qilinadi. Boshqa masalalar esa oddiy ko‘pchilik ovoz berish yo‘li bilan hal etiladi. Bosh Assambleya o‘z sessiyasiga yilda bir marta to‘planadi. Odatda sessiya har yilning sentyabr oyidan boshlanib dekabrning o‘rtalarigacha davom etadi va o‘z ishini yangi yil oldidan tugallaydi. Ayrim hollarda sessiya ishida tanaffus qilinib, uning ishini boshqa vaqtga ko‘chirish hollari ham bo‘lib turadi. Bunday holda sessiya ikki qismdan iborat bo‘ladi. Har sessiya chaqirilganda u o‘ziga yangi rais va uning 21 ta muovini hamda 7 ta qo‘mitaning raislarini saylaydi.

Bundan tashqari Nizomga ko‘ra, Xavfsizlik Kengashi taklifiga binoan, BMTga a‘zo davlatning ko‘pchiligi yoki alohida bir a‘zo davlatlarning taklifi ko‘pchilik davlatlar tomonidan ma‘qullanganida maxsus sessiya yoki favqulodda maxsus sessiyalar ham chaqirilishi mumkin.

2. Qo‘mitalar

1-qo‘mita. Qurolsizlanish va xalqaro xavfsizlik qo‘mitasi

2-qo‘mita. Iqtisodiy va moliyaviy masalalar qo‘mitasi

3-qo‘mita. Ijtimoiy va gumanitar masalalar hamma madaniyat masalalar qo‘mitasi

4-qo‘mita. Ijtimoiy-siyosiy masalalar, mustamlakashilikni tugatish qo‘mitasi

5-qo‘mita. Ma‘muriy va byudjet masalalari qo‘mitasi

6-qo‘mita. Huquqiy masalalar qo‘mitasi

Qo‘mitalar o‘z majlislarida ko‘rilgan masalalar yuzasidan oddiy ko‘pchilik ovoz berish yo‘li bilan qarorlar qabul qiladi.

Shunday qilib, BMTning faoliyati barcha a‘zo davlatlardan tashkil topgan Bosh Assambleya tomonidan idora etiladi.

3. Xavfsizlik kengashi

Xavfsizlik Kengashi - barcha a‘zo-davlatlar nomidan ish ko‘ruvchi BMTning markaziy siyosiy organi bo‘lib, unga xalqaro tinchlik va xavfsizlik uchun asosiy

javobgarlik yuklatilgan. BMT Xavfsizlik Kengashi to'xtovsiz ish olib boradi va direktiv vakolatga ega, uning chiqargan qarorlarini bajarish barcha a'zo-davlatlar uchun majburiy.

Xavfsizlik Kengashi a'zolari sonining 1965-yili 11 tadan 15 taga yetganini hisobga olmasa, u asos solingan kundan boshlab, qariyb 57 yil davomida deyarli o'zgarishsiz qolmoqda.

Beshta davlat Xavfsizlik Kengashining doimiy a'zosi: Buyuk Britaniya, Xitoy, Rossiya, AQSH va Fransiya. Unta doimiy bo'lmagan a'zolar Bosh Assambleya tomonidan ikki yillik muddatga saylanib, ular birdaniga ikki marta saylanish huquqiga ega emas.

4. Iqtisodiy va ijtimoiy kengash

Iqtisodiy va ijtimoiy kengash asosiy iqtisodiy idora hisoblanadi. BMTning iqtisodiyotga tegishli barcha masalalarini ko'radi va tartibga soladi. Kengash 54 ta a'zodan iborat bo'lib, uch yil muddatga saylanadi va ularning har biri bir ovozga egadir. Ko'rilgan masalalar oddiy ko'pchilik ovoz berish yo'li bilan hal etiladi. Kengash BMTning iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi faoliyati uchun javobgardir.

Kengashning asosiy vazifasi xalqaro miqyosda iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal etish va davlatlar uchun tegishli tavsiyanomalarni ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish yo'l-yo'riqlarini ko'rsatishdan iborat.

Iqtisodiy va ijtimoiy Kengash bir yilda bir marta o'zining sessiyasini o'tkazadi. Sessiya navbati bilan besh hafta davomida Nyu-York va Jeneva shaharlarida ishlaydi. Sessiyalar orasida uning qo'mitalari va komissiyalari muntazam ish olib boradilar va Kengash sessiyasiga hisobotlar, ma'ruzalar va tegishli hujjatlar tayyorlaydilar. Kengash tarkibida uning yordamchi idoralari sifatida 9 ta: statistika, aholining joylanishi va rivojlanishi, sotsial ishlar bo'yicha, giyohvandlik ishlari bo'yicha, jinoyatning oldini olish va jinoyat qonunchiligi, fan va texnika kabi komissiyalar faoliyat ko'rsatadi.

5. Xalqaro sud

Xalqaro sud Gaaga (Niderlandiya) shahrida joylashgan. Uning statusi, ya'ni vazifasi va huquqlari Nizomda belgilangan. Unga a'zo davlatlar va a'zo bo'lmagan davlatlar ham murojaat qilishlari mumkin. Sharti shuki, har bir davlat uchun Xavfsizlik Kengashining tavsiyasiga binoan Bosh Assambleya ruxsat berishi kerak. Sudga jismoniy shaxs, ya'ni yakka tartibda fuqarolar murojaat qila olmaydilar. Xavfsizlik Kengashi va Assambleya har qanday huquqiy xarakterdagi masala yuzasidan tushunchalar, sharxlar olishi mumkin.

Xalqaro sud 15 ta saylangan a'zoldan iborat. Ular mutaxassisliklariga ko'ra Assambleya va Xavfsizlik Kengashlari tomonidan 9 yil muddatga saylanadilar va qayta saylanishlari mumkin. Har uch yilda ularning uchdan bir qismi yangidan saylanib turadi.

6. Kotibiyat

Kotibiyat turli davlatlar vakillaridan tashkil topgan bo‘lib, Nyu-York va boshqa a‘zo davlatlarning shaharlarida ham ish yuritadi. Vazifasi BMTning siyosatini, iqtisodiy, ijtimoiy faoliyatini joylarda amalga oshirishdan iborat. Kotibiyat juda ko‘pchilikni tashkil etadi. Ular 170 dan ortiq mamlakat vakillaridan, 14000 kishidan iborat. Bularning barchasiga Bosh kotib rahbarlik qiladi. U Xavfsizlik Qo‘mitasi tavsiyasiga binoan Assambleya tomonidan 5 yil muddatga saylanadi, qayta saylanishi mumkin. Bosh kotiblik lavozimiga tajribali, dono siyosatchi, diplomat shaxs saylanadi.

BMT Bosh kotiblari.

1. Trogve Li (Norvegiya)- 1945-1953 yillar.
2. Dag Xammavilev (Shvetsiya)-1953-1961 yillar.
3. Tan (Birma)-1961-1971 yillar.
4. Kurt Volf Xaym (Avstriya)-1972-1981 yillar.
5. Xaver Peres de Kuyelyar (Peru)-1982-1991yillar.
6. Butros Butros Foliy (Misr)-1992-1997 yillar.
7. Kofi Annan (Gana)-1998-2006 yillar.
8. Pan Gi Mun (Janubiy Koreya)-2007 yildan.

Hamamizga ma‘lumki, 1945-yil 24-oktabrda tashkil topgan BMTga mustaqil O‘zbekiston Respublikasi 1992-yil 2-martda a‘zo bo‘lgan va xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli sub’yektiga aylangan. Xalqaro munosabatlarning hozirgi rivojlanish bosqichida BMTning tutgan o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi o‘z nutqlarida ushbu tashkilotning faoliyati to‘g‘risida gapirib: “BMT barcha davlatlarning, mintaqalarining, butun jahon ham jamiyatining eng muhim muammolarini muhokama qilish va yechish uchun tuzilgan noyob tashkilotdir”,- deb ta’kidlagan edilar.

Ushbu tashkilot boshqaruvida Bosh Kotib va Kotibiyat BMTning bosh organlaridan biri hisoblanadi. Hozirda Kotibiyat hodimlari soni 25 mingdan ziyod bo‘lib, ular 150 dan ortiq davlat vakillaridir.

BMTda Bosh Kotibning shaxsi ushbu tashkilot faoliyatida muhim ahamiyatga ega. BMT tashkil topgandan buyon Bosh kotiblikni quyidagilar bajargan:

1. Li Pryugve Xolvdan (1896-1968) - Norvegiya davlat va siyosiy arbobi, diplomat, huquqshunos. Pryugve Li Xolvdan 1919-yili Oslo universitetini tugatib, huquqshunos mutaxassisligini oldi. U 1935-yildan savdo va sanoat, ta‘minot va suv xo‘jaligi ishlari, tashqi ishlari vaziri lavozimlarida ishlab, 1936-yili Norvegiya parlamentiga a‘zolikka saylandi. Pryugve Li Xolvdan 1946-yil yanvarda Londonda bo‘lib o‘tgan Bosh Assambleya sessiyasida Norvegiya delegatsiyasini boshqardi.

1946-yil 1-fevralda Pryugve Li BMT birinchi Bosh Kotibi etib saylandi. 1950-yil 1-noyabrda Bosh Assambleya Pryugve Lining faoliyatini 1951-yil 1-fevraldan boshlab

yana uch yilga uzaytirdi. 1952-yil noyabr oyida Pryugve Li BMTning Bosh Kotibi lavozimidan bo'shshah haqida ariza berdi.

2. Xammarsheld Dag Yalmar Agne Karl (1905-1961) shved davlat arbobi va diplomati. 1941-1948 yillarda Milliy bank raisi lavozimida ishlagan. 1947-yili Tashqi ishlar vazirligining kotibi, 1949-yili tashqi ishlar vazirligining bosh kotibi va 1951-yili tashqi ishlar vazirligining hay'at a'zosi lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan. Dag Yalmar Agne Karl Xammarsheld 1953-yil 10-apreldan 1961-yil 18-sentabrgacha BMT bosh kotibi lavozimlarida ishlagan. Dag Xammarsheld Afrika qit'asidagi siyosiy ahvolni bartaraf etish va qit'adagi qabilalar o'rtasidagi nizolarni hal qilishga ketayotganda, kutilmaganda samolyot portlashi natijasida halok bo'ladi. BMT qarorgohiga kiraverishga unga haykal o'rnatilgan.

3. U Tan (1909-1974) - Myanma (Birma) diplomati va davlat arbobi. Rangun universitetini tugatib, faoliyatini jurnalistika sohasida boshlagan. U Tan 1961-yildan boshlab BMT iroiya kengashining a'zosi va 1962-yildan 1971-yilgacha BMT Bosh Kotibi lavozimida ishlagan. U Tanning ta'rificha: «BMT Bosh Kotibi bo'lish – bu BMTning «xizmatchisi» bo'lish demakdir, chunki u BMTga a'zo davlatlar va tashkilotlar bilan doim hamkorlik ishlarini olib borishi lozim». U Tan dunyodagi eng ko'zga ko'ringan 30 ta universitetning faxriy unvoniga sazovor bo'lgan.

4. Kurt Val'dhaym - Avstriya davlat arbobi va diplomati.

1944-yil Vena universitetini tamomlagan vaqtida u yuridik fanlar doktori unvonini olgan hamda Vena akademiyasining bitiruvchisi hisoblangan. 1971-yildan 1981-yilgacha BMT Bosh Kotibi lavozimida ishlagan.

Uning uchinchi marotaba BMT Bosh Kotibi bo'lishi ancha munozarali bo'lib, barcha asosiy da'vogarlar yetarli ovoz olmadilar va u iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. Kurt Val'dhaym navbatdagi saylovlarida g'olib chiqib Avstriya federatsiyasining prezidenti lavozimiga tayinlandi. Kurt Val'dhaym BMT doirasida olib borilgan bir qancha ishlarda faol qatnashdi. Masalan, 1972-yili Afrika va Lotin Amerikasida, OAENing 10 yiligi munosabatiga doir ishlarida, qolaversa, 1973-yil fevral oyida Jeneva Konvensiyasi bo'yicha Yaqin Sharq masalalariga doir tadbirlarda qatnashgan.

5. Xav'er Peres de Kuel'yar – olim, diplomat va davlat arbobi.

Xav'er Peres de Kuel'yar 1981-yil dekabr oyida BMTning Bosh Kotibi lavozimiga saylandi va 1982-yil 1-yanvardan o'z vazifasini bajarishga kirishdi. 1986-yil 10-oktabrda ikkinchi navbatga saylanadi. U, «BMT Nizomini o'zgarishsiz qolishi kerak, - deb ta'kidlardi, - chunki BMT doirasidagi davlatlar uning bosh dasturi va Nizomini o'rganib chiqqan holda bu tashkilotga qo'shilgan, qolaversa, BMT tinchlik va hamkorlik tashkilotidir», degan fikrni doim olg'a surib kelgan. Xav'er Peres de Kuel'yar jahondagi 22 ta universitetning faxriy doktori, 25 davlat mukofotlari

sovrindori, bundan tashqari, Assuriya qurolligi, Ulofa Palma va Javoharlal Neru mukofotlarining sovrindoridir.

6. Butros Butros Goliy – Misr davlat arbobi, diplomat olim. 1946-yili Qohira universitetining huquq bo'yicha bakalavr diplomini olgan. 1991-yil 3-dekabrda Butros Butros Goliy BMT Bosh Kotibi etib saylanadi va 1992-yil 1-yanvardan o'z vazifasini bajarishga kirishdi. Butros Butros Goliy o'z faoliyati davrda bir qancha xalqaro huquqiy va xalqaro siyosiy masalalarni hal etdi, u davlatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalarga katta e'tibor beradi. Uning ta'kidlashicha, BMT uchun hech qanaqa unchalik qimmatga ega bo'lmagan narsa yo'q, lekin o'zining ish tajribalaridan kelib chiqqan holda u to'rtta tamoyilga asoslanadi.: qo'rqmaslik, tenglik, ixchamlik va vazifani o'z vaqtida bajarish. Beshinchi tamoyil – mustaqillikdir.

7. Kofi Annan (1938-yil) – Gana davlat arbobi va diplomati.

1961-yildan Gena davlatining Kumasi shahridagi Ilmiy va texnika universitetini tamomlagan, Sent – Poli (Minnesota shtati) makalester kollejida iqtisod fanidan diploma himoya qildi. 1996-yil 17-dekabrda BMT Bosh Kotibi etib saylandi. Kofi Annan o'zining ko'p chiqishlarida BMTning xalqlar o'rtasidagi tinchlik va xavfsizlik, ijtimoiy tenglik, qolaversa, eski sarqidlardan qutulish kabi bir qancha shunga o'xshash masalalarini ko'rib chiqdi. Tinchlik va xavfsizlik bo'yicha yangi shunchalar va g'oyalar paydo bo'lishi kerak, deb ta'kidlab, insoniyatning asosiy muammolarini iqtisod bilan bog'laydi. 2001-yil Kofi Annan BMT Bosh Kotibligiga qayta saylangan.

8. Pan Gi Mun (1944-yil 13-iyun) Janubiy Koreya Respublikasi davlat arbobi va diplomati.

Pan Gi Mun Birlashgan Millatlar Tashkilotining joriy bosh kotibidir. Bu mansabga Kofi Annandan so'ng, 2007-yili saylangan. Bungacha u Koreya Respublikasi Tashqi Ishlar va Savdo Vazirligida diplomat bo'lib ishlagan. Diplomatiya karyerasini universitetni bitirgan yiliyoq Hindistonda boshlagan. 2004-2006-yillarda Pan Tashqi Ishlar Vaziri bo'lgan. 2006-yil 13-oktabrda Pan Gi Mun BMT Bosh Assambleyasida bosh kotib etib saylandi. 2007-yil yanvarida Annan mansabdan ketdi, uning o'rnini Pan egalladi. 2011-yili Pan bosh kotib martabasiga ikkinchi marotaba nomzodini qo'ygan. 2011-yil 21-iyunida u bir ovozdan bosh kotib etib qayta saylangan, u bu mansabda 2016-yil 31-dekabrigacha faoliyat yuritadi. 71 yoshli diplomat bugungi kunda 192 ta mamlakatni birlashtirib turuvchi tashkilotning sakkizinchi rahbaridir. 1945-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ga asos solindi. Uning assambleyalarida turli davlatlarning vakillari xalqaro masalalarni muhokama qiladilar. Uning asosiy vazifasi - jahondagi keskinlikni yumshatish va yangi urush chiqish xavfini kamaytirish.

Birinchi jahon urushidan keyin tez orada davlatlar orasidagi mojarolarni bartaraf etish maqsadlarida Millatlar Ligasi ta'sis etildi. Ammo u muvaffaqiyatli faoliyat

yurita olmadi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Liga o'z o'rnini boshqa xalqaro tashkilotlarga bo'shatib berdi.

1945-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ga asos solindi. Uning assambleyalarida turli davlatlarning vakillari xalqaro masalalarni muhokama qiladilar. Uning asosiy vazifasi – jahondagi keskinlikni yumshatish va yangi urush chiqish xavfini kamaytirish.

BMTga besh yillik muddatga saylanadigan Bosh kotib rahbarlik qiladi. BMTning Bosh Assambleyasida mazkur tashkilotga a'zo bo'lgan barcha davlatlarning a'zolari ishtirok etadilar. Agar Assambleya ishtirokchilarining ko'pchilik qismi biror bir mamlakatning tutgan yo'liga norozilik bildirsalar, BMT unga u yoki bu tarzda ta'sir qilish huquqiga ega. Masalan, 1956-yilda BMT Fransiya va Buyuk Britaniyaning Suets tanazzuli davrida Misrga bostirib kirishini qattiq qoraladi va uning talablari asosida bu urushga barham berildi.

BMTning Xavfsizlik Kengashiga 15 davlat a'zodir. Shulardan 5 tasi, ya'ni – AQSH, Rossiya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Xitoy – doimiy a'zo davlatlardir. Ushbu Kengash kengash a'zolaridan bo'lgan biror bir mamlakatga qarshi ovoz berish huquqiga yoki xavfli nuqtalarga, tinchlikni qaror toptirish uchun qo'shinlarni yo'llash huquqiga egadir.

Biroq BMTning barcha harakatlari ham muvaffaqiyat qozonavermaydi. U odatda Buyuk davlatlar manfaatlariga aloqador mojarolarni tartibga solishga ojizdir. Gap shundaki, Xavfsizlik Kengashining qarori bir ovozdan qabul qilinishi kerak. Har bir a'zo u yoki bu masalani hal etish jarayonida betaraf qolish huquqiga ham egadir.

№	Abbrevnaturasi	Tashkil qilingan yili	Shtab kvartitasi
1	Tinch okeani xavfsizligi Pakti (Avstraliya, Yangi Zelandiya, AQSH) ANZYUS	1952	
2	Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari assosatsiyasi ASEAN	1967	Bangkok
3	Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari assosatsiyasi ASEAN 1967 Bangkok	1992	Lyuksemburg
4	Arab davlatlari ligasi ADL	1945	Tunis
5	Lotin Amerikasi iqtisodiy tizimi LAIT	1975	Karakas
6	Birlashgan Millatlar Tashkiloti BMT	1945	Nyu-York
7	Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti YHXT (OBSE)	1975	Jeneva
8	Neft eksport qiluvchi mamlakatlar tashkiloti NEMT (OPEK)	1960	Vena
9	BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti OXT (FAO)	1945	Rim

10	BMTning sanoatni rivojlantirish tashkiloti YUNIDO	1966	Vena
11	BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti YUNESKO	1946	Vena
12	BMTning bolalarga yordam ko'rsatish jamg'armasi YUNISEF	1946	Nyu-York
13	Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti JSST	1946	Jeneva
14	Xalqaro mehnat tashkiloti XMT	1946	Jeneva
15	Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti EKO	1985	Tehron
16	Jinoyat politsiyasining xalqaro tashkiloti Interpol	1923	Lion
17	Parlamentlararo ittifoq	1889	Jeneva
18	Qo'shilmaslik harakati QH		Jakarta
19	Jahon sayyohlik tashkiloti JST		Madrid
20	Shanxay yamkorlik tashkiloti SHHT	1996	
21	Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi MDH	1991	

Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YeXHT)

YeXHT - xavfsizlik sohasida ko'pqirrali faoliyat olib boruvchi yagona umumyevropa tashkiloti hisoblanadi. Tashkilot o'z ishini Xelsinki yakunlovchi aktining imzolanishi bilan 1975-yilning 1-avgustida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik kengashi (YeXHK) sifatida boshlagan va unga 35 ta davlat a'zo bo'lgan. 1994-yilda Budapeshtda bo'lib o'tgan oliy darajadagi uchrashuvda YeXHK Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YeXHT)ga aylantirildi. O'zining maqomiga va BMT nizomining 8-bobiga ko'ra, YeXHT mintataviy tashkilot hisoblanadi. Uning qarorlari konsensus asosida qabul qilinadi va xalqaro-huquqiy kuchga ega bo'lmagan siyosiy kelishuvlar sanaladi.

YeXHT tarkibiga 56 ta a'zo-davlat va 9 ta hamkor davlatlar kiradi. O'zbekiston Respublikasi YeXHTga 1992-yilning 30-yanvarida a'zo bo'lgan.

Yevropa Ittifoqi (YeI)

Millatlararo vakolatlariga ega bo'lgan xalqaro birlashma. Uning yaratilish asosida Fransiya tashqi ishlar vaziri Rober Shumanning taklifiga ko'ra, 1950-yilning 9-mayida imzolangan GFR va boshqa manfaatdor davlatlarga ko'mir va po'lat ishlab barcha sohasidagi salohiyatlardan umumiy foydalanish bo'yicha Yevropa hamjamiyatini tuzish haqidagi bayonot yotadi.

1983-yilning 19-iyunida Shtutgartda Yevropa Ittifoqi hahidagi deklaratsiya qabul qilingan. Yevropa Ittifoqini tashkil etish haqidagi shartnoma 1992-yilning 7-fevralida Maastrixtda (Niderlandiya) imzolangan.

Hozirgi vaqtda YeIga 27 ta davlat a'zo va ularning aksariyati yagona viza maqomi (Shengen shartnomasiga) va yagona valyuta tizimi (Yevro)ga ega.

Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti (NATO) Shimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti (NATO) 1949-yilning 4-aprelida BMT Nizomining 51-moddasiga binoan tuzilgan. NATO - hukumatlararo xalqaro tashkilot. Uning asosiy vazifasi - siyosiy va harbiy vositalar bilan o‘z a‘zolarining erkinligi va xavfsizligini himoya qilishdan iborat.

Harbiy ittifoq sifatida alyans xavfsizlikni ta‘minlash borasida dunyoda mavjud vositalarning rivojlangan tizimiga ega va Shimoliy Amerika va Yevropa xavfsizligini bog‘lovchi transatlantik zveno sifatida tan olingan.

Hozirgi vaqtda 28 ta davlat a‘zo. 1994-yilda NATOning «Tinchlik yo‘lida hamkorlik» dasturiga asos solingan va 2012-yilning iyul oyidan boshlab O‘zbekiston ushbu dasturda ishtirok etib kelmoqda.

Davlatlar – A‘zo bo‘lgan yili

AQSH	1949	Daniya	1949	Polsha	1999
Angliya	1949	Islandiya	1949	Slovakiya	2004
Fransiya	1949	Kanada	1949	Sloveniya	2004
Italiya	1949	Gretsiya	1952	Bolgariya	2004
Belgiya	1949	Germaniya	1955	Ruminiya	2004
Niderlandiya	1949	Turkiya	1959	Latviya	2004
Lyuksemburg	1949	Ispaniya	1986	Litva	2004
Portugaliya	1949	Vengriya	1998	Estoniya	2004
Norvegiya	1949	Chexiya	1998	Xorvatiya	2008

Islom konferensiyasi tashkiloti (IKT)

Islom konferensiyasi tashkiloti tarkibiga 56 davlat kiradi. U 1969-yili Rabot (Marokash) da bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi yig‘ilishda tashkil etilgan. Tashkilotning asosiy maqsadi: a‘zo-davlatlar o‘rtasidagi islom birdamligini mustahkamlash, barcha a‘zo-davlatlar va boshqa mamlakatlar bilan hamkorlik va hamfikrlilikni chuqurlashtirish uchun qulay sharoitlar yaratishdan iborat. Davlat va hukumat boshliqlari sammiti IKTning oliy organi hisoblanadi. U uch yilda bir marta yig‘iladi va unda islom dunyosining muhim va qoldirib bo‘lmaydigan muammolari ko‘rib chiqiladi, IKTning umumiy siyosati muvofiqlashtiriladi. Tashqi ishlar vazirlari sessiyasi yiliga bir marta yig‘iladi.

Bosh kotibiyat a‘zo-davlatlar o‘rtasidagi aloqani ta‘minlaydi, maslahatlar o‘tkazishga, fikr almashishga ko‘maklashadi, a‘zo-davlatlar uchun kerakli bo‘lgan axborotni tarqatadi. Xalqaro islom adolat sudi IKTning bosh huquqiy organi sifatida tashkil etilgan.

Tashkilot BMTda kuzatuvchi maqomiga ega. O‘zbekiston 1996-yil 2-oktyabridan boshlab IKTning teng huquqli a‘zosi.

Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti - EKO

EKO - xalqaro mintaqaviy tashkilot bo'lib, a'zo-davlatlar o'rtasida iqtisodiy, madaniy va ilmiy-texnik hamkorlikni ta'minlash maqsadida tuzilgan. Uning tarkibiga 10 ta davlat kiradi. A'zo-davlatlar sonining kam bo'lishiga qaramasdan, tashkilot 350 millionga yaqin aholi yashovchi 7 mln kv.km. maydonni o'z ichiga oladi.

EKO 1985-yilda tuzilgan va qarorgohi Tehron shahrida joylashgan. O'zbekiston EKOga 1992-yilning 28-noyabrida a'zo bo'lgan.

Shanxay hamkorlik tashkiloti - ShHT

2001-yilning 15-iyunida Qozogiston Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qirgiziston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi rahbarlari maxsus Deklaratsiya bilan Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) tuzilganligini e'lon qildilar. Shanxay hamkorlik tashkiloti mintaqaviy tashkilot hisoblanadi.

Eron, Hindiston, Mongoliya va Pokiston kuzatuvchi davlat, Afgoniston, MDH, va ASEAN mehmon sifatida ShHTning tadbirlarida ishtirok etadi.

Hozirgi kunda ShHTga a'zo va kuzatuvchi davlatlar hududida 3 milliarddan oshiq aholi istiqomat qiladi va ularning umumiy maydoni Yevrosiyo materigining 61 foizini tashkil etadi.

UNESKO (ing. Unesco, United Nations Educational, Scientific and Cultural Organisation), Birlashgan millatlar Tashkilotining maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkiloti-xalqaro hukumatlararo tashkilot; BMTning ixtisoslashgan muassasasi. Davlatlar o'rtasida ma'orif, fan, madaniyat va kommunikatsiyalar sohasida hamkorlikni rivojlantirish yo'li bilan tinchlikka va xalqaro xavsizlikka ko'maklashish maqsadida 16 noyabr 1945-yilda tuzilgan. 188 mamlakat (shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi 1993-yil 26-oktyabrdan) a'zo (2004). YUNESKO Ustaviga ko'ra, "... irqi, jinsiy tili va dinidan qat'iy nazar, barcha xalqlar uchun adolatga, qonuniylikka, inson huquqlari va asosiy erkinliklariga umumiy hurmatni ta'minlash maqsadida ta'lim, fan va madaniyatni rivojlantirish orqali xalqlar hamkorligiga" ko'maklashish tashkilotning ustuvor vazifasidir. 400 ga yaqin xalqaro nohukumat tashkilotlar va jamg'armalar, xalqaro va hududiy birlashmalar YUNESKO bilan hamkorlik qiladi. YUNESKO byudjeti a'zo-mamlakatlar badallaridan tashkil topadi. Tashkilot faoliyatining asosiy yo'nalishlari yalpi savodsizlikka qarshi kurash, maorif tizimi va kadrlarni tayyorlashni rivojlantirish, milliy madaniyatlarni o'rganish va tarqatish, atrof-muhitni va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish, okeanografiya, geologiya, gidrologiya, sotsiologiya, kommunikatsiyalar va boshqa sohalarda global ilmiy muammolarni hal qilishda hamkorlik qilishdan iborat. Axborot va informatika-kommunikatsiya masalalari uning faoliyatida katta o'rin egallaydi. Tashkilotga a'zo mamlakatlarda YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiyalar tuzilgan. YUNESKO ana shu komissiyalarga tayanib ish olib boradi. O'zbekiston Respublikasining

YUNESKO ishlari bo'yicha Milliy komissiyasi 1994-yil 29-dekabrda tashkil etilgan bo'lib, uning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan tasdiqlangan. Bosh konferensiya YUNESKOning oliy organi hisoblanadi. 2 yilda 1 marta uning sessiyalari o'tkaziladi. YUNESKO O'zbekistonning Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishiga bevosita yordam ko'rsatish maqsadida bir qator oliy o'quv yurtlarida YUNESKO kafedralari, shuningdek, YUNESKO maktablari tashkil etilgan. YUNESKO doirasida Abu Rayhon Beruniy (1973), Abu Ali Ibn Sino (1980) tavalludining ming yillik, Mirzo Ulug'bekning 600 yillik (1994), Amir Temurning 660 yillik (1996) tantanalari nishonlandi.

Mazkur yilda BMT Bosh Assambleyasi Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiyani qabul qilganining 30 yilligi nishonlanadi. Bugungi kunda konvensiya dunyo miqyosida eng ko'p mamlakatlar qo'shilgan xalqaro hujjat bo'lib hisoblanadi. 192 mamlakat hukumatlari, xususan qiyin ahvolda qolgan bolalarning huquqlarini himoya qilish majburiyatini olgan.

UzDaily xabar berishicha, yangi www.unicef.uz saytida o'zbek, ingliz va rus tillarida axborot berilgan bo'lib, u foydalanuvchilarning ehtiyojlariga javob beradi. Interfeysning umumiy ko'rinishi va dizayni sodda bo'lgan holda, uning navigatsiya, ma'lumot izlash va ishlatish funksiyalari juda osondir.

Sayt tuzilmasi nafaqat mutaxassislar va Internetning faol foydalanuvchilari uchun, balki bolalar, katta yoshdagilar hamda kompyuterdan foydalanishni endi o'rganayotganlar uchun qulay qilib yaratilgan. Shuningdek axborot texnologiyalarini bilish imkoniyatlari keng bo'lmagan qishloq aholisining imkoniyatlari ham e'tiborga olingan. YUNISEFning mahalliy sayti portal bo'lib, bolalar, o'smirlar, ota-onalar, mutaxassislar, shuningdek qarorlar qabul qiluvchi rasmiy shaxslar uchun qiziqarli va foydali bo'lgan axborotga ega. O'zbekistondagi bolalar vaziyatining sharhi hamda YUNISEFning hamkorlar bilan birgalikda bola huquqlarini ilgari surishga va ularning farovonligini oshirishga qaratilgan dasturlari to'g'risida saytda ma'lumot berilgan. Shuningdek turli nashrlar va multimedia materiallari to'plami, asosiy hamkor tashkilotlar ro'yxati taqdim etilgan. Ota-onalar bola tarbiyasidagi eng ilg'or tajriba bilan tanishishlari, bolalar va o'smirlar esa o'z huquqlari va majburiyatlarini yanada yaxshi o'rganishlari mumkin. Sayt ularni yashash joylaridagi jamoat tadbirlarida ishtirok etishga rag'batlantiradi. "Bolalar va oilalarning imkoniyatlarini kengaytirish YUNISEFning dunyo miqyosidagi, xususan O'zbekistondagi faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir", - dedi YUNISEFning mamlakatdagi vakolatxonasi rahbari Robert Fuderich. - Qimmatli resurslar va axborotni taqdim etish orqali bizning yangi saytimiz ana shu maqsadga erishishga ko'mak beradi".

Amaliy mashg'ulot jarayonida bajariladigan topshiriqlar:

1-topshiriq. Berilgan tayanch iboralarga uch tilda lug'at tayyorlang (o'zbek, rus, ingliz): **YUNISEF**, Millatlar Ligasi, Birlashgan millatlar tashkiloti, bosh kotib, YUNESKO, NATO, xavfsizlik kengashi, Yevropa Ittifoqi, Xalqaro sud, Iqtisodiy va ijtimoiy kengash, Bosh assambleya.

2-topshiriq. YUNISEF xalqaro tashkiloti faoliyatida yoshlarni huquqiy himoya qilish masalari mavzuiga doir blis-so'rov savollari

1. YeXHT tarkibiga nechta davlat a'zo bo'lgan.
2. BMTning Xavfsizlik Kengashiga nechta davlat a'zo.
3. BMT qachon tashkil topgan
4. Nato tashkilotining faoliyati nimalardan iborat.
5. Shanxay hamkorlik tashkiloti – ShHT ning vazifasi nima?
6. BMT da faoliyat yurgizgan kotiblarni sanab bering?
7. Yunisef xalqaro tashkilotining faoliyati
8. BMT ning qo'mitalari
9. Bosh assambleya-qanday tashkilot

3-topshiriq. Quyidagi sxema asosida oily ta'lim yo'nalishlari o'quv rejasini tahlil eting.

1. O'quv jarayoni jadvali bo'yicha:

№	O'quv jarayonining tuzilishi	Haftalar soni
1	Nazariy va amaliy ta'lim	
2	Malakaviy amaliyotlar	
3	Bitiruv malakaviy ishi	
4	Joriy va davlat attestasiyalari	
6	Ta'tillar	
Jami:		

4-topshiriq. Bola huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qarorlar, moddalarni yozing

№	Qarorlar	Moddalar
1		
2		
3		
4		
5		

5-topshiriq. «YUNISEF xalqaro tashkiloti faoliyatida yoshlarni himoya qilish masalalari» mavzuiga oid 5 ta oddiy test, 5 ta murakkab test tuzing.

6-topshiriq. Test topshiriqlari.

1. YUNISEF xalqaro tashkiloti qachon tashkil topgan?

- a) 1993-yil
- b) 1992-yil
- c) 1994-yil
- d) 1946-yil

2. O‘zbekiston YUNISEF tashkiloti tarkibiga nechanchi yilda kirgan?

- a) 1994
- b) 1995
- c) 1992
- d) 1998

3. BMT qachon tashkil topgan?

- a) 1945-yil 24-oktabr
- b) 1995-yil 24-oktabr
- c) 1992-yil 2-sentabr
- d) 1995-yil 5-avgust

4. BMTda faoliyat turitgan kotiblar soni to‘g‘ri berilgan qatorni toping?

- a) 8 ta
- b) 9 ta
- c) 10
- d) 14

5. O‘zbekiston BMT ga qachon a‘zo bo‘lgan?

- a) 1993-yil 8-aprelda
- b) 1992-yil 2-martda
- c) 1992-yil 2-avgustda
- d) 1995-yil 14-martda

11-amaliy mashg'ulot

1-sinf tarbiya darslarini tahlil etish





Tarbiya fani o'quv dasturi Xalq ta'limi vazirining buyrug'i bilan tasdiqlangan

MAVZUVIY REJALASHTIRISH

№	Boblar	Soatlar taqsimoti				
		Jami	Nazariy	Amaliy	Takrorlash	Nazorat ishi
1	Men O'zbekiston farzandiman	16	10	5	1	
2	Go'zal xulq - inson ko'rki	17	10	5	1	1
Jami		33	20	10	2	1


Moslashtirilgan mavzular:

- ✓ 1 - sentabr Mustaqillik kuni
- ✓ Salomlashish odobi
- ✓ Salomlashish qoidalari
- ✓ Yaxshilik va yomonlik
- ✓ Jamoat joylarida o'zini tutish
- ✓ Tozalik – sog'lik garovi
- ✓ Ovqatlanish odobi va qoidalari
- ✓ Xavfli vaziyatlarda tartibli va to'g'ri harakat qiling
- ✓ Bilim ol, hunar o'rgan

MENING ORZUM



Daftaringizga orzular zinasini chizing.
Zinaning har bir pog'onasiga nom bering.



"Mening orzuim" mavzusini *INTERFAOL SUHBAT* va *ASSOTSIIATIV* metodlari asosida o'tish tavsiya etiladi

Oila davrasida har bir pog'onani egallash uchun nima qilishingiz kerakligi haqida suhbatlashing.



Amaliy mashg'ulot jarayonida bajariladigan topshiriqlar:

1-topshiriq. Berilgan tayanch iboralarga uch tilda lug'at tayyorlang (o'zbek, rus, ingliz): baxt, muvaffaqiyat, orzu, maqsad, odob durdonalari, ijodiy faoliyat, xulq, zukko, yomon odat, sexrli so'zlar, qalb oynasi, assotsiativ, mas'uliyat, visual.

2-topshiriq. Tezkor savol javoblar:

1. 1-sinf tarbiya darsligida jami necha soatga mo'ljallangan?
2. 1-sinf tarbiya darsligi nechta bobdan iborat?
3. Darslikda amaliy dars uchun qancha soat ajratilgan?
4. Darslikda takrolash uchun qancha soat ajratilgan?
5. 1-sinf tarbiya darsligida necha soat nazoratga ajratilgan?
6. 1-bob nima deb nomlangan?
7. 2-bobda nechta amaliy mavzular berilgan?
8. 1-bob yuzasidan nazorat topshirig'i berilganmi?
9. Faollashtiruvchi savollar deganda nimani tushunasiz?
10. Vizual qobilatni rivojlantirish qanday amalga oshiriladi?

3-topshiriq. Keys-stadi metodidan foydalangan holda 1-sinf «Tarbiya» fanidan biror bir mavzuga oid dars ishlanmasini tuzing.

4-topshiriq. Quyidagi savollarga javob yozing

1. 1-sinf o'quvchilariga assotsiativ metodni qo'llashdan maqsad nima?
2. Assotsiativ metodga misollar keltiring.

5-topshiriq. «1-sinf tarbiya darsligini tahlil qilish» mavzusiga oid 5 ta oddiy test, 5 ta murakkab test tuzing.

6-topshiriq. Test topshiriqlari.

1. 1-sinf "Tarbiya" darsligida mavzular soni nechta?

- a) 30
- b) 24
- c) 25
- d) 20

2. 1-sinf "Tarbiya" darsligi necha soatga mo'ljallangan?

- a) 28
- b) 30
- c) 32
- d) 33

3. 1-sinf "Tarbiya" darsligi nechta bobdan iborat?

- a) 3
- b) 2
- c) 4
- d) 5

4. 1-sinf "Tarbiya" darsligida nechta rasm kiritilgan?

- a) 160
- b) 280
- c) 250
- d) 270

5. 1-sinf “Tarbiya” darsligida nechta rasm rassomlar tomonidan chizilgan?

- a) 150
- b) 220
- c) 250
- d) 255

6. “Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot- yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir”-ushbu fikr muallifi kim?

- a) A.Avloniy
- b) A.Navoiy
- c) A.Oripov
- d) M.Behbudiy

7. Tarbiya nima?

a) Yosh avlodni har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo‘naltirilgan faoliyat bo‘lib, shaxsni aqliy, jismoniy, ahloqiy, ma‘naviy sifatlarini shakllantirishga qartilgan jarayon

b) Avlodlar tomonidan to‘plangan bilim va madaniy qadriyatlarni uzatish jarayonidir

c) Ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchining muayyan maqsadga qaratilgan birgalikdagi faoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan yo‘llar yig‘indisi

d) Yunoncha “techne” – mahorat, san‘at

12-amaliy mashg‘ulot

2-sinf “Tarbiya” darslarini tahlil etish

Amaliy mashg‘ulot jarayonida bajariladigan topshiriqlar:

1-topshiriq. Berilgan tayanch iboralarga uch tilda lug‘at tayyorlang (o‘zbek, rus, ingliz): omad, ishonch, qat‘iyat, baxt, imkoniyat, ehtiyoj, duo, olim, yolg‘on, ziyorat, insonparvarlik, intizom.

2-topshiriq. 2-sinf “Tarbiya” darslarini tahlil etish. Mavzusini o‘zlashtirilishiga doir blis-so‘rov savollari:

1. 2-sinf tarbiya darsligi necha soatga mo‘ljallangan?
2. Tarbiya darsligi nechta bobni o‘z ichiga oladi?
3. 2-sinf tarbiya darsligi bilan odobnoma darsligini farqlarini aytib bering.

4. 2-sinf tarbiya darsligida nechta shartli belgilar mavjud?
5. 2-sinf tarbiya darsligida nechta mavzu bor?
6. 2-sinf tarbiya darsligida o'quvchilar yilni yakunida qanday bilimlarga ega bo'lishlari talab etiladi?
7. 2-sinf odobnoma va tarbiya darsliklarini farqli tomonlarini sanab o'ting.
8. 2-sinf tarbiya darsligida 2-soatga mo'ljallangan mavzularni sanab o'ting?
9. 2-sinf tarbiya darslarida tavsiya etiladigon metodlarni sanab bering?
10. Guruhlarda ishlash metodini qo'llashdan maqsad nima?
11. Xavfsiz hudud deganda nimani tushunasiz?

3-topshiriq. 2-sin "Tarbiya" fanidan "Birovning haqi" mavzuga oid dars ishlanmasini tuzing.

4-topshiriq. Tarbiya fanini o'qitishda foydalaniladigan o'quv vositalari nomli jadvalni to'ldiring.

№	O'quv vositalari nomi	Ularning ahamiyati
1		
2		
3		
4		
5		

5-topshiriq. 2-sinf "Tarbiya" darsligidan 5 ta oddiy test, 5 ta murakkab test tuzing.

6-topshiriq. Test topshiriqlari.

1. 2-sinf "Tarbiya" darsligi necha soatdan iborat?

- a) 36
- b) 32
- c) 34
- d) 35

2. 2-sinf "Tarbiya" darsligida nazariy soatlar soni nechta?

- a) 25
- b) 26
- c) 28
- d) 27

3. 2-sinf "Tarbiya" darsligida nechta amaliy soat bor?

- a) 7
- b) 8
- c) 6
- d) 9

4. 2-sinf “Tarbiya” darsligida nechta bob mavjud?

- a) 4
- b) 5
- c) 6
- d) 7

5. 2-sinf “Tarbiya” darsligining 1-bobi nima deb nomlanadi?

- a) Imkoniyatlar eshigi
- b) Tejamkorlik
- c) Oiladagi munosabatlar
- d) O‘zbekiston farzandiman

6. 2-sinf “Tarbiya” darsligining 2-bobi nima deb nomlanadi?

- a) Imkoniyatlar eshigi
- b) Tejamkorlik
- c) Oiladagi munosabatlar
- d) O‘zbekiston farzandiman

7. 2-sinf “Tarbiya” darsligining 4-bobi nima deb nomlanadi?

- a) Imkoniyatlar eshigi
- b) Tartib –intizom hamrohing bo‘lsin har on
- c) Oiladagi munosabatlar
- d) Hamjihatlik-davlat, ahillik-hikmat

8. 2-sinf “Tarbiya” darsligining 3-bobi nima deb nomlanadi?

- a) Imkoniyatlar eshigi
- b) Tartib –intizom hamrohing bo‘lsin har on
- c) Oiladagi munosabatlar
- d) Hamjihatlik-davlat, ahillik-hikmat

9. 2-sinf “Tarbiya” darsligida nechta shartli belgi bor?

- a) 5
- b) 6
- c) 7
- d) 8

10. 2-sinf “Tarbiya” darsligida jami nechta rasm bor?

- a) 140
- b) 160
- c) 170
- d) 180

11. 2-sinf “Tarbiya” darsligida jami nechta rasm rassomlar tomonidan chizilgan?

- a) 120
- b) 130

c) 122

d) 132

12. 2-sinf “Tarbiya” darsligini “Odobnoma” bilan solishtirganda “Odobnoma”da nechta rasm bor?

a) 60

b) 66

c) 70

d) 75

13. 2-sinf “Tarbiya” darsligida ikki soatga mo‘ljallangan mavzular soni nechta?

a) 6

b) 7

c) 8

d) 9

14. 2-sinf “Tarbiya” darsligida tavsiya etilgan metodlar to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni toping? 1.Guruhlash; 2. Aqliy hujum; 3. Savol-javob; 4. Venn diagrammasi; 5. BBB; 6.Tarmoqlash; 7. Vaziyatlar tahlili; 8. Test; 9. Esse; 10. Loyihalash metodi.

a) 1,3,4,6,7,9,10

b) 2,3,4,6,7,8,9,10

c) 1,2,3,4,6,7,9,10

d) 1,3,4,5,6,7,9,10

13-amaliy mashg‘ulot

3-sinf “Tarbiya” darslarini tashkil etish

Amaliy mashg‘ulot jarayonida bajariladigan topshiriqlar:

1-topshiriq. Berilgan tayanch iboralarga uch tilda lug‘at tayyorlang (o‘zbek, rus, ingliz): etika, tashqi ko‘rinish etikasi, kommunikativlik, kechirimlilik, shukronalik, sabr qanoat, ehtiyotkorlik, qat’iyatlilik.

2-topshiriq. Quyidagi savollarga javob yozing:

1. 3-sinf “Tarbiya” darsligi necha soatga mo‘ljallangan.

2. 3-sinf “Tarbiya” darsligi nechta bobni o‘z ichiga oladi.

3. 3-sinf “Tarbiya” darsligi bilan odobnoma darsligini farqlarini sanab bering.

4. Bilim va odob- ison ziynati mavzusi darslikni qaysi bobiga to‘g‘ri keladi?

5. 3-sinf “Tarbiya” darsida O‘quvchilarni o‘quv faoliyatiga qanday minimum talablar qo‘yilgan.

6. Ikki soatga mo‘ljallangan mavzularni sanab bering.

7. 3-sinf “Tarbiya” darsligida qo‘llash uchun tavsiya etiladigan zamonaviy metodlarni sanab bering?

8. T-jadval orqali o‘quvchilar qanday ilimlarga ega bo‘lishlari mumkin.

9. O‘tkir Hoshimovning “Girgitton buvining yapon nabirasi” hikoyasi orqali o‘quvchilar halqimizning qanday qadriyat va urf-odatlarini bilan tanishadilar?

10. Siz shu haftada yoki shu oyda qaysi adibning badiiy asarini o‘qib tugatdingiz?

3-topshiriq. 3-sinf “Tarbiya” darsligida berilgan “Yaxshi va yomon odatlar” mavzusiga tayyorlangan dars ishlanmasi bilan tanishib chiqing. Shu asosda 3-sinf mavzularidan birortasiga dars ishlanmasi tayyorlang.

Fan: 3-sinf “Tarbiya” fani

Sana: “_____” _____2022 yil.

Mavzu: Yaxshi va yomon odatlar

Darsning maqsadi:

Talimiy: o‘quvchilarga bugungi mavzuga oid bilim va tushunchalar berish. Yuksak insoniy fazilatlar mohiyatini anglatish, ularga ongli munosabatda bo‘lish, hamma millat vakillariga yaxshi munosabatda bo‘lish bilimini shakllantirish.

TK2: axborot manbalari (televizor, telefon)dan to‘g‘ri foydalana olish.

FK1: suhbatdoshni tinglash, sukut saqlash va o‘z fikrini to‘g‘ri bayon qilish.

Tarbiyaviy: odob – inson ko‘rki va ma’naviy boyligi ekanligini va mutafakkir ma’rifatparvarlar asarlaridagi hikmat, rivoyat va o‘g‘itlarini, milliy sharqona odob-axloq qoidalari, fazilatlarini, o‘zbekona urf-odat va an’analarning milliy xususiyatlarini farqlash va amalga oshirish usullarini o‘rgatish.

TK4: Davlat ramzlariga hurmat va ehtirom ko‘rsatish.

Rivojlantiruvchi: Dars jarayonida egallangan bilimlarni aniqlash, umumlashtirish, mustahkamlash.

FK1: O‘zbekistonda yashayotgan millatlar va elatlar haqida ma’lumot bera olish

Dars uslubi: Yangi bilim beruvchi, muloqot, innovatsion texnologiyalardan foydalanish.

Metod: Suhbat, guruhda ishlash, Kim chaqqon o‘yini, quvnoq svetofor o‘yinlari.

Dars jihozlari: tarqatma materiallar, proyektor, kompyuter, mavzuga oid rasmlar.

Baholash: o‘quvchilar 5 ballik tizimda baholanadi.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

1. Salomlashish

2. Navbatchi axboroti

3. Sinf va o'quvchilarning darsga tayyorgarligi tekshiriladi

Darsning borishi

Darsning texnologik xaritasi

1. Tashkiliy qism: 5 daqiqa
2. O'tilgan mavzuni takrorlash:7 daqiqa
3. Yangi mavzu bayoni:21 daqiqa
4. Darsni mustahkamlash:9 daqiqa
5. Baholash:2 daqiqa
6. Uyga Vazifa:1 daqiqa

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

O'tilgan mavzu yuzasidan suhbat, savol-javob o'tkaziladi. O'tilgan mavzuga oid savol va topshiriqlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar topshiriqlarni bajarib, o'tilgan mavzuni qismarga bo'lib gapirishadi, xulosa chiqarishadi, o'qituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

1. Xavfsizlik, ogohlik, hushyor bo'lish deganda nimani tushunasiz?
2. Inson o'zining havfsizligini qanday ta'minlashi kerak.
3. Odamlar nimadan ogoh bo'lishlari kerak.
4. Xavfsiz hudud deganda nimani tushunasiz?

III. Yangi mavzu bayoni.



Yaxshi va yomon odatlar.

1. Yaxshi odatlar deganda nimani tushunasiz?
2. Sizda qanday yaxshi va yomon odatlar borligini bilasizmi?
3. Yomon odatlarni qanday yo'qotish mumkin.

22-23-MAVZU: YAXSHI VA YOMON ODATLAR



Oilamiz bilan dam olish uchun dalahovliga bordik. Yo'lda ketayotganimizda, avtomobilimizning oynasiga nimadir kelib tegdi. Yo'l chetiga to'xtab qaragan edik, oynaga tekkan narsa bizdan oldinda ketayotgan avtomobilning oynasidan otilgan bo'sh plastik idish ekan...



Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar:



1. Siz nima deb o'ylaysiz, oldindagi avtomobil yo'lovchilari to'g'ri ish qilganmi?
2. Yurib ketayotgan avtomobilning oynasidan turli narsalarni tashlash mumkinmi?
3. Chiqindilarni qayerga va qay tartibda tashlashni bilasizmi?

KO'CHADA YURGANINGIZDA USHBU
QOIDALARGA AMAL QILING



Kattalarga yo'l bering



Kattalarga joy bering



Baland ovozda
gaplashmang



Atrofni iflos
qilmang






Birovni qo'lingiz bilan
ko'rsatmang




“Quvnoq svetofor” metodi
(yaxshi odatlarni yashil, yomon odatlarni qizil rangda bo‘yang)







Qaysi idishga qaysi chiqindilarni solasiz?



VI. Uyga vazifa:

Uyga vazifa bugungi mavzuni o'qib kelish, qayta hikoyalashga tayyorlanish, xulosa chiqarish.

4-topshiriq. «Skarabey» texnologiyasi.

«Skarabey» interaktiv texnologiya bo'lib, u o'quvchilarda fikriy bog'liqlik, mantiqiy xotiraning rivojlanishiga imkoniyat yaratadi, qandaydir muommoni hal qilishda o'z fikrini ochiq va erkin ifodalash mahoratini shakllantiradi. Mazkur texnologiya o'quvchilarga mustaqil ravishda bilimning sifati va saviyasini xolis baholash, o'rganilayotgan mavzu haqidagi tushuncha va tasavvurlarni aniqlash imkonini beradi. U, ayni paytda, turli g'oyalarni ifodalash hamda ular orasidagi bog'liqliklarni aniqlashga imkon yaratadi. «Skarabey» texnologiyasi har tomonlama bo'lib, undan o'quv materialining turli bosqichlarini o'rganishda foydalaniladi:

- ✓ boshida-o'quv faoliyatini rag'batlantirish sifatida («aqliy hujum»);
- ✓ mavzuni o'rganish jarayonida-uning mohiyati, tuzilishi va mazmunini belgilash; ular orasidagi asosiy qismlar, tushunchalar, aloqalar xarakterini aniqlash; mavzuni yanada chuqurroq o'rganish, yangi jihatlarini ko'rsatish;

✓ oxirida-olingan bilimlarni mustahkamlash va yakunlash maqsadida. «Skarabey» texnologiyasi o‘quvchilar tomonidan oson qabul qilinadi, chunki u faoliyatning fikrlash, bilish xususiyatlari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan. U o‘quvchilar tajribasidan foydalanishni ko‘zda tutadi, reflektiv kuzatishlarni amalga oshiradi, faol ijodiy izlash va fikriy tajriba o‘tkazish imkoniyatlariga ega. Mazkur texnologiyaning ayrim afzalliklari sifatida idrok qilishni yengillashtiruvchi chizma shakllardan foydalanishni ko‘rsatish mumkin.

«Skarabey» alohida ishlarda, kichik guruhlarda hamda o‘quv jamoalarida qo‘llanilishi mumkin.

Ta’limdan tashqari mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- ✓ o‘zgalar fikriga hurmat;
- ✓ jamoa bilan ishlash mahorati;
- ✓ faollik;
- ✓ xushmuomalalik;
- ✓ ishga ijodiy yondashish;
- ✓ imkoniyatlarini ko‘rsatish ehtiyoji;
- ✓ o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini tekshirishga yordam beradi;
- ✓ «men»ligini ifodalashga imkon beradi;
- ✓ o‘z faoliyati natijalariga ma’sullik va qiziqish uyg‘otadi.

Asosiy tushunchalari quyidagilar: Assotsiatsiya - mantiqiy bog‘liqlik bo‘lib, sezgilar, tasavvurlar, idrok qilish, g‘oyalar va boshqalar orasida hosil qilinuvchi mantiqiy aloqadir. Zanjirlash (muayyan tartib) - ahamiyati, muhimligi, mazmuni darajasiga qarab tartiblash.

5-topshiriq. “O‘quvchilarning o‘quv faoliyatini nazorat qilish turlari, shakl va metodlari” mavzusidagi chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi – 1) og‘zaki; 2) test; 3) uy vazifasi; 4) ommaviy; 5) o‘z-o‘zini nazorat qilish; 6) yozma; 7) individual; 8) amaliy; 9) joriy; 10) aralash; 11) oraliq; 12) guruhli; 13) yakuniy.

Topshiriqni bajarishga doir ko‘rsatma:

- 1) chalkashtirilgan holda berilgan ta’lim metodlari bilan tanishing;
- 2) daftaringizga metodlarni jadvalda ko‘rsatilganidek, mos ustunga yozib chiqing va asoslab bering.

№	Nazorat turlari	Nazorat shakllari	Nazorat metodlari
1			
2			
3			
4			

6-topshiriq. 3-sinf “Tarbiya” darsligidan 5 ta oddiy test, 5 ta murakkab test tuzing.

7-topshiriq. Test topshiriqlari.

1. 3-sinf “Tarbiya” darsligi nechta betdan iborat?

- a) 97 bet
- b) 80 bet
- c) 120 bet
- d) 60 bet

2. 3-sinf “Tarbiya” darsligining I bobining nomi nima?

- a) Orzular maqsadlar sari yetaklaydi.
- b) Bilim va odob-inson ziyanti.
- c) Rejali ish – bejog‘liq ish.
- d) Tejamkorlik.

3. 3-sinf “Tarbiya” darsligida shartli belgilar nechtadan iborat?

- a) 6 ta
- b) 5 ta
- c) 4 ta
- d) 3 ta

4. 3-sinf “Tarbiya” darsligidagi ilk mavzusining nomi nima?

- a) Munosib farzand
- b) Orzular maqsadlar sari yetaklaydi.
- c) Muvaffaqiyat-qat‘iyat va mehnat natijasi.
- d) Maqsad va imkoniyat.

5. 3-sinf “Tarbiya” darsligidagi 1-mavzu: Munosib farzandning mazmuni quyidagilarni qaysi birida toliq ko‘rsatilgan?

- a) Turkiyada o‘tkazilgan fan olimpiada haqida
- b) Bolalarning muvaffaqiyati haqida.
- c) Tinimsiz mehnat, muntazam darslar haqida.
- d) Bolalar orzusi haqida.

6. Baxt va muvaffaqiyat sirlari deb qaysi fanga ta’rif berilgan?

- a) Boshlang‘ich ta’limda tarbiya faniga
- b) Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi innovatsiyasi va integratsiyasi faniga
- c) Texnologiya va uni o‘qitish metodiksi
- d) Oliy matematikaga

7. Muvaffaqiyat - qat‘iyat va mehnat natijasi mavzusidagi birgalikda bajaramiz bo‘limida qaysi fanni misol qilib topshiriq berilgan?

- a) Texnologiya va uni o‘qitish metodiksi
- b) Boshlang‘ich ta’limda tarbiya faniga
- c) Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi innovatsiyasi va integratsiyasi faniga

d) Oliy matematikaga

8. Darsligda “Bankir” metodi faoydalanilganmi?

a) Ha foydalanilgan hattoki kredit berish yoki shartnoma tuzish haqida ham shartlar berilgan.

b) Yoq foydalanilmagan, u metodni bu fanga aloqasi yoq.

c) Ha foydalanilgan faqat bu metodni yuzaki aytilgan

d) Yoq foydalanilmagan bunga sabab esa bolalarning yoshiga to‘g‘ri kelmasligi bo‘lgan.

9. Maqsad va imkoniyat mavzusida Azizxon Alimovning orzusi nima bo‘lgan?

a) Qandolatchilik fabrikasini qurish

b) Rassom bo‘lish

c) Tadbirkor bo‘lish

d) Favrika orqali bandlikni ta‘minlash

10. Darsligda 7 ta halqacha chizib ularni eng kattasini “Ona Yer”, undan sal kichigini “Mening qit’am” undan kichikrog‘ini “Mening Vatanim”, undan sal kichigini “Mening viloyatim” undan sal kichigini “Mening shahrim, (tumanim)”, undan ham kichigini “Mening mahallam”, eng kichkinasini esa “Mening uyim” deb yozib keyin ularning barchasini yig‘ib doska yoniga ilib qoyadigan emblema yasash metodining nomini toping?

a) Dunyodagi mening makonim

b) 5 ta halqa

c) Ajoyib emblem

d) Aqlni charxlash

14-amaliy mashg‘ulot

4-sinf “Tarbiya” darsligini tahlil qilish

Amaliy mashg‘ulot jarayonida bajariladigan topshiriqlar:

1-topshiriq. Berilgan tayanch iboralarga uch tilda lug‘at tayyorlang (o‘zbek, rus, ingliz): arfest, assotsiativ, vatanparvarlik, hamkorlik, etika, estetika, sog‘lom fikr, ma‘naviy meros, baxt, qo‘rg‘on.

2-topshiriq. Quyidagi savollarga javob yozing.

1. 4-sinf “Tarbiya” darsligi necha soatga mo‘ljallangan.

2. 4-sinf “Tarbiya” darsligi nechta bobni o‘z ichiga oladi.

3. 4-sinf “Tarbiya” darsligi bilan odobnoma darsligini farqlarini sanab bering.

4. Axloq inson ko‘rki bobi darslikni nechanchi bobiga to‘g‘ri keladi?

5. 4-sinf “Tarbiya” darsida o‘quvchilarni o‘quv faoliyatiga qanday minimum talablar qo‘yilgan.

6. Ikki soatga mo‘ljallangan mavzularni sanab bering.

7. 4-sinf darsligida qo‘llash uchun tavsiya etiladigon zamonaviy metodlarni sanab bering?

8. 4-sinf tarbiya darsligida nechta shartli belgilar mavjud.

9. Assotsiativ metodni qo‘llashdan maqsad nima deb oylaysiz?

10. Arfest metodi o‘quvhida qanday shahsiy sifatlarni shakllantiradi?

11. Zorblar multfilimi darslikdagi aynan qaysi mavzular uchun mo‘ljallangan?

12. 4-sinf “Tarbiya” darsligida jami nechta takrorlash darsi keltirilgan?

3-topshiriq. «Insert» metodi.

Guruh talabarlari guruhlarga bo‘linadilar, guruhlar nomlanadi. O‘qituvchi yangi mavzuni e‘lon qiladi va har bir guruhdan yangi mavzuga oid ikkitadan fikr bildirishlarini so‘raydi. Guruhlar navbati bilan (ushbu jarayonda guruhning barcha a‘zolari faol ishtirok etishlarini ta‘minlash maqsadga muvofiq) fikr bildiradilar. Bayon etilgan fikrlar yozuv taxtasiga yozib boriladi. Faoliyat yakunlangach, o‘qituvchi yangi mavzu mazmuni yoritilgan matnni o‘quvchilarga tarqatadi. So‘ngra shunday topshiriq beriladi:

Topshiriq:

a) Matn bilan tanishib chiqing;

b) Matnning har bir qatoriga quyidagi belgilarni qo‘yib chiqing:

Z - matnda guruhlar tomonidan bildirilgan fikr o‘z aksini topgan bo‘lsa;

S - matnda guruxlar tomonidan bildirilmagan fikr yuritilgan bo‘lsa;

D - matnda bildirilgan fikrlarga zid fikrlar mavjud bo‘lsa

? - matn bilan tanishish jarayonida tushunmovchiliklar yuzaga kelsa.

So‘ngra guruh a‘zolari shaxsiy qarashlarini o‘zaro o‘rtoqlashadilar, guruh bo‘yicha belgilar soni umumlashtiriladi. Liderlar vositasida har bir belgining miqdori bayon etiladi va izohlanadi. O‘qituvchi guruhlar tomonidan qayd etilgan sonlarni ularning nomlari yozilgan ustunga yozib boradi.

O‘qituvchi har bir guruh lideri fikrini tugatgach, yuzaga kelgan qarama qarshilik va tushunmovchiliklarni o‘quvchilar to‘g‘ri xal etishlariga va tushunib olishlariga yordam beradi.

Shundan so‘ng guruhlar darslikda berilgan matn bilan tanishib chiqib, asosiy tushunchalarni ajratidalar ular o‘rtasidagi mantiqiy munosabatlarni ochib berishga harakat qiladilar (modellashtiradilar). Guruhlar tomonidan ilgari surilgan fikrlar umumlashtirilib, liderlar tomonidan guruh jamoasida yetkaziladi.

4-topshiriq. Venn diagrammasi orqali barcha 1-2-3-4-sinf tarbiya darsligini o‘xshash tomonlarini toping.

5-topshiriq. “3x4” texnologiyasi.

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu mashg‘ulot talaba (yoki o‘quvchi) larni aniq bir muammoni yakka holda (yoki kichik jamoa bo‘lib fikrlab hal etish,echimini topish, ko‘p fikrlardan keragini tanlash, tanlab olingan fikrlarni ummlashtirish va ular asosida qo‘yilgan muammo(yoki mavzu) yuzasidan aniq bir tushuncha hosil qilishga, shuningdek, fikrlarni ma’qullay olishga o‘rgatadi. Bu texnologiya talaba (yoki o‘quvchi)lar bilan avval yakka holda,so‘ngra ularni kichik guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o‘tkaziladi.

Texnologiyaning maqsadi: talaba (yoki o‘quvchi)larning erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoat bo‘lib ishlashga,intilishga; fikrlashni jamlab, ularni nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga; jamoaga o‘z fikrini o‘tkazishga, uni ma’qullashga; qo‘yilgan muammoni yechishda va mavzuga umumiy tushuncha berishda o‘tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo‘llay olish o‘rganish.

4-sinf tarbiya darsida Zorblar multfilimini o‘qituvchi tomonidan qo‘yib berilishini to‘g‘ri deb o‘ylaysizmi?

Xa (Fikringizni asoslab bering)	Yo‘q (Fikringizni asoslab bering)

6-topshiriq. Test topshiriqlari.

1. 4-sinf “Tarbiya” darsligi necha soatga mo‘ljallangan?

- a) 35
- b) 36
- c) 33
- d) 34

2. 4-sinf “Tarbiya” darsligida nechta nazariy dars bor?

- a) 25
- b) 29
- c) 24
- d) 28

3. 4-sinf “Tarbiya” darsligi nechta bobdan iborat?

- a) 3
- b) 4
- c) 5
- d) 2

4. 4-sinf “Tarbiya” darsligi 1-bobi necha soatga mo‘ljallangan?

- a) 10
- b) 8
- c) 9
- d) 12

5. 4-sinf “Tarbiya” darsligi 2-bobi necha soatga mo‘ljallangan?

- a) 15
- b) 16
- c) 17
- d) 12

6. 4-sinf “Tarbiya” darsligida nechta rasm rassomlar tomonidan ishlangan?

- a) 120
- b) 115
- c) 125
- d) 110

7. 4-sinf “Tarbiya” darsligida nechta 2 soatga mo‘ljallangan mavzu bor?

- a) 5
- b) 4
- c) 6
- d) 7

8. 4-sinf “Tarbiya” darsligida nechtasi fotorasmlar?

- a) 45
- b) 19
- c) 15
- d) 110

15-amaliy mashg‘ulot

Innovatsion yondashuv asosida tarbiya darslarini tashkil etish.


Amaliy mashg‘ulot jarayonida bajariladigan topshiriqlar:

1-topshiriq. Berilgan tayanch iboralarga uch tilda lug‘at tayyorlang (o‘zbek, rus, ingliz): gumannistik pedagogika, kommunikatsiya, shakl, metod, vosita, boshqaruv, interfaol metodlar, pedagogik texnologiya, aspect, ta’limning texnik vositalar, soddalashtirilgan programma, modulli o‘qitish, tarbiyaviy texnologiya, konflikt, tarmoqlanuvchi programma, ravon programma.

2-topshiriq. «Innovatsion yondashuv asosida tarbiya darslarini tashkil etish» mavzusiga doir blits so‘rov savollari:

1. Gumannistik pedagogika nima?
2. Tarbiyaviy texnologiya turlari mazmuni haqida gapirib bering.
3. Interfaol metodlarni anab bering?
4. Ta’limning texnik vositalari nima?
5. V.F. Shatalov-bahoni o‘quvchi uchun ahamiyati haqida qanday fikr bildirgan
6. Modulli o‘qitish nima?
7. Odimlovchi o‘quv tadbiri nima?
8. Innovatsiya nima?
9. Innovatsion texnologiyalar asosida dars o‘tishning afzalliklari nimada?

3-topshiriq. Programmalashtirilgan o‘qitish texnologiyasini ilmiy asoslash qanday ta’limiy programmalarini farqlash imkoniyatini beradi. Katakchalarni to‘ldiring



4-topshiriq. «Innovatsion yondashuv asosida tarbiya darslarini tashkil etish» mavzuiga oid 5 ta oddiy test, 5 ta murakkab test tuzing.

